

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA‘LIMI VAZIRLIGI
ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI

O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI FAKULTETI

O‘ZBEK TILI O‘QITISH METODIKASI
KAFEDRASI

SHARQ TILLARI

(ARAB TILI)

fanidan

o‘quv - uslubiy qo‘llanma

JIZZAX 2017

Ushbu uslubiy qo‘lanma davlat ta‘limi standartlari asosida O‘zbekiston Respublikasi Oliy va O‘rta maxsus ta‘lim Vazirligidan ro‘yxatdan o‘tgan va namunaviy fan dasturi asosida ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi

Jizzax davlat pedagogika instituti “O‘zbek tili o‘qitish metodikasi” kafedrasida katta o‘qituvchi, f.f.n. Jo‘rayev J.A.

Taqrizhchilar

Jizzax Politexnika instituti “Xorijiy tillar” kafedrasida mudiri, katta o‘qituvchi Boysariyev N.

Jizzax davlat pedagogika instituti “O‘zbek tili o‘qitish metodikasi” kafedrasida mudiri, f.f.n. Soyipov S.

Uslubiy qo‘llanma Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax Davlat pedagogika institutining Ilmiy Kengashida ko‘rib chiqilgan va tasdiqlangan. 2016 yil dekabr oyi № 2 sonli bayonnomasi.

Davlat ta‘limi standartlari

ARAB TILI: eski o‘zbek tiliga arab tilidano‘zlashgan so‘zlar. Arab tili islom tili sifatida. Eski o‘zbek tiliga arab tilidan o‘zlashgan so‘z va iboralarning asosiy grammatik, semantik, leksik, morfologik va sintaktik xususiyatlari. Arab tilida so‘z yasash tizimi. Eski o‘zbek va hozirgi o‘zbek tilidagi arab tili o‘zlashmalarining qiyosiy tahlili.

KIRISH

Jahon tillaridan biri deb e'tirof etilgan arab tili insoniyat taraqqiyoti tarixida g'oyat muhim o'rin egallagan. Miloddan keyingi dastlabki asrlarda Arabiston yarimorolining janubiy mintaqalaridagi qabilalargagina xos bo'lgan bu til Islom dini shakllanishi va tarqalishi bilan Yaqin va O'rta Sharq, Shimoliy Afrika xalqlarining ona tili bo'lib qoldi. Hatto Yevropa qit'asining g'arbida ham, hozirgi Ispaniya hududida arab davlati-«Andalusiya» tashkil topgan edi.

Arab tili Atlantik okeandan qariyb Tinch okeangacha cho'zilgan juda katta mintaqada yashaydigan xalqlar uchun ona tiliga aylanmasa-da, xalqaro munosabatlar va siyosat tili, ilm-fan, madaniyat tili sifatida tarqaldi.

Ma'lumki, yurtimizda turli ilm-fan sohalarida o'zining benazir ma'naviy merosini qoldirgan butun dunyo e'tirof etgan, xossatan arab xalqlari olamiga yuksak obro'-e'tibor qozongan ulug' vatandoshlarimiz, hadis ilmining sultoni imom al-Buxoriy, Abu Muso at -Termiziy, Muso al-Xorazmiy, Mahmud az-Zamaxshariy, Burhoniddin Marg'inoniy, Abu Mansur al-Moturidiy, Bahouddin Naqshbandiy, Ahmad al-Farg'oniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayxon al-Beruniy, Mir Alisher NAvoiy, Mirzo Ulug'beklar va Zahiriddin Muhammad Bobur kabi ko'plab siz-bizning ajdodlarimiz algebra, handasa, falakiyot, tibbiyot, din, she'riyat, adabiyot, falsafa, tarix, tilshunoslik, huquqshunoslik, fizika hamda kimyo sohalarida albatta arab tilidan ajralmagan holda ilm cho'qqilarini zabt etganlar. Mazkur ulamolardan borortasini olib qaramaylik ular arab tilida albatta ijod qilgan yoki ilmiy asarini yozib qoldirgan bo'ladi.

O'zligimizni anglash, kelajakka intilgan umumbashar karvonida o'zimizga munosib o'rin egallash va uni qo'ldan chiqarmaslik uchun, o'sib kelayotgan avlodni ma'naviy-axloqiy pok, ilm-ma'rifatga chanqoq, Vataniga, xalqiga sadoqat ruhida tarbiyalashimiz uchun ajdodlarimizdan qolgan nihoyatda boy ilmiy-adabiy merosni xalqimizga yetkazishimiz, farzandlarimiz ongiga singdirishimiz lozim. Bu esa arab tilini o'rganish va o'rgatishni taqozo qiladi.

Arab davlatlarining, ya'ni arab tilini o'zining rasmiy tili deb e'lon qilgan davlatlarning hozirgi kunda ham dunyoning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy xaritalaridagi mavqei muhim ahamiyatga ega. Fors ko'rfazi, Hind okeani, Arab dengizi, qizil dengiz, O'rta Yer dengizi, Atlantik okean sohillariga joylashgan, Osiyo qit'asining janubi-g'arbiy, Afrika qit'asining shimoliy mintaqalarini egallab turgan, aholisining umumiy soni 190 milliondan ortadigan 22 mustaqil davlat dunyoda kechayotgan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Arab tili genealogik tasnifga ko'ra somiy-xomiy tillar oilasining somiy tillar guruhiga kiradi. Bu guruh yana ivrit (yahudiy), oysor, amhar va xorari tillarini o'z ichiga oladi.

Klassik arab tili - Qur'oni karim tili asosida zamonaviy arab adabiy tili shakllangan. Barcha arab davlatlari rasmiy muomalalarini shu tilda – zamonaviy adabiy tilda olib boradi, ommaviy axborot vositalari – matbuot, radio, televideniye shu tilni ishlatadi.

Ammo arablarning kundalik hayotlarida ishlatadigan so'zlashuv tillari arab adabiy tilidan va turli mintaqalardagi arablarning tillari bir-biridan farq qiladi. Bu farq ayrim hududlarda shu qadar kattaki, xalqning savodsiz qismi o'z davlatining rasmiy tilini bazo'r tushunishi, hatto tushunolmay qolishi ham mumkin.

Bu murakkab ijtimoiy muammoning kelib chiqishiga sabab bo'lgan omillar asosan quyidagilar:

1) Adabiy tilning asosi bo'lgan qur'oni karim Hijoz arablarining quraysh ismli qabilasi tilida nozil bo'lgan. Ayni zamonda boshqa arab qabilalari ham bo'lgan-ki, ularning tillari qurayshiylarnikidan farq qilgan. Qurayshiylarning o'sha paytdagi tili qur'oni karim oyatlarida muhrlanib, asrlar davomida o'zgarishsiz saqlab kelinmoqda. Boshqa tillar esa tillar rivojining umumiy qonuniyatlariga ko'ra rivojlanib, o'zgarib boryapti. Oqibatda, o'rtadagi farq muttasil ortib bormoqda.

2) Arablar kelib chiqishi jihatidan ikki toifaga bo'linadilar: 1. العرب العاربة - asl arablar (masalan, Hijoz arablari) va 2. العرب المستعربة - arablashgan arablar, ya'ni Islom kirishidan avval arab bo'lmagan, musulmon bo'lganidan keyin vaqt o'tishi bilan asl millatini unutib, o'zini arab hisoblay boshlagan xalqlar (masalan, Shimoliy Afrikada yashovchi arablar). «Arablashgan arablar»ning tillariga avvalgi ona tillari ta'sir ko'rsatmay qolishi mumkin emas edi, albatta. Til va shevalar o'rtasidagi tafovutning anchagina qismi shu omil bilan bog'liq.

3) XV asrdan boshlab arablar yashaydigan mintaqalarning talaygina qismi Usmoniy turklar tasarrufida bo'ldi. XVIII asrdan XX asrning ikkinchi yarimlarigacha arab diyorlarida Ovruponing mustamlakachi davlatlari (Angliya, Fransiya, Germaniya, Italiya kabi) o'z hukmlarini o'tkazdilar. Bu ham tilda o'z aksini topmay qolmaydi.

Xulosa qilib aytganda «arab tili» tushunchasi hozirgi kunda bir-biridan farqli bo'lgan kamida uchta tilni qamrab oladi:

1) Klassik arab tili - qur'oni karim, Hadisi shariflar, Islomgacha bo'lgan «johiliya» va ilk Islom davri adabiyoti tili;

2) Hozirgi zamon arab adabiy tili – klassik til asosida rivojlangan, zamonaviy taraqqiyotni o'zida aks ettirgan, hamma arab davlatlari tomonidan rasmiy til sifatida e'tirof etilgan til;

3) Har bir mintaqaning o'ziga xos bo'lgan jonli so'zlashuv tili-lahjalar va shevalar.

Arab tili fanini o'qitish o'zining tub mohiyatiga ko'ra milliy ma'naviyatimiz, urf-odatlarimiz, diniy marosimlarimiz xususiyatlarni namoyon etish bilan birga ijtimoiy-falsafiy, adabiy-tarixiy maqsadning amalga oshishiga xizmat qiladi. Shu

bois arab tili fani tarix, o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi doirasidagi fanlarni chuqur o'rganishda muhim yo'nalish sifatida o'rgatiladi. Milliy merosimizni o'rganishda falsafa, tarix, til va adabiyot fanlarini birlamchi asos ekanligini hisobga oladigan bo'lsak, arab tilini o'rganish ustivor vazifa qilib belgilanadi. Chunki 1300 yillik tariximizning asosiy manbalari arab tilida yoki arab alifbosiga asoslangan turkiy yoki forsiy tilda yozilgan. Vaholanki, o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchisining birinchi "qurol" so'z va undan to'g'ri va ijobiy foydalana olishdir. Binobarin adabiy til so'z boyligimizning aksariyat foizini arab va fors tilidan kirib kelgan so'zlar tashkil etadi. Qolaversa buyuk mutafakkirlarimiz, shoir va yozuvchilarimizning bizga qoldirgan boy merosini, hatto ular lotin yoki kiril grafikasida yozilgan yoki tarjima qilingan bo'lsa ham ulardagi ma'no va mazmun mohiyatini chuqur anglab o'quvchi shuuriga yetkazish uchun ham o'zbek filologiyasi yo'nalishidagi mutaxassis yoki tarixchi arab tilidan xabardor bo'lishi kerak.

Adabiy merosimizning aksariyati arab tilida bitilgan bo'lib, ko'plab tarixiy manbalarimiz islom dini tili bo'lgan arab tiliga bevosita taaluqli. O'zbek tili va adabiyoti tarixini o'rganayotgan talabalar bu tilni bilish muhim ahamiyat kasb etadi. O'z tariximizni biz, albatta, adabiy, ilmiy merosimizga tayanib o'rganamiz. Bu manbalar esa, eski o'zbek yozuvi bilan birga arab tilida ham yozilgan. Arab (sharq tillari) tilini o'qitishdan maqsad talabalarni bu tilda erkin so'zlasha olishi, yoza olishi va eng muhimi boy ma'naviy merosimizning shu tilda bitilgan namunalarini o'qiy olishga o'rgatishdan iborat. Talaba arab tilini o'rganar ekan o'z ona tiliga o'zlashib qolgan arabiy so'z va iboralarni mazmunan nahil qila olish, bu tilda bitilgan manbalarni tadqiq qilish malakalarini egallashi zarur.

BOSHLANG‘ICH QISM الْقِسْمُ الْإِبْتِدَائِيُّ

YOZUV, FONETIKA VA MORFOLOGIYA

Tillarni o‘rganadigan fan tilshunoslik ilmi (العلم اللغوة) deb ataladi. Uning:

1. العلم الصوت Fonetika -tovush va uning yozuvdagi ifodasini o‘rganuvchi fan;
2. الصرف Morfologiya -so‘zlarni o‘rganuvchi fan;
3. النحو Sintaksis -gap tuzilishini o‘rganuvchi fan turlari bor.

BIRINCHI DARS

Arab alifbosi

Arab alifbosi 28 ta undosh harfdan iborat. Yozuvda bu harflar 28 ta undosh tovushni ifodalaydi. Ularning ichidagi 3 ta unlisifat undosh, 3 ta uzun unli tovushlarni ham ifoda etadi.

Undosh harflar

Undosh harfning 4 ta: mustaqil, so‘z boshida, so‘z o‘rtasida va so‘z oxirida ko‘rinishlari bor. Arab harfi alifbodagi boshqa harflar bilan ikki tomoni yoki faqat o‘ng tomoni bilan birikadi. Alifbodagi 28 ta harfning 22 tasi boshqa harfga ikki tomoni bilan birikadi. Ular to‘rt ko‘rinishli harflardir. qolgan 6 tasi boshqa harfga faqat bir (o‘ng) tomoni bilan birikadi. Ular ikki ko‘rinishli (ya‘ni mustaqil holatdagi ko‘rinishga va so‘z boshi, o‘rtasi va oxiridagi ko‘rinishlari bir xil shaklga ega bo‘lgan) harflardir. Bir so‘zda ketma-ket kelgan ikki ko‘rinishli harflar bir-biriga qo‘shilmay yoziladi.

Unli tovushlar

Arab tilida 6 ta unli tovush bor. Ular uchta uzun-«a:», «i:», «u:» va uchta qisqa-«a», «i», «u» unli tovushlaridir. Uzun unlilar alifbodagi 3 ta undosh harf yordamida ifodalanadi. Ular qisqa unliga qaraganda cho‘zibroq talaffuz qilinadi. Alifboda qisqa unlini ifoda etadigan harflar yo‘q. qisqa unlilar yozuvda harakatlar deb ataladigan belgilar bilan belgilanadi. Harakatlar qur‘oni karimda, darslik va lug‘atlarda to‘g‘ri o‘qishga o‘rgatish maqsadida qo‘yiladi. Zamonaviy arab adabiyoti va vaqtli matbuot yozuvlarida harakatlar qo‘yilmaydi.

Unlilarning uzun yoki qisqaligiga rioya qilmaslik so‘zlarning ma‘nolarini tubdan o‘zgartirib yuboradi!!!

Arab yozuvi

Arab yozuvi o'ngdan chapga qarab yoziladi, bo'g'in ko'chirilmaydi. Harflar satr ustiga yoki satr ostiga yozilishi bilan ham o'zaro farqlanadi va bir-biriga kichkina chiziqcha bilan birikadi.

Arab yozuvining bir necha turlari mavjud bo'lib, ular kufiy, suls, riq'a, nasx, ta'liyyq, nasta'liq va rayhoniy kabilardir.

ARAB ALIFBOSI HARFLARI (UMUMIY JADVALI)

nomi	O'zbekcha	O'ng tomondan qo'shilishi	Ikkala tomondan qo'shilishi	Chap tomondan qo'shilishi	Ayrim	№
الف	a i u	ا	ا	ا	ا	1
باء	b	ب	ب	ب	ب	2
تاء	t	ت	ت	ت	ت	3
ثاء	s	ث	ث	ث	ث	4
جيم	j	ج	ج	ج	ج	5
حاء	h	ح	ح	ح	ح	6
خاء	x	خ	خ	خ	خ	7
دال	d	د	د	د	د	8
ذال	z	ذ	ذ	ذ	ذ	9
راء	r	ر	ر	ر	ر	10
زاء	z	ز	ز	ز	ز	11
سين	s	س	س	س	س	12
شين	sh	ش	ش	ش	ش	13

صاد	s	ص	ط	ظ	س	14
-----	---	---	---	---	---	----

nomi	O'zbekch a	O'ng tomondan qo'shilishi	Ikkala tomondan qo'shilishi	Chap tomondan qo'shilishi	ayrim	№
ضاد	d	ظ	ظ	ظ	ظ	15
طاء	t	ظ	ظ	ظ	ظ	16
ظاء	z	ظ	ظ	ظ	ظ	17
عين	‘	ع	ع	ع	ع	18
غين	g‘	ع	ع	ع	ع	19
فا	f	ف	ف	ف	ف	20
قاف	q	ق	ق	ق	ق	21
كاف	k	ك	ك	ك	ك	22
لام	l	ل	ل	ل	ل	23
ميم	m	م	م	م	م	24
نون	n	ن	ن	ن	ن	25
هاء	h	ه	ه	ه	ه	26
واو	v	و	و	و	و	27
ياء	y	ي	ي	ي	ي	28

IKKINCHI DARS Harakatlar

Yozuvda undosh harfdan keyin kelayotgan qisqa unli tovushlarni quyidagi 3 ta harakat ifoda etib keladi:

-َ = a (fatha); -ِ = i (kasra); -ُ = u (damma);

Undosh harfdan so‘ng unli tovush bo‘lmasa ushbu -◌ْ = (sukun) belgisi yoziladi:

ب -b بـ -ba بـِ -bi بـُ -bu بـْبـ -bab

Alifbening 1-harfi- «alif» so‘zda quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. Kursi vazifasini bajaradi. So‘zda biror unli harakat bilan kelayotgan hamza (ء) undoshiga kursi bo‘lib «’a», «’i», «’u» tovushlarini ifodalaydi.
2. Uzun «a:» unlisini ifodalaydi. Alif harfi yozuvda ushbu - = a (fatha) harakatidan keyin kelsa, u arab tilidagi cho‘ziq «a:» unlisini ifodalaydi. Cho‘ziq «a:» unlisini «madda» deb ataluvchi ushbu belgi (~) ham ifodalaydi. Bu belgiga ham «kursi» vazifasini «alif» bajaradi:

'a- 'i- 'u- 'ā- 'a:- با = بـا – ba:

TANVIN DAMMA

Tanvin ismning oxirida keladigan, talaffuz qilishda eshitiladigan ortiqcha dir. U eshitilsa ham yozuvda ushbu «nuun» harfi bilan aks etmaydi. ◌ْ sukunli nun- Tanvinni yozuvda qo‘shaloq tarzda yozilgan qisqa unli harakatining ikkinchisi - «ortiqcha»si ifoda etadi. Masalan, tanvin damma qo‘shaloq damma harakati- ◌ْ bilan yoziladi va «un» deb o‘qiladi. Bu yerdagi ikkinchi harakat ushbu sukunli nunni ifodalab kelayapti. Tanvin damma ismning bosh kelishikda ekanligini bildiradi.

1-mashq. Jummalarni o‘qing, tarjima qiling. Har bir jumlaning bir qatordan yozib mashq qiling.

أَنَا أَبٌ. أَنْتَ ابْنٌ. أَنْتِ بِنْتُ. أَنَا ابْنٌ. أَنَا بِنْتُ. أَنْتَ أَبٌ. أَنَا تُبْتُ. أَنْتِ تُبْتُ. أَأَنْتِ تُبْتُ؟
أَنْتِ تُبْتُ. أَأَنْتِ تُبْتُ؟ تَابَ أَبٌ. تَابَتْ بِنْتُ. تَابَ ابْنٌ. أَأَنَا أَبٌ؟ أَأَنْتِ ابْنٌ؟ أَأَنْتِ بِنْتُ؟

UZUN «U:» UNLISI

Yozuvda «wa:w» undoshi -ُ = u (damma)dan keyin kelsa, u uzun «u:» ni ifoda etadi:

أَبُو (‘abu:) ota(si) بَنُوْنَ (banu:na) o‘g‘illar

UZUN «I:» UNLISI

Yozuvda -ِ = i (kasra) dan keyin ي (ya:) harfi kelsa, u uzun «i:» unlisini ifoda etadi:

أَبِي (‘abi)-otam ، بَيْتِي (‘bayti)-uyim ، بِنْتِي (‘binti)-qizim

2-mashq. Matnning o‘qing va ko‘chiring.

هِيَ بِنْتُ. يَا أَبَ وَابْنَ وَبِنْتِ. هَا هُوَ أَبٌ. هَا هُوَ ابْنٌ. أَبٌ وَابْنٌ. أَبٌ وَبِنْتُ.
أَبٌ! يَا ابْنَ! يَا بِنْتُ! أَيْنَ أَبِي؟ هَا هُوَ أَبِي! أَيْنَ ابْنِي؟ هَا هُوَ ابْنِي! أَيْنَ بِنْتِي؟ هَا هِيَ
أَبِي بَيْنَ ابْنِي وَبِنْتِي. ابْنِي بَيْنَ بِنْتِي وَأَبِي. هَا بِنْتِي. أَبِي وَهُوَ ابْنِي وَهُوَ أَبٌ.

TANVIN KASRA

Tanvin kasra- «in» deb o‘qiladigan qo‘shaloq kasra harakati bo‘lib u ham so‘zning oxirida keladi. Tanvin kasra so‘zning qaratqich kelishida ekanligidan dalolat beradi:

أَبِ otaning -(‘abin) بِنْتِ qizning-(bintin) بَيْتِ uyning-(baytin)

ة مَرْبُوتَا TA:

Agar undoshining alohida va so‘z oxirida ko‘rinishlari ustiga qo‘sh nuqta qo‘yilsa, bu undosh «t» tovushini ham ifodalaydi va «ta:-marbuta» (bog‘langan «t») deb ataladi. ة- t.

«Ta:» marbutaning talaffuzi harfining (bu «t» ni «ta: mamduda» – cho‘zilgan «t» deb ataladi) talaffuzi bilan bir xil.

«Ta:» marbuta so‘zning muannas(qiz) jinsda ekanligini ko‘rsatadigan asosiy grammatik belgi- ko‘rsatkichidir. Masalan:

وَهُوَ تَابَتْ qiz (‘ib-na-tun) وَهُوَ تَابَتْ o‘ta saxiy ayol (wa-hu:-ba-tun)

3-mashq. Jummalarni o‘qing, yozing va tarjima qiling.

أَيْنَ وَهَبَةٌ؟ هَا هُوَ وَهَبَةٌ! هُوَ وَهوبٌ. أَيْنَ هِبَةٌ؟ هَا هِيَ هِبَةٌ! هِيَ وَهوبَةٌ. أَ هَذَا
دَاوُودُ؟ أَيُّو! أ هُوَ ذُو نِبَاهَةٍ؟ أَيُّو، هُوَ ذُو نِبَاهَةٍ! أَ هَذِهِ هِبَةٌ؟ أَيُّو! أ هِيَ ذَاتُ نِبَاهَةٍ؟
وَ دَاوُودُ أَيُّو، هِيَ ذَاتُ نِبَاهَةٍ! وَ وَهَبَةٌ ذُو نِبَاهَةٍ! وَ هِبَةٌ وَ هِبَةٌ وَ هوبَانٍ. وَ هِبَةٌ
وَ هوبَانٍ. هُوَ بَدِينٌ. أَ دَاوُودُ بَدِينٌ؟ أَيُّو، هُوَ بَدِينٌ. هِيَ بَدِينَةٌ.

TASHDID BELGISI (SHADDA)

So‘zda ikkita bir xil undosh yonma-yon kelganda, ularning faqat bittasi yozilib, ustiga «shadda» (yoki «tashdid») deb ataladigan quyidagi –belgi qo‘yiladi. «Shadda» undosh harfni ikkilantirib (ikkita qilib) o‘qilishini bildiradi:

zarur	(la: bud-da)	لَا (بُدُّ) بُدٌّ
qachonki	(lam -ma:)	لَمَّا (لَمَّا) لَمَّا
U undadi	(dal-la)	دَلَّ (دَلَّ) دَلَّ

ALIF MAQSURA

Ba‘zi so‘zlarning oxiridagi «alif maqsura» («qisqa alif») deb ataladigan nuqtalarsiz «ى» harfi «a» uzun unlisini ifodalab keladi. Talaffuzi «a» uzun unlisi bilan bir xil. Alif maqsura faqat «fatha»dan so‘ng va so‘zning oxirida keladi. U tovush o‘zgarishlari natijasida paydo bo‘lgan tovushdir. Alif maqsurani ushbu so‘zlarda ko‘rish mumkin:

U keldi(fe‘l) أْتَى ('ata:) qachon? مَتَى(mata:)

TANVIN FATXA

Tanvin fatha -«an» deb o‘qiladigan qo‘shaloq fatha harakatidir - َ. Bu yerdagi ikkinchi fatha sukunli nunki ifodalab kelayapti. U so‘zning tushum kelishigida ekanligidan dalolat beradi:

تَوْبَانِي-(tawbatan) ، تَوْبَةٌ (bintan) -qizni ، بِنْتَانِي-(aban) -otani

4- mashq. Jummalarni o‘qing, yozing va tarjima qiling.

مَنْ أَنْتَ؟ أَنَا كَمَالٌ! مَنْ أَنْتِ؟ أَنَا كَمَالَةٌ! مَنْ أَنْتُمْ؟ أَنَا نَبِيلٌ وَهِيَ مَلِيكَةٌ. مَنْ هِيَ؟
هِيَ تَلْمِيذَةٌ. مَنْ هُمَا؟ ذَلِكَ وَالِدِي وَتِلْكَ وَالِدَتِي. مَا هَذِهِ؟ هَذِهِ مَكْتَبَةٌ. مَا هَذَا؟ هَذَا كِتَابٌ. مَا
ذَلِكَ؟ ذَلِكَ بَيْتٌ. مَا تِلْكَ؟ تِلْكَ مَكْتَبَةٌ. مَنْ أَيْنَ أَنْتِ؟ أَنَا مِنْ لُبْنَانَ. مَنْ أَيْنَ أَنْتِ؟ أَنَا مِنْ
لُبْنَانَ.

BO‘G‘INLAR

So‘zlar bir yoki birnecha bo‘g‘inlardan tashkil topadi. Har bir bo‘g‘in undosh harf bilan boshlanadi. Bo‘g‘inda undosh harf bilan unli harfning ham bo‘lishi shart. Bo‘g‘inning boshida yoki oxirida ikki undosh yonma-yon kelmaydi. Uch hil bo‘g‘in bor:

1. Qisqa bo‘g‘in-bir undosh va unlidan iborat:

ka-ta-ba – u yozdi;

2. Cho‘ziq bo‘g‘in- bir undosh va cho‘ziq unlidan yoki undosh+qisqa unli+undoshdan iborat:

da:-run –hovli; dar-sun –o‘rganish; dars

3. O‘ta cho‘ziq bo‘g‘in- undosh+cho‘ziq unli+undoshdan iborat:

ha:r-run –issiq.

Qaysi tovush bilan tugashiga qarab bo‘g‘inlar ikki xil bo‘ladi:

a) ochiq bo‘g‘in (agar unli tovush bilan tugasa): la: - yo‘q;

b) yopiq bo‘g‘in (agar undosh tovush bilan tugasa): bay-tun - uy.

URG‘U

Arab tilidagi urg‘u boshqa tillardagi urg‘udan quyidagi jihatlari bilan ajralib turadi:

1) urg‘uli bo‘g‘in urg‘usiz bo‘g‘inga qaraganda ovozni ko‘tarib biroz kuch bilan talaffuz qilinadi;

2) urg‘u hech qachon oxirgi bo‘g‘inga tushmaydi;

3) ikki bo‘g‘inli so‘zda urg‘u birinchi bo‘g‘inga tushadi: dar - sun

4) ko‘p bo‘g‘inli so‘zda urg‘u odatda cho‘ziq bo‘g‘inga tushadi: yad-ru-su:-na

5) qisqa bo‘g‘inlardan iborat bo‘lgan ko‘p bo‘g‘inli so‘zlarda urg‘u odatda ikkinchi bo‘g‘inga tushadi: ik-ta-sa-ba

5-**mashq.** Matnni o‘qing, yozing, tarjima qiling va yod oling:

مَنْ أَنْتَ وَمِنْ أَيْنَ؟ أَنَا مُدْرَسٌ. أَنَا مِنْ سُورِيَا. هَلْ أَنْتَ سُورِيٌّ؟ أَيُّو، أَنَا سُورِيٌّ. وَإِسْمِي
سَمِيرٌ أَحْمَدٌ حُسَيْنٌ. مَنْ أَنْتَ وَمِنْ أَيْنَ؟ أَنَا مُدْرَسَةٌ. أَنَا مِنْ مَوْرِيْتَانِيَا. هَلْ أَنْتَ مَوْرِيْتَانِيَّةٌ؟ أَيُّو،
أَنَا مَوْرِيْتَانِيَّةٌ. وَإِسْمِي سَمِيرَةٌ بِنْتُ يَحْيَى. هَلْ أَنْتُمْ مُدْرَسُونَ بِمَدْرَسَةٍ؟ أَيُّو، نَحْنُ مُدْرَسُونَ.
نَحْنُ مِنْ تُونِسَ. نَحْنُ تُونِسِيُونَ. هَلْ أَنْتُمْ مُدْرَسَاتٌ بِمَدْرَسَةٍ؟ أَيُّو، نَحْنُ مُدْرَسَاتٌ.

Eslatma: davlat nomi oxiriga **يِّ** (مuan.j.) qo‘shimchasi qo‘shilsa o‘sha davlatga mansub bo‘lgan kishi yoki ayolni bildiradi. Masalan:

suriyalik kishi سُورِيٌّ
mavritaniyalik مَوْرِيْتَانِيَّةٌ

Suriya سُورِيَا
Mavritaniya مَوْرِيْتَانِيَا

UCHINCHI DARS

Hamza (ء)

Hamza (ء) bo'g'izda hosil bo'ladigan, yengil yo'talga o'xshagan sekin eshitiluvchi undosh tovush. U sukun bilan harakatlenganda aniq talaffuz qilinadi. Hamza «a», «i» va «u» qisqa unllarini ifodalaydigan harakatlar bilan kelganda uning talaffuzi sezilmaydi. Aslida hamza shu qisqa unllarning o'qilishi uchun xizmat qiladi Chunki, har qanday unli tovush aslida bir undoshning unli bilan kelgan tovush birikmasidir.

O'qiladigan hamza

Hamza ikki hil bo'ladi:

1. O'qiladigan- hamzatu-l-qat'i.
2. Biriktiruvchi (o'qilmaydigan) - hamzatu-l-vasli.

O'qiladigan hamza so'zning o'zak tashkil qiluvchi hamzasidir. U so'zning hamma yerida kelishi mumkin, to'liq o'qiladi va yozuvda saqlanadi:

xabarlar	أَخْبَارٌ	haqiqatda (yuklama)	إِنَّ
so'rovchi	سَائِلٌ	...ki (yuklama)	أَنَّ
quduq	بَيْتٌ	bosh	رَأْسٌ

Imlosi: So'z boshida hamzaga, u qaysi harakat bilan kelgan bo'lmasin kursi vazifasini doimo l(alif) harfi bajaradi.

So'z o'rtasi yoki oxirida kelayotgan hamzaga kursi vazifasini ا و ي undoshlaridan biri bajaradi. Ulardan qaysi birining kursi bo'lib kelishi ushbu «harakatlarning kattaligi» qoidasiga binoan hal qilinadi:

1. Kasra (unga «ي» undoshi tabiatan mos keladi);
2. Damma (unga «و» undoshi tabiatan mos keladi);
3. Fatha (unga «ا» undoshi tabiatan mos keladi);
4. Sukun

(Ushbu ketma-ketlikni «i u a n» so'zi shaklida eslab qolish oson).

Hamzaga kursi tanlash uchun undan avval va keyin kelayotgan ikkita harakat (unli tovush) qiyoslab ko'riladi. qaysi harakat katta bo'lsa, hamzaga o'sha harakatga tabiatan muvofiq undosh kursi bo'ladi:

kechiktirish تَأخِيرٌ
ovqat zaxirasi مَوْؤِنَةٌ

o'smoq نَشَأُ
u pok bo'ldi بَرِيَ

So'zning oxirida «sukun» yoki «a:», «i:», «u:» cho'ziq unlilaridan keyin kelgan hamza undoshi, hamda so'zning o'rtasida cho'ziq «a:» dan keyin va qisqa «a» dan avval kelgan hamza kursisiz yolg'iz o'zi yoziladi:

U savol bilan murojaat qildi; so'rashdi	سَاءَل	narsa	شَيْءٌ
sotib olish	شَرَاءٌ	xunuk	رَدِيءٌ
poklik	بَرَاءَةٌ	to'liq	مَمْلُوءٌ

Madda belgisi: agar hamza cho'ziq «a:»unlisi bilan kelsa, yoki undan keyin yana bir hamza kelsa yozuvda ularni ustiga ushbu madda belgisi (~) qo'yilgan alif harfi ifodalaydi. Madda so'zning hamma yerida kelishi mumkin. Misollar:

oxirgi *ishondi;* أَخْرُ boshqa *iymon keltirdi* أَخْرُ = أَمْنٌ = آمَنَ

6-mashq. Ushbu so'zlarni yozing, o'qing, transkripsiya qiling. Hamzaning yozilishi va uning kursisiga e'tibor bering.

u boshladi	بَدَأَ	u ko'rdi	رَأَى
tabrik	تَهْنِئَةٌ	tabrikladi	هَنَّأَ
u bitim tuzdi	تَأَمَّرَ	u keldi	أَتَى
tarbiyalash	تَأَدَّبَ	odob; adabiyot	أَدَّبَ
yomonlik qiluvchi	مُسِيئٌ	Xush kelibsiz!	أَهْلًا وَسَهْلًا
u oldi	أَخَذَ	yuruvchi	سَائِرٌ
paydo bo'ldi	نَشَأَ	Kechqurun (da)	مَسَاءٌ

7- mashq. Ushbu so'zlarni arabcha harf bilan yozing.

u so'radi	sa'ala	Osiyo	'a:siya:
so'raldi	su'ila	Ovrupo	'urubba:
savol	su'a:lun	buyurdi	'a:mara
savollar	'as'ilatun	masala	mas'alatun
u yoritdi	'ana:ra	birlashdi	'ittahada

yuz	mi'atun	bosh tortdi	'aba:
bo'ri	zi'bun	oldi (muan.)	'axazat
og'riq	'alamun	azoblanmoq	ta'allama

8-mashq. Matnni yozing, o'qing, tarjima qiling va yod oling.

أَهْلًا وَسَهْلًا يَا زُخَيْرُ، هَذَا هَاشِمٌ. هُوَ مِنْ شِمَالِ سُورِيَا. هُوَ سُورِيٌّ. تِلْكَ زَيْنَبٌ. هِيَ مِنْ شِمَالِ بَحْرَيْنَ. هِيَ بَحْرَيْنِيَّةٌ. ذَلِكَ خَادِمٌ. هُوَ يَشْرَبُ شَايَا. اسْمُهُ خَالِدٌ. هُوَ مِنْ تُونِسَ. هُوَ تُونِسِيٌّ.
 أَهْلًا وَسَهْلًا يَا شَادِيَّةُ، هَذِهِ شُكْرِيَّةٌ. هِيَ مِنْ تُونِسَ. هِيَ تُونِسِيَّةٌ. مَنْ هُوَ يَا شَاكِرُ؟ هُوَ مُورِّخٌ مَشْهُورٌ. هَلْ اسْمُهُ حَمْرَةٌ؟ لَا، اسْمُهُ شَاكِرٌ. هَلْ ذَاكِرٌ سُودَانِيٌّ؟ لَا، هُوَ بَحْرَيْنِيٌّ. هُوَ شَيْخٌ مَشْهُورٌ. هَلْ هَذِهِ مَسْئَلَةٌ مُهِمَّةٌ؟ أَيْو، هَذِهِ مَسْئَلَةٌ مُهِمَّةٌ.

كَلِمَات

muhim(sifat)	Muhimun (muhimmatun)	مُهَيْمٌ (مُهَيْمَةٌ)	tarixchi	muarrixun	مُورِّخٌ
chol; shayx; boy	shauhun	شَيْخٌ	choy (choyni)	shayun (shayan)	شَايٌ (شَايَا)
sudanlik	sudaniyun	سُودَانِيٌّ	baxraynlik	bahrayniyun	بَحْرَيْنِيٌّ

9-mashq. Matnni o'qing, yozing, tarjima qiling va yod oling:

هَذَا نَصٌّ سَهْلٌ. طَاهِرٌ طَالِبٌ نَشِيْطٌ. وَصَالِحَةٌ طَالِبَةٌ نَشِيْطَةٌ أَيْضًا. هُمَا مِنْ مِصْرَ. هَلْ نَاظِمٌ حَاضِرٌ؟ لَا، هُوَ مَرِيضٌ. هُوَ طَالِبٌ نَشِيْطٌ. هَلْ كَاظِمٌ سَالِمٌ؟ لَا، هُوَ أَمَّا نَصِيْبَةٌ مَرِيضَةٌ. مَنْ أَيْنَ وَصَلَ مَرِيضٌ. هَلْ صَالِحَةٌ مَرِيضَةٌ؟ لَا، هِيَ سَالِمَةٌ. مُرْتَضَى؟ وَصَلَ مُرْتَضَى مِنْ مِصْرَ. مَتَى وَصَلَ؟ وَصَلَ صَبَاحًا. هُوَ ضَابِطٌ أُوزْبِكِيٌّ. صَالِحٌ ضَابِطٌ أُوزْبِكِيٌّ أَيْضًا. هُوَ وَصَلَ مِنْ مَطَارِ خُرْطُومَ. تَهْبُطُ طَائِرَةٌ صَبَاحًا. مَتَى تَهْبُطُ طَائِرَةٌ، ظَهْرًا أَمْ مَسَاءً؟ مَسَاءً.

VASLALI (BIRIKTIRUVCHI) HAMZA

Arab tilida birinchi bo'g'inida yonma-yon turgan ikkita undosh harf bilan boshlangan bnun, smun, mru'un kabi o'qilishi qiyin bo'lgan so'zlar ham bor. Ularning o'qilishini osonlashtirish uchun ularning oldiga vaslali hamza qo'yiladi. Vaslali hamza bu so'zning o'zak harfi emas. Shuning uchun u o'qilmaydi, balki u bunday so'zlarning oldiga ulardan oldin kelayotgan so'zning oxiridagi a, u, i kabi bir qisqa unlini qo'shib, o'sha qiyin o'qiladigan bo'g'inni ikki alohida bo'g'inga bo'lib yuborish va uni o'qishni osonlashtirish uchun xizmat qiladi:

mru'un- *'im-ru-'un* kabi.

Yozuvda vaslali hamzani harakatsiz alif ifoda etadi:

ابْنٌ ، ابْنَةٌ ، اسْمٌ ، اثْنَانِ ، امْرَأَةٌ ، امْتَنَعَ

Agar bunday so‘z gapning boshida kelsa «i» unlisini olib qat’iy hamza kabi o‘qiladi:

ikki	(‘isna:ni)	اِثْنَانِ	ism	(‘ismun)	اسْمٌ
yasha	(‘uskun)	اُسْكُنْ	pishdi	(‘istawa:)	اِسْتَوَى

Agar gapning o‘rtasi yoki oxirida kelsa, uni o‘zidan oldingi so‘zning unlisi bilan biriktirib-«vasl» qilib o‘qiladi, chunki arab tilidagi o‘qish qoidasi bo‘yicha vaslali hamza bilan boshlangan so‘zga undan oldin kelayotgan so‘z qo‘shilib o‘qiladi:

سَأَلَ ابْنٌ ، مَنْ اِنْعَدَمَ ؟ sa’ala-bnu , man-i-neadama?

10-mashq. So‘z va iboralarni yozing, o‘qing va yodlang:

“Bu – qizim Nabila”.	hazihibnati nabilatun	"هَذِهِ ابْنَتِي نَبِيْلَةٌ".	ibnatun	ابْنَةٌ
Isming nima?	mo ismuka	ما اسمُكَ؟	'ismun	اسْمٌ
O‘tir, dam ol!	vajlis vastarih	وَاجِلِسْ وَاسْتَرِحْ!	istarih	اسْتَرِحْ
Ol, ich!	huz va sharb	خُدْ وَاشْرَبْ!	ishrab	اشْرَبْ
Yoz va uni tushuntirib ber!	vaktub vashrahha	وَاَكْتُبْ وَاشْرَحْهَا!	uktub, ishrah	اَكْتُبْ، اشْرَحْ

ل ARTIKLIDAGI VASLALI HAMZA

So‘zning aniq holatda ekanligini ko‘rsatadigan belgi Janiqlik artiklidir u faqat so‘zning oldida keladi. Janiqlik artikli oldiga o‘qishni yengillatish uchun vaslali, ya’ni biriktiruvchi hamza qo‘yilgan.

Biriktiruvchi hamzali ل artikli gap boshida kelganida «’al» deb o‘qiladi. Shuning uchun bizda uni ال «’al» aniqlik artikli deb atashadi:

xat - (‘al-mak-tu:-bu) الْمَكْتُوبُ kitob - (‘al-ki-ta:-bu) الْكِتَابُ

Ushbu so‘zlarning boshidagi م va ه harflari qamariya harflari edi. Shuning uchun bu so‘zlardagi ل artikli to‘liq o‘qilayapti.

Agar so‘z shamsiya harf bilan boshlansa, Janiqlik artikli shamsiya harf ta’sirida assimilyatsiyaga uchraydi, ya’ni xuddi o‘sha shamsiya harf kabi talaffuz

qilinadi va yozuvda shamsiya harf ustiga «shadda» belgisi qo'yiladi. Masalan, الشَّمْسُ so'zi «al-sham-su» emas, balki «as-sham-su» deb o'qiladi:

tinchlik ('as-sa-la:-mu) السَّلَامُ dars ('ad-dar-su) الدَّرْسُ

Ikkita so'zning o'rtasida kelgan vaslali hamza ularfi bilan oldindagi so'zning oxirgi undoshining unlisini vasl qiladi:

U xat yozdi. (kataba-l-maktu:ba) كَتَبَ الْمَكْتُوبَ

U kitob oldi. (axaza-l-kita: أَخَذَ الْكِتَابَ

Agar vaslali hamzali yoki ularfiklini olgan so'zdan oldingi so'zning oxiri sukunga tugasa, undan oldingi undosh harfning harakatiga qaraladi. Agar u «a» bo'lsa, vaslali hamza «i», agar «i», bo'lsa va u so'z fe'l bo'lmasa vaslali hamza «a», «u» bo'lsa vaslali hamza ham «u» deb o'qiladi:

maktabdan (mina-l-madrasati) مِنَ الْمَدْرَسَةِ

Direktor kim? (mani-l-mudi:ru) مِنَ الْمُدِيرِ؟

Agar bu so'z fe'l bo'lsa ularning vaslali hamzasi «i» deb o'qiladi: darsni yoz! ('uk-tu-bi-d-darsa) - اُكْتُبِ الدَّرْسَ

Aniq holatdagi so'z oldida ular old ko'makchisi qo'shib yozilganida (l) alif yozuvda tushib qoladi - yozilmaydi. Masalan:

uy uchun - (emas لِالْبَيْتِ لِأَلْبَيْتِ) ←

muallim uchun - (emas لِلْمُعَلِّمِ لِالْمُعَلِّمِ) ←

Agar aniq holatdagi ularfi bilan boshlangan so'z oldiga ular ko'makchisi birikib kelsa, yozuvda artikl tushib qoladi - yozilmaydi. Aslida alif tushib qoladi, l esa saqlanib qolgan, chunki so'zning o'zak ularfi ikkilanib kelayapti. Masalan:

til uchun - (emas لِاللسانِ لِلسانِ) ←

Tanvinga tugagan so'zni vasl qilishda vaslali hamza kasra bilan harakatlanadi:

Muhammadun- i-l-ami:nu مُحَمَّدٌ الْأَمِينُ Abu bakrin- i-s-siddi:qu أَبُو بَكْرٍ الصِّدِّيقُ

11-mashq. Alisher Navoiy asarlarining nomlarini arab alifbosida yozing. "Hazoyin ul-ma'oniyy", "Badoyi' ul-bidoya", "Navodir un-nihoya", "G'aroyib us-sig'ar", "Navodir ush-shabob", «Badoyi' ul-vasat», «Favoyid ul-kibar», "Xamsa" «Hayrat ul-abror», Farhod va Shirin», "Layli va Majnun", "Sab'ai sayyor", «Saddi Iskandariy», «Lison un-tayr», «Majolis un-nafois», «Xamsat ul-mutahayyirin», «Holoti Sayyid Hasan Ardasher», «Holoti Pahlavon Muhammad», «Vaqfiya», «Munshaot», «Nasoim ul-muhabbat», «Mezon ul-avzon», «Mufradot», «Muhokamat ul-lug'atayn», «Mahbub ul-qulub», "Nazm ul-javohir".

12-mashq. Ushbu so'zlarni aniq va noaniq holatlarda yozing. O'qing va tarjimasini aniqlang:

مُدْرَسٌ، بَيْتٌ، كَلَامٌ، جَبَلٌ، يَوْمٌ، غُلَامٌ، أَبٌ، أُمٌّ، عَائِلَةٌ، هِرٌّ.

13-mashq. Matni o'qib tarjima qiling va yod olib so'zlab bering.

عَائِلَتُنَا

حَدِّثْ عَن عَائِلَتِكَ! عَائِلَتُنَا كَبِيرَةٌ. بَعَائِلَتُنَا عِدَّةُ أَشْخَاصٍ. لَنَا مَنْزِلٌ كَبِيرٌ وَجَمِيلٌ. لِي أَبِي وَأُمِّي. أَبِي يَعْْمَلُ. هُوَ مُدْرَسُ الْجَامِعَةِ. أُمِّي تَعْمَلُ أَيْضًا. هِيَ مُعَلِّمَةُ الْمَدْرَسَةِ. لِي أَخٌ وَأَخْتٌ أَيْضًا. أَخِي اسْمُهُ عَثْمَانُ وَهُوَ طَالِبُ الْجَامِعَةِ. أَمَّا أُخْتِي اسْمُهَا ثُرَيَّا وَهِيَ تَلْمِيذَةٌ الْمَدْرَسَةِ. لَنَا جَدٌّ وَجَدَّةٌ. جَدِّي عَالِمٌ مَشْهُورٌ وَجَدَّتِي طَبِيبَةٌ مَشْهُورَةٌ. هُمَا سَالِمَانِ الْحَمْدُ لِلَّهِ!

Bir necha kishi	عِدَّةُ أَشْخَاصٍ	oilamizda	بَعَائِلَتُنَا
maktab o'quvchisi	تَلْمِيذَةُ الْمَدْرَسَةِ	universitet o'qituvchisi	مُدْرَسُ الْجَامِعَةِ

QAMARIYA VA SHAMSIYA HARFLAR

So'zning boshida ularning harfi o'qilishi yoki o'qilmasligiga qarab arab alifbosi ikki teng qismga bo'linadi. Ularning 14 tasi «qamariya» («oy») harflari va qolgan 14 tasi «shamsiya» («quyosh») harflaridir.

O'n to'rtta qamariya harflar quyidagilar va ularni yoddan bilish zarur:

ا ب ج ح خ ع غ ف ق ك م ه و ي

O'n to'rtta shamsiya harflar quyidagilar va ularni ham yoddan bilish zarur:

ت ث د ذ ر ز س ش ص ض ط ظ ل ن

14-mashq. Matnni o'qib tarjima qiling va yod olib so'zlab bering.

أَقْرَبَاؤُنَا

أَشِقَاءُ أَبِي وَأُمِّي هُمْ أَقْرَبَاؤُنَا. شَقِيقُ أَبِي هُوَ عَمِّي وَشَقِيقَتُهُ عَمَّتِي. لَنَا عَمٌّ وَعَمَّتَانِ. أَمَّا عَمِّي فَهُوَ شَيْخٌ فِي النَّقَاعِدِ. هُوَ مَشْغُولٌ بِأَعْمَالِ الْمَنْزِلِ. أَمَّا عَمَّتِي الْكَبِيرَةُ فَقَدْ تُوَفِّيتُ فِي الْعَامِ الْمَاضِي. وَأَمَّا عَمَّتِي الصَّغِيرَةُ فَهِيَ تَعْمَلُ فِي الْمَوْسَسَةِ الْحُكُومِيَّةِ. هِيَ وَزِيرَةُ الطَّبِّ.

شَقِيقُ أُمِّي هُوَ خَالِي وَشَقِيقَتُهَا هِيَ خَالَتِي. لَنَا خَالَ وَخَالَةٌ. أَمَّا خَالِي فَهُوَ مُعَنَّ وَيَعْمَلُ فِي وَرَازَةِ النَّقَافَةِ. أَمَّا خَالَتِي فَهِيَ مُمَرِّضَةٌ وَتَعْمَلُ فِي الْمُسْتَشْفَى. هِيَ مُمَرِّضَةٌ مَاهِرَةٌ.

كَلِمَاتٌ

... ga kelsak; esa	أَمَّا ... فَـ ...	qarindoshlar	أَقْرَبَاءٌ
band	مَشْغُولٌ	tug'ishgan(lar) (aka yoki uka)	شَقِيقٌ (أَشِقَاءُ)
uy yumushlari	أَعْمَالُ الْمَنْزِلِ	ota-onamning tug'ishganlari	أَشِقَاءُ وَالِدِي
uy bekasi	رَبَّةُ الْمَنْزِلِ	tug'ishgan(lar) (opa , singil)	شَقِيقَةٌ (شَقَائِقُ)

hamshira	مَمْرَضَةٌ	amaki(lar)	عَمٌّ (أَعْمَامٌ)
Madaniyat vazirligi	وَزَارَةُ الثَّقَافَةِ	amma(lar)	عَمَّةٌ (عَمَاتٌ)
vafot etgan	فَقَدْتُ تُوفِيَّتْ	tog'a(lar)	خَالَ (أَحْوَالٌ)
o'tgan yili	الْعَامُ الْمَاضِي	xola(lar)	خَالَةٌ (خَالَاتٌ)
ishlaydi	يَعْمَلُ (تَعْمَلُ) (muan.)	davlat muassasasi	مُؤَسَّسَةٌ حُكُومِيَّةٌ

ASOSIY QISM الْقِسْمُ الْأَسَاسِيُّ
MORFOLOGIYA VA SINTAKSIS الصَّرْفُ وَالنَّحْوُ
TO'RTNICH I DARS
S O' Z T U R K U M L A R I

Muayyan bir ma'noni anglatgan tovushlar yig'indisiga so'z deyiladi. So'z bir yoki bir necha harfdan iborat bo'ladi. Masalan:

عَنْدَلِيبٌ ، اسْتَقْبَالَ ، مِنْ ، كَرَمٌ ، خِرَانَةٌ ، مَحْمُودٌ ل

Arab tilidagi barcha so'zlar uchta katta guruhga bo'lingan:

I. Ism (الاسم) turkumiga mustaqil ma'noga ega bo'lgan ot, sifat, son, olmosh, ravish, masdar(harakat nomi) va kabi so'zlar kiradi:

أُمٌ ، أَبٌ ، عِلْمٌ ، إِنْسَانٌ ، مَدْرَسَةٌ ، مَدِينَةٌ ، جَبَلٌ ، دِرَاسَةٌ

Ismilar jins, son, kelishik va holat (jami to'rtta) grammatik kategoriyalarda turlanadi - o'zgaradi.

II. Fe'l (الْفِعْلُ) - mustaqil mazmunga ega bo'lib, biron- bir ish- harakatning sodir bo'lishiga yoki holatiga ishora qiladigan so'zlarga fe'l deyiladi. Fe'llar o'tgan, xozirgi yoki kelasi zamonda sodir bo'lgan ish-harakatni ifoda etadi:

U bordi-ذَهَبَ- U borayapti-يَذْهَبُ- U boradi-سَيَذْهَبُ-

Fe'l turkumiga uning barcha mayllari, boblari, darajalari, bo'lishli va bo'lishsiz shakllari kiradi.

Fe'llar jins, son va shaxslarda o'zgaradi.

III. Yordamchi so'zlar (الْحَرْفُ)- mustaqil mazmunga ega bo'lmagan, ammo ism yoki fe'l guruhidagi so'zlarga ta'sir qilib ularning ma'nosini aniqlashtirib keladigan so'zlardir.

Yordamchi so'zlarga aniqlik artikli, old ko'makchi (predlog), bog'lovchi, yuklama va undalmalar kiradi.

Bir yoki bir necha so'zdan esa jumla- gap tuziladi. Bu so'zlar esa gap bo'laklari deb ataladi. Bu guruhga faqat boshqa so'zlar bilan birikkandagina ma'noga ega bo'ladigan, mustaqil ishlatilmaydigan bog'lovchi, yuklama, predlog, ko'makchi turidagi so'zlar kiradi

15-mashq.Quyidagi so'zlarni ko'chiring va ichidan الحرف ، الفعل ، الاسم larni ajratib chiqing.

u yozdi-kataba	كتب	qituvchi-mudarrisun	مدرس	Mahmud-	محمود
----------------	-----	---------------------	------	---------	-------

				Mahmudun	
u bordi-zahaba	ذهب	bildim-a'limtu	علمت	Daftar-daftarun	دفتر
qiz-anisatun	أنسة	xonim-sayyidatun	سيدة	Janob-sayyidun	سيد
Ota-abun	أب	oila-a'ilatun	عائلة	do'st-sodiqun	صديق
Buvi-jaddun	جد	buva-jaddatun	جدة	Ona-ummun	ام
...ga-ila	الي	..dan-min	من	Avval-munzu	منذ
Ustida-favqo	فوق	tagida-tahta	تحت	Zimmasida-a'la	علي
...da- fi	في	yonida-janba	جنب	Oldida-amama	امام
...siz- bila	بلا	bilan-ma'a	مع	..gacha-hatta	حتي
Universitet-jameatun	جامعة	toliba-tolibatun	طالبة	Tolib-tolibun	طالب
er-zavjun	زوج	o'smir qiz-shabbatun	شابة	O'smir yigit-shabbun	شاب
Bola-tiflun	طفل	bola-valadun	ولد	Xotin-zavjatun	زوجة
Keyin-ba'da	بعد	so'ngra-summa	ثم	va-va	و
so'radim-sa'altu	سألت	o'tirdim-jalastu	جلست	O'qidim-qora'tu	قرأت
Yetib keldi-vasola	وصل	Chiqdik-xorojna	خرجنا	Ikkingiz kirdingiz-dahaltuma	دخلتما

BESHINHCI DARS

OLMOSHLAR

Arab tilidagi olmoshning bir necha turlari bor: Ulardan:
 Arab tilidagi olmoshning bir necha turlari bor: Ulardan
 kishilik olmoshlariga: أَنَا، أَنْتَ، أَنْتِ، هُوَ، أَنْتُمْ، نَحْنُ
 birikma olmoshlariga: -ي، كَ، لَ، هِ، هَا
 ko'rsatish olmoshlariga: هَذَا، هَذِهِ، هُوَ لَأَنَّ، ذَلِكَ، أُولَئِكَ
 so'roq olmoshlariga: مَا؟ مَنْ؟ أَيُّ؟ كَيْفَ؟
 kabi olmoshlar misol bo'ladi.

Kishilik olmoshlari

Arab tilida ikki xil kishilik olmoshlari bor:

1. Alohida yoziluvchi kishilik olmoshlari (الضَّمِيرُ الْمُنْفَصِلُ)
2. Birikib yoziluvchi kishilik olmoshlari (الضَّمِيرُ الْمُنَّصِلُ)

Alohida yoziluvchi kishilik olmoshlari quyidagi jadvalda berilgan:

ko'plik	ikkilik	birlik	<i>jins, son</i>	shaxs
biz نَحْنُ	-----	أنا men	muzakkar	I sh

			muannas	
siz أَنْتُمْ siz أَنْتُنَّ	siz ikkingiz أَنْتُمَا siz ikkingiz أَنْتُمَا	sen أَنْتَ sen أَنْتِ	muzakkar muannas	II sh
ular هُمْ ular هُنَّ	u ikkovi هُمَا u ikkovi هُمَا	u هُوَ u هِيَ	muzakkar muannas	III sh

Alohida yoziluvchi kishilik olmoshlari aniq shaxsni ko'rsatish uchun ishlatiladi. Bu olmoshlarda jins va son kategoriyalari mavjud.

16-mashq. Matnni o'qing va arab alifbosida yozing. Matndagi olmoshlarni aniqlang.

Zihe tiling ana afsah takallumida fasih
Badang'a kelmadi to azmi ko'yung ayladi ruh.
(“G'aroyib us-sig'ar”)

Va lav hozal maoniy anta qultum,
Taqlu i'lamu yo ayyuhannos.
(“Navodir ush-shabob”)

Navoiy, Ka'ba zikrin qo'yki, biz dayri fano istab
Zahabno vodiyal-maqsad, vajadno mo huva-l-maqsud.
(“G'aroyib us-sig'ar”)

“Va «yoyiy» misol uch harakatdan ortuq topilmas: bezki sort «kadud» der va bizki «mo» va «nahnu» ma'nisi biladur va biyzki (bigiz) «darafsh» derlar.”
(“Muhokamat ul-lug'atayn”)

Birikma olmoshlar

Birikma olmoshlar ism, fe'l, old ko'makchi va yuklama kabilarga birikib keladi. Birikma olmoshlar quyidagilardir:

ko'plik		ikkilik	birlik		jins, shaxs
(bizning) ..imiz	- نَا	-----	(mening) ..im	-ي(ني)	muz. I sh muan.

(sizning) ...ingiz	كُم كُنَّ	ikkingizning .. ingiz	كُمَا كُمَا	(sening) ...ing	كَ كَ	muz. II sh muan.
(ularning) ...i;...si	هُمَّ- هُنَّ-	ikkisining ...lari	هُمَا- هُمَا-	(uning) ...i o‘zining ..i	هُ- هَا-	muz. III sh muan.

Ismning birikma olmosh bilan turlanish jadvali:

ko‘plik	ikkilik		birlik	shaxs, jins
kitobimiz كِتَابِنَا	-----		kitobim كِتَابِي	muz. I sh muan.
kitobingiz كِتَابِكُمْ kitobingiz كِتَابِكُنَّ	ikkingizning kitobingiz	كِتَابِكُمَا	kitobing كِتَابِكَ	muz. II sh
kitobingiz كِتَابِكُمْ	ikkingizning kitobingiz	كِتَابِكُمَا	kitobing كِتَابِكَ	muan.
ularning kitobi كِتَابُهُمْ	ikkisining kitobi	كِتَابُهُمَا	kitobi كِتَابُهُ	muz.
ularning kitobi كِتَابُهُنَّ	ikkisining kitobi	كِتَابُهُمَا	kitobi كِتَابُهَا	III sh muan.

Ismga birikkan birikma olmosh u bilan izofa birikmasi tuzib keladi. Bunda ism aniqlanmish vazifasida «ال» artiklisiz va tanvinsiz kelib gap talab qilgan kelishikda, birikma olmosh esa moslashmagan aniqlovchi vazifasida keladi Tarjimada («o‘zining»degan) o‘zlik ma’no saqlanadi. Masalan, mening (o‘zimning ...im):

(bizning, o‘zimizning) oilamiz

عَائِلَةٌ + نَا = عَائِلَتُنَا

Do‘st – (o‘zining) do‘st(i)ning oynasi.

الصَّدِيقُ
مِرَاةُ
صَدِيقِهِ.

I shaxs, birlik son birikma olmoshini olgan ot kelishiklarda turlanmaydigan “الْمَبْنِيُّ” ismga aylanadi. Ammo shu ot ikkilik yoki to‘g‘ri ko‘plik son muzakkar

jinsda bo'lsa uning birikma olmoshi “ي” deb o‘qiladi, qaratqich-tushum kelishigida esa ikkilanadi: “ي”

kelishik	birlik	ikkilik	ko‘plik
bosh		مُعَلِّمَائِي ikkita o‘qituvchim	مُعَلِّمُوِي o‘qituvchilarim
qaratqich-tushum	مُعَلِّمِي o‘qituvchim o‘qituvchimni o‘qituvchimning	مُعَلِّمَيَّ ikkita o‘qituvchimni ikkita o‘qituvchimning	مُعَلِّمِيَّ o‘qituvchilarimni o‘qituvchilarimning

Ikkilik va muzakkar jins, to‘g‘ri ko‘plik sondagi ismga birikma olmosh qo‘shilganda oxiridagi “ن”lari tushib qoladi:

kelishik	birlik	ikkilik	ko‘plik
bosh	مُعَلِّمَانَا o‘qituvchimiz	مُعَلِّمَانَا ikki o‘qituvchimiz	مُعَلِّمُونَا o‘qituvchilarimiz
qaratqich	مُعَلِّمَانَا o‘qituvchimizning	مُعَلِّمَيْنَا ikki o‘qituvchimizning	مُعَلِّمَيْنَا o‘qituvchilarimizning
tushum	مُعَلِّمَانَا o‘qituvchimizni	مُعَلِّمَيْنَا ikki o‘qituvchimizni	مُعَلِّمَيْنَا o‘qituvchilarimizni

Birikma olmoshi bilan kelgan otning moslashgan aniqlovchisi, izofa birikmasidagi kabi, aniq holatda qo‘yiladi:

uning chiroyli so‘zi (gapi)... كَلَامُهُ الْجَمِيلُ ...
uning bu so‘zi (gapi)... كَلَامُهُ هَذَا ...

III shaxsning to‘rtta “هُنَّ، هُمْ، هُمَا، هُؤُلَا” birikma olmoshlari o‘zidan oldin kelayotgan “i”, “i.” unlilari va sukunli “ya:” ta’sirida o‘z dammalarini kasraga aylantiradi:

مِنْ كِتَابِهِ ، مِنْ كِتَابِهِمَا ، مِنْ كِتَابِهِمْ ، مِنْ كِتَابِهِنَّ

“ة” ga tugagan so‘zga birikma olmosh qo‘shilsa, “ت” ga aylanadi:

جَرِيدَةٌ ← جَرِيدَتُهُ ← سَاعَةٌ ← سَاعَتُهَا

Arab tilida o‘zagi ikkita undoshdan tashkil topgan:

هُنَّ - og‘iz-(فَم)، فُو - egasi، نُو - qaynota، أَحْ - حَمَّ أَبْ

kabi oltita ism izofa birikmasining birinchi bo‘lagi bo‘lib, yoki “ي”dan boshqa birikma olmoshlarini biriktirib kelganida, ularning kelishigi “و”, “ي”, “و” undoshlari yordamida ifodalanadi. Masalan:

bosh kelishik	نُو الْجَلَالِ أَبُو الْقَاسِمِ أَخُو زَيْدٍ	أَبُوكَ أَخُوهُ	أَبِي أَخِي
qaratqich kelishik	أَبِي الْقَاسِمِ أَخِي زَيْدٍ ذِي الْجَلَالِ	أَبِيكَ أَخِيهِ	أَبِي أَخِي
tushum kelishik	أَبَا الْقَاسِمِ أَخَا زَيْدٍ ذَا الْجَلَالِ	أَبَاكَ أَخَاهُ	أَبِي أَخِي

Birikmay, yolg‘iz kelganida bu so‘zlarning kelishigi boshqa so‘zlardagi kabi umumiy tarzda ifodalanadi:

أَبٌ، أَبٍ، أَبًا، الْأَبُ، الْأَبِ، الْأَبَ

ذُو va ذَاتٌ (muannas jins) «egasi» so‘zlari ikkilik sonda ham:

ذَوَا، ذَوِي، ذَوَاتَا، ذَوَاتِي

ko‘plik sonda ham kelishiklarda turlanadi:

ذُؤُو، ذُؤُوي، ذُؤُواتُ، ذُؤُواتِي

so‘zlari ishtirokida ko‘plab murakkab (izofa birikmasi shaklida) so‘zlar yasash mumkin:

ko‘zoynakli	أَبُو نَظَّارَةٍ	chiroyli (chiroy egasi)	ذَاتُ الْجَمَالِ
shijoatli; qo‘rqmas	أَخُو شِجَاعَةٍ	hayoli (hayo egasi)	ذَاتُ الْحَيَاءِ

Arablarda keng tarqalgan laqab, kunya (ota yoki onani farzandi nomi bilan atash) أُمُّ، أُمَّ so‘zlari ishtirokida amalga oshiriladi:

yaxshi(lik qiluvchi) ayol (laqab)	أُمُّ الْخَيْرِ	nodon, johil(laqab)	أَبُو الْجَهْلِ
Xabibaning onasi (kunya)	أُمُّ حَبِيبَةَ	Bakrning otasi(kunya)	أَبُو بَكْرٍ

16-mashq. Matnni arab alifbosida yozing va undagi birikma olmoshlarini aniqlang.

Alisher ul-mutaxallis bi-n-Navoiy sutira ‘uyubuhu va g‘ufira zunubuhu, andoq arz qilurkim, bu xoksori parishonro‘zgor kichik yoshdin..

(“G‘aroyib us-sig‘ar”)

Kahfi fano ichra alar bo‘lsa gum,
Men ham o‘lay robuihum kalbuhum.

(“Xamsat ul-mutahayyirin”)

Ko‘rsatish olmoshlari

Ko'rsatish olmoshi uzoq yoki yaqindagi shaxs yoki narsaga ishora qiladi. U o'zi ko'rsatib kelayotgan so'zning jinsi, soni va kelishigiga moslashib keladi.

Yaqindagi shaxs yoki predmetni ko'rsatuvchi olmoshlar quyidagilar:

jins	birlik	ikkilik	ko'plik
muzakkar	هَذَا (mana) bu...	(mana) bu ikkisi...	هَٰذَا (mana) bular... هَٰؤُلَاءِ
muannas	هَذِهِ (mana) bu...	(mana) bu ikkisi...	هَٰئَاتَانِ (mana) bular... هَٰؤُلَاءِ

Uzoqdagi shaxs yoki predmetni ko'rsatuvchi olmoshlar quyidagilardir:

jins	birlik	ikkilik	ko'plik
muzakkar	anavi ذَاكَ؛ ذَلِكَ	anavi ikkisi ذَانِكَ	anavilar أُولَٰئِكَ
muannas	anavi تِلْكَ	anavi ikkisi تَانِكَ	anavilar أُولَٰئِكَ

Ko'rsatish olmoshi gapda ega, kesim, izohlovchi aniqlovchi vazifalarida keladi. Ismiy gapning egasi ko'rsatish olmoshi bilan ifodalanganda, u kesimning jinsi bilan moslashishi lozim bo'ladi:

Bu Rashid(dir). هَذَا رَشِيدٌ. Bu Fotima(dir). هَذِهِ فَاطِمَةٌ.

Birlik va ko'plik sondagi ko'rsatish olmoshlari kelishiklarda turlanmaydi. Ikkilik sonda esa ikkita kelishikda turlanadi.

kelishik turi	muannas	muzakkar
bosh kelishik	هَاتَانِ	هَٰذَا
qaratqich-tushum kelishik	هَاتَيْنِ	هَٰذَيْنِ

17-mashq. Yozing, o'qing va tarjima qiling. Grammatik tahlil qiling:

هَذِهِ جَامِعَةٌ. هَٰذَا مُدَرِّسٌ. هَٰذَا مُدَرِّسَانِ. هَٰؤُلَاءِ مُدَرِّسُونَ. هَذِهِ طَالِبَةٌ. هَاتَانِ طَالِبَتَانِ. هَٰؤُلَاءِ طَالِبَاتٌ. ذَلِكَ مُعَلِّمٌ. ذَانِكَ مُعَلِّمَانِ. أُولَٰئِكَ مُعَلِّمُونَ. تِلْكَ تَلْمِيذَةٌ. تَانِكَ تَلْمِيذَتَانِ. أُولَٰئِكَ تَلْمِيذَاتٌ. تِلْكَ عُرْفَةٌ. هَاتَانِ عُرْفَتَانِ. تِلْكَ سُبُورَةٌ. تَانِكَ طَبَشُورَةٌ. وَ مِمْسَحَةٌ. ذَانِكَ كُرْسِيَّانِ. هَاتَانِ طَاوِلَتَانِ. هَذِهِ خَرِيْطَةٌ وَ تِلْكَ صُوْرَةٌ. هَاتَانِ خِرَاتَانِ. ذَانِكَ مِصْبَاحَانِ.

Ajratuvchi olmosh

Agar ismiy gapning kesimi soʻzlovchiga oldindan maʼlum boʻlsa va uni taʼkidlab yoki ajratib koʻrsatish zarur boʻlsa bu kesim aniq holatda ham kelishi mumkin. (qiyoslab koʻring: Bu kitobdir. – Bu oʻsha kitobdir.) «Bu kitobdir» degan jumlaning biz tarjima qilishni bilamiz:

هَذَا كِتَابٌ.

Ammo «Bu oʻsha kitobdir». degan jumladagi «oʻsha» soʻzini tarjimada ifodalash uchun gapning egasi bilan kesimi oʻrtasiga egaga jinsda va sonda mos boʻlgan III shaxs kishilik olmoshi qoʻyiladi. Bunday olmosh (ضَمِيرُ الْفَعْلِ) – «ajratuvchi (yoki taʼkidlovchi) olmosh» deb ataladi:

Bu oʻsha kitobdir. هَذَا هُوَ الْكِتَابُ.

Zaynab oʻsha qiz. زَيْنَبُ هِيَ الْبِنْتُ.

Nisbiy olmosh

Nisbiy olmosh aniq holatdagi “مَعْرِفَةٌ” soʻz turkumiga kiradi. U gapning muayyan boʻlagini unga ergashgan jumla vositasida aniqlab keladi. Bu jumla ismiy ham, feʼliy ham boʻlishi mumkin. Nisbiy olmoshlar son va jinsda, ikkilik sonda kelishikda ham, oʻzgaradi. Nisbiy olmoshlar quyidagilardir:

koʻplik	ikkilik	birlik	jins	kelishik
الَّذِينَ الَّذِينَ الَّذِينَ	الَّذَانِ الَّذَيْنِ الَّذَيْنِ	الَّذِي الَّذِي الَّذِي	muzakkar	bosh qaratqich tushum
اللَّوَاتِي اللَّوَاتِي اللَّوَاتِي	اللَّتَانِ اللَّتَيْنِ اللَّتَيْنِ	الَّتِي الَّتِي الَّتِي	muannas	bosh qaratqich tushum

Nisbiy olmosh oʻzbek tiliga koʻpincha “...gan”, “qaysiki” deb kengaytirilgan sifatdosh shaklida tarjima qilinadi.

Arab tilida aniqlovchi ergash gap bosh gapga, agar gapdagi aniqlanib kelayotgan soʻz aniq holatda boʻlsa, nisbiy olmoshlar vositasida bogʻlanadi. Nisbiy olmosh bu boʻlak bilan jins va sonda (ikkilik sonda boʻlsa kelishikda ham) moslashadi. Odatda nisbiy olmoshga feʼliy jumla bogʻlanib keladi. Misollar:

1. Anvardan keyin kelgan kishini taniysanmi?	١. أَتَعْرِفُ الرَّجُلَ الَّذِي جَاءَ قَبْلَ أَنْوَرَ؟
2. Bu oʻsha sen hal qila olmagan muammodir.	٢. هَذِهِ هِيَ الْقَضِيَّةُ الَّتِي عَجَزْتُ عَنْ حَلِّهَا.
3. Menga yordam bergan barcha oʻrtoqlaringa minnatdorchiligimni bildiraman.	٣. أَقَدِّمُ شُكْرِي لِجَمِيعِ زَمَلَائِي الَّذِينَ قَدَّمُوا لِي الْمُسَاعَدَةَ.

4. Bular universitetimizni bitirgan o'sha qizlardir.

٤. هُوَ لَاءَ هُنَّ الطَّالِبَاتُ اللَّوَاتِي فَدَ تَخَرَّجْنَ مِنْ جَامِعَتِنَا.

Nisbiy olmoshga bog'langan jumladagi fe'l o'timli bo'lsa, bu jumlada «qaytuvchi olmosh» (ضَمِيرٌ عَائِدٌ) deb ataluvchi olmosh ham ishtirok etadi. U bosh gapda aniqlanib kelayotgan bo'lakning ikkinchi marta takrorlanishining oldini olib go'yoki uning ergash gapdagi vakili bo'lib uning fe'l-kesimi yoki xos ko'makchisiga jins va sonda moslashib birikib keladi. Masalan:

Biz ko'rgan film fransuzcha ekan.

الْفِيلْمُ الَّذِي شَاهَدْنَاهُ كَانَ فَرَنْسِيًّا.

Siz eshitgan bu shovqin nima bo'ldi ekan?

مَا هَذِهِ الضَّجَّةُ الَّتِي سَمِعْتُمُوهَا.

Universitet kutubxonasidan olgan ikkita jurnalni o'qidim.

قَرَأْتُ الْمَجَلَّتَيْنِ اللَّتَيْنِ أَخَذْتُهُمَا

مِنْ مَكْتَبَةِ الْجَامِعَةِ.

Nisbiy olmoshga «مَنْ- kim; kimki» (oqil uchun) va «مَا- nima; nimaki» (g'ayri oqil uchun)lar ham kiradi. Ular hamma son kategoriyalari uchun bir shaklda ishlatiladi:

Kim (kimki) senga rost so'zlasa, u do'sting.

صَدِيقُكَ مَنْ صَدَقَكَ.

Kim (kimki) senga nasihat qilsa, (uning nasihatiga) quloq sol!

إِلَى مَنْ يُفَدِّمُ لَكَ النَّصِيحَةَ. اسْتَمِعْ

Radio unga xabarlardan nima kel(tiril)sa, o'shani eshittirdi.

نَشَرَتِ الإِدَاعَةَ مَا وَصَلَهَا مِنْ أَنْبَاءِ.

Kim (kimki) siringni saqlasa, o'sha kishiga qalbingni och!

يَحْفَظُ سِرِّكَ! افْتَحْ قَلْبَكَ لِمَنْ

Gapning boshida kelayotgan اللذي ، اللتي nisbiy olmoshlari «kishi; kimsa» ma'nolarida kelishi mumkin.

Gapdagi aniqlanib kelayotgan bo'lak (so'z) noaniq holatda bo'lsa, nisbiy olmosh ishlatilmaydi:

Arab tilida yaxshi so'zlashayotgan bir kishini tingladim.

سَمِعْتُ رَجُلًا يُجِيدُ الْعَرَبِيَّةَ جَيِّدًا.

Nabil kulayotgan odamlar oldidan o'tib ketdi.

فَمَرَّ نَبِيلٌ بِرَجَالٍ يَضْحَكُونَ.

OLTINCHI DARS So'roq olmoshlari

So'zlovchining noma'lum narsa yoki hodisani bilish maqsadida savol bilan qilgan murojaatini ifodalovchi gaplarga so'roq gaplar deyiladi. Bunday so'roq gap so'roq so'zi bilan boshlanadi:

Mashina qayerda?

أَيْنَ السَّيَّارَةُ؟

Kitob qiziqarlimi?

هَلِ الْكِتَابُ مُتَمَعٌّ؟

Og'zaki nutqda so'roq savol ohangi bilan ham ifodalanadi.

Yozding mi? كَتَبْتُ؟ Shu kitobmi? هَذَا الْكِتَابُ؟

Uch hil: umumiy, maxsus va alternativ so‘roq gaplar bor.

I. Umumiy so‘roq gaplar. ” أ ...mi?” yoki ” هَلْ ...mi?” “umumiy so‘roq yuklamalari vositasida ifodalanadi (bir harfdan iborat bo‘lgan yuklamalar so‘zlarga qo‘shilib yoziladi).

U mudarrismi? أَهُوَ مُدَرِّسٌ؟ هَلْ هُوَ مُدَرِّسٌ؟

Bu qalammi? أَهَذَا قَلَمٌ؟ هَلْ هَذَا قَلَمٌ؟

II. Maxsus so‘roq gaplar. Bunday gaplar ushbu so‘roq so‘zlari bilan ifodalanadi: Oqil (odam) haqida so‘rash uchun: kim? ” مَنْ؟“

Maqolani kim yozdi? مَنْ كَتَبَ الْمَقَالَ؟
Darsda kim yo‘q مَنْ غَائِبٌ فِي الدَّرْسِ؟

G‘ayri oqil (odamdan boshqa) haqida so‘rash uchun: nima? – ” مَا؟“

Mashinaning rangi qanday? مَا لَوْنُ السَّيَّارَةِ؟
(nima?)
Ruhshunoslik qanday fan? مَا عِلْمُ النَّفْسِ؟

Zamon haqida so‘rash uchun: qachon? - ” مَتَى؟“

Darsni qachon o‘qiding? مَتَى قَرَأْتَ الدَّرْسَ؟
Yozgi ta‘til qachon? مَتَى الْعُطْلَةُ الصَّيْفِيَّةُ؟

Makon haqida so‘rash uchun: qayerda? – ” أَيْنَ؟“

Uyingiz qayerda أَيْنَ يَقَعُ بَيْنُكُمْ؟
joylashgan?
Surayyo qayerdan مِنْ أَيْنَ تُرِيًّا؟
(kelgan)?

Holat haqida so‘rash uchun: qanday? - ” كَيْفَ؟“

Qalaysan? كَيْفَ حَالُكَ؟
Ertaga ob-havo qanday? كَيْفَ الطَّقْسُ غَدًا؟

Bu so‘roq olmoshlarining oldiga turli old ko‘makchilar qo‘yilib, yangi ma‘nodagi so‘roq olmoshlari hosil qilinishini biz " **أَيْنَ؟** " so‘roq olmoshi misolida ko‘rdik. Ushbu usul bilan boshqa so‘roq olmoshlaridan ham yangi so‘roq so‘zlari yasash mumkin:

nima uchun?	لِمَ؟	=	مَا	+	لِ
kimdan?	مِمَّنْ؟	=	مَنْ	+	مِنْ
nima haqida?	عَمَّ؟	=	مَا	+	عَنْ
nima uchun?	لِمَاذَا؟	=	مَاذَا	+	لِ
nimadan?	مِمَّا؟	=	مَا	+	مِنْ
kimniki? kimga?	لِمَنْ؟	=	مَنْ	+	لِ
kimda bor?					

أَيُّ (muannas jins uchun أَيَّةُ) -qaysi? so‘roq olmoshi bilan hamma narsa haqida so‘rash mumkin. U gapdagi vazifasiga qarab uch kelishikdan birida keladi. Undan keyin kelayotgan so‘z qaratqich kelishigida va birlik sonda bo‘lsa noaniq holatda keladi:

Qaysi dars qiyin? أَيُّ دَرْسٍ صَعْبٌ؟

Ko‘plik yoki ikkilik sonda bo‘lsa aniq holatda keladi:

Qaysi yo‘l afzal? أَيُّ الطَّرِيقَيْنِ أَفْضَلُ؟
 (Ikki yo‘lning qaysinisi afzal?)
Qaysi talaba qoloq? أَيُّ الطُّلَّابِ رَاسِبٌ؟
 (Talabalarning qaysinisi qoloq?)

III. Alternativ so‘roq gaplari. Bunday gaplar ikki yoki undan ortiq narsadan birini tanlash yoki aniqlash yoki taklif etish ma‘nosidagi so‘roq gaplardir. Bunday gapning boshiga **أَيُّ** yoki umumiy so‘roq yuklamalaridan biri qo‘yiladi, ikki narsaning orasiga esa «**أَمْ-**yoki» yuklamasi qo‘yiladi. Masalan:

Sen shoirmi yoki yozuvchimi? أَ أَنْتَ شَاعِرٌ أَمْ كَاتِبٌ؟

Tayyorada qaytdingmi yoki kemada(mi)? أَ بِالطَّائِرَةِ رَجَعْتَ أَمْ بِالْبَاحِرَةِ؟

18- mashq. Jummalarni yozing, o‘qing, tarjima va grammatik tahlil qiling.

مَنْ أَنْتَ؟ لِمَ أَنْتَ حَزِينٌ؟ أَ هُوَ طَالِبٌ رَاسِبٌ؟ أَيْنَ أَشْرَفُ؟ هُوَ فِي مَكَّةَ الْمُكْرَمَةِ. عَمَّ هَذَا الْمَقَالُ؟ هَذَا الْمَقَالُ عَنِ الْأَدَبِ الْإِنْسَانِيِّ. هَلِ اللُّغَةُ الْعَرَبِيَّةُ صَعْبَةٌ أَمْ سَهْلَةٌ؟ اللُّغَةُ الْعَرَبِيَّةُ لُغَةٌ سَهْلَةٌ. عَمَّنْ هَذَا الْمَقَالُ؟ هَذَا الْمَقَالُ عَنِ التُّجَّارِ. هَلْ فِي الْإِمْتِحَانِ الْأُسْتَاذُ عِزَّةُ اللَّهِ أَمْ لَا؟ هُوَ فِي الْقَاعَةِ التَّاسِعَةِ. هَلِ الدَّرْسُ مَفْهُومٌ أَمْ لَا؟ هَذَا الدَّرْسُ مَفْهُومٌ. فِي آيَةِ صَفْحَةِ التَّمْرِينِ الثَّامِنِ؟ هُوَ فِي الصَّفْحَةِ الْعَاشِرَةِ. مَنْ غَائِبٌ فِي هَذِهِ الْحِصَّةِ؟ آيَةٌ نَافِذَةٌ مَفْتُوحَةٌ؟ النَّافِذَةُ الْيُسْرَى مَفْتُوحَةٌ. لِمَنْ هَذِهِ الْجَرِيدَةُ الْعَرَبِيَّةُ؟ هِيَ لِزَيْدٍ. هَلْ لَدَيْكَ سَيَّارَةٌ جَدِيدَةٌ؟ لَا. هَذِهِ

السِّيَارَةُ لِلْأَسَاذِ زِيَادٍ. هَلْ هَذِهِ الصَّيْدِيَّةُ قَدِيمَةٌ أَمْ جَدِيدَةٌ؟ هِيَ فِي عِمَارَةٍ جَدِيدَةٍ. أَيُّ الْوَالِدَيْنِ أَحْمَدُ؟ هَا هُوَ ذَا! آيَةُ الْبَنَاتِ مَرِيْمٌ؟ هَا هِيَ ذِي!

كلمات:

davlat; yurt	بَلَدٌ (بُلْدَانٌ ko'pl.)	tushunarli; tushuncha	مَفْهُومٌ (مَفَاهِيمٌ ko'pl.)
deraza	نَافِذَةٌ (نَوَافِذٌ ko'pl.)	kursi	كُرْسِيٌّ (كُرَاسِيٌّ ko'pl.)
mana u!	هَآ هُوَ ذَا (هَآ هِيَ ذِي)	dars; saboq	حِصَّةٌ (حِصَصٌ ko'pl.)
pul	نَقْدٌ (نُقُودٌ ko'pl.)	qoloq	رَاسِبٌ (-وَنٌ ko'pl.)
savdogar	تَاجِرٌ (تَجَارٌ ko'pl.)	senda bor	لَدَيْكَ

19-mashq. Yozing, o'qing va tarjima qiling. Grammatik tahlil qiling.

الْعِلْمُ نُورٌ. الصِّحَّةُ نِعْمَةٌ. الْجَهْلُ ظُلْمَةٌ. الدَّرْسُ سَهْلٌ. الْقَاعِدَةُ صَعْبَةٌ. التَّمْرِينُ مَفْهُومٌ. الْمَوْضُوعُ مُمْتَعٌ. الْغُرْفَةُ نَظِيفَةٌ. الْغُرَفَتَانِ نَظِيفَتَانِ. الطَّالِبُ حَاضِرٌ. الطَّلَابُ حَاضِرُونَ. الطَّالِبَةُ غَائِبَةٌ. الطَّالِبَاتُ غَائِبَاتٌ. الْأُمُّ رَحِيمَةٌ. أَنَا عُمَانٌ. هُوَ عَلِيٌّ. سَلِيمٌ ضَعِيفٌ. هُوَ قَوِيٌّ. الْمُتَرْجِمَانِ مَاهِرَانِ. الْمُتَرْجِمَاتُ مَاهِرَاتٌ. الْأَمَانُ رَحِيمَتَانِ. الْأُمَّهَاتُ رَحِيمَاتٌ. الْمُعَلِّمُونَ مُحْتَرَمُونَ. الْوَالِدُ مَسْرُورٌ. الْأَوْلَادُ مَسْرُورُونَ. الْكُرَّاسَتَانِ جَدِيدَتَانِ. الْكِتَابُ قَدِيمٌ. الْكِتَابَانِ قَدِيمَانِ. الطَّعَامُ لَذِيذٌ. زَيْدٌ كَسْلَانٌ. زَيْدٌ وَزَيْبُرٌ كَسْلَانَانِ. هُوَ قَدٌ وَفَرَّغَانَةٌ مَدِينَتَانِ. سِيرْدَرِيَا وَأَمُودَرِيَا نَهْرَانِ. الْأَرْضُ وَالْقَمَرُ كَوْكَبَانِ. آسِيَا وَأُورُبَّا قَارَتَانِ. الْأَطْلَسِيُّ وَالْهَادِي مُحِيطَانِ.

الْجَامِعَةُ هِيَ الْبِنَايَةُ. حَامِدٌ هُوَ الطَّالِبُ. عَلِيٌّ هُوَ الْأَوَّلُ فِي الْمَجْمُوعَةِ. عَزِيزَةٌ وَسَلِيمَةٌ هُمَا الْأَوْلِيَانِ فِي الْجَامِعَةِ. أَشْرَفٌ هُوَ الْفَنَى. زَاهِدَةٌ وَشَبِيرِيْنٌ هُمَا الْفَتَاتَانِ. هَذِهِ الْغُرْفَةُ. هَا هُوَ الْقَامُوسُ!

كلمات

bilimsizlik	جَهْلٌ	mashq	تَمْرِينٌ (تَمَارِينٌ ko'pl.)
salomatlik	صِحَّةٌ	qiziqarli	مُمْتَعٌ
hurmatli	مُحْتَرَمٌ	kishi	رَجُلٌ (رِجَالٌ ko'pl.)
shirin;	لَذِيذٌ	qoida	قَاعِدَةٌ (قَوَاعِدٌ ko'pl.)
lazzatli	صَعْبٌ	oson	سَهْلٌ
qiyin	مَفْهُومٌ	toza;	نَظِيفٌ
tushunarli		ozoda	

planeta;	كَوْكَبٌ	institut;	مَعَهْدٌ
yulduz	(ko'pl.) كَوَاكِبٌ	kollej	
kelmagan;	غَائِبٌ	kelgan;	حَاضِرٌ
yo'q		bor	
rahmli	رَحِيمٌ (رُحَمَاءُ-pl. muz.)	suv	مَاءٌ (مِيَاءٌ-pl. ko)
qit'a	(ko'pl.) قَارَةٌ (نَاتٌ-pl. ko)	daftar	كُرَّاسَةٌ (نَاتٌ-pl. ko)
eski;	قَدِيمٌ	dangasa	كَسَلَانٌ (كَسَلَى-mn.)
qadimgi		kuchli	قَوِيٌّ
mohir; usta	مَاهِرٌ	tarjimon	مُتَرْجِمٌ
hursand	مَسْرُورٌ	bola	وَلَدٌ (أَوْلَادٌ-pl. ko)
faol	(ko'pl.) نَشِيطٌ (نَشَطَاءٌ-pl. ko)	Atlantika	الْمُحِيطُ الْأَطْلَسِيُّ
Tinch	(الْمُحِيطُ) الْهَادِي	(okeani)	

YETTINCHI DARS

SO'Z O'ZAGI

(Arab tilida so'z yasalishi)

O'ZAK UNDOSHLAR. SHAKL YASOVCHI UNDOSHLAR

Arabcha so'z o'zagi faqat undosh harflardan iboratdir. Alifboning barcha harflari o'zak (tashkil qiluvchi) undoshlardir. O'zakdagi asosiy undoshlarning ketma-ketligini buzmay ularning oldiga, ortiga, orasiga unli va undoshlarni qo'shib negiz- yangi so'zlar hosil qilinadi.

biluvchi; olim	عَالِمٌ	bildi	عِلْمٌ
so'rab bildi	اسْتَعْلَمَ	bilim , bilish	عِلْمٌ
ta'lim beruvchi	مُعَلِّمٌ	ma'lum; bilingan	مَعْلُومٌ
ta'lim	تَعَلَّمَ	o'rgandi	تَعَلَّمَ

O'zakning asosiy ma'nosi علم – «bilim» hamma so'zda saqlangan. Bu yerdagi qo'shimcha undoshlar shakl yasovchi undoshlardir.

Shakl yasovchi undoshlar 10 ta bo'lib, ular ا ل ي و م ت ن س ه undoshlaridir. Ularni yodda saqlash oson bo'lishi uchun, «اليوم نَسَاهُ» – «Bugun sen uni unutasan» degan gap shakliga solingan. Bu yerdagi ت harfi ni ham bildiradi او undoshlari esa shakl yasovchi cho'ziq unli sifatida ham nazarda tutilgan.

20-mashq. Ushbu so'z guruhlarining o'zak undoshlarini toping:

۱. اعْتَرَفْتُ ، عَرَفْتُ ، اعْتَرَفْتُ ، عَرَفْتُ ، عَرَفْتُ ، عَرَفْتُ ، مَعْرُوفٌ ، تَعْرِيفٌ ؛
۲. رَحْمَانٌ ، رَحِيمٌ ، أَرْحَمُ ، مَرْحُومٌ ، رَحْمَةٌ ، مَرْحَمَةٌ ، تَرْحَمُ ؛
۳. تَعَلَّقَ ، تَعَلَّقَ ، تَعَلَّقَ ، أَعْلَقَ ، عَلَّقَ ، عَلَّقَ ، عَلَاقَةٌ ، مُعَلِّقٌ ، مُتَعَلِّقٌ ؛

٤. تَمَجَّدَ ، تَمَجِّدُ ، مَجِيْدٌ ، أَمَجِدُ ، مَا جِدُّ ، مَجْدٌ ، أَمَجِدَ ؛
٥. حَسَنَةٌ ، حَسَنٌ ، تَحْسِينٌ ، اسْتَحْسَنَ ، أَحْسَنَ ، تَحَسَّنَ ، اسْتَحْسَنَ .

21- mashq. Ushbu so‘zlarning o‘zak hamda shakl yasovchi harflarini aniqlang.

So‘zlarning ma’nolarini lug‘at kitobidan topib, yozib qo‘ying:

مصْبَاحٌ، مُعَامَلَةٌ، دَرَسٌ، مَأْمُولٌ، مَقْعَدٌ، قُفْلٌ، ذِهَابٌ، كَثِيرٌ، صَدَاقَةٌ.

SO‘Z VAZNLARI

Arab tilidagi so‘zlarning xilma-xil shakllarini bir tartibga solish maqsadida ularni vazn (qolip)lar bilan ifodalanadi. Masalan, uch harfli fe’llarning umumiy vazni sifatida «فَعْلٌ» qildi o‘zagi ishlatiladi. Bunda «ف» harfi fe’lning birinchi o‘zak undoshini, «ع» harfi ikkinchi o‘zak undoshini, «ل» harfi esa uchinchi o‘zak undoshini ifodalaydi. Har qanday so‘zning vazni shu harflar asosida yasaladi. Harakatlari va shakl yasovchi undoshlari esa shundoq ko‘chirib qo‘yiladi. Bizga tanish quyidagi so‘zlar ushbu vaznlar bo‘yicha yasalgan ekan:

مَدْرَسَةٌ ← عَالِمٌ؛ مَفْعَلَةٌ ← عِلْمٌ؛ فَاعِلٌ ← عِلْمٌ؛ فِعْلٌ ← دَرَسَ؛ فَعْلٌ ← فَعْلٌ

To‘rt yoki besh harfli so‘zlarni vaznga solinganda to‘rtinchi undosh ham, beshinchi undosh ham Uharfi bilan belgilanadi:

فَعَّلٌ ← مُفَعَّلٌ ؛ سَفَرَجَلٌ ← فَعَّلٌ ؛ مُتَرْجِمٌ ← تَرْجَمَ

LUG‘AT- QOMUS BILAN ISHLASH

Lug‘atlar asosan o‘zak asosida tuzilgan bo‘ladi. Ularda bir o‘zakka oid bo‘lgan so‘zlar bir joyda beriladi. Bunday lug‘at bilan ishlashda so‘zning tarjimasini bilish uchun avval uning o‘zagini aniqlash kerak. Ammo bu narsaga ko‘p o‘qib, o‘rganib erishiladi. Agar o‘quvchiga bir o‘zakka oid bir necha so‘zlar ma’lum bo‘lsa, ularning o‘zagini topish osonroq bo‘ladi.

Masalan, مَدْرَسَةٌ، تَدْرِيسٌ، مَدْرَسَةٌ، دَرَسٌ، مَدْرَسَةٌ، دَرَسٌ so‘zlari o‘zagi asosida va كَلِمَةٌ، مُتَكَلِّمٌ، كَلَامٌ، مَدْرَسَةٌ، تَدْرِيسٌ، مَدْرَسَةٌ، دَرَسٌ، مَدْرَسَةٌ، دَرَسٌ، مَدْرَسَةٌ، دَرَسٌ، مَدْرَسَةٌ، دَرَسٌ so‘zlarining ma’nolarini lug‘atlarda sўzларининг ўзаги эса келм ўзаги асосида ҳосил қилинган экан.

Ushbu so‘zlarning ma’nosini topishda ularni lug‘atdan shu o‘zaklar bo‘yicha qidirish lozim. Ya’ni أَحْمَدٌ، حَمِيدٌ، حَمْدٌ so‘zlarining ma’nolarini lug‘atlarda alifbo tartibida emas, balki uni «ح» harfi bilan boshlangan «حمد» o‘zagidan qidirish kerak bo‘ladi.

22- mashq. Ushbu matnni yozing, o‘qing va tarjima qilishga urinib ko‘ring. Yangi so‘zlarni yod oling. So‘zlarning vaznlarini aniqlashga urinib ko‘ring.

فِي مَطَارِ طَشْقَنْدَ

فِي طَشْقَنْدَ مَطَارَانَ. الْمَطَارُ الْأَوَّلُ صَغِيرٌ وَهُوَ لِلرِّحَالَتِ الدَّاخِلِيَّةِ فِي أُوزْبِكِسْتَانَ، وَأَمَّا الْمَطَارُ الثَّانِي كَبِيرٌ وَهُوَ لِلرِّحَالَتِ الْخَارِجِيَّةِ. هُوَ مَطَارٌ عَالَمِيٌّ. أَنَا مُدْرِسُ اللُّغَةِ الْعَرَبِيَّةِ. اسْمِي عَبْدُ الْحَمِيدِ. أَنَا أُوزْبِكِيٌّ. عَائِلَتِي وَبَيْتِي فِي طَشْقَنْدَ. أَنَا الْآنَ فِي مَطَارِ طَشْقَنْدَ الْعَالَمِيِّ. سَيَّارَتِي

خَارِجَ الْمَطَارِ. نَحْنُ الْآنَ فِي صَلَاةِ الْإِنْتِظَارِ. أَنَا فِي ائْتِظَارِ صَدِيقِي وَأُسْرَتِهِ. هُوَ مِنَ الرِّيَاضِ.
هُمُ الْآنَ مَعَ ضَابِطِ الْجَوَازَاتِ وَبَعْدَ ذَلِكَ مَعَ مُفْتَشِ الْجُمْرِكِ.

داخِلِيَّ (خَارِجِيَّ) ichki (tashqi)
الآنَ hozir
اِئْتِظَارٌ kutish, intizorlik
مُفْتَشُ الْجُمْرِكِ bojxona nazoratchisi
ضَابِطُ الْجَوَازَاتِ pasport tekshiruvchi ofitser
رَحْلَةٌ (رَحَلَاتٌ) reys; sayohat (ko'pl.)
صَلَاةٌ (صَلَاتٌ) zal (ko'pl.)

SAKKIZINCHI DARS ISMLARNING TURLARI OT

Odam, jonivor, buyum, ashyo kabi narsalarni bildirib kelgan soʻzlarga ot deyiladi. Arab tilidagi ot kimni yoki nimani anglatib kelganiga qarab oqil va gʻayri oqilni anglatuvchi otga boʻlinadi. Odamni anglatib kelgan otlar oqilni anglatuvchi otlarga, odamdan boshqasini anglatib kelgan otlar esa gʻayri oqilga kiradi. Masalan:

(oqil)	رَيْدٌ، إِنْسَانٌ، مُدْرَسٌ، وَالدُّ، رَجُلٌ، صَدِيقٌ
(gʻayri oqil)	حَيَوَانٌ، قَلَمٌ، كُرْسِيٌّ، طَاوَلَةٌ، نَمْرٌ، زَهْرٌ

Bu otlar ikki xil: turdosh yoki atoqli boʻladi.

Turdosh ot. Bir turdagi shaxs yoki narsaning umumiy nomini bildirgan otga turdosh ot deyiladi. Uning jinsi oʻzgarmas boʻlib muzakkar yoki muannas jinsda boʻladi. Erkak yoki ayol kishini bildirgan va oʻzgarmas jinsda boʻlgan turdosh otlar esa kam uchraydi. Misollar:

muannas jins	muzakkar jins
qiz	بِنْتٌ bola
ayol (ayollar)	نِسَاءٌ kishi
ona	أُمُّ ota
kuyov	عَرِيْسٌ kelin
birodar ayol	أَخْتٌ birodar
daftar	كُرْسِيَّةٌ qalam

Kishini yoki uning kasbini bildirgan turdosh otlar erkak va ayolni anglatgani uchun ikkala jins koʻrinishida boʻladi.

muannas jins

muzakkar jins

toliba	طَالِبَةٌ	talaba	طَالِبٌ
mudarrisa	مُدْرِسَةٌ	mudarris	مُدْرِسٌ
o'qituvchi	مُعَلِّمَةٌ	o'qituvchi	مُعَلِّمٌ
ayol	طَبِيبَةٌ	shifokor	طَبِيبٌ
shifokor ayol			

Atoqli ot. Atoqli ot yakka shaxs ismi, ba'zi-bir geografik joy nomi, jonivor yoki narsaning nomi kabilarni anglatib kelgan otdir. Arab tiliga xos bo'lgan kishining laqabi va kunyasi (kunya-kishini farzandining ismi bilan chaqirish) kabilar ham atoqli otga mansubdir. Misollar:

(*laqab*), أَبُو جَهْلٍ (*kunya*) جَعْفَرُ، أَمَلُ، سَعَادُ، النَّيْلُ، الْقَاهِرَةُ، أَبُو بَكْرٍ

Ismlarning grammatik kategoriyalari. Jins kategoriyasi

Arab tilidagi so'z muannas (qiz) yoki muzakkar (er) jinsida bo'ladi. So'zning muannas jinsdaligini bildiruvchi yozilishidagi tashqi (morfologik) belgilari uchta:

1-So'zning (ة) bilan tugashi. Bunday so'zlar ko'p uchraydi:

عَلَّةٌ illat غُرْفَةٌ xona مَدْرَسَةٌ maktab

2-So'zning اء (alif va hamza)ga tugashi. Bunday so'zlar kam uchraydi:

صَحْرَاءُ sahro سَمْرَاءُ rang bug'doy سَمَاءُ osmon

3-So'zning اى (alif maqsura) ga tugashi. Bunday so'zlar juda kam uchraydi:

بَشْرَى xushxabar مُسْتَشْفَى shifoxona

Boshqa muannas jinsdagi so'zlar anglatgan mazmuniga ko'ra aniqlanadi:

A) Ayol kishini yoki ularning ismini bildiruvchi so'zlar :

وَدَادٌ Vidad أُمُّ ona- بِنْتُ qiz- عَرُوسٌ kelin

B) Tananing juft a'zolarini bildiruvchi so'zlar:

ko'z	عَيْنٌ	quloq	أَذُنٌ	qo'l	يَدٌ
yanoq	الْخَد	chakka	الْصَدْع	jag', iyak	اللحي
engak, jag'	الْفَك	tirsak	المرفق	bilak	الزند
tirsak	الكوع	tirsak suyagining barmoqlari tegib turgan qismi			الكرسوع

V) Xalqlar, qabilalarning, ba'zi davlatlar va shaharlarning geografik nomlari:

Quraysh (qabila) قُرَيْشٌ Livan لُبْنَانُ Liviya لِيَبِيَا

G) Yaratilishiga ko'ra yagona bo'lgan narsalarning nomlari:

quyosh شَمْسٌ shamol رِيحٌ olov نَارٌ

Shamol nomlari: حرور – "issiq kechki shamol", دبور – "g'arbiy shamol", سموم – "samum", هيف – "issiq janubi - sharqiy shamol", شمال – "shimol shamoli", صبا – "yengil sharq shamoli", قبول – "sharq shamoli".

Arab tilida «ta marbuta» (ة) yoki «alif maqsura» (ى) ga tugagan muannas jins ko'rinishida bo'lgan erkak kishi ismlari ham ko'p uchraydi:

Alloma عَلَامَةٌ Xalifa خَلِيفَةٌ Atiyya عَطِيَّةٌ
Mustafo مُصْطَفَى Muso مُوسَى Iso عِيسَى

Qolgan so'zlar muzakkar jinsiga taalluqli so'zlardir.

Ba'zi so'zlar ikkala jinsda ham ishlatilaveradi. Bunday so'zlar lug'at kitoblarining oxirida ilova qilinadi. Masalan:

barmoq إِبْطٌ vino خَمْرٌ qo'ltiq إِبْطٌ

Muzakkar jins morfologik ko'rsatkichga ega emas. Agar muannas jinsdagi hamda umumiy jinsdagi ismlarni ajratib olinsa, qolgan hamma ismlar muzakkar jinsga tegishli bo'ladi.

Inson hayotida muzakkar va muannas jinslari mavjud bo'lib, ularni bir-biridan ajratib olish zarur. Ajratish uchun qoida tuzish lozim. Shuning uchun tilshunos olimlar muzakkar va muannas jinslarining har birining yorqin ta'riflarini keltirganlar:

“Muzakkar jinsi muannas jinsining asl negizidir. U muannaslik belgisidan talaffuzda va asli mohiyatida xolidir. Muzakkar jinsi ikki xildir:

1) Haqiqiy. Bunda o'sha so'zning o'zi erkak jinsida bo'ladi, masalan: الرجل – kishi, الجمل – tuya.

2) Haqiqiy bo'lmagan(majoziy). Bunda yuqoridagi holat bo'lmaydi, masalan: “الجدار – devor, العمل – ish”.

Demak, arab tilida ikkita jins – muzakkar va muannas mavjud. Muzakkar jinsi asosiy negizdir. Muannas jinsi esa undan chiqqan bir bo'lakdir. Muannas va umumiy jinsdagi ismlar ajratib olinsa, qolgan hammasi muzakkar jinsga mansubdir.

23-mashq. Matnni arab yozuvida yozing va muannas jinsi shaklidagi so'zlarni ma'nolarini toping

Agarchi **shams**ni oltun ko‘rar his
Vale chun shindin ayrildi bo‘lur mis.

(“Xamsa”)

Himmat elidur **yadi** bayzo degan,
Er nafasidur dami Iso degan.

(“Majolis un-nafois”)

“Va ul sarsari erdikim, ani **rihul** aqim debdurlar”.

(“Tarixi anbiyo va hukamo”)

TO‘QQIZINCHI DARS

Aniqlik va noaniqlik holati

Nutq jarayonining borishiga qarab jumladagi predmet yoki shaxsni ifodalagan so‘z aniq yoki noaniq holatda keladi. So‘zlovchiga oldindan ma‘lum bo‘lgan so‘z aniq, noma‘lum bo‘lgani noaniq holatda bo‘ladi. So‘zning aniq holatda ekanligini ko‘rsatib turadigan belgi **J** aniqlik artikli, noaniq holatda ekanligini ko‘rsatib turadigan belgi esa so‘zning tanvinga tugagani bo‘ladi.

J aniqlik artikli ishora qilish va umumlashtirish ma‘nolarini ham ifoda etadi:

bugun (bu kun)	الْيَوْمَ	kun	يَوْمٌ
insoniyat	الْإِنْسَانُ	inson	إِنْسَانٌ

J aniqlik artiklisiz kelgan ushbu so‘zlar ham aniq holatda deb hisoblanadi:

- a) atoqli otlar: مِصْرُ، مَكَّةُ، طَشَقَنْدُ، أَحْمَدُ، فَاطِمَةُ kabi;
- b) ko‘rsatish olmoshlari: هَذَا، هَذِهِ، ذَلِكَ، تِلْكَ kabi;
- v) kishilik olmoshlari: أَنَا، أَنْتَ، أَنْتِ، هُوَ، هِيَ، أَنْتُمْ kabi;
- g) qaratqich-qaralmish(izofa) shaklidagi birikmaning 1-bo‘lagi:
كِتَابُ الطَّالِبِ، طَالِبُ الْجَامِعَةِ kabi;
- d) undalmasi bilan kelgan so‘zlar: يَا غُلَامُ، يَا أَسْتَاذُ kabi.

Tanvinga tugagan so‘zlar noaniq holatda bo‘ladi:

-bir) maktab) كِتَابٌ (bir) بنتٌ (-bir) qiz) مَدْرَسَةٌ (-bir)

OTLARNING TURLANISHI

Kelishiklar otni otga yoki otni fe‘lga bog‘lab, gap bo‘laklari o‘rtasidagi munosabatlarni aniqlashtirib keladi. Arab tilida uchta kelishik mavjud.

1. Bosh kelishik (rafʼ) 2. Qaratqich kelishigi (jar) 3. Tushum kelishigi (nasb)
Oʻzbek tilida esa oltita kelishik bor.

Kelishiklarning nomi	Qoʻshimchasi	misol	Soʻroqlari
Bosh kelishik	-	uy	kim?, nima?, qaerda?
Qaratqich kelishigi	-ning	uyning	kimning?, nimaning?, qaerning?
Tushum kelishigi	-ni	uyni	kimni?, nimani?, qaerni?
Joʻnalish kelishigi	-ga, ka, qa	uyga	kimga?, nimaga?, qaerga?
Oʻrin- payt kelishigi	-da	uyda	kimda?, nimada?, qaerda?
Chiqish kelishigi	-dan	uydan	Kimdan?, nimadan?, qaerdan?

Arab tilida bosh, qaratqich, va tushum kelishiklaridan boshqa yaʼni joʻnalish, oʻrin-payt, va chiqish kelishiklarining qoʻshimchalarining qoʻshimchalari koʻmakchilar bilan ifodalanadi. Koʻmakchidan keyin kelgan ot albatta qaratqich kelishigining shaklida boʻlishi kerak. Lekin oʻzbek tiliga tarjima qilganda koʻmakchi qaysi maʼnoni anglatasa, oʻsha maʼnoda tarjima qilinadi.

Ismlarni uch kelishikda turlash jadvali:

holat	kelishik	muzakkar jins		muannas jins		kelishik qoʻshimcha
noaniq	bosh	kitob	كِتَابٌ	maktab	مَدْرَسَةٌ	ُ(-un)
	qaratqich	kitobning	كِتَابٍ	maktabning	مَدْرَسَةٍ	ِ(-in)
	tushum	kitobni	كِتَابًا	maktabni	مَدْرَسَةً	َ(-an)
aniq	bosh	kitob	الْكِتَابُ	maktab	الْمَدْرَسَةُ	ُ(-u)
	qaratqich	kitobning	الْكِتَابِ	maktabning	الْمَدْرَسَةِ	ِ(-i)
	tushum	kitobni	الْكِتَابَ	maktabni	الْمَدْرَسَةَ	َ(-a)

Jadvalga izoh: Agar soʻz tanvin fathaga tugasa uning oxiriga oʻqilmaydigan alif harfi yoziladi. Agar «ta-marbuta» yoki yolgʻiz «hamza» soʻz oxirida tanvin fatha bilan kelsa undan keyin alif yozilmaydi.

Arab tilida otlarning koʻpchiligi uchta kelishigida turlanadi. Biroq baʼzi otlar faqat ikkita kelishikda turlanadi, chunki tushum kelishigining maʼnoi qaratqich kelishigining maʼnosida toʻgʻri keladi.

Otlarning ikkilik son va toʻgʻri koʻplik son shakllarining turlanishi.

Otlarning ikkilik son shakllari faqat ikkita kelishikda, bosh kelishik va qaratqich-tushum kelishiklarida turlanadi

kelishik	noaniq holatda		aniq holatda		kelishik va ikkilik son qo'shimchasi
	muzakkar	muannas	muzakkar	muannas	
bosh	طَالِبَانِ	طَالِبَتَانِ	الطَّالِبَانِ	الطَّالِبَتَانِ	ان(-a:ni)
qaratqich- tushum	طَالِبَيْنِ	طَالِبَتَيْنِ	الطَّالِبَيْنِ	الطَّالِبَتَيْنِ	ين(-ayni)

To'g'ri ko'plikning muannas va muzakkar jinslari ham bosh kelishik, qaratqich-tushum kelishiklarida turlanadi.

jins	kelishik	noaniq holat	aniq holat	kelishik va ko'plik son qo'shimchasi
muzakka	bosh	مُدَّرِسُونَ	الْمُدَّرِسُونَ	ون-u:na
	qaratqich tushum	مُدَّرِسِينَ	الْمُدَّرِسِينَ	ين-i:na
muannas	bosh	مُدَّرِسَاتُ	الْمُدَّرِسَاتُ	ات a:tun ات a:tu
	qaratqich tushum	مُدَّرِسَاتٍ	الْمُدَّرِسَاتِ	ات a:tin ات a:ti

Ko'rsatish olmoshlarining qaratqich-tushum kelishikida ikkilik son shakli quyidagicha bo'ladi: muzakkar jinslarda هَازَيْنِ \hazayni\ va ذَيْنِكْ \zaynika\
Muannas jinslarda هَاتَيْنِ \hatayni\ va تَيْنِكْ \taynika\ bo'ladi.

Ega, ot-kesim va ular bilan moslashgan aniqlovchilar bosh kelishik shaklida bo'ladi:

Otlar holatda qaratqich kelishikda hamda ko'makchilardan so'ng kelsa quyidagicha bo'ladi. Masalan: \ilal\ الي المصنع \ilal masna'i\ -zavodga.

24- mashq . \huvarun\ -so'zlashuv

حوار

- نهاركم سعيدا . اهلا وسهلا تفضل!

- شكرا حالي طيب

و صحتي جيدة و كيف انت؟

- كلاهما سالمان الحمد لله الي

اين انت ذاهب ؟ اما حدث شيء

- كنت في القرية

- في القرية يانكي اباد

- نعم ، كنت معلما في مدرستها

- نهاركم سعيدا

- اشكركم كيف حالك يا صدقي ؟

هل انت صحيح ؟

- حالي طيب ايضا . كيف صحة ابيك

و امك ؟

- الي العمال. نعم ما حدث شيء

اين كنت امس ؟

- في أية القرية ؟

- هل سكنت فيها سابقا ؟

- لا انا ولدت في هذه المدينة
 - في تلك البناية ، في منزلنا الجديد .
 - في الشارع نواني
 - في الجامعة الشرقية .
 انا الآن في الصف الثاني
 - مع السلامة و الي اللقاء .

- انت من تلك القرية ؟
 اين تسكن ؟
 اين هو منزلكم الجديد ؟
 - في أي جامعة تدرس ؟
 - الي اللقاء .

O'NINCHI DARS

Son kategoriyasi

Ism turkumidagi soʻzlar uchta grammatik sonda turlanadi:

1. Birlik- مُفْرَدٌ 2. Ikkilik- تَنْبِيْةٌ 3. Koʻplik- جَمْعٌ

Ikkilik son

Ikkilik son muzakkar yoki muannas jins, birlik sonda boʻlgan ismning oxiridagi تانVININI олиб tashlab, oʻrniga ان(a:ni) qoʻshimchasini qoʻshib yasaladi. Bunda muannas jinsdagi soʻzning ة («ta marbuta») si ت («ta mamduda»)ga almashtiriladi. Masalan:

ikkita toliba	طَالِبَتَانِ	←	toliba	طَالِبَةٌ
ikkita mudarris	مُدْرَسَاتٍ	←	mudarris	مُدْرَسٌ

Ikkilik sondagi soʻz oldiga لartikli qoʻyilganda ham ن qoʻshimchasi oʻzgaraydi:

كِتَابَانِ ← الْكِتَابَانِ طَالِبَتَانِ ← الطَّالِبَاتِ

Alif maqsura - ب bilan tugagan soʻzning ikkiligi hosil qilinganda u ي ga oʻzgaradi:

بُشْرَى خُشْخَابَر ← بُشْرِيَانِ خُشْخَابَر

Hamza (ء) yoki alif (ا) bilan tugagan soʻzlardan ikkilik son hosil qilinganda, ularning hamza yoki aliflari «wa:wun» (و)ga aylanib ketadi:

حَسَنَاءُ goʻzal ← حَسَنَآوَانِ ikkita goʻzal

Ikkilik sondagi soʻzlar ikkita- bosh va qaratqich-tushum kelishiklarida turlanadi:

25- mashq. A) Ushbu soʻzlarning aniq va noaniq holatdagi ikkilik sonini hosil qiling , ularning jinsini aniqlang va kelishiklarda turlang:

نَهْرٌ ، بَحْرٌ ، بُسْتَانٌ ، شَابٌ ، شَابَةٌ ، سُورِيٌّ ، سُورِيَّةٌ ، جَوَارٌ ، رَوَايَةٌ ، نَصٌّ ، وَادٌ ، بِنْتُ .

B) Ushbu soʻzlarning birlik sonini va jinsini aniqlang, tarjimasini biling va kelishiklarda turlang. Ularni aniq holatga oʻtkazing:

سَيَّارَتَانِ، مَكْتَبَتَانِ، مُسْلِمَانِ، مَشْهُورَانِ، مَسْرُورَانِ، مَدِينَتَيْنِ، كَسَلَانَيْنِ.

26- mashq. A) Ushbu soʻzlarning muannas jinsini hosil qiling:

كَاتِبٌ، وَالِدٌ، مُدِيرٌ، تَلْمِيذٌ، ذَاكَ (ذَلِكَ)، هَذَا، أَنْتُمْ، هُمْ، أَنْتِ، ابْنٌ.

B) Ushbu soʻzlarning ichidan muzakkar va muannas jinsdagi soʻzlarni alohida- alohida qilib yozing:

(qiz ismi) ، مَدِينَةٌ، أَبٌ، أُمٌّ، دِينَ، دَيْنٌ، يَدٌ، كَمَالٌ، أَنَا، كَمَالَةٌ، أُذُنٌ، وَادٌ، نَبِيْلَةٌ ، (goʻzallik) ، بَهَاءٌ (qiz) ، وَلِيْدَةٌ (bola ismi) نَبِيْلٌ.

27-Mashq. Matnni arab alifbosida yozing.

“Va anga «Muhokamat ul-lugʻatayn» ot qoʻydim, to turk eli tili fasohatu diqqati va balogʻatu vusʻatiki, ul Hazrat bu til va iborat bila nazm bisoti tuzubdurlar va Masiho anfosi va Xizr zulolidin oʻluk tirguzmak tariqin olam ahliga koʻrguzubdurlar, zohir qildim”.

(“Muhokamat ul-lugʻatayn”)

KOʻPLIK SON

Arab tilida soʻzlarning koʻpligini hosil qilish ancha murakkabdir. U ikki usulda yasaladi: 1. Siniq koʻplik yasash usuli; 2. Toʻgʻri koʻplik yasash usuli;

TOʻGʻRI KOʻPLIK

Toʻgʻri koʻplik yasashda ismning oxiriga koʻplik qoʻshimchasi qoʻshilganda birlik shakli oʻzgarmay turadi.

Muzakkar jinsdagi toʻgʻri koʻplik shaxsni bildiradigan atoqli otlardan, ularning kasbini bildiradigan soʻzlardan, ”ة” (“ta marbuta”) bilan tugamagan va ikkilik va toʻgʻri koʻplik qoʻshimchalaridan xoli boʻlgan soʻzlardan hosil qilinadi.

Muzakkar jinsdagi, odamni va uning kasbi-korini bildiradigan soʻzning koʻpligi uning oxiriga "-ون" va muannas jinsdagi soʻzning koʻpligi uning oxiriga "-ات" qoʻshimchasini qoʻshib hosil qilinadi, Bu yerda ham ة harfi ت ga aylanadi. Muzakkar jins toʻgʻri koʻplikdagi soʻzlar ال artikli olganda kelishik qoʻshimchalari oʻzgarmaydi:

mudarrislar	مُدَّرِّسُونَ	←	mudarris	مُدَّرِّسٌ + وَنْ
mudarrisalar	مُدَّرِّسَاتٌ	←	mudarris	مُدَّرِّسَةٌ + اتٌ

a

To‘g‘ri ko‘plik, muannas jinsdagi ism esa ل artikli olganida tanvini tushib qoladi:

mudarrisalar	← مُدَرِّسَاتٌ
tikuvchilar	← خَيَّاطَاتٌ

Odamni bildirmaydigan- g‘ayri oqil muzakkar va muannas jinsdagi aksariyat so‘zlarning ko‘pligi ham muannas jinsdagi to‘g‘ri ko‘plik shaklida hosil qilinadi:

hayvon - hayvonlar	← حَيَوَانٌ
imtihon - imtihonlar	← اِمْتِحَانٌ

Eslatma: ى(alif maqsura) bilan tugagan muzakkar jinsdagi so‘zlarning to‘g‘ri ko‘pligi hosil qilinganda ى tushib qolib, undan oldin kelayotgan «fatha» saqlanadi:

الأعلى eng baland; a‘lo - (الأعلون) lolar)

الأنتى eng past - (الأند) eng pastlar; pastqamlar)

Hamza (ء) yoki alif maqsura ى bilan tugagan muannas jinsdagi so‘zlarning to‘g‘ri ko‘pligi hosil qilinganda (ء) «hamza» ga va «alif maqsura» (ى) -ي ga aylanadi:

xotiralar	← حَسَنَاتٌ
go‘zallar	← ذِكْرِي
ذكريات	← ذِكْرِيَاتٌ

Ba‘zi so‘zlarning ko‘pligi muzakkar jinsida - siniq ko‘plikda, muannas jinsdagisi esa - to‘g‘ri ko‘plikda hosil bo‘ladi. Buni aniqlash uchun bizga lug‘at kitoblari va o‘zimiz yod olgan so‘z boyligimiz qo‘l keladi.

Turkiy tillardan arab tiliga o‘zlashgan so‘zlarda ham bu hodisani kuzatamiz. Masalan: “boy”, “kalish”, “qovun”, kabi o‘zlashmalarning ko‘plik shakli arab tilida to‘g‘ri ko‘plik, muannas jinsining “-atun” qo‘shimchasi yordamida yasalgan, ya‘ni “boy” so‘zidan – كَالوِشَاتٌ - ko‘pligi كَالوِش; “kalish” – كَالوِشَاتٌ - ko‘pligi كَالوِش; “qovun” so‘zidan . قَاوُونَاتٌ - ko‘pligi قَاوُونَة - قَاوُون .

28-mashq. Matnni arab alifbosida yozing va to‘g‘ri ko‘plik shaklidagi arabcha so‘zlarni ma‘nosini yozing.

Iskandarning Arastudin savoli ul bobdakim, chun inson darki maqsudi asliy haqiqati idrokidin muarrodur, nega soyir hayvonotdin mustasnodur.

(“Saddi Iskandariy”)

Quyoshkim koinot andin olur nur,

Qilur har tun qaro tufroqqa mastur.

(“Hayratul-abror”)

Ammo chun alfoz va iboratdin murod ma‘nidur va mazkur maxluqotdin maqsud insondur va ul mazhari maoniy va bayon, so‘z aning so‘zindadur va takallum aning kalomida borur.

(“Muhokamat ul-lug‘atayn”)

O‘n birinchi dars

SINIQ KO‘PLIK SHAKLLARI

Siniq ko‘plik. Ismdan siniq ko‘plik yasashda so‘zning o‘zagiga boshqa yangi undosh va unlilar qo‘shilib uning birlik sondagi shakli boshqa shaklga o‘zgaradi.

«Siniq ko‘plik» deb atalishiga sabab ham shu. Siniq ko‘plikdagi ba’zi so‘zlar tanvin damma bilan, ba’zilari damma bilan tugaydi:

kitob-kitoblar	كِتَابٌ-كُتُبٌ	dars-darslar	دَرْسٌ-دُرُوسٌ
боф- боғлар	حَدِيقَةٌ-حَدَائِقُ	qadimgi-qadimgilar	قَدِيمٌ-قَدَمَاءٌ

Ma’lumki, hozirgi o‘zbek tiliga ham siniq ko‘plik shakliga ba’zi so‘zlar o‘zlashgan. Masalan: ajdod, avlod, aqalli, aksar, ulamo, shuaro, marosim kabi.

Biroq, turkiy tillardan arab tiliga o‘zlashgan so‘zlarda ham siniq ko‘plik hodisasini kuzatamiz. “Xoqon”, “xotun”, “xonim”, “xanjar” kabi so‘zlarining ko‘pligi siniq ko‘plik qolipi asosida yasalgan, ya’ni “xoqon” va “xotun” so‘zlari “favaa’iilu” vaznida, “xonim” so‘zi esa “favaa’ilu” vaznida yasalgan. Misol: “xoqon” – خاقان ko‘pligi – خواقين; “xotun” – خاتون ko‘pligi – خواتين; “xonim” – هانم ko‘pligi – هوانم. – هوانم ko‘pligi – خانجر ko‘pligi – kinjal, xanjar.

So‘zlarning siniq ko‘pligini hosil qilishning aniq bir qoidasi yo‘q. Ammo bir xil qolipdagi so‘zlarning siniq ko‘pligi odatda bir xil qolipda hosil qilinadi:

darslar	دَرْسٌ - دُرُوسٌ	chaqaloqlar	مَوْلُودٌ- مَوَالِيدُ
ko‘zlar	عَيْنٌ - عَيْنُونَ	korxonalar	مَشْرُوعٌ - مَشَارِيعُ
farz amallar	فَرَضٌ - فُرُوضٌ	tushunchalar	مَفْهُومٌ- مَفَاهِيمُ
qarz	دَيْنٌ - دِيُونٌ	tantana; protokol	مَرْسُومٌ - مَرَسِيْمٌ

Jadvalga qarab o‘xshash vazndagi so‘zlarning ko‘pligi ko‘pincha bir xil vaznda bo‘ladi deb ayta olamiz. Ammo birlik sonida bir vaznda bo‘lgan so‘zlarning ko‘pligi har xil yoki, aksincha, birlikda har xil vaznda bo‘lgan so‘zlarning siniq ko‘pligi bir xil vaznda bo‘lishi mumkin. Quyidagi jadvalda siniq ko‘plikning ko‘p uchraydigan shakllari berilgan:

Tarjimasi	Ko‘plik shakli	Birlik shakli
fasl- fasllar	فُصُولٌ	فَصْلٌ
o‘tloqzor- o‘tloqzorlar	مُرُوجٌ	مَرْجٌ
qalam- qalamlar	أَقْلَامٌ	قَلَمٌ
xato- xatolar	أَغْلَاطٌ	غَلَطٌ
talaba - talabalar	طَلَابٌ	طَالِبٌ
posbon- posbonlar	حُرَّاسٌ	حَارِسٌ
bo‘lim - bo‘limlar	أَقْسَامٌ	قِسْمٌ
ism - ismlar	أَسْمَاءٌ	إِسْمٌ
gazeta - gazetalar	جَرَائِدٌ	جَرِيْدَةٌ
vosita - vositalar	وَسَائِلٌ	وَسِيْلَةٌ
institut- institutlar	مَعَاهِدٌ	مَعْهَدٌ
zavod- zavodlar	مَصَانِعُ	مَصْنَعٌ

yo'l- yo'llar	طَرُقَ	فَعْلٌ	طَرِيقٌ	٧. فَعِيلٌ
yangi- yangilar	جُدُّ		جَدِيدٌ	فَعِيلَةٌ
orden- ordenlar	أَوْسِمَةٌ	أَفْعَلَةٌ	وَسَامٌ	٨. فِعَالٌ
qurol- qurollar	أَسْلِحَةٌ		سِلَاحٌ	
kitob- kitoblar	كُتِبَ	فَعْلٌ	كِتَابٌ	٩. فِعَالٌ
poyezd- poyezdlar	فُطِرَ		قِطَارٌ	
ko'cha- ko'chalar	شَوَارِعٌ	فَوَاعِلٌ	شَارِعٌ	١٠. فَاعِلٌ
deraza- derazalar	نَوَافِدٌ		نَافِذَةٌ	فَاعِلَةٌ
kasal- kasallar	مَرَضَى	فَعَلَى	مَرِيضٌ	١١. فَعِيلٌ
o'ldirilgan- o'ldirilganlar	قَتَلَى		قَتِيلٌ	
shijoatli- shijoatlilar	شَجَعَانٌ	فُعْلَانٌ	شَجَاعٌ	١٢. فِعَالٌ
yurt- yurtlar	بُلْدَانٌ		بَلَدٌ	فَعْلٌ
baxil- baxillar	بُخْلَاءٌ	فُعْلَاءٌ	بَخِيلٌ	١٣. فَعِيلٌ
rahmdil- rahmdillar	رُحَمَاءٌ		رَحِيمٌ	
xona- xonalar	عُرِفَ	فَعْلٌ	عُرْفَةٌ	١٤. فُعْلَةٌ
surat- suratlar	صَوَّرَ		صُورَةٌ	
millat- millatlar	مِلَّةٌ	فَعْلٌ	مِلَّةٌ	١٥. فُعْلَةٌ
qissa- qissalar	قِصَصٌ		قِصَّةٌ	
qizil- qizillar	حُمُرٌ	فَعْلٌ	أَحْمَرٌ	١٦. أَفْعَلٌ (muz.)
garang- garanglar	طُرُشٌ		أَطْرُشٌ	
qizil- qizillar	حَمْرَآئِ	فُعْلَوَاتٌ	حَمْرَاءٌ	١٧. فُعْلَاءٌ (muan.)
garang- garanglar	طُرُشَآئِ		طُرُشَاءٌ	

Bundan tashqari, o'zagi to'rt undoshli so'zlarning ko'pligi (hisobga kirmaydi) ko'pincha مَفَاعِلٌ vaznida va besh undoshli so'zlarning ko'pligi (cho'ziq unlisi hisobga kiradi) esa مَفَاعِيلٌ vaznida hosil bo'ladi.

manzil	-	مَنَازِلٌ	مَفَاعِلٌ	مَنْزِلٌ	مَفْعَلٌ مَفْعَلَةٌ	maf'ilyn maf'ilatun
manzillar		مَرَاجِلٌ		مَرْحَلَةٌ		
bosqich- bosqichlar; kurs - kurslar		مَنَازِدٌ	مَفَاعِيلٌ	مِنْضَدَةٌ	مِفْعَلَةٌ	mif'alatun
stol - stollar		مَفَاتِيحٌ		مِفْتَاحٌ	مَفْعَالٌ مَفْعِيلٌ	mif'alun mif'ilun
kalit - kalitlar		مَسَاكِينٌ	مَسْكِينٌ			
bechora- bechoralar						

Lug'atlarda har bir ismning ko'pligi uning ketidan qavs ichida yozib qo'yiladi.

Arab tiliga turkiy tilidan kirib kelgan ba'zi bir ismlar *فاعلة* \fa'alilatu\ vaznida siniq ko'plik shakli yasaladi. Masalan;

استاذ \ustazun\ - o'qituvchi
تلميذ \tilmizun\ - o'quvchi

اساتذة \asatizu\;
تلامذة \talamizu\; تلامذ

29-mashq. “Hayrat ul abror” dan keltirilgan ushbu matnni arab alifbosida yozing. Matndagi siniq ko'plik shakllarini qaysi qolipda yasalganligini aniqlang. Ularning ma'nosini topib yozing.

Ul maqsud adisidakim, agarchi bu latoif majmuasi safinae durur, zaroyif tuhafidin mashhun va bu zaroiyf safinasi junge durur favoiydi laolisi anda gunogun. Va lekin chun tab' daryosidin avval sohilg'a kelgan nafaos durur, va zihn shabistondin avval jilvai zuhur qilg'on arois, bu jihatdan Sul-ton Badiyzzamon bahodir doma hayotuhu ayog'igakim, saltanat bog'chasing avvalg'i vardi va hilofat chamaning burud qad chekkan sarvi nozparvardi durur, nisor qilildi va aqd izdivojig'a tortildikim, bu nasoiyih ko'nglida qolg'ay va bu javohirni qulog'ig'a olg'ay.

(“Hayrat ul abror”)

30- mashq. Quyidagi so'zlarning ko'pligini aniq va noaniq holatda hosil qiling va ularni kelishiklarda turlang. Ularning jinsini, tarjimasini lug'atdan aniqlang:

تَائِبٌ، تَائِبَةٌ، طَيِّبٌ، طَيِّبَةٌ، كَاذِبٌ، كَاذِبَةٌ، عَافِلٌ، خَبِيثَةٌ، سُورِيٌّ، سُورِيَّةٌ.

31-mashq. Quyidagi matnni yozing, o'qing va tarjima qilishga urinib ko'ring. Yangi so'zlarni yod oling.

فِي الْفُنْدُقِ

هَذَا فُنْدُقُ السُّودَانَ. الْفُنْدُقُ فِي شَارِعِ النَّيْلِ. يُوسُفُ فِي الْفُنْدُقِ. هُوَ أَمَامَ مَكْتَبِ
الْإِسْتِقْبَالِ.

مُوظَّفُ الْإِسْتِقْبَالِ: أَهْلًا وَسَهْلًا! يُوسُفُ: حُجْرَةٌ مِنْ فَضْلِكَ.

الْمُوظَّفُ: لِشَخْصٍ وَاحِدٍ؟ يُوسُفُ: نَعَمْ، وَفِيهَا حَمَّامٌ.

الْمُوظَّفُ: حُجْرَةٌ لِشَخْصٍ وَاحِدٍ. فِيهَا حَمَّامٌ، سِعْرُهَا ٤٠ (أَرْبَعُونَ جُنْبِيهَا). يُوسُفُ: حَسَنًا.

مِنْ فَضْلِكَ، إِسْمَاكَ، وَعُنْوَانُكَ، وَوِظِيفَتُكَ، وَجِنْسِيَّتُكَ وَرَقْمَ جَوْزِ السَّفَرِ. (يَكْتُبُ يُوسُفُ إِسْمَهُ،
وَعُنْوَانَهُ، وَوِظِيفَتَهُ، وَجِنْسِيَّتَهُ وَرَقْمَ جَوْزِ السَّفَرِ.)

الْمُوظَّفُ: حُجْرَةٌ رَقْمُ ١٠٥ (مِائَةٌ وَخَمْسَةٌ). يُوسُفُ: شُكْرًا!

يُوسُفُ يَدْخُلُ الْحُجْرَةَ. فِي الْحُجْرَةِ سَرِيرٌ، وَخِزَانَةٌ الْمَلَابِسِ، وَطَاوِلَةٌ وَكُرْسِيٌّ، وَهَاتِفٌ،
وَرَادِيُو وَحَمَّامٌ. الْحُجْرَةُ مُرِيحَةٌ وَجَمِيلَةٌ.

كلمات:

kutib olish joyi

مَكْتَبُ الْإِسْتِقْبَالِ

«Sudan»
mehmonxonasi

فُنْدُقُ السُّودَانَ

bir xonani (bersangiz)	حُجْرَةٌ	mehmonxona xizmatchisi	مُوظَّفُ الإِسْتِقْبَالِ
uning narxi	سِعْرُهَا	marhamat qilib	مِنْ فَضْلِكَ
uy manzili (adres)	عُنْوَانُ	yaxshi	حَسَنًا
fuqarolik	جُنْسِيَّةٌ	kiradi	يَدْخُلُ
radio	رَادِيُو	rohatbaxsh	مُرِيحَةً

O'n ikkinchi dars **SODDA GAPLAR**

Sodda gap deb ega va kesimga ega bo'lib, ma'lum bir fikrni ifodalay oladigan va grammatik va ohang jihatdan shakllangan sintaktik birlikka aytiladi. Sodda gaplar ikki xil: yig'iq yoki yoyiq bo'ladi.

Sodda yig'iq gap gapning bosh bo'laklari bo'lmish ega va kesimdan iborat bo'ladi. Ega- gapning egasi. Kesim- ega haqida xabar beruvchi so'z.

Sodda yoyiq gapda bosh bo'laklardan tashqari ikkinchi darajali bo'laklar (aniqlovchi, to'ldiruvchi yoki hol) ishtirok etadi.

ISMIY GAPLAR

Kesimi ism bilan ifodalangan gapga ismiy gap va bunday kesimga ismiy kesim deyiladi. Ismiy kesim vazifasida ot, sifat, son yoki olmosh kabi ismlardan biri keladi.

Ismiy kesimning ega yoki eganing o'rni haqida xabar berishiga qarab ismiy gap ikki xil bo'ladi:

1. kesimi ega haqida xabar beradigan ismiy gap;
2. kesimi eganing o'rni haqida xabar beradigan ismiy gap;

Kesimi ega haqida xabar beradigan ismiy gap. Bunday gapning boshida odatda ega (الْمُبْتَدَأُ) aniq holatda va bosh kelishikda, (الْخَبْرُ)-(ega haqida xabar beruvchi) ismiy kesim esa undan keyin noaniq holatda keladi. Agar ismiy kesim ot bilan ifodalangan bo'lsa u ega bilan faqat kelishik va sonda moslashadi. Gap bo'laklarining kelish tartibi mana shunday:

Jumlaning tarjimai	الْخَبْرُ-kesim	الْمُبْتَدَأُ- ega
<u>Va'da omonat(dir).</u>	أَمَانَةٌ.	الْوَعْدُ
<u>Qanoat xazina(dir).</u>	كَنْزٌ.	الْقَنَاعَةُ
<u>Dunyo soat (chegaralangan vaqt)dir.</u>	سَاعَةٌ.	الدُّنْيَا

Agar ismiy kesim jinsda o‘zgaradigan sifat, son yoki olmosh kabi ism bilan ifodalangan bo‘lsa u ega bilan jinsda ham moslashadi:

<u>Mavzu tushunarli(dir).</u>	<u>الْمَوْضُوعُ مَفْهُومٌ.</u>
<u>Ikki talaba aqllidirlar.</u>	<u>الطَّالِبَانِ عَاقِلَانِ.</u>
<u>Ular mudarrislardir.</u>	<u>هُم مُدَرِّسُونَ.</u>
<u>Bular mudarrisalardir.</u>	<u>هَؤُلَاءِ مُدَرِّسَاتٌ.</u>

Arab tilida bunday ismiy jumla hozirgi zamondagi voqeaning xabarini beradi. Uning tarkibida yordamchi bog‘lovchi-fe‘li «...dir» ishlatil-mayapti. Bunday bog‘lovchi-fe‘l o‘zbek tilida ba’zi holatlarda ishlatiladi.

32-mashq. Ushbu dialogni o‘qing, yozing va yodlan.

حوار هivarun-so‘zlashuv

- و عليكم السلام. اهلا و سهلا!	- السلام عليكم !
- شكرا، طيب و كيف انتم ؟	- كيف حالكم؟
- هو في غرفة الدرس.	- اشكركم طيب ايضا. و اين المعلم؟
- الطلاب ايضا هناك.	- افوا ، اين الطلاب؟
- نعم ، من زمان.	- ادق الجرس ؟
- ذهب ألي البيت. هو مريض.	- اين محمود؟
- الان فقط.	- متي ذهب
- هناك فاطمة .	- من يوجد في تلك الغرفة؟
- هي في النادي .	- اين زينب ؟
- الي الطاشقند	- الي اين ذهب سليم؟
- الي اللقاء	-الي اللقاء.

O‘n uchinchi dars

OLD KO‘MAKCHILAR (PREDLOGLAR)

Old ko‘makchi (predlog) (حَرْفُ الْجَرِّ) o‘ziga bog‘lanib, ketidan kelayotgan so‘zni qaratqich kelishigida kelishini talab qiladi. Arab tilida tub (asl) va yasama ko‘makchilar mavjud:

1. Tub ko‘makchilar. Tub ko‘makchilar ko‘p ma‘noli bo‘ladi. Ular quyidagilardir:

mavzu bo‘yicha	فِي الْمَوْضُوعِ	...da; ichida; bo‘yicha	فِي
devorda	عَلَى الْجِدَارِ	...da; ustida; zimmasida	عَلَى
uyga	إِلَى الْبَيْتِ	... ga (yo‘nalishni bildiradi)	إِلَى
Muhammaddan	مِنْ مُحَمَّدٍ	...dan	مِنْ

o'ngdan	عَنِ الِیْمِیْنِ	...dan, haqida	عَنْ
peshingacha	حَتَّى الظَّهْرِ	...gacha	حَتَّى
direktor huzurida	عِنْدَ الْمُدِیْرِ	huzurida	عِنْدَ
bir yil avval; bir yildan beri	مُنْذُ سَنَةٍ	beri; avval	مُنْذُ
qalam bilan	بِالْقَلَمِ	...da; bilan, vositasida	بِ...
olim kabi	كَالْعَالِمِ	...dek, kabi	كَ...
mudarrisda bor; mudarris uchun	لِلْمُدَّرِّسِ	..da bor; uchun, ..niki	لِ...

لِ, ك va ب, لِ kabi bir undoshdan iborat ko'makchilar so'zga qo'shilib yoziladi.

2. Yasama (yoki ravish) ko'makchi. Yasama ko'makchi bir ma'noli bo'ladi. Ular ismlardan yasaladi. Ism ko'makchiga aylanganida tanvinsiz va tushum kelishigida bo'ladi. Ravish ko'makchilarga ushbular misol bo'ladi:

uyning tepasida	فَوْقَ الْبَيْتِ	ustida, tepasida	فَوْقَ	←	tepa tomon	فَوْقُ
stol ostida	تَحْتَ الْمُنْضَدَةِ	tagida	تَحْتَ	←	past tomon	تَحْتُ
javon orqasida	وَرَاءَ الْخِزَانَةِ	orqasida	وَرَاءَ	←	orqa tomon	وَرَاءُ
muallim oldida	أَمَامَ الْمُعَلِّمِ	oldida	أَمَامَ	←	old tomon	أَمَامُ
ikki deraza o'rtasida	بَيْنَ النَّافِذَتَيْنِ	o'rtasida	بَيْنَ	←	o'рта	بَيْنُ
mashina yonida	جَنْبَ السَّيَّارَةِ	yonida	جَنْبَ	←	yon tomon	جَنْبُ
bir kun avval	قَبْلَ يَوْمٍ	avval	قَبْلَ	←	boshlanish	قَبْلُ
bir yil keyin	بَعْدَ سَنَةٍ	keyin	بَعْدَ	←	keyingi payt	بَعْدُ
shahar tashqarisida	خَارِجَ الْمَدِينَةِ	tashqarisida	خَارِجَ	←	tashqi tomon	خَارِجُ
uyning ichida	دَاخِلَ الْبَيْتِ	ichida	دَاخِلَ	←	ichki tomon	دَاخِلُ
muallim bilan(birga)	مَعَ الْمُعَلِّمِ	bilan (birgalik)	مَعَ	←	guruh; to'da	مَعِيَّةُ
uy yaqinida	جَوَارَ الْبَيْتِ	yaqinida	جَوَارَ	←	yaqinlik; qo'shnilik	جَوَارُ

...dan so'ng; so'ng	مِنْ بَعْدَ	=	بَعْدَ	+	مِنْ
ichidan; o'rtasidan	مِنْ بَيْنَ	=	بَيْنَ	+	مِنْ
...dan avval; avval	مِنْ قَبْلَ	=	قَبْلَ	+	مِنْ

yo'lida; uchun	لِ	=	أَجَلٍ	+	لِ
ustidan	مِنْ	=	عَلَى	+	مِنْ
huzuridan	مِنْ	=	عِنْدَ	+	مِنْ

Yasama ko'makchilar لِي، إِلَى، كَبِي tub ko'makchilar bilan bog'lanib, murakkab ko'makchilarni ham tuzib kelishi mumkin:

33-mashq. Matnni arab alifbosida yozing.

“Ammo **ba'd** so'z bayt ul-haramining bodiyapaymoyi va nazm shohbaytining zevaroroyi al-faqir-ul-haqir Alisher ul-mutaxallis **bi-n**-Navoiy.”

(“G'aroyib us-sig'ar”)

Shodlig'din jon nisor etsam, ne tongkim, bu xabar
Ham ko'nguldin, **fi-l**-masal, ham ko'nglum olg'andin kelur.

(“G'aroyib us-sig'ar”)

Kamol et kasbkim, olam uyidin
Sanga farz o'lmag'ay g'amnok chiqmoq.
Jahondin notamom o'tmak **bi**aynih,
Erur hammomdin nopok chiqmoq.

(“G'aroyib us-sig'ar”)

“Va bu avqot **mobayni**da har miqdorkim, fursat toptim, xoh “Xamsa” nazmidinu xoh “Nazm ul-javohir” va “Majolis un-nafoyis”u “Zubdat ut-tavorix.””

(“G'aroyib us-sig'ar”dan)

KESIMI OLD KO'MAKCHI BILAN KELGAN ISMIY GAP

Eganing o'rni haqida xabar beradigan bunday ismiy gapda esa aniq holatda kelayotgan egadan keyin ismiy kesim (u ham asosan aniq holatda keladi) birorta old ko'makchi bilan keladi. Bunday kesim old ko'makchili ismiy kesim (yoki old ko'makchili ot-kesim) deb ataladi. Gapda u ega bilan o'zaro moslashmaydi, faqat (ismiyl kesim) old ko'makchining ta'sirida qaratqich kelishigida keladi. Masalan:

<u>Oy bulutlar orasida(dir).</u>	أَلْقَمَرُ بَيْنَ السَّحَابِ
<u>Hayo imondan(dir).</u>	أَلْحَيَاءُ مِنَ الْإِيمَانِ.
<u>Kitob ustozniki(dir).</u>	الْكِتَابُ لِلْأُسْتَاذِ.

Bunday gaplarda ega old ko'makchili ismiy kesimdan keyin kelishi ham mumkin. Bunday egani arablar (أَلْمُبْتَدَأُ الْمَوْحَرُّ) «kechikkan ega» deb ataydilar. Kesimdan keyin kelgan ega odatda noaniq holatda keladi. O'zbek tiliga bunday gap «bor» so'zi bilan tarjima qilinadi (ko'makchisi egalikni ifodalab, «unda .. bor» deb tarjima qilinadi):

<u>Stol ustida (bir) jurnal bor.</u>	عَلَى الْمُنْضَدَةِ مَجَلَّةٌ.
<u>Stol ustida jurnal bor.</u>	عَلَى الْمُنْضَدَةِ الْمَجَلَّةُ.

O‘qituvchida (bir) kitob bor.

لِلْمُعَلِّمِ كِتَابٌ.

هنا—bu yerda va هُنَاكَ (هُنَاكَ)—u yerda ravish xollari ham old ko‘makchili ismiy kesim o‘rnida ishlatiladi:

Ular (esa) u yerda. وَهُمْ هُنَاكَ. Biz bu yerdamiz. نَحْنُ هُنَا.

Egani ta’kidlab ko‘rsatish uchun ba’zi ismiy gaplarda «إِنَّ-haqiqatda» yuklamasi ham ishlatilishi mumkin. U egadan avval kelib uni tushum kelishigida kelishini talab qiladi:

Haqiqatda kitob o‘qituvchiniki. إِنَّ الْكِتَابَ لِلْمُعَلِّمِ.
Haqiqatda o‘qituvchida (bir) kitob bor. إِنَّ لِلْمُعَلِّمِ كِتَابًا.

ESLATMA: 1) ... فـ... murakkab bog‘lovchisi gapning egasini ajratib ko‘rsatadi va unga ma’no jihatdan bog‘langan so‘zlarning kelishiklariga ta’sir qilmaydi, Bunda مَا eganing oldiga, ... bog‘lovchisi esa kesimning yoki egani takrorlab, unga son va jinsda moslashib kelgan kishilik olmoshining oldiga qo‘yiladi. O‘zbek tiliga u “..ga kelsak”, “...esa” deb tarjima qilinadi:

يَا زَيْنَبُ فَتَلْمِيذَةٌ. (يَا زَيْنَبُ فَتَلْمِيذَةٌ). yoki Zaynab esa o‘quvchidir.

2) Arab tilidagi ” va, hamda” bog‘lovchisi ham bog‘lovchisi kabi so‘zga qo‘shilib yoziluvchi bog‘lovchi hisoblanadi va o‘zbek tilidagi vergul qo‘yiladigan joylarda ham yoziladi. Yozuvda bunga alohida e’tibor berish lozim. Masalan:

أَنَا وَأَحْمَدُ وَمَحْمُودٌ وَمُحَمَّدٌ وَعُمَرُ أَصْدِقَاءُ.

– Men, Ahmad, Mahmud, Muhammad va Umar do‘stmiz.

34-mashq. Matnni arab alifbosida yozing.

Ranju za’fim bo‘lmish andoqkim so‘rar kelgan ulus,
Holim aylarlar suvol, ammo eshitmaslar javob.

(“G’aroyib us-sig’ar”)

Vahki, har soat bo‘lurmen vaslidin yetkach navid,
Yordin ummidvor, ammo o‘zumdin noumid.

(“G’aroyib us-sig’ar”)

35-Mashq. Mashqni yozing, o‘qing va tarjima qiling.

هُنَاكَ مُدْرَسٌ وَطُلَّابٌ. فِي الْحَدِيقَةِ أَشْجَارٌ وَأَزْهَارٌ. لِعُمَرَ عَمٌّ وَعَمَّتَانِ فِي الْعَجَلَةِ النَّدَامَةُ

لي خالَةٌ وَخَالَانِ. الطَّالِبَةُ فِي الْمَكْتَبَةِ. أَحْمَدُ وَلَيْلَى فِي الْإِمْتِحَانِ. الْهَاتِفُ قُرْبَ النَّافِذَةِ.
 الْمِسْطَرَّةُ تَحْتَ الْمِنْضَدَةِ. الْكِتَابَانِ لِفاطمةَ. زَيْنَبُ عِنْدَ الطَّبِيبِ. بِجَوَارِ الْمُسْتَشْفَى صَيْدَلِيَّةٌ. فِي الصَّيْدَلِيَّةِ
 صَيْدَلِيٌّ. الْبُسْتَانِيُّ فِي الْبُسْتَانِ. شِيرِينُ مَعَ شَادِيَّةَ. الْعَيْنَانِ وَالْأُذُنَانِ فِي الرَّأْسِ. وَالْيَدَانِ وَالرِّجْلَانِ فِي
 الْجِدْعِ. فِي الْوَجْهِ الشَّفَقَانِ وَالْحَدَّانِ وَالْجَبِينُ وَالْأَنْفُ. الشَّعْرُ عَلَى الرَّأْسِ. هُوَ أَسْوَدٌ أَوْ أَشْفَرُ. الْأَنْفُ
 مُسْتَقِيمٌ أَوْ أَقْنَى. لِلْإِنْسَانِ يَدَانِ. فِي الْيَدِ أَصَابِعُ.

كلمات:

bog‘	بُسْتَانٌ (بَسَاتِينُ) (ko‘pl.)	gul	زَهْرٌ (أَزْهَارٌ ko‘pl.)
bog‘bon	بُسْتَانِيٌّ	bog‘	حَدِيقَةٌ (حَدَائِقُ ko‘pl.)
dorixona; aptekachi ayol	صَيْدَلِيَّةٌ	daraxt	شَجَرَةٌ (أَشْجَارٌ ko‘pl.)
afsuslanish; nadomat	نَدَامَةٌ	stol	مِنْضَدَةٌ (مَنْاضِدُ ko‘pl.)
unda bor	لَهُ (لَهَا)	deraza	نَافِذَةٌ (نَوَافِذُ ko‘pl.)
shoshilish	عَجَلَةٌ	malla (rang)	أَشْفَرُ
barmoq	إِصْبَعٌ (أَصَابِعُ)	baqiruvchi; telefon	هَاتِفٌ (هَوَاتِفُ ko‘pl.)
javon	خِرَانَةٌ (أَث)	xujra; xonacha	حُجْرَةٌ (حُجُرٌ ko‘pl.)
lab	شَفَاةٌ	mehmon	صَيْفٌ (صَيْفُوفُ ko‘pl.)
yonoq	حَدٌّ	yuz; aft	وَجْهٌ (وُجُوهُ ko‘pl.)
burgutburun; qirraburun	أَقْنَى	(odam, daraxt) tanasi	جِدْعٌ (جِدُوعٌ ko‘pl.)

36-mashq. Ushbu matnni yozing, o‘qing va tarjima qilishga urinib ko‘ring. Yangi so‘zlarni yod oling.

فِي عُرْفَةِ التَّدْرِيسِ

نَحْنُ طُلَّابُ الصَّفِّ الْأَوَّلِ فِي كَلِيَّةِ التَّارِيخِ. نَحْنُ الْآنَ فِي عُرْفَةِ التَّدْرِيسِ. هُنَا
 سَبُّورَةٌ وَطَاوِلَاتٌ وَمَقَاعِدُ لِلْجُلُوسِ. عَلَى كُلِّ طَاوِلَةٍ كُرَّاسَةٌ وَكِتَابٌ وَقَلَمٌ وَمِسْطَرَّةٌ.
 وَهَذِهِ أَشْيَاءٌ دِرَاسِيَّةٌ لِلطَّلَابِ. الطَّلَابُ حَاضِرُونَ. هُمْ جَالِسُونَ. وَالطَّلِبَاتُ حَاضِرَاتٌ
 أَيْضًا. نُورُ الدِّينِ وَزَيْنَبُ غَائِبَانِ.

نُورُ الدِّينِ مَرِيضٌ. هُوَ عِنْدَ الطَّبِيبِ. زَيْنَبُ لَيْسَتْ مَرِيضَةً. هِيَ فِي الْبَيْتِ. وَبَعْدَ
 قَلِيلٍ دَخَلَ الْمُدْرَسُ. سَأَلَ الْمُدْرَسُ الطَّلَابَ عَنِ الْمَوْضُوعِ. فَأَجَابَ الطَّلِبُ فَوْرًا. وَبَعْدَ
 سَاعَةٍ دَقَّ الْجَرَسُ. فَخَرَجَ الْمُدْرَسُ مِنْ عُرْفَةِ التَّدْرِيسِ. ثُمَّ خَرَجَ الطَّلَابُ مِنْ عُرْفَةِ
 التَّدْرِيسِ.

كلمات:

fiqh, iqtisod va tabiiy fanlar fakulteti	كَلِيَّةُ الْفِقْهِ وَالْاِقْتِصَادِ وَالْعُلُومِ الطَّبِيعِيَّةِ		
darsxona	عُرْفَةُ التَّدْرِيسِ	birinchi kurs	الصَّفُّ الْأَوَّلُ
har bir stolda	عَلَى كُلِّ طَاوِلَةٍ	bor	تُوجَدُ
o'rindiq	مَقْعَدٌ (مَقَاعِدُ. pl. ko)	yozuv taxta	سَبُّورَةٌ
chizg'ich	مِسْطَرَةٌ	o'tirish	جُلُوسٌ
narsalar	أَشْيَاءٌ	1 soatdan so'ng	بَعْدَ سَاعَةٍ
o'tiribdi	جَالَسَ (جَالِسَةٌ. muan.)	chiqdi	خَرَجَ
kasal	مَرِيضٌ (مَرِيضَةٌ. muan.)	darrov	فَوْرًا
tabib xuzurida	عِنْدَ الطَّبِيبِ	qo'ng'iroq	جَرَسٌ
bir ozdan so'ng	بَعْدَ قَلِيلٍ	chaldi	دَقَّ
shunda javob berdi	فَأَجَابَ	mavzu	مَوْضُوعٌ

O'N TO'RTINCHI DARS

S I F A T

Otning rang, maza-ta'm, hajm, xususiyat kabi belgilarini bildiradigan so'zga sifat deyiladi. Otga tobe' bo'lgani uchun sifat otning jinsiga qarab u bilan jinsda ham moslashadi.

Ikki xil sifat: tub va yasama sifatlar bor. Tub sifatlar avvaldan bor bo'lgan sifat bo'lsa, yasama sifatlar otga sifat yasovchi qo'shimchani qo'shib hosil qilingan sifatdir. Tub sifatlariga:

كَبِيرٌ katta-, كَبِيرٌ kichkina-, كَبِيرٌ keng-, كَبِيرٌ tor-, كَبِيرٌ chiroyli kabi sifatlar misol bo'lsa, yasama sifatlariga: كَبِيرٌ arabcha-, كَبِيرٌ qo'lda yasalgan, qo'lniki kabi sifatlar misol bo'ladi.

TUB SIFAT

Tub sifat uch undoshli o'timsiz fe'lning «I bob» shaklidan 20 dan ortiq vazn (qolip) bo'yicha hosil bo'lgan. Gapda sifat ega, kesim va sifatlovchi aniqlovchi vazifalarini bajarib keladi. Uning uchta:

- 1) oddiy (bosh);
- 2) orttirma;
- 3) qiyosiy darajalari mavjud. Oddiy daraja sifatning ko'p ishlatiladigan shakllari quyidagilardir:

yaqin	قَرِيبٌ	saxiy; saxovatli	كَرِيْمٌ	١. فَعِيْلٌ
nordon	حَامِضٌ	sovuq	بَارِدٌ	٢. فَاعِلٌ
oson	سَهْلٌ	qiyin	صَعْبٌ	٣. فَعْلٌ
shirin	حَلْوٌ	qattiq	صَلْبٌ	٤. فَعْلٌ
buyuk; ulkan	جَلَلٌ	chiroyli; yaxshi	حَسَنٌ	٥. فَعْلٌ
charchagan	تَعَبٌ	xursand	فَرِحٌ	٦. فَعِلٌ
yaxshi	جَيِّدٌ	yaxshi	طَيِّبٌ	٧. فَعِيْلٌ
jasur	جَسُوْرٌ	g'ayratli ; rashkli	غِيُوْرٌ	٨. فَعُوْلٌ
och qolgan	جَوْعَانٌ جَوْعَى	dangasa	كَسْلَانٌ كَسَلَى	٩. فَعْلَانٌ (muan.) فَعْلَى
garang	أَطْرَشٌ طَرَشَاءٌ	ko'k; zangori	أَزْرَقٌ زَرْقَاءٌ	١٠. أَفْعَلٌ (muan.) فَعْلَاءٌ

Substantivatsiya. Sifatning substantivatsiyasi (otga aylanishi) ko'p uchraydigan hodisa. Masalan, سَلِيْمٌ, سَلِيْمَةٌ, جَمِيْلَةٌ, عَبَّاسٌ, صَدِيْقٌ kabi kishi ismlari tub sifatlarning, أَنْوْرٌ, أَنْوْرٌ kabi atoqli otlar esa orttirma daraja sifatning otga aylanishi natijasida hosil bo'lgan. Substantivatsiya hodisasi fe'ldan yasaladigan masdar va otlarda ham ro'y beradi. Buni biz o'z payti kelganida tushuntirib o'tamiz.

37-mashq. Arab alifbosida yozing. Matndan tub sifatlarni topib, ularning ma'nosini yozng.

Dedikim-ey Tengriga joning qarib,
Jism ila ham bul erursen chun habib.

(“Lisonut-tayr”)

Qilurni ayla rioyat demakta asra adab,
Ki do'st fe'lingu qavlinhg'adur basiru same'.

(“Hazoyin ul-maoniy”)

Ne kelsa ollinga, tut sahlkim, jafu ko'rar ul,
Biravki dahr inodin ko'rub inod etadur.

(“Badoye' ul-vasat”)

O'zi mujid va sulb va yakro'y kishidur.

(“Majolis un-nafois”)

Shohga zebu far jamolidin oning,
Azlu favti ham jalolidin oning.

(“Lisonut-tayr”)

Qaysi johilg'a nadomat bo'lg'ay ul olimchakim,
Har ne bildi, qilmadi, har neki qildi, bilmadi.

("G'aroyib us-sig'ar")

Rangni anglatuvchi sifatlar

oq	أَبْيَضُ (بَيْضَاءُ. muan.)	qizil	أَحْمَرُ (حَمْرَاءُ. muan.)
sariq	أَصْفَرُ (صَفْرَاءُ. muan.)	qora	أَسْوَدُ (سَوْدَاءُ. muan.)
ko'k; zangori	(مُزَقَّاءُ أَزْرَقُ muan.)	yashil	أَخْضَرُ (خَضْرَاءُ. muan.)
och (rang)	فَاتِحٌ	to'q (rang)	غَامِقٌ

Mashq. Ushbu sifatlarning muannas yoki muzakkar jinsini hosil qiling, ma'nolarini lug'atdan topib yozib qo'ying:

جَمِيلٌ، حَسَنٌ، فَرِحٌ، رَقِيقٌ، شَدِيدٌ، ضَعِيفٌ، قَوِيٌّ، صَعْبٌ، مُمْتَعٌ، مُرٌّ، حَامِضٌ، غَالِيَةٌ،
رَخِيسٌ، ثَمِينٌ، سَمِينٌ، حَارٌّ، بَارِدٌ، طَوِيلٌ، قَصِيرٌ، قَدِيمَةٌ، وَثِيرٌ.

38-mashq. Alisher Navoiyning asarlaridan keltirilgan baytlardan rangni bildiruvchi sifatleri toping, ma'nosini yozing.

Libosi o't kibi asfar, tani hayot suyi,
Ajoyib o'tki, arosinda obi hayvondur.

("Baboe ul-bidoya")

Torttim ranji xumor aylab mayi ahmar tama',
Ul kishidekkim qozar tog' aylabon gavhar tama'.

("Navodir un-nihoya")

Gul ahmar, savsan azraq bu chaman ichra bo'lub andin
Ki, yeldin tarbiyat kojini larg'a yetkurub muhkam.

("Navodir ush-shabob")

Behi rangidek o'lmish dardi hajringdin manga siymo,
Dimog'im ichra har bir tuxmi yanglig' donai savdo.

("Badoye' ul-vasat")

Sadafda durri bayzo chehr yanglig',
Falak sanduqi ichra mehr yanglig'.

("Layli va Majnun")

39- mashq. Matnni yozing, o'qing, tarjima va grammatik tahlil qiling.

الْعُرْفَتَانِ الْكَبِيرَةُ وَالصَّغِيرَةُ نَظِيفَتَانِ. هَذِهِ الْأَسْتَاذَةُ عَالِمَةٌ مَشْهُورَةٌ. ذَلِكَ الْكِتَابُ بِاللُّغَةِ
الْإِنْجِلِيزِيَّةِ. الشَّابَّانِ الْجَالِسَانِ مِنَ الْهِنْدِ. الْبُرْتُقَالُ اللَّيْبِيُّ لَدِيدٌ. الْقِصَّةُ الْمَكْتُوبَةُ عَنِ الْوَأَقَعَةِ التَّارِيخِيَّةِ.
تِلْكَ السِّيَّارَةُ بِاللُّوْنِ الْأَبْيَضِ. وَهَذِهِ بِاللُّوْنِ الْأَصْفَرِ. لِمُعْظَمَةِ حَقِيبَةِ حَمْرَاءِ. الْأَزْرَقُ الْفَاتِحُ لَوْنٌ جَمِيلٌ.
اللُّوْنُ الْبُنِّيُّ جَمِيلٌ أَيْضًا. هَلِ اللَّوْنُ الْبَنْفَسَجِيُّ رَدِيئٌ؟ لَا. الْقَمَاشُ الْيَابَانِيُّ رَائِعٌ. وَهَذَا الْقَمَاشُ بِاللُّوْنِ

الأصفر. وهو رخيص. الباب الأخضر مفتوح. وأما الباب الأبيض فهو مغلق. الوضعية السياسية في البلاد معقدة. النقطة الأخيرة شئى مهم. الرسالة العلمية للعلامة محفوظة حتى هذا اليوم. هذا الكلام فكرة عجيبة. رحمة تلك كريمة. وهي فتاة مؤدبة. عباس هذا كسلان. هو رجل غيور. حلیم قنى مهذب. الدرس الثاني سهل. هذه المحاضرة مفهومة للطلاب. في الجملة الأولى غلط واحد. المحادثة الأخيرة في الصفحة العاشرة. الشقة السادسة هناك.

كلمات:

dialog	oxirgi	جوار = مُحَادَثَةٌ	أخبر (أخيرة. muan)
mato	odobli	فُماش (أفمشة. ko'pl.)	مؤدب
do'st	ajoyib	صديق (أصدقاء. ko'pl.)	رائع
ko'rgazma	arzon	معرض (معارض. ko'pl.)	رخيص
qiz	vaziyat	فتاة (فتيات. ko'pl.)	وضعية
xonadon (kvartira)	madaniyatli; o'qimishli	شقة (شقق. ko'pl.)	مهذب
mashina	shirin; lazzatli	سيارة (سيارات. ko'pl.)	لذيذ
xat; kitob	o'tirgan	كتاب (كتب. ko'pl.)	جالس
o'g'irlangan narsa	chopayotgan	شئى مسروق	جار (جارية. muan)

Nisbiy sifat

Nisbiy sifat (النسب) biror kimsaning biror joyga (davlatga, millatga) tegishliligini yoki biror narsaning nima narsadan yasalganligi kabi nisbiy belgilarni bildiradi. Nisbiy sifat yasaydigan qo'shimchasi muzakkar jins uchun (- ي) va muannas jins uchun (- ية) qo'shmchalaridir:

كتاب ← كتابي-كتابية kitob → kitobga oid (kitobiy)

Nisbiy sifat qo'shimchasi qo'shilganda ba'zi fonetik o'zgarishlar ro'y beradi: 1) So'z «ة» bilan tugagan bo'lsa, «ة» olib tashlanadi:

Savdoga oid → tijorat تِجَارَةٌ ← تِجَارِيٌّ-تِجَارِيَّةٌ
maktabga oid → o'quv مَدْرَسَةٌ ← مَدْرَسِيٌّ-مَدْرَسِيَّةٌ

2) "ا" yoki "ء" bilan tugagan soʻzda koʻpincha alif tushib qoladi, gohida sharfiga oʻzgaradi:

Ovrupe → ovrupeolik أوروبًا ← أوروبِيّ- أوروبِيَّة
 saxro → saxroyi صحراء ← صحراويّ- صحراويَّة

3) "ى" bilan tugagan soʻzning alif maqsurasi ham uga aylanadi:
 maʼno (maʼnoli معنَى ← معنويّ

4) Ikki undoshli otdan nisbiy sifat yasalganda orttiriladi:

yil → yillik سنة ← سنويّ- سنويَّة
 aka → akalik; birodarlik أخ ← أخويّ- أخويَّة

5) Baʼzan siniq koʻplikdagi otlardan ham nisbiy sifat yasaladi:

jurnalist صحفيّ ← gazeta صحيفَة (koʻpl. صحف)
 xalqaro دوليّ ← davlat دولة (koʻpl. دول)

5) Baʼzi ranglar tabiatdagi narsalarga nisbatan olingan:

binafsha rang	(muan.ة) بنفسجيّ	←	binafsha	بنفسج
kul rang	(muan.ة) رمائيّ	←	kul	رماذ
pushti rang	(muan.ة) ورديّ	←	atirgul	ورد
Sabzi				
rang (apelsin rang)	(muan.ة) برتقاليّ	←	apelsin	برتقال
jigar rang;			qahva	بن
qahva rang	(muan.ة) بنيّ	←	urugʻi	

Mashq. Ushbu soʻzlardan ikkala jinsda nisbiy sifat yasang, tarjima qiling:

الْكُوَيْتُ، مِلَّةٌ، دَوْلَةٌ، عِلْمٌ، عَمَلٌ، اِقْتِصَادٌ، اِجْتِمَاعٌ، ثَقَافَةٌ، لُغَةٌ، وَطَنٌ، سِيَّاسَةٌ، دِرَاسَةٌ، اَلْهِنْدُ، اَلْمَغْرِبُ، جَامِعَةٌ، نَحْوٌ، دَاخِلٌ، خَارِجٌ.

40-mashq. Alisher Navoiy asarlaridan olingan matnni arab alifbosida yozing va nisbiy sifat shaklidagi soʻzlarni aniqlang.

Farhodni junun ahlidek Pari silsilai ishqida Salosil dev qoʻrgʻonigʻa yiborganlari va nigahbonlar aning malakiy sifat va farishta zotligʻin bilib...

(“Layli va Majnun”)

Shimoliyu sharqiyi maʼmur bil,

Jazoir ming ul suvda mashhur bil. (“Saddi Iskandariy”)

Alar ichra o‘n vahshiyi mag‘ribiy,
Qamish xayli ichra teraklar kibi. (“Saddi Iskandariy”)

O‘N BESHINCHI DARS

Sifatning qiyosiy va orttirma darajalari

Sifatning qiyosiy va orttirma darajalari bir xil umumiy ko‘rinishga ega bo‘lib, rang va jismoniy holatni bildirmaydigan I bob fe‘llaridan أَفْعُلُ (muannas jinsda فُعْلَى) qolipida hosil qilinadi. Masalan:

eng yaxshi	أَحْسَنُ (حُسْنَى) ← أَفْعُلُ (فُعْلَى)	yaxshi bo‘lmoq	حَسِنَا
eng foydali	أَنْفَعُ (نُفْعَى) ← أَفْعُلُ (فُعْلَى)	foйда keltirmoq	نَفَعَا

Gapda qiyosiy daraja sifat ishlatilganda أَفْعُلُ qolipidagi so‘z har ikkala jins uchun umumiy bo‘ladi va o‘zidan keyin ko‘makchisini olib keladi. Bunda belgi qaysi predmetning belgisiga qiyoslanayotgan bo‘lsa, o‘sha so‘z ko‘makchisidan keyin keladi. qiyoslanayotgan narsaning soni va jinsidan qat‘iy nazar, qiyosiy daraja sifat doimo bir xil shaklda–birlik son va muzakkar jinsda bo‘ladi. Masalan:

Bu mehmonxona anavi mehmonxonaga qaraganda yaxshiroq.	هَذَا الْفُنْدُقُ أَحْسَنُ مِنْ ذَلِكَ الْفُنْدُقِ.
Samarqand shahri Toshkent shahriga qaraganda qadimiyroq.	مَدِينَةُ سَمَرْقَنْدٍ أَقْدَمُ مِنْ مَدِينَةِ طَشْقَنْدٍ.
O‘g‘illar qizlarga qaraganda kattaroq.	الْبُنُونَ أَكْبَرُ مِنَ الْبَنَاتِ.

Orttirma daraja sifat ma‘nosida kelayotgan أَفْعُلُ

qolipidagi so‘z sifatlanmish so‘z bilan izofa birikmasi shaklida ham, moslashgan aniqlovchi shaklida ham birikishi mumkin:

1. Izofa birikmasi tuzib kelganida orttirma darajadagi sifat aniqlanmish vazifasida shaklida bo‘ladi. Izofa bo‘lib kelayotgan sifatlanmish esa أَفْعُلُ kelib, har ikkala jinsda ham ko‘plik sonda, aniq holatda kelganida «eng ...» deb, birlik son noaniq holatda kelganida «...dan biri» deb tarjima qilinadi:

mashhur olimlardan biri ... أَشْهَرُ عَالِمٍ ... eng mashhur olim ... أَشْهَرُ الْعُلَمَاءِ ...

2. Orttirma darajadagi sifat moslashgan aniqlovchi kabi sifatlanmishdan keyin keladi, lekin bunda u sifatlanmishning jinsi va soniga muvofiq ravishda o‘zgaradi:

Ko‘plik	Ikkilik	Birlik	Jins
أَفَاعِلُ	أَفْعَلَانِ	أَفْعَلٌ	مُذَكَّرٌ
فُعَلَيَاتٌ	فُعَلَيَانِ	فُعَلَى	مُؤَنَّثٌ

Misollar:

Bu o‘quvchi sinfdagi eng yaxshi o‘quvchidir.	هَذَا التَّلْمِيذُ هُوَ الْأَحْسَنُ فِي الْفَصْلِ.
Bu ikki o‘quvchi sinfdagi eng yaxshi o‘quvchilardir.	هَذَانِ التَّلْمِيذَانِ هُمَا الْأَحْسَنَانِ فِي الْفَصْلِ.
Bu o‘quvchilar sinfdagi eng yaxshi o‘quvchilardir.	هَؤُلَاءِ التَّلَامِيذُ هُمُ الْأَحْسِنُ فِي الْفَصْلِ.

Agar orttirma daraja sifat I bobdan boshqa fe’ldan, yoki rang va jismoniy holatni bildiradigan sifatdan yasalishi kerak bo‘lsa, ularning qiyosiy va orttirma darajalari kabi yordamchi so‘zlar va shu o‘zakdan hosil bo‘lgan tushum kelishigidagi, أَقْلٌ، أَشَدُّ، أَعْظَمُ، noaniq holatda turgan masdar yordamida hosil qilinadi

eng baland ← اِرْتِفَاعٌ ← أَكْثَرُ اِرْتِفَاعًا ko‘tarilmoq اِرْتَفَعَ
 eng qizil ← حُمْرَةٌ ← أَشَدُّ حُمْرَةً (sifati) حَمَرَ (أَحْمَرُ)

Bu talaba o‘rtog‘iga qaraganda harakatchan. هَذَا الطَّالِبُ أَكْثَرُ اجْتِهَادًا مِنْ رَفِيقِهِ.

كَبْرٌ، صِغَرٌ، قِصْرٌ، فَقْرٌ، عِلْمٌ، جَهْلٌ، عَقْلٌ، سَفَهٌ، سَمْنٌ، نَحْفٌ، ضَعْفٌ، صَدَقٌ، مَهْرٌ، صِلْحٌ، فَصْحٌ، فَسْقٌ، عَدْلٌ، ظَلْمٌ، حَزْنٌ، جِهْدٌ، عَجَلٌ، عَيْسٌ، غَضَبٌ، حَسَدٌ، طَيْبٌ، حَلْمٌ.

41-mashq. Alisher Navoiyning asarlaridan olingan ushbu jumla va baytlarni arab alifbosida yozing. Matndagi sifatning qiyosiy va orttirma darajalari qaysi qolipda ekanligini aniqlab, ularning ma’nosini toping.

Agarchi alar *axassi* as’hobu *aazzi* ahbob erdilar, ko‘p qatla bu ish irtikobig’a iltimos va taklif qilur erdi... (G’aroyibus-sig’ar)

Kitobing o‘zga kutubdin ki bordurur *ablag’*,

Balohatingg’a munosib Haq aylamish iblog’.

(«Navodirush-shabob»)

Kishi chin so‘z desa zebo durur,

Necha muxtasar bo‘lsa *avlo* durur.

(«Mahbubul-qulub»)

Tushar ko‘nglumga ul yuz partavi ko‘ksun shikofidin,

Bu ravzanni ne bo‘ldi qilsang, ey tig’i qazo, *avsa’*.

(«G'aroyibus-sig'ar»).

Solik ani arshi muallo dedi,
So'fi ani olami *kubro* dedo.

(“Xamsa”)

ANIQLASHTIRUVCHI

Gapning kesimi ifodalagan ma'noni yanada aniqlashtirib, tushuntirib kelish uchun aniqlashtiruvchi so'z ishlatiladi. Bunday paytda kesim ismiy ham, fe'liy ham bo'lishi mumkin. Aniqlashtiruvchi so'z gapning so'ngida hech qanday so'z bilan moslashmasdan noaniq holatda, tushum kelishigida keladi:

Universitet binosi takomillashdi. (So'zma-so'z: اَكْتَمَلَتِ الْجَامِعَةُ بِنَاءً.
Universitet bino jihatdan takomillashdi.)
Amrning kayfiyati yaxshi (bo'ldi). (So'zma-so'z: طَابَ عَمْرُو نَفْسًا.
Amr kayfiyat jihatdan yaxshi (bo'ldi).)

Ko'pincha aniqlashtiruvchi ortirma yoki qiyosiy darajadagi sifat bilan ifodalangan ismiy kesimning ma'nosini aniqlashtirish uchun ishlatiladi:

Toshkent dunyoning arxitekturasi (arxitektura jihatdan) eng go'zal shaharlaridan biridir. طَشَقَنْدُ مِنْ أَجْمَلِ مُدُنِ الْعَالَمِ عِمَارَةً.
Mahmud talabalarning eng yaxshi xulqlisi. مَحْمُودٌ أَحْسَنُ الطَّلَابِ خُلُقًا.

Ba'zi aniqlashtiruvchilar biror narsaning sonini (11dan 99 gacha) va hajm, vazn, uzunlik o'lchamlarini aniqlashtirib kelib, o'sha so'zdan keyin keladi:

Bir litr sut sotib oldim.	اشْتَرَيْتُ لِتْرًا حَلِيبًا.
Bir yilda o'n ikki oy bor.	فِي السَّنَةِ اثْنَا عَشَرَ شَهْرًا.
Haftada necha kun bor?	كَمْ يَوْمًا فِي الْأُسْبُوعِ؟

42- **mashq.** Mashqni yozing, o'qing va tarjima va grammatik tahlil qiling.

القاهرة أكثر من الإسكندرية سكانا. النيل أول أنهار العالم طولاً. البرتقال من ألذ أنواع الفاكهة طعماً، وأطولها بقاءً، وأكثرها فائدة. العنب من ألذ أنواع الفواكه طعماً. الريف أنقى من المدن هواءً وأجمل منظرًا. الذهب أقلّ صلابة من الحديد. الذهب أغلى من الفضة ثمنًا. مقالٌ ذهباً خير من رطلٍ نحاساً. نور الدين أكثر أصدقائي كرماً. حسن الرجل صحّة. حسن الولد كلاماً. أعجبتني الفتاة خلقاً وجمالاً. منزلنا أحسن من منزلكم منظرًا. المدرسون أكثر الناس احتراماً. يشرب جدّي قبل النوم كوباً لبناً دائماً. اشتريت مترين حريراً. قد أكلتكم كيلو عنبا ورمّانا. في الفصل أحد عشر تلميذاً وثلاث عشرة تلميذة. راجعتُ من الكتاب سبعة عشر درساً. مصطفى أكثر منك أدباً. محمود أثقل من سليم وزناً. القرى أطيب من المدن هواءً. ازرعوا منازلكم وروداً وريحاناً! من أشبع أرضه عملاً أشبع بيته خبزاً.

كلمات:

turish; qolish	بَقَاءٌ	maza	طَعْمٌ
eng lazzatli	أَلَدُّ	to‘lmoq; oqmoq	فَاضٍ(i)
mis	نحاس	chiroyli	أَنْقَى
bug‘doy	بُرٌّ	yarim so‘	نَصْفُ صَاعٍ
Og‘irroq	أَنْقَلٌ	bosib olmoq	إِغْتَصَبَ VIII

43-mashq. Matni ko‘chiring va arab alifbosida yozing. Aniqlashtiruvchiga e‘tibor bering.

“Va panjshanba kuni hazrat saltanatmaob xalofatintisoblar mazkur manzildin nahzat yakronig‘a rukub qilib, izdihomi tamom va kavkabai qiyomatintizom bila Safoli marhalasida borgohi oliy va sarodiqoti muta‘oliyni barpoy qilib..”

(Ogahiy “Zubdat ut –tavorix”)

“Va ikki uch oy miqdori kechkandin so‘ngra daryoning shimoli janubig‘a o‘tub, Sho‘raxon mavze‘ida To‘rtko‘l baldasida qal‘a solib, onda o‘zidin hokim va bir oz lashkar qo‘yub..

(Komyob. “Tavorix ul-xavonin”)

O‘N OLTINCHI DARS

So‘z birikmasi

Gapda so‘zlar har doim yolg‘iz o‘zi kelavermaydi. Boshqa tillardagi kabi arab tilida ham ikki yoki undan ortiq so‘z bir-biri bilan bog‘lanib so‘z birikmasi tuzib kelishi mumkin. So‘zlar bir-biri bilan moslashib yoki birikib bog‘lanadi.

So‘z bir-biriga moslashib bog‘langan birikma moslashgan aniqlovchi, birikib bog‘langan birikma esa izofa birikmasi (yoki qaratqichli aniqlovchi yoki moslashmagan aniqlovchi birikmasi) deb ataladi.

ANIQLOVCHI

Aniqlovchining uch xili bor:

1. Moslashgan aniqlovchi – aniqlanmish so‘zning belgisini bildiruvchi so‘z:

siyosiy mavzu – جَدِيدٌ بَيْتٌ - ЯНГИ УЙ مَوْضُوعٌ سِيَاسِيٌّ ،

2. Moslashmagan aniqlovchi – aniqlanmish so‘zning unga qarashlilikini bildiruvchi so‘z: kishining so‘zi - الْمَرْءُ كَلَامٌ

3. Izohlovchi aniqlovchi – aniqlanmish so‘zni boshqa ism bilan aniqlab keluvchi so‘z: bu kitob- أَحْمَدُ الْأُسْتَاذُ - Ustoz Ahmad ، الْكِتَابُ هَذَا

SIFATLOVCHI (MOSLASHGAN) ANIQLOVCHI

Sifatlovchi aniqlovchi (النَّعْتُ) vazifasida tub sifat, nisbiy sifat, tartib sonlari keladi. Ularning barchasi aniqlanmish soʻzdan keyin kelib, u bilan toʻrt kategoriyada: jins, son, kelishik va holatda moslashadi. Agar oʻzbek tilida bunday birikmada avval aniqlovchi keladigan boʻlsa, arab tilida aksincha- avval ot keyin aniqlovchi keladi:

birikmaning tarjimasi	aniq holatda	noaniq holatda
chiroyli dars (sifat)...	الدَّرْسُ الْجَمِيلُ...	دَرْسٌ جَمِيلٌ...
amaliy dars (nisbiy sifat)...	الدَّرْسُ الْعَمَلِيُّ...	دَرْسٌ عَمَلِيٌّ...
tushunarli dars ()...	الدَّرْسُ الْمَفْهُومُ...	دَرْسٌ مَفْهُومٌ...
birinchi dars (tartib son)...	الدَّرْسُ الْأَوَّلُ...	دَرْسٌ أَوَّلٌ...

Agar sifatlovchi aniqlovchi aniqlanmish bilan holatda moslashmasa, bu aniqlovchi bilan aniqlanmishning moslashishi boʻlmay, balki ega bilan kesimning moslashishi, yaʼni gap boʻlib qoladi:

jumlaning tarjimasi	jumla	soʻz birikmasi
<u>Masala yechilmagandir.</u>	المَسْأَلَةُ مُعَلَّقَةٌ.	المَسْأَلَةُ الْمُعَلَّقَةُ...
<u>Ikkita jumla yozilgan.</u>	الْجُمْلَتَانِ مَكْتُوبَتَانِ.	الْجُمْلَتَانِ الْمَكْتُوبَتَانِ...
<u>Mudarrislar misrlikdirlar.</u>	الْمُدَّرِّسُونَ مِصْرِيُّونَ.	الْمُدَّرِّسُونَ الْمِصْرِيُّونَ...
<u>Dars birinchidir.</u>	الدَّرْسُ أَوَّلٌ.	الدَّرْسُ الْأَوَّلُ...

Insonlarning kasb-kori, unvoni va qarindoshlik darajalarini ifodalab kelgan soʻz birikmalari izohlovchi aniqlovchi birikmasiga misol boʻladi. Bu birikmada avval izohlanmish aniq holatda va undan keyin atoqli ot bilan ifodalangan izohlovchi keladi:

ustoz Ahmad الْأَسْتَاذُ أَحْمَدُ doktor Ashraf الدُّكْتُورُ أَشْرَفُ

Koʻrsatish olmoshi izohlovchi vazifasida kelganida grammatik jihatdan aniq holatda boʻlgani uchun izohlanmishning faqat aniq holatda kelishini talab qiladi va u bilan jins va sonda, agar ikkilik sonda boʻlsa kelishikda ham moslashadi.

tarjimasi muannas jins tarjimasi muzakkar jins

Bu toliba... هَذِهِ الطَّالِبَةُ... Bu talaba... هَذَا الطَّالِبُ...
Bu ikki toliba... هَاتَانِ الطَّالِبَتَانِ... Bu ikki talaba... هَذَانِ الطَّالِبَانِ...
Bu olimalar... هُوَ لَاءِ الْعَالِمَاتُ Bu olimlar... هُوَ لَاءِ الْعَالِمُونَ...

Agar izohlanmish noaniq holatda bo'lsa bu birikma gapga aylanadi:

Bu talabadir. هَذَا طَالِبٌ ...هَذَا الطَّالِبُ
Bu ikkovi talabadirlar. هَذَانِ طَالِبَانِ ...هَذَانِ الطَّالِبَانِ

44-mashq. Ushbu matnни yozing, o'qing va tarjima qiling.

عِنْدَ الطَّبِيبِ (الْقِسْمُ الْأَوَّلُ)
شَعَرَ يُوسُفُ بِأَلَمٍ فِي بَطْنِهِ، فَذَهَبَ إِلَى الطَّبِيبِ، وَدَفَعَ أَجْرَ الْفَحْصِ لِلْمُمَرِّضَةِ وَجَلَسَ،
جَاءَ دَوْرُهُ، فَدَخَلَ حُجْرَةَ الْفَحْصِ
طَبِيبٌ: مَاذَا عِنْدَكَ؟ يُوسُفُ: عِنْدِي أَلَمٌ فِي بَطْنِ
طَبِيبٌ: هَلْ عِنْدَكَ صُدَاعٌ؟ يُوسُفُ: لَا.
طَبِيبٌ: هَلْ عِنْدَكَ قَيْءٌ؟ يُوسُفُ: لَا.
طَبِيبٌ: هَلْ عِنْدَكَ إِسْهَالٌ؟ يُوسُفُ: نَعَمْ، قَلِيلٌ
طَبِيبٌ: ضَعْ مِقْيَاسَ الْحَرَارَةِ فِي فَمِكَ. (يُوسُفُ يَضَعُ مِقْيَاسَ الْحَرَارَةِ فِي فَمِهِ).
طَبِيبٌ: اكْشِفْ صَدْرَكَ مِنْ فَضْلِكَ.
(يُوسُفُ يَكْشِفُ صَدْرَهُ. الطَّبِيبُ يَفْحَصُ صَدْرَهُ وَظَهْرَهُ بِالسَّمَاعَةِ.)
طَبِيبٌ: صَدْرُكَ سَلِيمٌ وَالْحَمْدُ لِلَّهِ. يُوسُفُ: مَاذَا عِنْدِي؟
طَبِيبٌ: عِنْدَكَ حُمَّى خَفِيفَةٌ، وَوَصْفَةُ الْعِلَاجِ: سِرَابٌ وَأَقْرَاصٌ وَحُقْنٌ. يُوسُفُ:
شُكْرًا.
طَبِيبٌ: ارْجِعْ بَعْدَ أُسْبُوعٍ!

كلمات:

to'ladi	دَفَعَ	sezdi	شَعَرَ
tekshirish haqqi	أَجْرُ الْفَحْصِ	qornida og'riq	أَلَمٌ فِي بَطْنِهِ
uning navbati	دَوْرُهُ	hamshira	مُمَرِّضَةٌ
bosh og'riq	صُدَاعٌ	Sizda nima?	مَاذَا عِنْدَكَ؟
ich ketish	إِسْهَالٌ	qusish	قَيْءٌ
qo'y! (qo'yadi)	ضَعْ (يَضَعُ)	termometr	مِقْيَاسُ الْحَرَارَةِ
tekshirmoq	فَحَصَ	ko'ksingni och!	إِكْشِفْ صَدْرَكَ
yengil	حُمَّى خَفِيفَةٌ	fonendoskop	سَمَاعَةٌ

shamollash			
sirop	سِرَابٌ	davolash retsepti	وَوَصْفَةُ الْعِلَاجِ
igna sanchish (ukol)	حُقْنَةٌ (ko'pl. حُقْنٌ)	tabletka	قُرْصٌ (ko'pl. أَقْرَاصٌ)

O'N YETTINCHI DARS

FE'LIY GAP

Kesimi fe'l bilan ifodalangan gapga fe'liy gap va bunday kesimga fe'l-kesim deyiladi. Fe'liy gapning boshida fe'l-kesim (الْفِعْلُ) birlik sonda va uning ketidan ega- (الْفَاعِلُ) bosh kelishikda, birlik yoki ikkilik yoki ko'plik sonda va aniq yoki noaniq holatda keladi. Gapning boshida kelgan fe'l-kesim ega bilan faqat jinsda moslashadi.

Jumlaning tarjimasi	ega- فاعِلٌ	fe'l-kesim- فِعْلٌ
Talaba ketdi	الطَّالِبُ.	ذَهَبَ
Ikki talaba ketishdi	الطَّالِبَانِ.	ذَهَبَا
Talabalar ketdilar.	الطَّلَابُ.	ذَهَبُوا
Toliba ketdi.	الطَّالِبَةُ.	ذَهَبَتْ
Ikki toliba ketishdi.	الطَّالِبَتَانِ.	ذَهَبَتَا
Tolibalar ketdilar.	الطَّالِبَاتُ.	ذَهَبْنَ

Agar fe'l-kesim shaxs yoki uning kasbini ifodalab kelgan egadan keyin kelsa, u ega bilan to'liq: jins va sonda moslashadi:

Talaba ketdi va qaytdi.	ذَهَبَ الطَّالِبُ وَرَجَعَ.
Ikki talaba ketishdi va qaytishdi.	ذَهَبَ الطَّالِبَانِ وَرَجَعَا.
Talabalar ketdilar va qaytdilar.	ذَهَبَ الطَّلَابُ وَرَجَعُوا.
Toliba ketdi va qaytdi.	ذَهَبَتْ الطَّالِبَةُ وَرَجَعَتْ <i>muan</i>
Ikki toliba ketishdi va qaytishdi.	ذَهَبَتِ الطَّالِبَتَانِ وَرَجَعَتَا <i>muan.</i>
Tolibalar ketdilar va qaytdilar.	ذَهَبَتِ الطَّالِبَاتُ وَرَجَعْنَ <i>muan.</i>

Agar fe'l-kesim shaxsni bildiradigan ikki xil jinsdagi egadan keyin kelsa, u muzakkar jinsda bo'ladi:

Talaba va toliba ketishdi.	ذَهَبَا الطَّالِبُ وَالطَّالِبَةُ
Toliba va talaba ketishdi.	الطَّالِبَةُ وَالطَّالِبُ ذَهَبَا

Avval kelayotgan bo'lsa, o'ziga yaqin turgan eganing jinsida bo'ladi:

Talaba va toliba ketishdi.
Talaba va toliba ketishdi.

ذَهَبَتِ الطَّالِبَةُ وَالطَّالِبُ.
ذَهَبَ الطَّالِبُ وَالطَّالِبَةُ.

45-mashq. Jummalarni yozing, o'qing, tarjima va grammatik tahlil qiling.

وُلِدْتُ فِي طَشْقَنْدَ. هَلْ دَخَلْتِ تِلْكَ الْكُلِّيَّةَ؟ لَا! دَرَسَ مُظَفَّرُ اللُّغَةِ الْعَرَبِيَّةِ. قَرَأْتُ هَذَا الْكِتَابَ.
مَا حَضَرْتُ جَمِيلَةً وَمُرْتَضَى الْمُحَاضِرَةَ. مَا فَهِمْنَا الدَّرْسَ الْعَاشِرَ. مَا رَجَعَ عَمْرُو وَوَلِيَّتِي إِلَى
الْبَيْتِ. ذَهَبَ الْأَوْلَادُ إِلَى السُّوقِ الْجَدِيدَةِ. مَا أَكَلَ سَيْفُ اللَّهِ هَذَا الطَّعَامَ. قَدْ حَفِظَ التَّلَامِيذُ الْكَلِمَاتِ.
أَسَكَنْتِ كَمَالَةَ فِي تِلْكَ الْمَدِينَةِ؟ لَا، هِيَ سَكَنْتِ فِي الْقَرْيَةِ الْجَبَلِيَّةِ. أَخَذْتُ الْكُتُبَ مِنَ الْخِرَانَةِ. يَا
عَمْرُ وَيَا سَعَادُ، هَلْ نَقَلْتُمَا الْوُظَيْفَةَ؟ نَعَمْ! هُنَّ مَا شَرِبْنَ الشَّيْءَ بِالْحَلِيبِ. هَلْ هُمَا رَجَعْتَا؟ لَا، مَا
رَجَعْتَا. قَدْ وَصَلْنَا إِلَى الْبَيْتِ.

كلمات:

yetib kelmoq	(i) وَصَلَ	ma'ruza	مُحَاضِرَةٌ
ichmoq	(a) شَرِبَ	fakultet	كُلِّيَّةٌ (آت. pl. ko)
ey! hoy!	يَا!	bozor	سُوقٌ (أسواق. ko pl.)
sut	حَلِيبٌ	til	لُغَةٌ (لغات. ko pl.)
tashimoq; ko'chirmoq; yozmoq; tarjima qilmoq	(u) نَقَلَ	vazifa	وُظَيْفَةٌ (وظائف. ko pl.)

TO'LDIRUVCHI

Fe'l-kesim tomonidan boshqarilayotgan va ish-harakat yo'nalgan ob'yekt (ya'ni shaxs yoki predmet)ni ifodalagan gap bo'lagiga to'ldiruvchi deyiladi. To'ldiruvchi kesim ifodalagan ish-harakatni mazmunan to'ldirib keladi. O'timli yoki o'timsiz fe'l tomonidan boshqarilishiga qarab esa to'ldiruvchi vositasiz yoki vositali bo'ladi.

O'timli fe'l tomonidan boshqarilib kelinayotgan vositasiz to'ldiruvchi odatda fe'l-kesim va egadan keyin tushum kelishigida keladi. O'zbek tiliga tarjima qilinganda u har doim ham «kimni», «nimani» so'roqlariga javob bo'lavermaydi. Misollar:

Zaynab kitobni oldi. أَخَذَتْ زَيْنَبُ الْكِتَابَ.

Zaynab mudarrisdan so'radi. سَأَلَتْ زَيْنَبُ الْمُدْرِسَ.

Odatda, to'ldiruvchi ishtirok etgan fe'liy gaplardagi gap bo'laklarining tartibi quyidagicha bo'ladi:

Jumlaning tarjimasi	مَفْعُولٌ to'ldiruvchi	فَاعِلٌ ega	فِعْلٌ fe'l-kesim
Mudarris ikkita mas'alani tushuntirdi	مَسْأَلَتَيْنِ.	الْمُدَّرِسُ	شَرَّحَ

Agar vositasiz to'ldiruvchini ajratib, ta'kidlab ko'rsatish zarurati bo'lsa, u egadan oldin qo'yiladi:

مavzuni Amr tushuntirdi. شَرَّحَ الْمَوْضُوعَ عَمْرًا.

Vositali to'ldiruvchi esa birorta ko'makchi bilan qaratqich kelishigida keladi (vosita deb old ko'makchini tushunish lozim):

Ayol askarga so'zsiz tikildi.	نَظَرْتُ إِلَى الْجُنْدِيِّ بِلَا كَلَامٍ.
Mahmud ruchka bilan yozayapti.	مَحْمُودٌ كَاتِبٌ بِالْقَلَمِ.

Gapda ikki xil to'ldiruvchi birga kelsa, avval vositasiz to'ldiruvchi qo'yiladi: أَخَذْتُ الْمَجَلَّةَ مِنَ الْمُعَلِّمِ. Jurnalni o'qituvchidan oldim.

O'timsiz fe'lga «ergashib» keladigan tub ko'makchilar fe'lning ma'nolarini tubdan o'zgartirib yuboradi. Shuning uchun fe'lning ma'nolarini yod olganda u qaysi ko'makchi bilan kelganda qanday ma'noni anglatishiga alohida diqqat qilish zarur:

olib keldi	جَاءَ بِـ..	...ga keldi	إِلَى.. جَاءَ
xohlamadi	رَغِبَ عَنْـ..	xohladi	فِي.. رَغِبَ
jahl qildi	وَجَدَ عَلَىـ..	...da topdi;	وَجَدَ فِيـ..
		erishdi	

O'N SAKKIZINCHI DARS

Gapning uyushiq bo'laklari

Gapning biror bo'lagiga teng ravishda bog'langan, ammo o'zaro mustaqil bo'lgan ikki yoki undan ortiq bo'laklarga gapning uyushiq bo'laklari deyiladi. Gapning uyushiq bo'laklari bir xil so'roqqa javob bo'lib, bir xil sintaktik vazifani bajarib keladi. Gapning bosh bo'laklari ham, ikkinchi darajali bo'laklari ham uyushib kelishi mumkin.

Uyushgan ega, ismiy kesim, to'ldiruvchi, aniqlovchi va uyushgan hollar bir xil kelishikda bo'ladi, uyushgan fe'l-kesimlar esa bir xil shaxs, jins va maylda bo'ladi.

Ular bir-biri bilan ushbu bog'lovchilar vositasida bog'lanadi:

1. Teng bog'lovchilar. وَ... – va; ... فـ keyin; نَمَّ – so'ngra kabilar bo'lib, وَ... bog'lovchisi gapning ikkita uyushiq bo'lagini to'g'ridan-to'g'ri bog'lasa, ... فـ bog'lovchisi ularning ketma-ketligini, نَمَّ bog'lovchisi esa orada biroz muddat o'tganini bildiradi:

Mahmud va Umar kirib

دَخَلَ مَحْمُودٌ وَعَمْرٌ فَجَلَسَا نَمَّ الْمُعَلِّمِ.

o'tirishdi, so'ngra muallim kird

2. Zidlovchi bog'lovchilar. لا- emas; بَلْ- emas, balki; لَكِنْ- lekin kabi zidlovchi bog'lovchilar uyushgan bo'laklardan birini boshqasiga zid (qarshi) qo'yish uchun ishlatiladi:

Zayd emas, balki Umar keldi.

مَا جَاءَ زَيْدٌ بَلْ عُمَرُ.

Qonun barchagadir, ba'zilar uchun emas

الْقَانُونُ عَامَّةٌ لَا خَاصَّةٌ.

(Qonun barchaga barobar.)

3. Ayiruvchi (yoki ajratib ko'rsatuvchi) bog'lovchilar. أَوْ- yoki; أَمْ- yoki (so'roq gaplar uchun); إِمَّا...وَأِمَّا- yoki, ...yoki; kabi ayiruvchi bog'lovchilar uyushgan bo'laklarning faqat bittasini ajratib ko'rsatish uchun ishlatiladi:

Uyqudan avval sut yoki sharbat ich!

اشْرَبِي قَبْلَ النَّوْمِ لَبَنًا أَوْ عَصِيرًا!

Yoki asal yegin, yoki sarimsoq!

كُلِّ إِمَّا عَسَلًا وَإِمَّا تَوْمًا!

4. " أي - ya'ni " sharhlovchi bog'lovchi ham uyushiq bo'lakli gaplarda ishlatiladi:

Abdulkarim, ya'ni o'qituvchi keldi.

جَاءَ عَبْدُ الْكَرِيمِ أَيِّ الْمَعْلَمِ.

46-mashq. Ushbu matnни yozing, o'qing va tarjima qiling. To'ldiruvchilarni aniqlang. Yangi so'zlarni yod oling.

فِي الْمَكْتَبَةِ

هَذِهِ مَكْتَبَةٌ. الطُّلَّابُ فِي الْمَكْتَبَةِ. هُنَا كَثِيرٌ مِنَ الْكُتُبِ الْمَطْبُوعَةِ وَالْمَخْطُوطَةِ. تُوجَدُ فِي الْمَكْتَبَةِ مُؤَلَّفَاتٌ أَدَبِيَّةٌ وَعِلْمِيَّةٌ بِاللُّغَاتِ الْأَوْزُبِكِيَّةِ وَالْعَرَبِيَّةِ وَالْإِنْجِلِيزِيَّةِ وَالرُّوسِيَّةِ. الطُّلَّابُ مَشْغُولُونَ بِالْقِرَاءَةِ وَالْكِتَابَةِ. دَخَلَ سَامِرٌ الْمَكْتَبَةَ وَتَأَمَّلَ الْكُتُبَ فِيهَا. فَأَخَذَ كِتَابًا مِنَ الْكُتُبِ الْمَخْطُوطَةِ فَقَلَّبَ أَوْرَاقَهُ، وَقَرَأَهُ ثُمَّ طَوَى الْكِتَابَ. أَرَادَ سَامِرٌ أَنْ يَسْتَعِيرَ الْكِتَابَ لِلْقِرَاءَةِ فِي الْبَيْتِ، وَاخْتَارَ الْكِتَابِينَ. أَعَارَتْ خَادِمَةُ الْمَكْتَبَةِ الْكِتَابِينَ، وَسَجَّلتَ اسْمَهُ فِي دَفْتَرِ الإِعَارَةِ.

كلمات:

bosma kitoblar	كُتُبٌ مَطْبُوعَةٌ	..dan ko'p	كَثِيرٌ مِنْ
qo'lyozma kitoblar	كُتُبٌ مَخْطُوطَةٌ	(kitobni) berdi	أَعَارَ
adabiy kitoblar	مُؤَلَّفَاتٌ أَدَبِيَّةٌ	tillarda	بِاللُّغَاتِ

ko‘zdan kechirdi	تأمل	mashg‘ullar	مَشْغُولُونَ
unda; undagi	فِيهَا	ismini yozdi	سَجَّلَ اسْمَهُ
bir kitobni	إِحْدَى الْكُتُبِ	yozi	كِتَابَةً
ochdi; ag‘dardi	قَلَّبَ	shunda u oldi	فَأَخَذَ
kitobni yopdi	طَوَى الْكِتَابَ	xohladi	أَرَادَ
tanladi	إِخْتَارَ	olishni	أَنْ يَسْتَعِيرَ

47-Mashq. Ushbu matnni arab yozuvida yozing.

“**Va** marg jomin paymona qilib, navmidlig‘ ashki mayi ravon bo‘lg‘oni **va** ul fano bodasidin paymonasining to‘lg‘oni **va** ul paymonani ajal soqiylari ilgidin sipqora ichgoni **va** sog‘almas maydin jonon yodi bila mast bo‘lub jonidin kechgoni.

(“Xamsa”)

Zihi javlongahing aflok uza maydoni «**av** adno»,

Buroqingg‘a to‘quz gunbaz bu to‘qquz gunbazi xazro.

(“Badoyi‘ ul-bidoya”)

O‘N TO‘QQIZINCHI DARS

IZOFA BIRIKMASI

Bir otni boshqa bir otga qaratqich kelishigi vositasida biriktirib hosil qilingan birikmaga izofa birikmasi (الإضافة) deyiladi. Izofa birikmasidagi birinchi ot «مُضَافٌ» (o‘zbek tilida «aniqlanmish» yoki «qaralmish») deb ataladi va u ikkinchi otga tobe‘ bo‘lib uni qaratqich kelishigida kelishini talab qiladi. Ikkinchi ot esa «مُضَافٌ إِلَيْهِ» (o‘zbek tilida «qaratqichli aniqlovchi» yoki «qaratqich») deb ataladi va u birinchi otni (kimga yoki nimaga tegishlilikini) aniqlab keladi. Birinchi ot ال siz va tanvinsiz bo‘lib gapdagi vazifasiga qarab uch kelishikdan birida, ikkinchi ot esa faqat qaratqich kelishigida keladi:

kishining so‘zi (gapi). . .

كَلَامُ الْمَرْءِ...

ota-onaning haqqi...

حَقُّ الْوَالِدَيْنِ...

kitobning narxi...

ثَمَنُ الْكِتَابِ...

Agar u aniq holatda bo'lsa, birinchi ot ma'no jihatdan aniq, noaniq holatda bo'lsa, birinchi ot ham ma'no jihatdan noaniq deb hisoblanadi:

(aniq) talabanning kitobi كِتَابُ الطَّالِبِ

(noaniq) bir talabanning kitobi كِتَابُ طَالِبٍ

Izofaning aniqlanmishi ikkilik sonda yoki to'g'ri ko'plikning muzakkar jinsida bo'lsa, u qaysi kelishikda turgan bo'lmasin, oxiridagi «ن» harfi tushib qoladi:

o'quvchining ikkita kitobi ... كِتَابَا التَّلْمِيزِ .. ← كِتَابَانِ التَّلْمِيزِ
institut (ning) o'qituvchilari... مُدْرَسُو الْمَعْهَدِ .. ← مُدْرَسُونَ الْمَعْهَدِ
universitet(ning) o'qituvchilarini... مُدْرَسِي الْجَامِعَةِ .. ← مُدْرَسِينَ الْجَامِعَةِ

Agar aniqlanmish so'zning ikkita- ham sifatlovchi, ham qaratqich aniqlovchisi bo'lsa, aniqlanmishdan keyin avval qaratqich aniqlovchisi, undan keyin sifatlovchi aniqlovchisi keladi va u aniqlanmish (ya'ni qaralmish) bilan to'liq -to'rt grammatik kategoriyada moslashadi:

yangi kitob... كِتَابٌ جَدِيدٌ
talabanning yangi kitobi... كِتَابُ الطَّالِبِ الْجَدِيدِ
talabanning ikki yangi kitobi... كِتَابَا الطَّالِبِ الْجَدِيدَانِ

Shu qoidaga ko'rsatish olmoshi ishtirokidagi misol:

bu eshik... هَذَا الْبَابُ
xonaning bu eshigi... بَابُ الْعُرْفَةِ هَذَا
xonaning bu ikki eshigi... بَابَا الْعُرْفَةِ هَذَانِ

Izofa birikmasidagi مُضَافٌ إِلَيْهِ (qaratqich)ning aniqlovchisi esa o'z o'rnida kelaveradi:

yangi uy ... الْبَيْتُ الْجَدِيدُ
yangi uyning eshiklari... أَبْوَابُ الْبَيْتِ الْجَدِيدِ

Agar qaratqich ko'rsatish olmoshi bilan izohlanib kelayotgan bo'lsa, ko'rsatish olmoshi izofaning «ichi»ga kirib ketgandek tuyuladi:

bu toliba ... هَذِهِ الطَّالِبَةُ
bu tolibaning kitobi... كِتَابُ هَذِهِ الطَّالِبَةِ
bu shaharning odamlari... أَهْلُ هَذِهِ الْمَدِينَةِ

Izofaning vazifasini yuqoridagi shaklidan tashqari, ko‘makchi bilan kelgan «buzilgan shakli» ham bajaraveradi. Masalan:

ilm izlash...	طَلَبَ فِي الْعِلْمِ...
shoyi (ipak) parda...	سِتَارَةٌ مِنَ الْحَرِيرِ...

so‘zi ham o‘zidan keyin kelayotgan so‘z bilan izofa birikmasi tuzib keladi. Agar so‘zidan keyin kelayotgan so‘z birlik son noaniq holatda bo‘lsa u «har bir...» deb, birlik son aniq holatda bo‘lsa «hammasi» deb, aniq holat, ko‘plik sonda bo‘lsa «hammalari...» deb tarjima qilinadi.

har bir talaba ..(talabaning har biri...)	كُلُّ طَالِبٍ...
kitobning hammasi... (boshidan oxirigacha)	كُلُّ الْكِتَابِ
talabalarning hammalari... (barcha talabalar...)	كُلُّ الطُّلَّابِ...

Izofa zanjiri. Izofa birikmasining 2--bo‘lagini uning ketidan qaratqich kelishigida kelayotgan 3-bo‘lak, (masalan, «universitet tolibining kitobi...», «ota-ona(ning) haqqining ado qilinishi...» kabi), 3-bo‘lakni esa uning ketidan qaratqich kelishigida kelayotgan 4-bo‘lak aniqlab kelishi mumkin (masalan, «O‘zbekiston Respublikasi aholisining huquqlari...» kabi) va hokazo (masalan, «O‘zbekiston respublikasining aholisi huquqlarining himoya qilinishi» kabi). Shu tariqa qaratqich kelishigidagi moslashmagan aniqlovchilarning izofa zanjiri hosil bo‘ladi. «لا» artiklini faqat ularning oxirida kelayotgan ot olishi mumkin, undan avval kelayotgan barcha otlar «لا» artiklini ham, tanvin ham olmaydi va qaratqich kelishigida keladi. Izofa zanjiridagi 1- ot esa gapdagi o‘rniga qarab uch kelishikdan birida keladi. Odatda izofa zanjirini teskari tomonidan tarjima qilgan ma’qul:

<u>ota-ona haqqining ado qilinishi ...</u>	أَدَاءُ حَقِّ الْوَالِدَيْنِ...
	1 2 3
Shahar universiteti talabasining ixtirosi...	إِخْتِرَاعُ طَالِبِ جَامِعَةِ الْمَدِينَةِ...
	1 2 3 4

Izofa zanjiri murakkablashib ketsa uni soddalashtirish uchun uni لِي مِنْ ، فِي uni ko‘makchilarining biri bilan «bo‘lib» tashlash mumkin. Bunda ularning barchasi «..ning» ma’nosini berib, izofaning qaratqich kelishigini ifodalash uchun xizmat qiladi:

(...أداء في حقِّ الوالدين) yoki (...أداء الحقِّ للوالدين
...إختراع لطالب الجامعة بالمدينة

Biz yuqorida ko‘rib o‘tganimiz haqiqiy izofa edi. Xulosa qilib aytganda arab tilida izofaning ikki turi bor:

- | | |
|--|-------------------------|
| 1) Haqiqiy izofa (ma’nosi va aytilishi bo‘yicha bo‘lgan izofa) | إِضَافَةٌ مَعْنَوِيَّةٌ |
| 2) Shakliy izofa (izofa shaklida aytiladigan murakkab sifat) | إِضَافَةٌ لَفْظِيَّةٌ |

Haqiqiy izofa yana predmet va hodisalar o'rtasidagi quyidagi munosabatlarni ham ifodalaydi:

1. Aniqlanmish so'z ifodalaganning nimadan yasalganini bildiradi:

ipak libos...

لِبَاسٌ حَرِيرِيٌّ (yoki لِبَاسٌ حَرِيرِيٌّ)...

kumush uzuk...

خَاتَمٌ فَضِّيٌّ (yoki خَاتَمٌ فَضِّيٌّ)...

2. Aniqlanmishni aniq bir nom bilan ataydi (izohlaydi):

Toshkent (nomli) shahar

مَدِينَةُ طَشْقَنْدَ

Ramazon (nomli) oy

شَهْرُ رَمَضَانَ

Nil (nomli) daryo

نَهْرُ النَّيْلِ

bahor (nomli) fasl

فَصْلُ الرَّبِيعِ

3. Butun narsaning bir bo'lagini, ko'p narsaning bir qismini ifoda etadi:

ba'zi odamlar...

بَعْضُ النَّاسِ ..

odamlarning yomoni...

شُرُّ النَّاسِ ..

Shakliy izofa – izofa shaklidagi murakkab sifat:

Bunday izofada uning aniqlanmishi (ya'ni qaralmishi) sifat yoki sifatdosh bilan ifodalangan bo'lib moslashmagan aniqlovchi (ya'ni qaratqich) bilan murakkab sifat tuzib keladi. U doim aniq holatda bo'ladi:

baland bo'yli... (qanday?)

طَوِيلُ الْقَامَةِ...

katta yoshli... (qanday?)

كَبِيرُ السِّنِّ...

Gapda lafziy izofaning aniqlanmishi aniqlanmish bilan to'liq, ya'ni to'rtta grammatik kategoriyada moslashadi:

Baland bo'yli bir kishi keldi.

جَاءَ رَجُلٌ طَوِيلُ الْقَامَةِ.

Yoqimli chehrali bir mudarrisa keldi.

جَاءَتْ مُدْرِسَةٌ حَسَنَةُ الْوَجْهِ.

Agar lafziy birikkan izofadan oldingi ot aniq holatda bo'lsa, izofaning aniqlanmishi ham albatta artiklini oladi:

Yoqimli chehrali mudarrisa kirdi.

دَخَلَتْ الْمُدْرِسَةُ الْحَسَنَةُ الْوَجْهِ.

U baland bo'yli kishi bilan keldi.

هِيَ جَاءَتْ مَعَ الرَّجُلِ الطَّوِيلِ الْقَامَةِ.

48-mashq. Quyidagi jummlarni yozing, o'qing, tarjima va grammatik tahlil qiling.

جَمَالَ الْفَتَى بِالْعِلْمِ لَا بِالْمَلَابِسِ. هُنَّ مُتَعَلِمَاتُ جَامِعَةِ التَّرْبِيَةِ الدَّوْلِيَّةِ. بَعْضُ فِتْيَانِ الْكَلِيَّةِ نَشِيطٌ

وَبَعْضُ فِتْيَاتِ الْكَلِيَّةِ ذَكِيَّةٌ. إِنَّ أَسَاطِيرَ الْيُونَانِ طَرِيفَةٌ. أَيَّامُ الْأَسْبُوعِ هِيَ: يَوْمُ الْأَحَدِ، وَيَوْمُ الْاِثْنَيْنِ، وَيَوْمُ

الثَّلَاثَاءِ، وَيَوْمُ الْأَرْبَعَاءِ، وَيَوْمُ الْخَمِيْسِ، وَيَوْمُ الْجُمُعَةِ وَيَوْمُ السَّبْتِ. خَيْرُ الْأَعْمَالِ لِمَحْمُودٍ أَخَذَ الْعُلُومَ

المتعددة. كَلَامُ الْمُلُوكِ مُلُوكُ الْكَلَامِ. هُوَ حَسَنُ الْوَجْهِ. أَكْبَرُ شَابٍ طَوِيلِ الْقَامَةِ وَأَزْرَقِ الْعَيْنَيْنِ. إِنَّ هَذِهِ الْمَدِينَةَ صَغِيرَةٌ الْمَسَاحَةِ وَقَلِيلَةُ السَّكَّانِ. إِنَّ سَلِيمًا شَابٍ قَلِيلِ الْحَيَاءِ وَقَصِيرِ الْبَاعِ. لَيْلَى طَالِبَةٌ حَسَنَةُ الْخَلْقِ وَجَمَّةُ النَّشَاطِ. هَذَا الْقَامُوسُ الْعَرَبِيُّ الرَّوسِيُّ غَالِي الثَّمَنِ لِلْغَايَةِ.

كلمات:

afsona; asotir	أَسْطُورَةٌ (أَسَاطِيرُ) (ko'pl.	peduniversitet	جَامِعَةُ التَّرْبِيَّةِ
to'lov; jazo	جَزَاءٌ	Yunoniston	الْيُونَانُ
aholisi kam	قَلِيلَةُ السَّكَّانِ	buyurmoq	أَمَرَ (u)
chorshanba	يَوْمُ الْأَرْبَعَاءِ	hafta kunlari	أَيَّامُ الْأَسْبُوعِ
payshanba	يَوْمُ الْخَمِيسِ	yakshanba	يَوْمُ الْأَحَدِ
juma	يَوْمُ الْجُمُعَةِ	dushanba	يَوْمُ الْاِثْنَيْنِ
shanba	يَوْمُ السَّبْتِ	seshanba	يَوْمُ الثَّلَاثَاءِ
mana shunday	هَكَذَا	kambag'al	قَلِيلُ الْمَالِ
sersuv	وَافِرَةٌ الْمِيَاهِ	yaxshi xulqli; oliyjanob	كَرِيمُ الْأَخْلَاقِ
to'garak; kurslar	نُورَةٌ (اتُّ)	serg'ayrat	جَمُّ النَّشَاطِ
uy; manzil	مَنْزِلٌ (مَنْزِلٌ) (ko'pl.)	noshud	قَصِيرُ الْبَاعِ
yaxshi xulqli	حَسَنُ الْخَلْقِ	maydoni kichik	صَغِيرَةُ الْمَسَاحَةِ

49-mashq. "Boburnoma" da keltirilgan izofa birikmalarni o'qing, yozing va ma'nolarini toping.

- Al-muxtassu bi-'avotifil-malikul-musta'on – المختص بعواطف الملك المستعان
- Al-muxtassu bi-'avotifil-malidik-dayyon – المختص بعواطف الملك الديان
- Al-mushoru 'ilayh – المشار إليه
- Amvoji karam – أمواج كرم
- A'ozim ul-vuzaro baynal-umam – أعظم الوزراء بين الأمم
- Jumodi al-avval – جمادى الأول
- Jumodi al-oxir – جمادى الآخرة
- Komil ul-aqidati val-ixlos – كامل العقيدة والإخلاص
- Komil ul-ixlos – كامل الإخلاص
- Komil ul-ixtisos – كامل الاختصاص
- Nodir ul-'asr – نادر العصر
- Nodir ul-'asriy – نادر العصري

50-mashq. Ushbu matnni yozing, o'qing va tarjima qiling.

فِي الْمَطْعَمِ

الْمَطْعَمُ فِي الطَّائِقِ الْأَوَّلِ. الْوَجَبَاتُ الْيَوْمِيَّةُ فِي الْمَطْعَمِ هِيَ:

الْفُطُورُ: عَصِيرُ فَاكِهَةٍ، خُبْزٌ وَمَرَبَى وَزُبْدٌ، شَايٌ أَوْ قَهْوَةٌ، بَيْضٌ أَوْ جُبْنٌ أَوْ فُولٌ.

الْعَدَاءُ: حِسَاءٌ، سَلْطَةٌ، لُحُومٌ أَوْ طُيُورٌ، أَوْ سَمَكٌ، خُضْرٌ، خُبْزٌ وَزُبْدٌ، أُرْزٌ أَوْ مَكْرُونَةٌ، فَاكِهَةٌ أَوْ حَلْوَى، شَايٌ أَوْ قَهْوَةٌ.

الْعِشَاءُ: مِثْلَ الْعَدَاءِ.
عَلَى الطَّوْلَةِ شَوْكَةٌ وَسِكِّينٌ وَمَلْعَقَةٌ، وَطَبَقٌ كَبِيرٌ، وَطَبَقٌ صَغِيرٌ، وَزُجَاجَةٌ مَاءٍ، مَاءٌ، وَكُوبٌ. قَائِمَةُ الطَّعَامِ عَلَى الطَّوْلَةِ فِي الْقَائِمَةِ سِعْرُ الطَّعَامِ. **يُوسُفُ:** - أُرِيدُ حِسَاءَ طَمَاطِمٍ، وَسَلْطَةً، وَخُبْزًا وَكَبَابًا.

عَامِلُ الْمَطْعَمِ: - حَلْوَى أَوْ فَاكِهَةٌ؟ **يُوسُفُ:** - فَاكِهَةٌ، مَوْزٌ وَبُرْتُقَالٌ وَفِنْجَانٌ شَايٍ مِنْ فَضْلِكَ.

عَامِلُ الْمَطْعَمِ: - تَفَضَّلْ، هَا فَاتُورَةُ الْحِسَابِ، اِدْفَعْ هُنَا مِنْ فَضْلِكَ.
قَرَأَ يُوسُفُ الْفَاتُورَةَ، وَدَفَعَ الْحِسَابَ، وَشَكَرَ وَخَرَجَ مِنَ الْمَطْعَمِ.

كلمات:

ovqat (payti)	وَجِبَاتٌ ko'pl.	oshxona (restoran)	مَطْعَمٌ
tushlik	عَدَاءٌ	nonushta	فُطُورٌ
tuxum yoki pishloq	بَيْضٌ أَوْ جُبْنٌ	kechki ovqat	عِشَاءٌ
sho'rva	حِسَاءٌ	meva sharbati	عَصِيرُ فَاكِهَةٍ
(mol; qo'y) go'shti	لُحُومٌ	sariyog'	زُبْدٌ
sabzavotlar	خُضْرٌ	parranda go'shti	طُيُورٌ
taomnoma	قَائِمَةُ الطَّعَامِ	taom narxi	سِعْرُ الطَّعَامِ
pichoq	سِكِّينٌ	sanchqi	شَوْكَةٌ (ko'pl. شَوْكٌ)
likobcha	طَبَقٌ (أَطْبَاقٌ ko'pl.)	qoshiq	مَلْعَقَةٌ (مَلَاعِقٌ ko'pl.)
noto'g'ri	غَيْرٌ صَحِيحٌ	to'g'ri	صَحِيحٌ

YIGIRMA BIRINCHI DARS

Fe'ning hozirgi va kelasi zamonlari

Hozirgi zamon fe'li odatda gapirilayotgan paytda sodir bo'layotgan yoki takrorlanayotgan tugallanmagan ish-harakat yoki holatni ifodalaydi:

Talaba darsni yozayapti.	يَكْتُبُ الطَّالِبُ الدَّرْسَ.
Dars boshlanayapti.	يَبْدَأُ الدَّرْسَ.

Hozirgi zamondagi ish-harakatni hozirgi-kelasi zamon fe'li deb ataladigan fe'l shakli ifoda etadi. Uni bunday deb atalishiga sabab u muayyan yuklamalar bilan kelasi zamoni ham ifoda etadi. Hozirgi-kelasi zamon fe'li biz shartli ravishda infinitiv deb atagan o'tgan zamon, muzakkar jins, birlik sondagi fe'lining birinchi o'zak undoshini «sukun»lash hamda uning oldiga va oxiriga hozirgi-kelasi zamon fe'lining shaxs-son qo'shimchalarini qo'shish bilan yasaladi. Ular quyidagilardir:

ko'plik	ikkilik	birlik	shaxs, son,
نَ - - ُ	-----	أ - - ُ	muzakkar I sh. muannas
تَ - - ُونَ	تَ - انِ	تَ - - ُ	muzakkar II sh. muannas
تَ - - ُنَ	تَ - - انِ	تَ - - - ينَ	
يَ - - ُونَ	يَ - انِ	يَ - - ُ	muzakkar III sh. muannas
يَ - - ُنَ	تَ - - انِ	تَ - - ُ	

Bu yerda shaxs-son qo'shimchalari bilan kelgan hozirgi-kelasi zamon fe'lini sodda yig'iq gap, shaxs-son qo'shimchalarini esa shu gapning egasi deb tushunish lozim. Hozirgi-kelasi zamon fe'lining ikkinchi o'zak harfi «fatha» yoki «damma» yoki «kasra»dan biri bilan o'qilishi mumkin:

يَفْعَلُ ، يَفْعُلُ ، يَفْعَلُ

Bizning qomuslarda fe'ning yonida qavs ichida uning 2-o'zak undoshinig harakati, arablarda o'sha shaklning o'zi yozib qo'yilgan bo'ladi:

Tarjimasi	Arablarda	Bizda
o'tirmoq	جَلَسَ (يَجْلِسُ)	جَلَسَ(i)
yozmoq	كَتَبَ (يَكْتُبُ)	كَتَبَ(u)
ichmoq	شَرَبَ (يَشْرَبُ)	شَرَبَ (a)

فَعْلٌ vaznidagi fe'llar hozirgi-kelasi zamonda doimo يَفْعُلُ vaznida, فَعْلٌ vaznidagi fe'llar esa asosan يَفْعَلُ vaznida, فَعْلٌ vaznidagi fe'llar esa ko'pincha يَفْعُلُ vaznida, goh-gohida esa يَفْعُلُ ëki يَفْعُلُ vaznlarida bo'ladi.

«u tushundi – (a)فَهَمَ» fe'lini hozirgi zamonda tuslash jadvali:

ko'plik	ikkilik	birlik	shaxs, son, jins
نَفْهَمُ tushunayapmiz	- - -	أَفْهَمُ tushunayapman	muzakkar I sh. muannas

تَفْهَمُونَ tushunayapsiz تَفْهَمَنَ	تَفْهَمَانِ ikkimiz tushunayapmiz تَفْهَمَانِ	تَفْهَمُ tushunayaps an تَفْهَمِينَ	muzakkar II sh. muannas
يَفْهَمُونَ tushunayaptilar يَفْهَمَنَ	يَفْهَمَانِ ikkisi tushunayaptilar تَفْهَمَانِ	يَفْهَمُ tushunayapti تَفْهَمُ	muzakkar III sh. muannas

Eslatma: أَكَلٌ ، سَأَلَ ، قَرَأَ kabi hamzali fe'llarni hozirgi zamonda tushlashda ular da hamzaga oid bo'lgan yozuv (grafik) o'zgarishlar yuz beradi. Ya'ni أَكَلٌ kabi I o'zak undoshi hamza bo'lgan fe'llar hozirgi-kelasi zamon, I shaxs, birlik sonda أَكُلُ shaklida bo'lsa, ushbu fe'lning boshqa ko'rinishlarida va II, III o'zak undoshi hamza bo'lgan fe'llarda hamzaning kursisi hamza undoshiga oid bo'lgan yozuvqoidalar asosida o'zgaradi.

«لَا» «inkor yuklamasi» hozirgi zamon fe'lining inkor ma'nosini va «مَا» «inkor yuklamasi» nutq paytidagi inkor ma'nosini ifodalaydi:

U yozmayapti (U لَا يَكْتُبُ)
yozmaydi
U (hozir) yozmayapti مَا يَكْتُبُ

Agar uning oldida «أ» yuklamasi kelsa, nutq paytidagi so'roq ma'nosini, «هَلْ» yuklamasi kelsa, hozirgi zamondagi so'roq ma'nosini beradi:

Sen (hozir) bu kitobni o'qiyapsanmi? تَقْرَأُ هَذَا الْكِتَابَ؟ أ
Sen bu kitobni o'qiysanmi? هَلْ تَقْرَأُ هَذَا الْكِتَابَ؟

Agar hozirgi-kelasi zamon fe'lining oldiga “قَدْ” yuklamasi qo'yilsa, tahmin qilish, ishonchsizlik ma'nolarini beradi:

Balki u universitetda o'qib قَدْ يَدْرُسُ فِي الْجَامِعَةِ.
ketar.
Ehtimol, otam bilsalar kerak. قَدْ يَعْرِفُ أَبِي.

Fe'ning kelasi zamoni ikki xil ko'rinishda ifodalanadi:

1. Sodda shaklda – hozirgi-kelasi zamon shaklida bo'lgan fe'l mos ravish yuklamalari bilan kelib kelasi zamon ma'nosini ifodalaydi:

Avtobus kechqurun qaytadi. تَرْجِعُ الْحَافِلَةَ مَسَاءً.
Ishimizga peshinda ketamiz. نَذْهَبُ إِلَى عَمَلِنَا ظَهْرًا.

2. Murakkab shaklda- hozirgi-kelasi zamon fe'li oldiga “سَدَ” yoki “سَوْفَ” yuklamasini qo'yish bilan. Bu yerda “سَدَ” yuklamasi yaqin kelajak-ka ishora qilib,

fe'lga qo'shilib yoziladi. "سَوْفَ" yuklamasi esa uzoq kelajakka ishora qiladi va alohida yoziladi:

Men arab tilini o'rganayapman. أَتَعَلَّمُ اللُّغَةَ الْعَرَبِيَّةَ.
 Men arab tilini o'rganaman. سَأَتَعَلَّمُ اللُّغَةَ الْعَرَبِيَّةَ.
 Men (bir kuni) arab tilini o'rganaman. سَوْفَ أَتَعَلَّمُ اللُّغَةَ الْعَرَبِيَّةَ.

Kelasi zamon fe'lining inkor shakli «سَوْفَ» yuklamasining ortiga («سَ») yuklamasiga qo'yilmaydi) لَّا inkor yuklamasini qo'yib hosil qilinadi:

Men bugun o'yingohga سَوْفَ لَا أَذْهَبُ إِلَى الْمَلْعَبِ الْيَوْمَ.
 bormayman.

51- mashq. Ushbu fe'llarni hozirgi va kelasi zamonlarda tustlang, turli shakllarini hosil qiling. Ularning tarjimasini aniqlang:

تَرَكَ (u), ذَهَبَ (a), مَنَعَ (a), دَخَلَ (u), أَخَذَ (u), عَقَلَ (i), غَسَلَ (i), جَمَعَ (a), حَفِظَ (a),
 تَرَكَ (u), طَمَعَ (a), حَسَدَ (u), حَسِبَ (a).

52- mashq. Jummalarni yozing, o'qing, tarjima va grammatik tahlil qiling. Har bir jumlada kelayotgan fe'lni aniqlang:

يفتح باب بيته صباحا. نحن نرحل من هوقند إلى طشقند. سيذهب أبي إلى قرينكم. كل إنسان يحسب نفسه عاقلا و عادلا. هم يحسبون أنفسهم عقلاء. نحن لا نحسب أولئك الفتيات عاقلات. العلماء يعلمون علوما كثيرة والجهلاء لا يعلمون شيئا. هم سيشربون أشربة لذيذة. يسأل زيدا عن حال أبيه. الإنسان العاقل يقنع بمال قليل. الفقير يطمع في مال الغني. كل ظالم يخدع الناس. كل إنسان يحفظ ماله. أبي سيفرح بهذا الخبر. بعض الفسقة يسرقون أموال الناس. سيرجع أبونا بعد غد من سفره. أولئك الرجال يجلسون في بيتنا. شادية لا تنطق كثيرا. هل أنت تحمل نظارة؟ هم لا ينظرون إلى النساء بنية قبيحة أصلا.

كلمات:

yod olmoq; saqlamoq	حَفِظَ (a)	zukko; ziyrak	ذَكِي (أَذْكِيَاءُ .ko'pl)
pul; mol-dunyo	مَالٌ (أَمْوَالٌ .ko'pl)	yig'moq	جَمَعَ (a)
kam paytlarda	قَلِيلًا مَا	ko'pincha	كَثِيرًا مَا
bermoq; mukofotlamoq	مَنَحَ (a)	ketmoq; yo'lga chiqmoq	رَحَلَ (a)
suxandon	مُذِيعٌ	...deb hisoblamoq	حَسِبَ (a)
«xabarlar» eshittirishi	نَشَرَةُ الْأَخْبَارِ	ichimlik; sharob	شَرَابٌ (أَشْرِبَةٌ (.ko'pl)
umidvor bo'lmoq; tama' qilmoq	طَمَعَ (a)	qanoat qilmoq	قَنَعَ (a)

boy	غَنِيٌّ (أَغْنِيَاءُ .ko'pl.)	kambag'al	فَقِيرٌ (فُقَرَاءٌ .ko'pl.)
xursand bo'lmoq	فَرَحَ (a)	aldamoq	خَدَعَ (a)
o'g'irlamoq	سَرَقَ (i)	fosiq; yaramas	فَاسِقٌ (.ko'pl.فَسَقَةٌ)
dushman	عَدُوٌّ (.ko'pl.أَعْدَاءٌ)	so'kmoq; haqoratlamq	سَتَمَ (i,u)
so'zlamq; gapirmoq	نَطَقَ (i)	indinga	بَعَدَ عَدِي
o'zi; kishi	نَفْسٌ (أَنْفُسٌ .ko'pl.)	yomon niyat	نِيَّةٌ قَبِيحَةٌ
ayol kishi	اِمْرَأَةٌ (نِسَاءٌ .ko'pl.)	yaqin bo'lmoq	قَرَبَ (i)

FE'L BILAN BIRGA KELGAN BIRIKMA OLMOSH

Birikma olmosh o'timli fe'lga qo'shilganda vositasiz to'ldiruvchi vazifasida keladi:

Birikma olmosh fe'lning turli shakllariga birikkanida quyidagilarga e'tibor berish lozim:

1. I shaxs, birlik sondagi - birikma olmoshi fe'lga ني shaklida birikadi:

Sen meni tushunding. فَهَمْتَنِي.
Meni tushunmayapsan. لَا تَفْهَمُنِي.

2. O'tgan zamon, II shaxs, ko'plik son va muzakkar jinsdagi fe'lga birikma olmosh qo'shilganda orada و(u:) cho'ziq unlisi paydo bo'ladi:

Uni tanidingizmi? أَعَرَفْتُمْ+و+هَا) عَرَفْتُمُوهَا؟
Meni tushundingizmi? (فَهَمْتُمْ+و+نِي) فَهَمْتُمُونِي؟

3. III shaxs, ko'plik son, muzakkar jinsdagi o'tgan zamon fe'lga birikma olmosh qo'shilganda o'qilmaydigan ا(alif) yozuvda tushib qoladi:

Mendan so'radilar. (سَأَلُوا+نِي) سَأَلُونِي.
Ular bizni tanishdi. (عَرَفُوا+نَا) عَرَفُونَا.

4. Agar fe'lga birikma olmoshi shaklidagi ikkita to'ldiruvchi birikishi kerak bo'lib qolsa, ulardan biri tushum kelishigidagi birikma olmoshi bo'lmish إِيَّاga birikib keladi. Masalan:

Men uni unga berdim. أُعْطَيْتُهُ إِيَّاهُ.
Uni cenga berdim. قَدَّمْتُهَا إِيَّاكَ.

Tushum kelishigidagi birikma olmoshlar quyidagilardir:

ko'plik	ikkilik	birlik	jins, shaxs
إِيَّانَا	-----	إِيَّايَ	muzakkar I sh muannas
إِيَّاكُمْ إِيَّاكُنَّ	إِيَّاكُمْ إِيَّاكُنَّ	إِيَّاكَ إِيَّاكِ	muzakkar II sh muannas
إِيَّاهُمْ إِيَّاهُنَّ	إِيَّاهُمَا إِيَّاهُمَا	إِيَّاهُ إِيَّاهَا	muzakkar III sh muannas

53-mashq. Ushbu matnni yozing, o'qing va tarjima qiling. Izofalarni aniqlang. Yangi so'zlarni yod oling.

فِي السُّوقِ (الْقِسْمُ الْأَوَّلُ)

لَيْلَى وَمَرْيَمُ عِنْدَ الْخَضْرِيِّ. الْخَضْرُ الْيَوْمَ طَازِجَةٌ وَكَثِيرَةٌ وَالثَّمَنُ رَخِيسٌ.
الْخَضْرِيُّ يَبِيعُ الطَّمَاظِمَ، وَالْخِيَارَ، وَالْجَزَرَ، وَالْخَسَّ. وَيَبِيعُ الْكُوسَةَ وَالْبَامِيَةَ
وَالْمُلُوخِيَّةَ وَالْكَرْنَبَ وَالْفُلْفُلَ الْأَخْضَرَ وَالْبَطَاطِسَ وَاللَّيْمُونَ.

لَيْلَى: سَأَشْتَرِي خَضَرَ الْأُسْبُوعِ كُلَّهُ سَاعِدُ ثَلَاثَةَ كِيلُو طَمَاظِمٍ وَكِيلُو جَزَرَ وَثَلَاثَةَ
كِيلُو خِيَارٍ وَخَسْتَيْنِ وَاثْنَيْنِ كِيلُو بَطَاطِسَ وَكِيلُو مُلُوخِيَّةَ وَكِيلُو بَامِيَةَ وَعَشَرَ لَيْمُونَاتٍ.
الْبَائِعُ يَزِنُ الْخَضَرَ وَتَأْخُذُهُ لَيْلَى. وَمَرْيَمُ تَشْتَرِي خَضَرَ الْأُسْبُوعِ أَيْضًا.

الْبَائِعُ: نَعَمْ. لَيْلَى لِلْبَائِعِ: هَلْ أَنْتِ الَّذِي تَأْخُذُ النُّقُودَ؟

لَيْلَى وَمَرْيَمُ تَدْفَعَانِ الْحِسَابَ وَتَشْكُرَانِ الْخَضْرِيَّ وَتَنْصَرِفَانِ.

لَيْلَى وَمَرْيَمُ عِنْدَ الْفَاكِهِيِّ

الْفَاكِهَةُ الْيَوْمَ كَثِيرَةٌ وَطَازِجَةٌ وَبَائِعَةٌ الْفَاكِهَةَ تُنَادِي:

الْمَانْجُو الْهِنْدِيُّ، الْعِنْبُ الْبَنَاتِي، الشَّمَامُ الْعَسَلِيُّ وَتُنَادِي عَلَى الْمَوْزِ وَالْبَلْحِ.

لَيْلَى: مِنْ فَضْلِكَ اثْنَيْنِ كِيلُو مَانْجُو، وَبَطِيخَةً صَغِيرَةً وَكِيلُو خُوخٍ وَكِيلُو
كُمَّثْرَى.

مَرْيَمُ: مِنْ فَضْلِكَ شَمَامَةً مُتَوَسِّطَةً وَاثْنَيْنِ كِيلُو عِنْبٍ وَكِيلُو بَلْحٍ وَاثْنَيْنِ كِيلُو

مَوْزٍ. (الْبَائِعَةُ تَزِنُ الْفَاكِهَةَ)

الْبَائِعَةُ: نَعَمْ. مَرْيَمُ لِلْبَائِعَةِ: هَلْ أَنْتِ الَّتِي تَأْخُذِينَ النُّقُودَ؟

لَيْلَى وَمَرْيَمُ تَدْفَعَانِ الْحِسَابَ وَتَشْكُرَانِ الْفَاكِهِيَّةَ وَتَنْصَرِفَانِ.

كلمات

sabzavot sotuvchi	خَضْرِيٌّ	bozor	سُوْقٌ (أَسْوَاقٌ pl. ko)
yangi (yangi uzilgan)	طَارِجٌ	sabzavotlar; ko'katlar	خُضْرٌ
sotdi (sotadi)	بَاعَ (بِيعَ)	arzon narx	ثَمَنٌ رَخِيصٌ
bodring	خِيَارٌ	pamildori	طَمَاظِمٌ
salat-ko'kat	خَسٌ	sabzi	جَزْرٌ
bamiya (sabzavot turi)	بَامِيَّةٌ	kabachok (sabzavot turi)	كُوسَةٌ
karam	كُرْنَبٌ	muluxiya (sabzavot turi)	مُلُوخِيَّةٌ
kartoshka	بَطَاطِسٌ	bulg'ori qalampir	فُلْفُلٌ أَخْضَرٌ
sotib olaman	سَأَشْتَرِي	limon	لَيْمُونٌ
barchasini	كُلَّهُ	bir haftalik sabzavotlar	خُضْرُ الْأُسْبُوعِ
(tarozida) o'lchaydi	يَزِنُ	sotuvchi	بَائِعٌ
sotib ol	يَشْتَرِي (تَشْتَرِي)	uni oladi	تَأْخُذُهُ
pul	نَقْدٌ (نُقُودٌ pl. ko)	nok	كُمَّثْرِي
ikkovi rahmat aytadi	تَشْكُرَانِ	ikkovi to'laydi	تَدْفَعَانِ
meva sotuvchi	فَاكِهِيٌّ (فَاكِهِيَّةٌ)	ikkovi ketadi	تَنْصَرِفَانِ
hind mangosi	الْمَانْجُو الْهِنْدِيُّ	chaqiradi; baqiradi	تُنَادِي
meva	فَاكِهَةٌ (فَوَاكِهُ pl. ko)	Bu yerda: yangi uzum	الْعِنْبُ الْبُنَاتِي
banan	مَوْزٌ	asal qovun	الشَّمَامُ الْعَسَلِيُّ
iltimos; marhamat qilib	مِنْ فَضْلِكَ	o'rtacha qovun	شَمَامَةٌ مُتَوَسِّطَةٌ
shaftoli	خُوخٌ	xurmo	بَلْحٌ
1 kilo uzum	كَيْلُو عِنْبٍ	kichik tarvuz	بَطِيخَةٌ صَغِيرَةٌ

YIGIRMA IKKINCHI DARS

HOL

Hol ish-harakatning bajarilishida sabab, maqsad, miqdor, o'rin, payt va holat kabi belgilarni bildiruvchi gapning ikkinchi darajali bo'lagidir. Biz holni arab bo'lmagan tillarning grammatikasi bo'yicha (bu yerda, o'zbek tili grammatikasi asosida) yoritib ko'ramiz.

Gapda hol turlicha ifodalanadi:

1) Sof ravish vositasida. Ular ozchilikni tashkil etadi:

bu yerda-	هنا	shunday -	كذا
kecha -	أمس	hech qachon-	قط

2) Tushum kelishigida yoki ko'makchi bilan qaratqich kelishigida kelayotgan ism ham hol vazifasida keladi:

bir soat	ساعة	← soat	ساعة
tunda	ليلاً ؛ في الليل ؛ بالليل	← tun	ليل

3) Ravish (yasama)- ko'makchi yoki otning ot bilan tuzgan birikmasi ham hol vazifasida keladi:

dars paytida	وَقْتُ الدَّرْسِ
uy tomonga	نَحْوَ الْمَنْزِلِ

4) ال bilan kelgan ba'zi so'zlar ham holni ifodalaydi:

hozir	الآن	← payt, on	آن
kecha	البارح	← o'tgan (kun), kecha	بارح

Payt holi harakatning bajarilish paytiga ishora qiladi va so'rog'iga javob bo'ladi:

<u>Hali yozmadim.</u>	مَا كَتَبْتُ بَعْدُ.
Samira tongda ketdi.	ذَهَبَتْ سَمِيرَةُ صَبَاحًا.
Uyga peshinda qaytdim.	رَجَعْتُ إِلَى الْبَيْتِ وَقْتُ الظُّهْرِ.

O'rin holi ish-harakatning bajarilish o'rni yoki yo'nalishiga ishora qiladi. U so'roqlariga javob bo'ladi: إلى أين؟، أين؟، أين؟

Kitoblarni kutubxonadan oldim.	أَخَذْتُ الْكُتُبَ مِنَ الْمَكْتَبَةِ.
<u>O'ng tomonga yurdim.</u>	ذَهَبْتُ إِلَى الْيَمِينِ.

Miqdor holi ish-harakatning necha marta sodir bo'lganiga, uning muddatiga ishora qiladi. U so'rog'iga javob bo'ladi: كم؟

Men uzoq yurdim.	مَشَيْتُ طَوِيلًا.
Liviyada ikki yil yashadim.	سَكَنْتُ فِي لِيْبِيَا سَنَتَيْنِ.

Sabab yoki maqsad holi ish-harakatning sodir bo'lish sababi va undan kutilgan maqsadga ishora qiladi. U so'rog'iga javob bo'ladi: لماذا؟

Qiziga tarbiya maqsadida nasihat qildi.	نَصَحَ ابْنَتَهُ تَأْدِيبًا لَهَا.
---	------------------------------------

O'rgatish maqsadida unga salom berdim.

سَلَّمْتُ عَلَيْهِ تَعْلِيمًا لَهُ.

Holat holi ish-harakatning bajarilishi paytida uning bajaruvchi yoki bajariluvchisi qanday holatda bo'lganiga ishora qiladi. U bir so'z shaklida yoki ismiy yoki fe'liy jumla- ergashgan gap shaklida bo'lishi mumkin. Holati ifodalanib kelayotgan so'z aniq holatda (odatda u gapning egasi bo'lib keladi), holatni ifodalovchi so'z- holat holi esa noaniq holatda, tushum kelishigida bo'ladi va holati ifodalanib kelayotgan so'z bilan jinsda va sonda moslashadi. Holat holi **كَيْفَ؟** so'rog'iga javob bo'lib keladi:

Rashid piyoda keldi.

جَاءَ رَشِيدٌ مَاشِيًا.

Mudarrislar piyoda kelishdi.

جَاءَ الْمُدَرِّسُونَ مَشَاءً.

O'timli fe'ldan hosil qilingan holat holida fe'lning o'timlilik xususiyati saqlanadi va u ham o'zidan keyin kelayotgan to'ldiruvchini huddi o'sha fe'l boshqarib kelayotgan kelishik yoki ko'makchi bilan boshqaradi:

Akasi o'g'lini ko'tarib keldi. قَدِمَ أَخُوهُ حَامِلًا ابْنَهُ.

Ergashgan qo'shma gaplarda holat holi ismiy jumla shaklida bo'lganida ko'pincha uning oldida bog'lovchisi bo'ladi:

Yosh bo'lganingda ilm izla! أَطْلُبِ الْعِلْمَ وَأَنْتَ فَتَى.

Fe'liy gap shaklida esa quyidagicha ko'rinishda bo'ladi:

Bola chopib keldi.

جَاءَ الْغُلَامُ يَرْكُضُ.

Agar bir gapda xolning bir necha turi ishtirok etsa, gapning boshida odatda avval gapning bosh bo'laklari va vositasiz to'ldiruvchi, ulardan keyin payt holi, o'rin holi, maqsad holi keyin esa boshqa gap bo'laklari keladi. Qaysi gap bo'lagining aniqlovchisi bo'lsa u biz ko'rib o'tgan grammatik qoidalarga binoan bevosita ulardan keyin keladi:

حَفِظْتُ زَيْنَبُ الْقَوَاعِدَ يَوْمَ الْأَحَدِ فِي حُجْرَتِهَا إِطَاعَةً لِأَمْرِ أُمِّهَا.

Yakshanba kuni Zaynab qoidalarni o'z xonasida onasining amriga bo'ysunib yod oldi.

Ba'zida mantiqiy urg'u gapning qaysi bo'lagiga tushsa, o'sha bo'lak gapning boshida kelishi mumkin (bu yerda: urg'u payt holiga tushyapti):

يَوْمَ الْجُمُعَةِ رَجَعَ أَبِي.

54-mashq. Matnni arab yozuvida yozing va holatni ifodalovchi so'zlarni aniqlang.

“Hazrati qutb ul-avliyo Mavlono Sa’duddin Koshg’ariy yonidaki; zohiran tariqat odobida alarning piridur – dafn qildilar.”

(“Xamsat ul-mutahayyirin”)

Gesuvu yuzung sunbuliyu bargi gulidin,

Devona menu shifta laylan va nahoro.

(“Badoye’ ul-vasat”)

Navoiydek xalosim yo‘q edi ul g’amza kufridin,

Xususan zulfi zunnori dog’i bo‘ynung’a toqilmish.

(“Badoye’ ul-vasat”)

55-mashq. Jumlalarni yozing, o‘qing, tarjima va grammatik tahlil qiling. Har bir jumlada kelayotgan xolni aniqlang:

يَجْتَمِعُ أَسَاتِذَةُ قِسْمِ اللُّغَاتِ الشَّرْقِيَّةِ مَرَّةً فِي أُسْبُوعَيْنِ. تَرَجَمْتُ هَذَا النِّصَّ هَذَا سَاعَتَيْنِ. مَا فَهَمْتُ هَذَا الْمَوْضُوعَ سَرِيعًا. قَرَأْنَا هَذَا النِّصَّ مَرَّاتٍ كَثِيرَةً. شَرَحَ الْمَوْضُوعَ عِدَّةَ مَرَّاتٍ تَعْلِيمًا لِلْمُتَعَلِّمِينَ. سَلَّمَ التَّلَامِيذَ عَلَى الْمَعْلَمِ وَاقْفَيْنِ. إِنَّ فُرْصَةَ التَّعْلِيمِ مَتَوَفَّرَةٌ لِلْجَمِيعِ: فِيهَا ابْنُ الْفَقِيرِ جَالِسٌ بِجَانِبِ ابْنِ الْغَنِيِّ، وَابْنُ التَّاجِرِ بِجَانِبِ ابْنِ الصَّانِعِ. أَمَا سَمِعْتَ عَنْ هَذِهِ الْوَأَقْعَةِ قَطًّا؟ فَضَحَكَ سَلِيمٌ حِينَ ذَاكَ فَجَاءَهُ مَخْتَهُ كِتَابًا تَكْرِيمًا لِأَدْبِهِ.. رَجَعْنَا إِلَى الْبَيْتِ لَيْلًا مَتَأَخِّرِينَ. كَسَرَتْ شِيرِينَ الصَّحُونَ خَطَأً. أُسْرَتْنَا مُجْمَعَةً مَعًا هَذَا الْمَسَاءَ فِي بَيْتِنَا. كُلُّ مَنْهُمْ جَالِسٌ فَرِحًا. تَرْتَفَعُ دَرَجَةُ الْحَرَارَةِ صَيْفًا وَتَنْخَفِضُ شِتَاءً.

كلمات:

birdan	فَجَاءَ	qasddan	عَمَدًا
o’sha paytda	حِينَ ذَاكَ	keyingi	تَالِي (التَّالِي)
istig’for so’rayman	أَسْتَغْفِرُ	to’satdan	فَجَاءَ
bu yerda: salom bermoq	II سَلَّمَ	likobcha	صَحْنُ (صُحُونُ)
yetarli	مُتَوَفِّرُ	ataylab	عِلَائِيَّةٌ
pasaymoq	VII اِنْحَفَضَ	turib; tik turib	وَاقِفًا
ustoz (muz.)	أَسَاتِذُ (أَسَاتِذَةٌ pl. ko’)	hunarmard; ishchi	صَانِعٌ
yig’ilmoq	VIII اِجْتَمَعَ (يَجْتَمِعُ)	ko’tarilmoq	VIII اِرْتَفَعَ (يَرْتَفِعُ)
		hurmatlab	تَكْرِيمًا

لَيْسَ INKOR FE’LI

Ismiy gapga inkor ma’no (لَيْسَتْ. muan.) -yo‘q;...emas,...mas inkor fe’li yordamida beriladi. U ma’no jihatdan hozirgi zamonni anglatsa ham, o‘tgan

zamonda tuslanadi. O‘zagida «bo‘sh» undoshi bo‘lgani uchun uning barcha ko‘rinishlari fonetik o‘zgarishlarga uchraydi:

أَيْسَ fe'lini o‘tgan zamonda tuslash jadvali:

ko‘plik	ikkilik	birlik	shaxs, son, jins
أَسْنَا emasmiz; yo‘q	-----	أَسْتُ emasman; yo‘q	muzakkar I sh. muannas
أَسْنُمُ emassiz; yo‘q	أَسْنُمَا ikkimiz emassiz; yo‘q	أَسْتُ emassan; yo‘q	muzakkar II sh. muannas
أَسْنُنَّ أَسْنُوْا emaslar; yo‘q	أَسْنَانَا ikkisi yo‘q	أَيْسَ emas; yo‘q	muzakkar III sh. muannas
أَسْنَنَ	أَسْنَانَا emas;	أَيْسَتُ	

Ismiy gapda أَيْسَ inkor fe‘li ismiy kesim- أَلْخَبْرُ bilan murakkab (qo‘shma) kesim tuzib keladi va uni noaniq holatda tushum kelishigida yoki "بِ" old ko‘makchisi bilan qaratqich kelishigida kelishini talab qiladi. Bunda أَيْسَ gapning boshida ham yoki bevosita ismiy kesimning oldida ham kelishi mumkin. Ismiy kesimning oldida, ya‘ni egadan keyin, kelganda u ega bilan jins va sonda, gapning boshida kelganida esa birlik sonda bo‘lib faqat jinsda moslashadi:

أَحْمَدُ أَيْسَ مُعَلِّمًا.	←	أَيْسَ أَحْمَدُ مُعَلِّمًا.
Ahmad muallim emas.		Ahmad muallim emas.
المَكْتَبَةُ أَيْسَتُ بِبَعِيدَةٍ.	←	أَيْسَتُ المَكْتَبَةُ بِبَعِيدَةٍ.
Kutubxona uzoq emas.		Kutubxona uzoq emas.
هَؤُلَاءِ الرِّجَالُ أَيْسُوا بِسَفَهَاءَ.	←	أَيْسَ هَؤُلَاءِ الرِّجَالُ بِسَفَهَاءَ.
Bu kishilar ahmoq emaslar.		Bu kishilar ahmoq emaslar.
هَؤُلَاءِ النِّسَاءُ أَسْنَنَ بِسَفِيهَاتٍ.	←	أَيْسَتُ هَؤُلَاءِ النِّسَاءُ بِسَفِيهَاتٍ.
Bu ayollar ahmoq emaslar.		Bu ayollar ahmoq emaslar.

Kesimi old ko‘makchili ismiy gapda esa أَيْسَ inkor fe‘li faqat gapning boshida keladi va ega bilan faqat jinsda moslashadi, ismiy kesimga ta‘sir qilmaydi. Tarjimada eganing qayerda kelishiga qaraladi: agar ega ismiy kesimdan avval kelsa-«emas», ismiy kesimdan keyin kelsa-«yo‘q» deb tarjima qilinadi:

Talabada kitob yo‘q.

أَيْسَ لِلطَّالِبِ كِتَابٌ.

Vrach bemor xuzurida
emas.

لَيْسَ الطَّبِيبُ عِنْدَ الْمَرِيضِ

لَيْسَ inkor fe'li gap boshida kelganida fe'liy gapning qoidasi bo'yicha birlik sonda va o'zidan keyin kelayotgan eganing jinsida keladi:

Bu kishilar baxil(lar) emaslar.
Grammatik qoida oddiy emas.

لَيْسَ هُوَ لَاءَ الرَّجَالِ بَخْلَاءَ.
لَيْسَتِ الْقَاعِدَةُ النَّحْوِيَّةُ بَسِيطَةً.

بَلَى inkor fe'li bilan berilgan savolga inkor qilib beriladigan javob « بَلَى – yo'q, unday emas» deb, tasdiqlab beriladigan javob esa « نَعَمْ – ha» deb, deb beriladi.

أَلَسْتُ طَالِبًا؟ بَلَى. (أَنَا طَالِبٌ). نَعَمْ. أَنَا لَسْتُ طَالِبًا.
Talaba emasmisan. Yo'q, unday emas, talabaman. Ha, talaba emasman.

لَيْسَ vazifasida مَا inkor yuklamasi ham kelishi mumkin;

مَا (لَيْسَ) هَذَا الرَّجُلُ بَخِيلًا. Bu kishi baxil emas.

56-mashq. Jummalarni o'zbek tiliga tarjima va grammatik tahlil qiling.

ليس كثير من الناس علماء. هذا النص ليس بكبير. يا ذاك، أنت لست بعالم. أنتم لستم بعلماء يا أولادي. أنتن لستن بعالمات، يا شابات. أنا لست بمحزون. نحن لسنا محزونين. أنا لست بكاذبة. ليس رجل واحد بغني. ليس أحد بغني. ليس إنسان واحد بقوي. أحمد ليس مريضا أصلا. صديق أبي نصر ليس متكبرا أصلا. أبوه ليس بصحيح. أمك ليست بمريضة. الرجال الفقراء ليسوا بمسرورين. المرأة الغنية ليست بمحزونة. الإنسان العاقل ليس بمتكبر. الشيخ المريض ليس بقوي. هو ليس بصبور. ليس ذاك الرجل الحسن الوجه خالي.

ما أنا بكاذبة. أليس جاركم بمريض؟ بلى. أليس معك الكتاب؟ بلى، الكتاب معي! هو ما ذكيا. ليست طالبة في الجامعة. ليس الطلاب في قاعة الدرس. ما له علم. لَيْسَ هذا الكتابُ بكثير العدد. ليس هنا مدرس وطلاب. ليس زيد شابا حسن الخلق وجمّ النشاط. ليست حليلة مريضة أصلا. ليس هما طالبين مجتهدين. ليس ذلك الخبر سرّا على أحد. ذاك النص ليس صعبا.

YIGIRMA UCHINCHI DARS

OLD KO‘MAKCHI BILAN KELGAN BIRIKMA OLMOSH

Birikma olmoshlar **ك**dan boshqa barcha old ko‘makchilarga birikib keladi. O‘zagida **و ي** bo‘lmagan va qisqa unli bilan tugagan ko‘makchilarga ular bevosita birikaveradi. Ba‘zan **ي** birikma olmoshi bu ko‘makchilarga **ي** shaklida birikadi:

men haqimda; mendan	(عَنْ + نِي) عَنِّي؛ (مِنْ + نِي) مِنِّي
oldingizga; oldimda	(أَمَامَ + كُمْ) أَمَامَكُمْ؛ (أَمَامَ + ي) أَمَامِي
senda; sening huzuringda	(عِنْدَ + كَ) عِنْدَكَ
bizdan ilgari	(قَبْلَ + نَا) قَبْلَنَا
ularning atrofida	(حَوْلَ + هُمْ) حَوْلَهُمْ

«alif maqsura» bilan tugagan old ko‘makchiga birikma olmosh qo‘shishdan oldin ularning oxiri sukunlanib, keyin birikma olmoshi qo‘shiladi:

sizda bor	(لَدَيْ + كُمْ) لَدَيْكُمْ	zimmamiz	(عَلَيْ + نَا) عَلَيْنَا
unga	(إِلَيْ + هَا) إِلَيْهَا	ga	
		bizga	(إِلَيْ + نَا) إِلَيْنَا

Ushbu ko‘makchilarga va yana **في** ko‘makchisiga biriktirilgan I shaxs birikma olmoshi «-iya» deb o‘qiladi: **إِلَيَّ، لَدَيْ، عَلَيَّ، إِلَيْ** «...niki;...da bor» va «...da; ichida» **في** ko‘makchilariga birikma olmoshlarining qo‘shilishi:

ko‘plik	ikkilik	birlik	jins, shaxs
لَنَا فِينَا	----- -----	لِي فِيَّ	muz. I sh muan.
لَكُمْ فَيْكُمْ لَكُنَّ فَيْكُنَّ	لَكُمْمَا فَيْكُمْمَا لَكُنَّ فَيْكُنَّ	لَكَ فَيْكَ لَكَ فَيْكَ	muz. II sh muan.
لَهُمْ فَيْهِمْ لَهُنَّ فَيْهِنَّ	لَهُمَا فَيْهِمَا لَهُمَا فَيْهِمَا	لَهُ فَيْهِ لَهَا فَيْهَا	muz. III sh muan.

III shaxsning birlik muannas jinsidagi **birikma** olmoshidan tashqari qolgan to'rtta «**ه**»، «**ه**»، «**ه**»، «**ه**» olmoshlarining «**damma**» harakati o'zidan oldin kelayotgan «**i**», «**i**» va sukunli **تي**'sirida kasraga aylanadi:

ularga - **إِيهِمْ** ، **إِيهِمَا** u ikkisiga-

ko'makchisiga birikma olmoshlari qo'shilganda I shaxs, birlikdan boshqa hamma ko'rinishlarda uning harakati «**fatha**»ga aylantiriladi.

(**ل**) birikma olmosh (yoki ism)» ismiy gapda egadan oldin kelganda egalikni ifodalaydi va «... da(ning) bor» deb tarjima qilinadi:

Ko'makchiga birikib kelgan birikma olmosh gapda to'ldiruvchi, hol yoki old ko'makchili ismiy kesim vazifasida keladi:

Ishchining uyi bor.

(old ko'makchili ot-kesim)

لِلْعَامِلِ بَيْتٌ.

Uning ikkita xonasi bor.

(old ko'makchili ot-kesim)

فِيهِ عُرْفَتَانِ.

Dekandan sen haqingda so'radim.

(to'ldiruvchi)

سَأَلْتُ الْعَمِيدَ عَنْكَ.

Uning huzurida bir soat o'tirdim. (hol)

جَلَسْتُ عِنْدَهُ سَاعَةً.

Kesimi birikma olmosh (old ko'makchi shaklidagi ismiy gapning bo'lishsiz shakli ham **يَسِي** yoki **مَا** yuklamasi vositasida ifodalanadi:

أَيْسَ (مَا) لَهُ صَدِيقٌ. أَيْسَ (لَيْسَ) عِنْدِي بَيْتٌ. مَا)

Mening uyim yo'q. Uning o'rtog'i yo'q.

Agar ikkita narsaning yo'qligi qat'iy ravishda aytiladigan bo'lsa, ikkinchi ismning oldiga boshqa inkor yuklama - **قَوْلًا** qiladi:

Uning o'g'li ham, qizi ham

yo'q.

لَيْسَ لَهُ ابْنٌ وَلَا بِنْتُ.

57-mashq. **عَلَى** , **مِنْ** , **فِي** , **عَنْ** , **لِ** va **كَبِي** old ko'makchilariga barcha shaxs va sonlarda birikma olmoshlarini biriktiring. Ularni tarjima qiling.

58-mashq. Ushbu matnni yozing, o'qing va tarjima qiling va uni so'zlab bering.

فِي السُّوقِ (الْقِسْمُ الثَّانِي): عِنْدَ الْبَقَالِ

الْبَقَالُ أَمَامَهُ زَبَائِنُ كَثِيرُونَ: زَبُونٌ يَشْتَرِي السُّكَّرَ وَالْبُنَّ، وَالشَّايَ، وَزَبُونٌ يَشْتَرِي الْجُبْنَ وَالزَّيْتُونَ وَالرَّبَادِيَّ، وَزَبُونٌ ثَالِثٌ يَشْتَرِي الْخُبْزَ وَاللَّبْنَ وَالْعَسَلَ الْأَبْيَضَ وَزَبُونٌ رَابِعٌ ... وَخَامِسٌ ... وَسَادِسٌ ...

لَيْلَى: مِنْ فَضْلِكَ أَعْطِنِي كَيْلُو مَكْرُونَةً وَاثْنَيْنِ كَيْلُو أُرْزٍ وَنِصْفَ كَيْلُو فُلْفُلٍ أَسْوَدَ وَكَيْسَ مِلْحٍ. (الْبَقَالُ يَبْفُ أَمَامَ الْمِيزَانِ وَيَزِنُ الْمَكْرُونَةَ وَالْأُرْزَ وَالْفُلْفُلَ)

مَرْيَمُ: مِنْ فَضْلِكَ أَعْطِنِي رُجَاجَةَ خَلِّ وَرُجَاجَةَ زَيْتٍ وَعُلبَةَ كَبْرِيَّتٍ وَكَيْسَ مِلْحٍ وَنِصْفَ كَيْلُو زَيْتُونٍ وَبَاكُو زُبْدَةٍ وَرُجَاجَةَ لَبْنٍ.

(الْبَقَالُ يَضَعُ الْمُشْتَرِيَاتِ أَمَامَ مَرْيَمَ- لَيْلَى وَمَرْيَمُ تَدْفَعَانِ الثَّمَنَ وَتَأْخُذَانِ
الْمُشْتَرِيَاتِ إِلَى السَّيَّارَةِ، وَتَذْهَبَانِ إِلَى الْجَزَارِ)
عِنْدَ الْجَزَارِ

مَرْيَمُ: مَا أَنْوَأُ اللَّحْمِ عِنْدَكَ الْيَوْمَ؟
الْجَزَارُ: عِنْدِي ضَانِي وَبَقْرِي وَعِنْدِي أَيْضًا دَجَاجٌ وَبَطٌّ.
مَرْيَمُ: مِنْ فَضْلِكَ أَعْطِنِي كِيلُو ضَانِي وَكِيلُو بَقْرِي وَكِيلُو بَقْرِي مَفْرُومٍ وَنِصْفُ
كِيلُو كِبْدَةٍ.
لَيْلَى: مِنْ فَضْلِكَ أَعْطِنِي دَجَاجَتَيْنِ وَبَطَّةً وَنِصْفُ كِيلُو بَقْرِي مَفْرُومٍ.
لَيْلَى وَمَرْيَمُ تَدْفَعَانِ الثَّمَنَ وَتَضَعَانِ الْمُشْتَرِيَاتِ فِي السَّيَّارَةِ.

كلمات:

mijoz	رَبُونٌ (رَبَائِنُ)	baqqol; meva sotuvchi	بَقَالٌ
kofe urug'i	بُنٌّ	shakar	سُكَّرٌ
pishloq	جُبْنٌ	choy	شَايٌ
qatiq	زَبَادِيٌّ	zaytun yog'i	زَيْتُونٌ
sut	لَبْنٌ = حَلِيبٌ	non	خُبْزٌ (أَخْبَازٌ)
guruch	أَرْزٌ	makaron	مَكْرُونَةٌ
bir paket tuz	كَيْسٌ مِلْحٍ	qora (achchiq) garmdori	فُلْفُلٌ أَسْوَدٌ
(tik) turadi	يَقِفُ	tarozi	مِيزَانٌ
bir shisha yog'	زُجَاجَةٌ زَيْتٍ	bir shisha sirka	زُجَاجَةٌ خَلٍ
bir qog'oz (pachka) sariyog'	بَاكُو زُبْدَةٍ	bir (dona) quti gugurt	عُلْبَةٌ كِبْرِيَّتٍ
xaridlar	مُشْتَرِيَاتٌ	qo'yadi	يَضَعُ
go'sht turlari	أَنْوَأُ اللَّحْمِ	qassob	جَزَارٌ
mol go'shti	بَقْرِيٌّ	qo'y go'shti	ضَانِي = ضَانِيٌّ
qiymalangan	مَفْرُومٌ	menga ber(ing)	أَعْطِنِي
tovuq	دَجَاجَةٌ	jigar	كِبْدَةٌ
narx; baho	ثَمَنٌ	o'rdak	بَطَّةٌ

YIGIRMA TO'RTINCHI DARS

IKKI KELISHIKLI ISMLAR

Ikki kelishikli ismlarning asosiy xususiyati shundaki, ular noaniq holatda bo'lsa, ikkita: bosh va tushum-qaratqich kelishiklarida, aniqlik artikli «ال» bilan kelsa yoki boshqa otga nisbatan (مُصَافً) -qaralmish bo'lsa uchta kelishikda turlanadi. Ushbu jadvalga nazar soling:

aniq yoki birikkan holat	noaniq holat	kelishik
الأَفْضَلُ؛ أَفْضَلُ الْفُصُولِ	أَفْضَلُ	bosh
الْحَدَائِقُ؛ حَدَائِقُ الْمَدِينَةِ	حَدَائِقُ	
الأَفْضَلُ؛ أَفْضَلِ الْفُصُولِ	أَفْضَلِ	tushum
الْحَدَائِقِ؛ حَدَائِقَ الْمَدِينَةِ	حَدَائِقَ	
الأَفْضَلُ؛ أَفْضَلِ الْفُصُولِ	أَفْضَلِ	qaratqich
الْحَدَائِقِ؛ حَدَائِقِ الْمَدِينَةِ	حَدَائِقِ	

- Bu ismlarga: a) فَاطِمَةُ يُوسُفَ، إِدْرِيسُ، مِصْرُ، كَابِي أَتَوَقْلِي **otlar**;
b) «ا» va «ن» ga tugagan **اَتَوَقْلِي** **otlari**;
g) fe'l shaklidagi **أَكْبَرُ، أَكْبَرُ، أَكْبَرُ** **otlari**
d) siniq ko'plikning oxiri damma bilan tugagan barcha shakllari kiradi.

59-mashq. Ushbu so'zlarning siniq ko'pligini aniqlang. Ikki kelishikli ismlarni alohida yozing va ularni kelishiklarda turlang:

أَخ، أَب، عَم، خَالَ، مَهْنَةٌ، لَوْحٌ، لَعْبَةٌ، حَاضِرَةٌ، مَسْرَحٌ، مَزْرَعَةٌ، ضَرِيْبَةٌ، رِيْفٌ، زَمِيْلٌ، سَجَادَةٌ، مَطْبَخٌ، شَرْفَةٌ، بَحْرٌ، مَرْحَلَةٌ، صَفٌّ، قَرْحَةٌ، حَصَّةٌ، كَلْبٌ، أَغْنِيَةٌ.

KO'PLIK SONDAGI ISMLAR BILAN MOSLASHUV

Agar moslashgan aniqlovchi birikmasidagi aniqlanmish to'g'ri yoki siniq ko'plikdagi oqil (odamni bildiradigan) ot bilan ifodalangan bo'lsa, moslashgan aniqlovchi u bilan to'liq moslashadi:

<u>baxil</u> (kishi)lar...	رِجَالٌ بَخْلَاءٌ..	<u>olim</u> (kishi)lar...	الرِّجَالُ الْعُلَمَاءُ..
<u>fozila</u> ayollar...	النِّسَاءُ الْفَاضِلَاتُ..	<u>Olima</u> ayollar...	النِّسَاءُ الْعَالِمَاتُ..

Agar aniqlanmish g'ayri oqil (odamni bildirmaydigan) so'z bo'lib, ko'plik sonda bo'lsa, uning aniqlovchisi birlik sonda, muannas jinsda qo'yiladi. Chunki

arab tilida ko‘plik sonda turgan jonivor va predmetlar muannas jins, birlik sonda deb qabul qilingan. Masalan:

birikmaning tarjimasi	aniq holatda	noaniq holatda
yangi uylar...	...الْبُيُوتُ الْجَدِيدَةُ	...بُيُوتٌ جَدِيدَةٌ
foydali maqolalar...	...الْمَقَالَاتُ الْمُفِيدَةُ	...مَقَالَاتٌ مُفِيدَةٌ
laychalar...	...الْكِلَابُ الصَّغِيرَةُ	...كِلَابٌ صَغِيرَةٌ

Yuqoridagi moslashish qoidalari moslashgan aniqlovchi vazifasida keladigan ko‘rsatish olmoshlariga ham, ismiy kesimlarga ham, fe‘l-kesimlarga ham taalluqli. Faqat ismiy kesim ismiy gapning qoidasiga binoan noaniq holatda kelishini unutmashimiz zarur:

Bu ayollar olimalardir. هُوَ لَاءِ النِّسَاءِ عَالِمَاتٌ.
 Bu uylar yangidir. هَذِهِ الْبُيُوتُ جَدِيدَةٌ.
 Mashinalar (yetib) وَصَلَتِ السِّيَّارَاتُ.
 keldi.

Gapda shaxs yoki narsalarning ko‘p yoki kamligini « ko‘p - كَثِيرٌ » va « qalil - قَلِيلٌ » yoki « ko‘p sonli - كَثِيرٌ عَدَدٌ » va « oz sonli - قَلِيلٌ عَدَدٌ » so‘zlarining « مِنْ » so‘zi bilan birga kelgan shakli vositasida ifodalash mumkin. Ular ma‘no jihatidan bir xil va aytish uchun ham qulay. Ular bilan kelgan so‘z ko‘plik sonda bo‘ladi. Yana bu so‘zlarning grammatik sonini ko‘plik sonda aytilayotgan so‘zning grammatik soni bilan moslashtirish shart bo‘lmaydi. O‘zingiz solishtirib ko‘ring:

ko‘pchilik olimlar...	..الْعُلَمَاءُ الْكَثِيرُ..	عَدَدٌ كَثِيرٌ مِنَ الْعُلَمَاءِ..	كَثِيرٌ مِنَ الْعُلَمَاءِ..
ozchilik olimlar...	..الْعُلَمَاءُ الْقَلِيلُ..	عَدَدٌ قَلِيلٌ مِنَ الْعُلَمَاءِ..	قَلِيلٌ مِنَ الْعُلَمَاءِ..

60- mashq. “كَثِيرٌ” so‘zini “قَلِيلٌ” so‘ziga namunaga qarab o‘zgartiring. Bu iboralarni qanday ishlatishni o‘rganib oling.

Namuna: في الشارع اليوم كثير من الناس. ← في الشارع اليوم قليل من الناس.

(۱) في المكتبة كثير من الكتب. (۲) يعرفون الكثير عن بلادنا. (۳) في المعهد كثير من المدرسين الأجانبين. (۴) أعرف كثيرا من الكلمات. (۵) علمت كثيرا من المواضيع. (۶) أتعرف كثيرا من المعلومات عن البلدان العربية؟ (۷) حفظت كثيرا من القواعد. (۸) مررنا بكثير من المدن خلال رحلتنا. (۹) عنده كثير من الأصدقاء.

Sodda yoyiq gap

Sodda ismiy gapda uning bosh bo‘laklaridan tashqari ikkinchi darajali bo‘laklardan aniqlovchi, to‘ldiruvchi yoki xol ham bo‘lishi mumkin:

<u>Bu kishi universitet mudarrisi.</u>	هَذَا الرَّجُلُ - مُدَرِّسُ الْجَامِعَةِ.
<u>Zaydning amakisi taniqli jurnalistdir.</u>	عَمُّ زَيْدٍ - صُحْفِيٌّ مَعْرُوفٌ.
<u>Bu jurnalist arab kishidir.</u>	هَذَا الصُّحْفِيُّ - رَجُلٌ عَرَبِيٌّ.
<u>Bu kishi Misrdagi farang jurnalistidir.</u>	هَذَا الرَّجُلُ - صُحْفِيٌّ فَرَنْسِيٌّ فِي مِصْرَ.

Sodda yoyiq gap deb ana shu gaplarga aytiladi. Bunday gaplarda gapning ega yoki kesimining bitta, ikkita yoki uchtadan moslashgan aniqlovchisi ham bo‘lishi mumkin:

Bu misrlik kishi- mashhur jurnalistdir. هَذَا الرَّجُلُ الْمِصْرِيُّ - صُحْفِيٌّ مَشْهُورٌ.

Bu mashhur arab jurnalisti-iroqlik kishidir. رَجُلٌ عِرَاقِيٌّ. هَذَا الصُّحْفِيُّ الْعَرَبِيُّ الْمَشْهُورُ

Gapda ikkinchi darajali bo‘laklarning ham moslashgan yoki ioslashmagan aniqlovchisi bo‘lishi mumkin. Ularga o‘rni kelganda to‘xtalib o‘tamiz.

60- mashq. Matni yozing va o‘qing. Uning so‘zlarini lug‘atdan o‘zingiz topib tarjima va grammatik tahlil qiling. Keyin so‘zlab bering.

أنا طالب في الجامعة

في طشقند كثير من الجامعات وهن: جامعة طشقند الإسلامية وجامعة أوزبكستان الأهلية وجامعة الاقتصاد العالمي والديبلوماسية وجامعة العلوم الاقتصادية وجامعة العلوم التقنية وجامعة علوم التربية وجامعة اللغات العالمية وجامعة العلوم الزراعية وهكذا.

نحن ندرس في الجامعة الإسلامية بطشقند. فيها كليتان وهما: كلية تاريخ الإسلام وفلسفته، وكلية الفقه والاقتصاد والعلوم الطبيعية. في الجامعة عدة أقسام مثل قسم اللغات الشرقية وقسم اللغات الغربية وقسم العلوم الدينية والإسلامية وقسم علوم الحاسب وقسم العلوم الطبيعية وقسم علوم الفلسفة وقسم "يونيسكو" للدراسة المقارنة لأديان العالم. وبالجامعة السنة التمهيديّة والمدرستان المخصصتان الابتدائية والثانوية.

YIGIRMA BESHINCHI DARS

SON

Son otning sanog‘ini yoki tartibini bildiradigan so‘zdir. Ikki xil: sanoq va tartib sonlar bor. 10 gacha bo‘lgan sodda sonlar quyidagilardir («0» soni صِفْرٌ so‘zi bilan ifodalanadi):

tartib sonlar		sanoq sonlar		raqami
birinchi	أَوَّلُ (أولى)	bir	وَاحِدٌ	۱
ikkinchi	ثَانِي (ثانية)	ikki	اِثْنَان (اثنان)	۲
uchinchi	ثَالِث	uch	ثَلَاث	۳
to‘rtinchi	رَابِع	to‘rt	أَرْبَع	۴
beshinchi	خَامِس	besh	خَمْس	۵
oltinchi	سَادِس	olti	سِت	۶
yettinchi	سَابِع	yetti	سَبْع	۷
sakkizinchi	ثَامِن	sakkiz	ثَمَان (ثمانية)	۸
to‘qqizinchi	تَاسِع	to‘qqiz	تِسْع	۹
o‘ninchi	عَاشِر	o‘n	عَشْر	۱۰

Ularning muannas jinsi muzakkar jinsi ko‘rinishining oxiriga «ta-marbuta» qo‘shib hosil qilinadi.

Bundan tashqari ismlarga fe‘l masdari- harakat nomi, aniq daraja i va majhul daraja i, o‘rin-joy nomlari, kasb- hunar nomlari, jihoz nomlari kabi fe‘ldan yasaladigan turli- tuman otlar, o‘rin ravishlari, gumon ravishlari kabi ravishlar, mavhum otlar, bir martalik ish- harakatni bildiruvchi otlar kabi otlar ham kiradi. Ular bilan o‘rni kelganda tanishib o‘tamiz.

Mashq. 10 gacha bo‘lgan sanoq va tartib sonlarni yod oling:

Mashq. Ushbu sonlarning sanoq va tartib sonda muannas jinsini hosil qiling. Ularni yod oling:

bir, ikki, uch, to‘rt, besh, olti, yetti, sakkiz, to‘qqiz, o‘n.

61-mashq. Matnlarni arab alifbosida yozing va undan sanoq songa oid so‘zlarni topib, ma’nolarini toping.

Xusrav, Navoiyo, seni ko‘rsa,
Shahni degay maliki shahi soniy.

(“Navodir un-nihoya”)

Yana masnaviy bila qasoyiddin boshqakim, inshoilloh, alar dog‘i har qaysi boshqa mujallad bo‘lg‘ay, har nav‘ she‘rdin, masalan, ruhafzo muxammaslar, barcha xamsaziynat; va ravonoso musaddaslar, barcha sittaziynat; va mufid ruboiyot, barcha latofatomiz; va nofi‘ muqattaot, barcha manfaatangiz; va dilpazir mustazodlar ...

(“Badoyi‘ ul-bidoya”)

1 dan 20 gacha bo‘lgan sanoq sonlarning sanalmish bilan kelishi

1 dan 10 gacha sonlar sodda sonlar bo‘lib, biz ular bilan tanishmiz (37-bet). 10 dan yuqorisi esa murakkab sonlarga kiradi. Sodda sanoq sonlarning sanalayotgan ism (bundan buyog‘iga sanalmish) bilan bo‘lgan sintaktik bog‘lanishi turli shakllarda bo‘lishi mumkin.

1) 1 va 2 sonlarini ifodalashda sanoq sonni ishlatmasa ham bo‘ladi, chunki birlik yoki ikkilik sondaligi uning bitta yoki ikkitaligini ko‘rsatib turadi:

ikkita qalam - قَلَمَانِ qalam (bitta qalam) قَلَمٌ

Ammo sanalmishning bitta yoki ikkitaligini ta’kidlash zarur bo‘lsa «bir» va «ikki» sonlari xuddi moslashgan aniqlovchi kabi sanalmishdan keyin qo‘yiladi va u bilan moslashgan aniqlovchi kabi to‘liq moslashadi:

bitta jurnal	مَجَلَّةٌ وَاحِدَةٌ	bitta qalam	قَلَمٌ وَاحِدٌ
ikkita jurnal	مَجَلَّتَانِ اثْنَتَانِ	ikkita qalam	قَلَمَانِ اثْنَانِ

2) 3 dan 10 gacha sanoq sonlar sanalmish bilan izofa birikmasi tuzib kelishi mumkin. Bunda son aniqlanmish, sanalmish esa unga izofa bo‘lib ko‘plik sonda keladi. Sonning jinsi sanalmishning birlik sondagi jinsiga teskari jinsda bo‘lishi kerak:

uchta jurnal ثَلَاثُ مَجَلَّاتٍ uchta qalam ثَلَاثَةُ أَقْلَامٍ
to‘rtta jurnal أَرْبَعُ مَجَلَّاتٍ to‘rtta qalam أَرْبَعَةُ أَقْلَامٍ

8 soni «illatli harf ga tugagan so‘z bo‘lgani uchun u izofaga aniqlanmish bo‘lsa yoki «ال» artikli olsa, «yashirinib» turgan «ي» harfi yuzaga chiqadi:

Sakkizta jurnal - ثَمَانِي مَجَلَّاتٍ sakkizta qalam - ثَمَانِيَةُ أَقْلَامٍ

Bunday izofa birikmasini soddalashtirish uchun uni «مِنْ» old ko‘makchisi bilan bo‘lib tashlash mumkin. Lekin har qanday holatda ham 3 dan 10 gacha bo‘lgan sonlarning sanalmishning birlik soniga nisbatan teskari jinsda bo‘lishi, ya’ni, jinslar qarama-qarshiligi saqlanadi:

8 ta jurnal- ثَمَانٍ مِنَ الْمَجَلَّاتِ 7 ta qalam- سَبْعَةٌ مِنَ الْأَقْلَامِ

3) Sanalmish va son moslashgan aniqlovchi birikmasi tuzib, unda avval sanalmish, so‘ngra son keladi. Ikkovining jinsi yuqoridagi kabi bir-biriga teskari bo‘lishi va sanalmish ko‘plik sonda bo‘lishi shart:

oltita qalam	الْأَقْلَامُ السِّتَّةُ	←	أَقْلَامٌ سِتَّةٌ
beshta qoida	الْقَوَاعِدُ الْخَمْسُ	←	قَوَاعِدُ خَمْسٍ

«أَحَدٌ – bir» soʻzi ham sanoq son, ammo u 10 dan yuqori boʻlgan murakkab sonlar tarkibida keladi. Bundan tashqari أَحَدٌ soʻzi boʻlishli gapda «kimdir» gumon olmoshi yoki boʻlishsiz gapda «hech kim» maʼnosida ham ishlatiladi:

Hech kim kirmadi. مَا دَخَلَ أَحَدٌ. Kimdir kirdi. دَخَلَ أَحَدٌ.

3 dan 10 gacha boʻlgan noaniq sonni «بِضْعَةٌ (muan. بِضْعٌ) – bir necha» soʻzi ifodalaydi. Sanalmishga nisbatan u ham teskari jinsda boʻladi va u bilan izofa birikmasi tuzib keladi:

بِضْعٌ سَنَوَاتٍ bir necha yil بِضْعَةٌ أَشْهُرٍ bir necha oy

4) 11 dan 19 gacha boʻlgan murakkab sanoq sonlar -birlik va oʻnlikdan tashkil topadi. 11 sonidagi “bir”ni أَحَدٌ (muannas jinsda إِحْدَى) soʻzi, 12 sonidagi “ikki”ni esa اثْنَا (muannas jinsda اثْنَتَا) soʻzi ifodalaydi. Bunda birlik son 10 soni bilan har ikkala komponenti tanvinsiz, faqat tushum kelishigida boʻlgan, kelishikda oʻzgarmas birikma tuzib keladi (12 dan tashqari). 11 va 12 sonlarida birlik va oʻnlik bir hil jinsda, 13 sonidan boshlab esa bir-biriga teskari jinsda boʻladi. Sanalmish esa noaniq holatda, tushum kelishigida va birlik sonda keladi. 11 dan 99 gacha boʻlgan sanoq sonlarning 3 sonidan boshlab birligi sanalmishning jinsiga teskari jinsda boʻladi. Ammo 1 va 2 sonlarining jinsi sanalmishning jinsi bilan bir xil jinsda boʻladi.

11 dan 20 gacha boʻlgan sanoq sonlarning sanalmish bilan kelishi:

raqam	tarjimasi	Sanalmish muannas jinsda boʻlsa	tarjimasi	Sanalmish muzakkar jinsda boʻlsa
۱۱	11ta jurnal	إِحْدَى عَشْرَةَ مَجَلَّةً	11ta kitob	أَحَدَ عَشَرَ كِتَابًا
۱۲	12ta jurnal	اثْنَتَا (اثْنَتَيْنِ) عَشْرَةَ مَجَلَّةً	12ta kitob	اثْنَتَا (اثْنَيْنِ) عَشَرَ كِتَابًا
۱۳	13ta jurnal	ثَلَاثَ عَشْرَةَ مَجَلَّةً	13ta kitob	ثَلَاثَةَ عَشَرَ كِتَابًا
۱۸	18ta jurnal	ثَمَانِيَةَ عَشْرَةَ مَجَلَّةً	18ta kitob	ثَمَانِيَةَ عَشَرَ كِتَابًا
۲۰	20ta jurnal	عِشْرُونَ مَجَلَّةً	20ta kitob	عِشْرُونَ كِتَابًا

1 dan 20 gacha boʻlgan tartib sonlarning sanalmish bilan kelishi

10 gacha bo'lgan tartib sonlar va ularning sanalmish bilan kelishi bizga «Moslashgan aniqlovchi» darsidan ma'lum.

11 dan 19 gacha bo'lgan tartib sonlar ham sanoq sonlar kabi mabniy sonlardir. Sanalmish bilan kelayotganda ularning ikkala komponenti ham tushum kelishigida bo'ladi va faqat birliklari ل ا artikli oladi. Tartib sonlarning o'nlik, yuzlik, minglik va ulardan katta yaxlit sonlari sanoq son shaklida bo'ladi. «Birinchi» so'zi o'rnida (الْحَادِي) muannas jinsda (الْحَادِيَّة) so'zi ishlatiladi. Masalan:

tarjima	sanalmish muannas jinsda bo'lsa	tarjima	sanalmish muzakkar jinsda bo'lsa
11- kecha	الليَّلةُ الحَادِيَّةُ عَشْرَةَ	11- dars	الدَّرْسُ الحَادِي عَشْرَ
12- kecha	الليَّلةُ الثَّانِيَّةُ عَشْرَةَ	12- dars	الدَّرْسُ الثَّانِي عَشْرَ
13- kecha	الليَّلةُ الثَّالِثَةُ عَشْرَةَ	13- dars	الدَّرْسُ الثَّالِثُ عَشْرَ
20- kecha	الليَّلةُ العِشْرُونَ	20- dars	الدَّرْسُ العِشْرُونَ

كَمْ SO'ZINING ISHLATILISHI

كَمْ so'zi kelishikda o'zgaras so'z bo'lib, ikki xil vazifada ishlatiladi:

1) So'roq so'zi vazifasida: «كَمْ – necha? qancha?» so'roq so'zi soni so'ralayotgan otning oldiga qo'yiladi. Bunda ot noaniq holatda va odatda birlik sonda va tushum kelishigida yoki ko'plikda, bosh kelishikda bo'ladi:

Qancha mehmoning bor? كَمْ ضَيْفًا عِنْدَكَ؟ (كَمْ أَضْيَافَ عِنْدَكَ؟)
 Oilangda nechta odam bor? كَمْ شَخْصًا فِي عَائِلَتِكَ؟ (كَمْ أَشْخَاصًا فِي عَائِلَتِكَ؟)

Agar كَمْ so'zi ko'makchi bilan kelsa, so'z old ko'makchi ta'sirida qaratqich kelishigida ham kelishi mumkin:

Bu sovg'ani necha dinorga sotib olding? بِكَمْ دِينَارٍ اشْتَرَيْتَ هَذِهِ التُّحْفَةَ؟

2) Xitob so'zi vazifasida: «كَمْ qancha!» so'zi darak yoki undov gapda ishtirok etsa, u bilan kelgan so'z birlik sonda qaratqich kelishigida bo'ladi:

Bu shaharda qancha saxiyalar bor-a! كَمْ كَرِيمٍ فِي هَذِهِ الْمَدِينَةِ!
 Bu yerda men bilmagan qancha odam bor! كَمْ مِنْ رَجُلٍ لَا أَعْرِفُهُمْ هُنَا!

Kishining yoshi yoki soat necha bo‘lganini ham so‘zi yordamida so‘raladi. Bunda so‘ralmish so‘z tushum yoki qaratqich kelishigida emas, balki bosh kelishikda keladi:

Yoshing nechada? كَمِ السَّاعَةِ؟ Soat necha (bo‘ldi)? كَمِ عُمْرُكَ؟

SOATNI IFODALASH

Soatni tartib son va minutni sanoq son في يَوْمِ بَعْدَ الظُّهْرِ yoki في الصَّبَاحِ yoki في (مَسَاءٍ مَسَاءً) bilan ifodalanadi deb paytiga ham ishora qilinadi (في اللَّيْلِ لَيْلًا)

soat necha bo‘ldi? degan savolga javob quyidagicha bo‘ladi: كَمِ السَّاعَةُ

soat roppa-rosa besh (yoki السَّاعَةُ الْخَامِسَةُ تَمَامًا) السَّاعَةُ الْخَامِسَةُ بِالضَّبْطِ

soat o‘ntakam besh السَّاعَةُ الْخَامِسَةُ إِلَّا عَشْرَ دَقَائِقَ

soat beshdan 10 daqiqa o‘tdi السَّاعَةُ الْخَامِسَةُ وَعَشْرُ دَقَائِقَ

soat besh yarim (30 daqiqa o‘tdi) السَّاعَةُ الْخَامِسَةُ وَالنِّصْفُ

soat oltidan 25 daqiqa o‘tdi السَّاعَةُ السَّادِسَةُ وَخَمْسُ وَعِشْرُونَ دَقِيقَةً.

«15 daqiqa تَلْتُّ : so‘zlari ham ishlatiladi» 20 daqiqa رُبْعٌ

soat yettidan chorak (20 daqiqa) o‘tdi السَّاعَةُ السَّابِعَةُ وَالرُّبْعُ (التَّلْتُّ)

soat chorakam (20 ta kam) yetti السَّاعَةُ السَّابِعَةُ إِلَّا الرُّبْعَ (التَّلْتُّ)

ESLATMA: 20 dan 30 gacha bo‘lgan sonlarning birligi o‘nlik songa yordamida bog‘lanadi (bu mavzuni keyingi darslarning birida batafsil ko‘rib chiqamiz):

21 daqiqa	وَاحِدَةٌ وَعِشْرُونَ دَقِيقَةً	27 daqiqa	سَبْعٌ وَعِشْرُونَ دَقِيقَةً
22 daqiqa	اِثْنَتَانِ وَعِشْرُونَ دَقِيقَةً	28 daqiqa	ثَمَانٍ وَعِشْرُونَ دَقِيقَةً
23 daqiqa	ثَلَاثٌ وَعِشْرُونَ دَقِيقَةً	30 daqiqa	ثَلَاثُونَ دَقِيقَةً

62-mashq. Mashqni yozing, o‘qing. Tarjima qiling va grammatik tahlil qiling.

كم رجلا جلس معكم؟ جلس معنا رجل واحد فقط. كم صبيًا خرج من هذه المدرسة؟ ما خرج أحد منها. كم أولاد عمّتك؟ أولادها ثمانية أبناء وتسع بنات. كم حفيدة لجدتك؟ لجدتي سبعة عشر حفيدا. كم يوما في الأسبوع؟ سبعة أيام وهي: يوم الأحد، ويوم الاثنين، ويوم الثلاثاء، ويوم

الأربعاء، ويوم الخميس، ويوم الجمعة ويوم السبت. جاء أحد إيليناكم جيران عبد الولي؟ جيرانه خمسة عشر. كم ضيوف محمود؟ ثمانية عشر ضيفا. وزن هذا الذهب سبعة مثاقيل . قيمة خاتم فضة هذا عشرون درهما. طول تلك العصا أحد عشر شبرا. بعدُ جامعتي عن بيتي اثنا عشر كيلومترا. كم عمرُ ذاك الولد؟ هو في الحادي عشر من عمره. كم الساعة؟ الساعة العاشرة تماما. الدرس السادس عشر صعب. أدخل الجامعة في الساعة الثامنة والنصف صباحا وأخرج منها في الساعة الرابعة بعد الظهر. كم من القواعد النحوية علمتها! كم من الأساتذة الكرام في جامعتنا! سأحضر عندك في الساعة الرابعة تماما. الساعة الآن الثالثة إلا سبع دقائق.

كلمات:

shanba	يَوْمُ السَّبْتِ (السَّبْتُ)	..siz; ..ta kam	إِلَّا
dam olish kuni	يَوْمُ الْعُطْلَةِ	qarich	شِبْرٌ (أَشْبَارٌ).
misqol (4,68gr.)	مِثْقَالٌ (مِثْقَالٌ).	nabira	حَفِيدٌ (أَحْفَادٌ).

63-mashq. Iboralarni arab tiliga tarjima qiling. Ular ishtirokida 5 ta gap tuzing:

To‘rt yil; beshta qiz; o‘n beshta uy; o‘n uch bet; uchta xona; yettita parta; to‘qqizta universitet, talabalardan biri, bir necha kun; o‘n bir kishi; o‘n ikki toliba; o‘n besh kun; o‘n sakkiz talaba; o‘n to‘qqizta dars; yigirmata bola; o‘n besh soat;soat yigirmatakam yetti; bir necha mudarris.

YAXLIT O‘NLIKLAR

Yaxlit o‘nlik son o‘ttiz sonidan boshlab muzakkar jinsidagi birlik sonning oxiriga « وَنَ » qo‘shimchasini qo‘shib hosil qilinadi. 20 soni esa « عَشْرُونَ » ko‘rinishida bo‘lishi bizga avvaldan ma’lum:

60	٦٠	سِتُّونَ	20	٢٠	عَشْرُونَ
70	٧٠	سَبْعُونَ	30	٣٠	ثَلَاثُونَ
80	٨٠	ثَمَانُونَ	40	٤٠	أَرْبَعُونَ
90	٩٠	تِسْعُونَ	50	٥٠	خَمْسُونَ

O‘nlik son jinsda o‘zgarmaydi, sanoq sonda ham, tartib sonda ham bir ko‘rinishda bo‘ladi va kelishikda to‘g‘ri ko‘plik, muzakkar jinsdagi ism kabi turlanadi:

Bosh kelishik
qaratqich-tushum kelishik

عَشْرُونَ
عَشْرِينَ

64-mashq. Matnni arab alifbosida yozing.

Nasr ila nazmni murakkab etib,
 Forsiy lafz ila murattab etib,
 “Arba’in”ye chiqardikim, jonlar
 (“Arba’in”)

20 DAN YUQORI BO‘LGAN SANOQ SONLARNING SANALMISH BILAN KELISHI

21 dan boshlab 99 gacha bo‘lgan qo‘shma sonlarda birlik sonlar o‘nliklar bilan bog‘lovchisi vositasida bog‘lanadi va uch kelishikda turlanadi (اثنان) (muannas jinsda اثنان) so‘zidan tashqari). 11 dan 99 gacha bo‘lgan sanoq sonlarning 3 sonidan boshlab birligi sanalmishning jinsiga teskari jinsda, 1 va 2 sonlarining jinsi esa sanalmishning jinsi bilan bir xil jinsda bo‘ladi. Sanalmish birlik sonda, noaniq holatda va tushum kelishigida keladi:

21 dan 99 gacha bo‘lgan sanoq sonning sanalmish bilan kelishi:

raqam	Sanalmish muannas jinsda bo‘lsa	Sanalmish muzakkar jinsda bo‘lsa
۲۱	وَاحِدَةٌ وَعِشْرُونَ طَالِبَةً	وَاحِدٌ وَعِشْرُونَ طَالِبًا
۲۲	اِثْنَانِ وَعِشْرُونَ طَالِبَةً	اِثْنَانٍ وَعِشْرُونَ طَالِبًا
۳۴	أَرْبَعٌ وَثَلَاثُونَ طَالِبَةً	أَرْبَعَةٌ وَثَلَاثُونَ طَالِبًا
۶۵	خَمْسٌ وَسِتُّونَ طَالِبَةً	خَمْسَةٌ وَسِتُّونَ طَالِبًا
۷۸	ثَمَانٍ وَسَبْعُونَ طَالِبَةً	ثَمَانِيَةٌ وَسَبْعُونَ طَالِبًا
۹۰	تِسْعُونَ طَالِبَةً	تِسْعُونَ طَالِبًا

“Yuz” mazmuni jinsi o‘zgarmaydigan مائة (yoki مئة) so‘zi bilan ifodalanadi. Ushbu so‘zning ikkilik sondagi ko‘rinishi ikki yuzni ifodalaydi: ikki yuz مائتان – مائة. مائة soni “yuzliklar” mazmunida, ya’ni ko‘plik sonda ham, shu shakli bilan ishlatiladi.

300 dan 900 gacha bo‘lgan yaxlit yuzliklarni 3 dan 10 gacha bo‘lgan sonlarning sanalmish bilan kelishi qoidasi bo‘yicha hosil qilinadi. Bunda مائة so‘zi sanalmish bo‘lib keladi:

300- ثلاث مائة yoki ثلاثمائة
 400- أربع مائة yoki أربعمائة

Yuzliklarning sanalmishi esa ulardan keyin بمضاف إليه bo‘lib kelib, birlik son, noaniq holat va qaratqich kelishigida qo‘yiladi, 300 sonidan boshlab ular bilan izofa zanjiri hosil qiladi:

raqam	Sanalmish muannas jinsda bo'lsa	Sanalmish muzakkar jinsda bo'lsa
۱۰۰	مِائَةٌ جَرِيدَةٍ	مِائَةٌ كِتَابٍ
۲۰۰	مِائَتَا جَرِيدَةٍ	مِائَتَا كِتَابٍ
۳۰۰	ثَلَاثُ مِائَةٍ جَرِيدَةٍ	ثَلَاثُ مِائَةٍ كِتَابٍ
۴۰۰	أَرْبَعُ مِائَةٍ جَرِيدَةٍ	أَرْبَعُ مِائَةٍ كِتَابٍ

“Ming” mazmunini muzakkar jinsdagi أَلْفٌ (ko‘pl. أَلْفٌ) so‘zi bilan ifodalanadi. Ushbu so‘zning ikkilik sondagi ko‘rinishi ikki mingni ifodalaydi:

ikki ming - أَلْفَانِ

Minglik sonlar va ular bilan kelgan sanalmish “100” soniga taalluqli bo‘lgan qoidalar bo‘yicha keladi:

raqam	Sanalmish muannas jinsda bo'lsa	Sanalmish muzakkar jinsda bo'lsa
۱۰۰۰	أَلْفُ جَرِيدَةٍ	أَلْفُ كِتَابٍ
۲۰۰۰	أَلْفَا جَرِيدَةٍ	أَلْفَا كِتَابٍ
۳۰۰۰	ثَلَاثَةُ أَلْفِ جَرِيدَةٍ	ثَلَاثَةُ أَلْفِ كِتَابٍ

Yuzlik va mingliklar bilan bir yoki ikki sonlari quyidagicha keladi:

101 ta kitob	مِائَةٌ كِتَابٍ وَكِتَابٌ
1002 ta gazeta	أَلْفُ جَرِيدَةٍ وَجَرِيدَتَانِ

Yuzlik va mingliklar bilan birlik va o‘nliklar ham kelsa, sanalmishni eng oxirgi sanoq son boshqaradi:

105 ta gazeta	مِائَةٌ وَخَمْسُ جَرَائِدَ
1317 ta kursi	أَلْفٌ وَثَلَاثُمِائَةٍ وَسَبْعَةُ عَشَرَ كُرْسِيًّا
50053 ta kitob	خَمْسُونَ أَلْفًا وَثَلَاثَةَ وَخَمْسُونَ كِتَابًا

Yuz ming—مِائَةُ أَلْفٍ, ikki yuz ming—مِائَتَا أَلْفٍ, million—مِلْيُونٌ (ko‘pl. مِلْيُونٌ) va milliard—مِلْيَارٌ (ko‘pl. مِلْيَارَاتٌ) kabi sonlar ham ishlatiladi. Sanalmish ular bilan yuqoridagi qoidalar asosida keladi.

20 DAN YUQORI BO‘LGAN TARTIB SONLARNING SANALMISH BILAN KELISHI

21 dan boshlab oxirigacha tartibli tartib sonlarning barcha tarkibiga qo‘yiladi:

tarjimasi	sanalmish muzakkar jinsda bo'lsa
21- eshik	الْبَابُ الْوَاحِدِيُّ وَالْعِشْرُونَ
100- eshik	الْبَابُ الْمِائَةُ
267- eshik	الْبَابُ الْمِائَتَانِ وَالسَّبْعُ وَالسِتُّونَ

1000- eshik	الْبَابُ الأَلْفُ
tarjimasi	sanalmish muannas jinsda bo'lsa
33- kecha	اللَّيْلَةُ الثَّالِثَةُ وَالثَّلَاثُونَ
100- kecha	اللَّيْلَةُ المِائَةُ
267- kecha	اللَّيْلَةُ المِائَتَانِ وَالسَّابِعَةَ وَالسِّتُونَ
1000- kecha	اللَّيْلَةُ الأَلْفُ

65-mashq. Yozing va o'qing. Jummalarni tarjima va grammatik tahlil qiling.

اشتملت ورقة الامتحان على اثنين وعشرين سؤالاً. بلغ عدد سكان مدينتنا طشقند ثلاثة ملايين ونصف المليون في مطلع الألفية الثالثة الجديدة. في السنة اثنا عشر شهراً. كم عمرك؟ عمري واحد وأربعون سنة. كم عمره؟ هو في الخمسين من عمره. وزعت الدولة المزارع على مائتين واثنين وأربعين مزرعة. اشترك في المباريات الرياضية الأخيرة ثلاثمائة وسبعة وستون رياضياً ورياضية. توزع المجلة خمسا وسبعين ألف نسخة شهرياً. المسافة بين مدينتي طشقند وسمرقند مائتان وخمسة وسبعون كيلومتراً. في مكتبة الجامعة ألف كتاب في اللغتين العربية والفارسية وسبعمائة وخمسة وأربعون كتاباً في الاقتصاد وأربعة آلاف في الحقوق وتصل إليها سبع عشرة مجلة شهرية في موضوعات مختلفة. غرس التلاميذ ثلاثة آلاف وستمائة وأربعاً وثمانين شجرة في عيد الشجرة. هل أعجبتك قصص "ألف ليلة وليلة"؟

كلمات:

mol-dunyo	مَالٌ (أَمْوَالٌ)	sarflamoq	أَنْفَقَ IV
don-dun	حَبَّةٌ (اتٌ)	boshoq	سُنْبُلَةٌ (سَنَابِلٌ)
joy olmoq	اشْتَمَلَ VIII	o'smoq	أَنْبَتَ IV
tarqatmoq; taqsimlamoq	وَرَّعَ II	boshlanish	مَطَّلَعٌ
yetib keladi	تَصِلُ	yoqmoq; yoqtirmoq	أَعْجَبَ IV

66-mashq. Ushbu raqamlarni so'zlarga aylantirib yozing va o'qing.

9, 43, 55, 201, 212, 499, 573, 688, 847, 3006, 7892, 12314, 73241, 100369.

TAQVIM KUNLARI VA YILNI IFODALASH

Tarix (taqvim kunlari), oy va kunlarni ifodalashda tartib sonlar ishlatiladi:

10 sentabr	الْعَاشِرُ مِنْ شَهْرِ تَاسِعٍ (أَيْلُول)
17 iyul	السَّابِعَةَ عَشَرَ مِنْ تَمُوزَ
30 oktabr	الثَّلَاثُونَ مِنْ شَهْرِ تَشْرِينِ الْأَوَّلِ

سنة Yilni ifodalashda asosan sanoq sonlar, gohida esa tartib sonlar ham ishlatiladi. Ular so‘zi bilan izofa birikmasi (zanjiri) tuzib keladi: عامٌyoki

Uni yozishni	بَدَأْتُ كِتَابَتَهُ فِي سَنَةِ أَلْفٍ وَتِسْعِمِائَةٍ وَتِسْعٍ وَتِسْعِينَ
1999 yili	بَدَأْتُ كِتَابَتَهُ عَامَ أَلْفٍ وَتِسْعِمِائَةٍ وَتِسْعَةٍ وَتِسْعِينَ
boshladim.	بَدَأْتُ كِتَابَتَهُ فِي التَّاسِعَةِ وَالتَّسْعِينَ بَعْدَ أَلْفٍ وَتِسْعِمِائَةٍ سَنَةٍ

67-mashq. “Boburnoma”da sarlavha o‘rnida kelgan hamma sanalar arab tilida yozilgan. Ularni ko‘chiring va o‘qing .

- 899-yil voqealari: وَقَانِعِ سَنَةِ تِسْعٍ وَتِسْعِينَ وَثَمَانَ مِائَةٍ // ثَمَانِمِائَةٍ
900-yil voqealari: وَقَانِعِ سَنَةِ تِسْعِ مِائَةٍ // تِسْعِمِائَةٍ
901-yil voqealari: وَقَانِعِ سَنَةِ إِحْدَى وَتِسْعِ مِائَةٍ // تِسْعِمِائَةٍ
902-yil voqealari: وَقَانِعِ سَنَةِ اثْنَتَيْنِ وَتِسْعِ مِائَةٍ // تِسْعِمِائَةٍ
903-yil voqealari: وَقَانِعِ سَنَةِ ثَلَاثٍ وَتِسْعِ مِائَةٍ // تِسْعِمِائَةٍ
911-yil voqealari: وَقَانِعِ سَنَةِ إِحْدَى عَشْرَةَ //عَشْرَةَ وَتِسْعِ مِائَةٍ // تِسْعِمِائَةٍ
912-yil voqealari: وَقَانِعِ سَنَةِ اثْنَتَيْ عَشْرَةَ //عَشْرَةَ وَتِسْعِ مِائَةٍ // تِسْعِمِائَةٍ
925-yil voqealari: وَقَانِعِ سَنَةِ خَمْسٍ وَعَشْرِينَ وَتِسْعِ مِائَةٍ // تِسْعِمِائَةٍ
934-yil voqealari: وَقَانِعِ سَنَةِ أَرْبَعٍ وَثَلَاثِينَ وَتِسْعِ مِائَةٍ // تِسْعِمِائَةٍ
935-yil voqealari: وَقَانِعِ سَنَةِ خَمْسٍ وَثَلَاثِينَ وَتِسْعِ مِائَةٍ // تِسْعِمِائَةٍ
936-yil voqealari: وَقَانِعِ سَنَةِ سِتٍّ وَثَلَاثِينَ وَتِسْعِ مِائَةٍ // تِسْعِمِائَةٍ

68-mashq. Matnni o‘qing, ko‘chiring va o‘zbek tiliga o‘giring.

البلدان العربية

في العالم اثنتان وعشرون دولة عربية. تقع الدول العربية في قارتي آسيا وإفريقيا. البلدان العربية الواقعة في إفريقيا هن: مصر وليبيا والجزائر وتونس والمغرب والسودان وموريتانيا وجيبوتي والصومال وجُزُر القمر. وأما الدول العربية التي تقع في آسيا فهن: العراق والسورية والأردن ولبنان والسعودية واليمن والإمارات وعمان والبحرين والكويت وقطر وفلسطين. وللبلدان العربية أسماء رسمية مثل جمهورية مصر العربية والمملكة العربية السعودية والمملكة الأردنية الهاشمية والجمهورية العربية السورية والمملكة المغربية وإلخ (إلى آخره). تضم الإمارات العربية المتحدة سبع إمارات عربية هن: أبو ظبي، دبي، الشارقة، عجمان، أم القيوين، رأس الخيمة والفجيرة. للدول العربية منظماتها الخاصة بها وهي جامعة الدول العربية التي تكوّنت في مدينة الإسكندرية في العاشر من أيار سنة ١٩٤٥ (ألفٍ وَتِسْعِمِائَةٍ وَخَمْسِ

وَأَرْبَعِينَ) من سبع دول عربية وأقرّ ميثاقها فيها. ثم انضمت إليها أربع عشرة دولة عربية أخرى. والهدف الرئيسي من تأسيس الجامعة هي توثيق العلاقات بين الدول العربية.

كلمات:

Arab davlatlari ligasi	جَامِعَةُ الدُّوَلِ الْعَرَبِيَّةِ	birlashtirmoq	ضَمَّ (يَضُمُّ)
birlashgan	مُنَّجِدٌ	amirlik	إِمَارَةٌ (إِمَارَاتٌ)
qabul qilindi; tasdiqlandi	IV maj. أقرّ (dar.)	tashkilot	مُنْظَمَةٌ (مُنْظَمَاتٌ)
qo'shildi	انضمّ VII	nizom; hujjat; bitim	مِيثَاقٌ (مَوَاقِئُ)
mustahkamlash	توثيقٌ	maqsad; nishon	هَدَفٌ (أَهْدَافٌ)
..ni deb; yo'lida	مِنْ أَجْلِ	kurashmoq	نَاضِلٌ (يُنَاضِلُ) III
qaytish	عَوْدَةٌ	ozod qilish	تَحْرِيْرٌ
o'z taqdirini aniqlash	تَقْرِيْرُ الْمَصِيْرِ	..ga erishish	حُصُوْلٌ عَلَى

69-mashq. Quyidagi jummalarni arab tiliga tarjima qiling.

1570 yil 11 yanvar, 1991 yil 1 sentabr, 2002 yil 19 oktabr, 1959 yil 10 mart.

70- mashq. Arab tiliga tarjima qiling:

1992 yil 8-dekabr kuni Mustaqil O'zbekistonning birinchi konstitutsiyasi qabul qilingan kun. O'zbekiston Prezidenti I.Karimov 1938 yil 31 yanvarda tug'ilgan. 1999 yil 7 aprelda Toshkent islom universiteti tashkil topdi. 1966 yil 26 aprelda Toshkentda kuchli zilzila sodir bo'lgan. 2009 yil 19 martda 50 yoshga kirdim. 2015 yil 31 avgustda O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 24 yilligi bayram qilinadi.

KICHRAYTMA OTLAR

Kichraytma otlar erkalash, gohida kamsitish ma'nolarida ishlatiladi. Ular o'zagi uch undoshli ismlardan «فَعِيْلٌ» (muan. فَعِيْلَةٌ) qolipida yasaladi:

kuchukcha	كُتَيْبٌ	←	فَعِيْلٌ	kuchuk	كُتِبٌ
kitobcha	كُتَيْبٌ	←	فَعِيْلٌ	kitob	كُتِبٌ

O'zagi to'rt va undan ortiq harfdan iborat bo'lgan so'zlarning kichraytma shakli «فَعِيْلٌ» qolipida hosil qilinadi (to'rttadan «ortiqchasi» olib tashlanadi):

bulbulcha	عُنْدَيْلٌ	←	فُعَيْلٌ	bulbul	عُنْدَلِيْبٌ
pichoqcha	سُكَيْكِنٌ	←	فُعَيْلٌ	pichoq	سُكَيْنٌ

71-mashq. Ushbu so‘zlardan kichraytma otlar hosil qiling va tarjima qiling:

حسن، عمر، عبد، شاعر، كاتب، دفتر، رَجُلٌ، سليم، قلم، باب، بحر.

72-mashq. Matnni yozing, o‘qing. Tarjima qiling va grammatik tahlil qiling.

ماذا يوجد في قاعة الدرس؟

نحن طلاب الصف الأول لجامعة اللغات العالمية بطشقند. الطلاب الآن في قاعة الدرس. في قاعة الدرس لوح أخضر ومنضدات ومقاعد كثيرة للجلوس. اللوح نظيف وعليه طباشير وممسحة. وعلى الجدار صورة رئيس جمهورية أوزبكستان وخارطة العالم. بجوار النافذة منضدة وكرسی مريح للمدرس. الباب مقفل والنافذتان مفتوحتان. وعلى منضدة المدرس محفظة جديدة. وفي هذه المحفظة كتب عربية وجرائد يومية وقلمان أحمر وأزرق ودفاتر ومسطرة ومساحة. في هاتين الخزانيتين الجديدتين كثير من الكتب المطبوعة والمخطوطة باللغات الوطنية والأجنبية والمجلات الشهرية باللغات المختلفة. هل هو مدرس جديد؟ لا. هو طالب واسمه حسين. هو من السودان. هو الآن في المكتبة ويأخذ الكتب اللازمة:

- حسين: صباح الخير يا أنسة!
 ح: أريد كتابا في اللغة العربية.
 ح: أريد كتابا بسيطا.
 ح: أريد القصص القصيرة.
 ح: شكرا يا أنسة وإلى اللقاء!
- صباح الخير!
 - عندنا كتب كثيرة في اللغة العربية. ماذا تريد؟
 - هل تريد قصصا قصيرة أم قصصا للأطفال؟
 ل: - تفضل!
 ل: - عفوا ومع السلامة.

كلمات:

o‘chirg’ich	مَسَاحَةٌ (مَسَاحَاتٌ. ko‘pl.)	yopiq	مُقْفَلٌ
bosma	مَطْبُوعٌ	bo‘r	طَبَشُورَةٌ (طَبَاشِيرٌ)
yoqma	مَخْطُوطٌ	latta; shvabra	مِمْسَحَةٌ (مَمَاسِخٌ).
yumshoq stul	كُرْسِيٌّ مُرِيحٌ	xohlayman (xohlaysan)	أُرِيدُ (تُرِيدُ)
oylik	شَهْرِيٌّ	sodda	بَسِيْطٌ
yaqinida	بِجْوَارٍ	kerakli	لَازِمٌ
turli	مُخْتَلِفٌ	qiz (turmushga chiqmagani)	أَنِسَةٌ

YIGIRMA OLTINCHI DARS

Uch undoshli fe’llarning I bobi

I bob fe'li o'tgan zamonda «فَعَلَ», «فَعِّلَ» yoki «فَعِّلَ» shaklida bo'ladi. U o'zi ifodalagan ma'nosiga ko'ra o'timli yoki o'timsiz bo'ladi. «فَعِّلَ» vaznidagi fe'llar faqat o'timsiz, qolgan vazndagi fe'llar esa o'timli ham, o'timsiz ham bo'lishi mumkin:

<i>o'timsiz-</i>	kulmoq; aslida - u kuldi	ضَجِكَ
<i>o'timli-</i>	bilmoq; aslida - u bildi	عَلِمَ
<i>o'timsiz-</i>	ketmoq; aslida - u ketdi	ذَهَبَ

Biror ko'makchi bilan kelgan o'timsiz fe'l o'zbek tiliga tarjima qilinganda o'timli ma'noni anglatadi:

ذَهَبَ بِ...ni olib ketmoq

O'timsiz fe'ldan II yoki IV bob hosil qilinsa o'timli fe'lga aylanadi:

katta qilmoq	II كَبَّرَ	← katta bo'lmoq	كَبُرَ
kuldirmoq	IV أَضْحَكَ	← kulmoq	ضَحِكَ

I bob o'tgan zamon fe'lining har uch vazni uchun majhul nisbati bitta, ya'ni «فَعِّلَ» qolipida hosil qilinadi. Masalan:

yo'zildi ro'yxatga)	(m-n: كَتَبَ	كَتَبَ u yo'zdi	فَعَّلَ
yaxshilandi	حَسَّنَ	فَعَّلَ	فَعَّلَ
ichildi	شَرِبَ	شَرِبَ u ichdi	فَعَّلَ

Hozirgi-kelasi zamon majhul nisbati «يُفَعِّلُ» vaznida bo'ladi:

ichilayapti	يُشْرِبُ	يُشْرِبُ u ichayapti	يُفَعِّلُ
qaytilayapti	يُرْجِعُ	يُرْجِعُ u qaytayapti	يُفَعِّلُ
yaxshilanayapti	يُحَسِّنُ	يُحَسِّنُ yaxshi bo'layapti	يُفَعِّلُ

Aniq nisbatdagi fe'lga ish-harakatni bajaruvchi sub'yekt (men, sen, u) ega bo'lib kelsa, majhul nisbatdagi fe'lga bajariluvchi (объект) ega bo'lib keladi. Fe'ning majhul nisbatida ish-harakatni bajaruvchi- sub'yekt (men, sen, u) aniq bo'lmaydi. Fe'ning aniq nisbatida to'ldiruvchi bo'lgan so'z majhul nisbatida uning egasi bo'lib qoladi. Majhul nisbatdagi fe'l barcha zamonlarda aniq nisbatning shaxs-son qo'shimchalari bilan tuslanaveradi:

U (ega-kim?) risola yozdi. (aniq nisbat)
 Risola(ega) yozildi (kim tomonidan?)
 (majhul nisbat)

كَتَبَ رِسَالَةً.
 كُتِبَتِ الرِّسَالَةُ.

Majhul nisbatdagi fe'ning real bajaruvchisini « مِنْ قِبَلِ » yoki « مِنْ طَرَفِ »— «tomonidan» kabi so'zlar ko'rsatib keladi. Gapda bu so'zlar bevosita real bajaruvchining oldida keladi:

Bu ma'ruza Ustoz Mahmud tomonidan o'qiladi. تَلَّقَى هَذِهِ الْمَحَاضِرَةَ مِنْ طَرَفِ الْأَسْتَاذِ مَحْمُودٍ.
 Bu ro'yxat toliblar tomonidan yozildi. كُتِبَتِ هَذِهِ الْقَائِمَةُ مِنْ قِبَلِ الطَّلَابِ.

" كَانَ " FE'LI. ISMIY GAPLARDA ZAMON

Ismiy gapda o'tgan yoki kelasi zamon ma'nosi « كَانَ- bo'lmoq; emoq » fe'li yordamida (hozirgi-kelasi zamonda- يَكُونُ) ifodalanadi. O'zagida « وَ » «bo'sh» undoshi bo'lgani uchun uni o'tgan va hozirgi-kelasi zamonda tuslaganda fonetik o'zgarishlar ro'y beradi.

كَانَ fe'lini o'tgan zamonda tushlash jadvali:

ko'plik	ikkilik	birlik	шахс, сон, жинс
كُنَّا	----- -----	كُنْتُ	muzakkar I sh. muannas
كُنْتُمْ كُنْتُنَّ	كُنْتُمَا كُنْتُنَّمَا	كُنْتَ كُنْتِ	muzakkar II sh. muannas
كَانُوا كَانْنَ	كَانَا كَانَتَا	كَانَ كَانَتْ	muzakkar III sh. muannas

كَانَ fe'lini hozirgi-kelasi zamonda tushlash jadvali:

ko'plik	ikkilik	birlik	shaxs, son, jins
نَكُونُ	-----	أَكُونُ	muzakkar I sh. muannas
تَكُونُونَ	تَكُونَانِ	تَكُونُ	muzakkar

تَكُنَّ	تَكُونَانِ	تَكُونِينَ	II sh. muannas
يَكُونُونَ	يَكُونَانِ	يَكُونُونَ	muzakkar
يَكُنَّ	تَكُونَانِ	تَكُونُونَ	III sh. muannas

Ushbu fe'l gapda ikki xil vazifada keladi:

1. Fe'liy gaplarda mustaqil va yordamchi fe'l vazifasida:

Kecha men qishloqda edim (bo'ldim). (mustaqil) كُنْتُ الْبَارِحَةَ فِي الرَّيْفِ.
Maryam bugun universitetda bo'ldi (edi). (mustaqil) كَانَتْ مَرْيَمُ الْيَوْمَ فِي الْجَامِعَةِ.
Mahmud universitetda o'qir edi. (yordamchi fe'l) كَانَ مُحَمَّدٌ يَدْرُسُ فِي الْجَامِعَةِ.

2. Ismiy gapda u yordamchi fe'l-bog'lovchi vazifasida keladi:

Uy uzoq edi. كَانَ الْبَيْتُ بَعِيدًا. yoki الْبَيْتُ كَانَ بَعِيدًا.

Fe'l-bog'lovchi vazifasida kelayotgan «كَانَ» fe'li ismiy gapning kesimi bilan birga qo'shma kesim tuzib keladi. Agar ismiy kesim «كَانَ» fe'lidan keyin kelsa noaniq holatda, tushum kelishigida bo'lib, u bilan jins va sonda, avval kelsa faqat jinsda moslashadi. Gapning boshida «كَانَ» fe'li birlik sonda keladi. U o'tgan zamonda bo'lsa o'tgan zamon va hozirgi-kelasi zamonda bo'lsa kelasi zamoni ifoda etadi:

Mahmud o'tgan yili كَانَ مُحَمَّدٌ فِي السَّنَةِ الْمَاضِيَةِ تَلْمِيذًا.
o'quvchi edi. فِي الْوَقْتِ الْحَالِي هُوَ طَالِبٌ.
Hozir u talaba. وَيَكُونُ فِي الْمُسْتَقْبَلِ الْقَرِيبِ عَالِمًا.
Yaqin kelajakda وَيَكُونُ فِي الْمُسْتَقْبَلِ الْقَرِيبِ عَالِمًا.
u olim bo'ladi.

أَصْبَحَ BA صَارَ fe'llari ham «كَانَ» fe'li kabidir. Ammo ular «bo'lib qoldi» ma'nosini anglatadi:

Dars qiyin bo'lib qoldi. أَصْبَحَ (صَارَ) الدَّرْسُ صَعْبًا.
(Dars qiyinlashdi.)

73-mashq. Yozing, o'qing. Jummalarni tarjima qilib, grammatik tahlil qiling.

أصبحتُ مدينةً هوقند جميلة. كان من المستحيل القبول بذلك الأمر. أين كانت هؤلاء البنات؟ كان الأطفال يلعبون في فناء المدرسة. ما كنت في هذا المكان أصلاً. أصبح زياد مهندساً مشهوراً. كان يعرف سعد الله أسماء فصول السنة بالعربية. وهي: الربيع والصيف والخريف والشتاء. أصبح راشد مديعاً معروفاً. كانت أسرتنا مُجمعة معاً في هذا المساء. كانت تسكنُ هنا مع زوجها وأولادها منذ ست سنوات. كنت في كل صباح أشرب الشاي وأكل الخبز بالزبدة. كانت كلماتُ النص كثيرةً جداً. كانت تنطلق

الحافلة الأخيرة في الساعة العاشرة بالضبط دائما. كان الأمر واضحا. كانوا أعداء فصاروا أصدقاء. صار الثوب قصيرا. كان الجو حارا. فأصبح الجو ممطرا. كان كل شيء (هادئ).

كلمات:

yil fasllari	فُصُولُ السَّنَةِ	maydon	سَاحَةٌ (سَاحَاتٌ ko‘pl.)
birga; birgalikda	مَعًا	ilojsizlik	مِنَ الْمُسْتَجِيلِ
bahor	رَبِيعٌ	davomida	خِلَالَ (ko‘makchi)
yozi	صَيْفٌ	daqiq	دَقِيقَةٌ (دَقَائِقُ ko‘pl.)
kuz	خَرِيفٌ	boshlamoq	بَدَأَ (a)
qish	شِتَاءٌ	ish; buyruq	أَمْرٌ (أُمُورٌ ko‘pl.)
birga yig‘ilgan	مُجْمَعٌ	hovli	فِنَاءٌ (أَفْنِيَةٌ ko‘pl.)
diktor, suxandon	مُذَبِّحٌ	ketar edi	كَانَتْ تَنْطَلِقُ
tinch; osoyishta	هَادِئٌ	dushman; g‘anim	عَدُوٌّ (أَعْدَاءٌ ko‘pl.)
yomg‘irli; yog‘adigan	مُمَطَّرٌ	ob-havo; kayfiyat	جَوٌّ

74-mashq. Matnni arab alifbosida yozing.

“**Koinot** ofarinishi va mavjudot parvarishig‘a aning sharif zotining...”
 (“Tarixi anbiyo va hukamo”)

Ey so‘z bila qilg‘on ofarinish og‘oz,

Insonni aroda aylagon mahrami roz

Chun “**kun fayakun**” safhasiga bo‘ldi tiroz

Qilg‘on oni nutq ila boridin mumtoz.

(“Muhokamat ul-lug‘atayn”)

YIGIRMA YETTINCHI DARS

Fe‘ldan yasalgan otlar

Fe‘llardan yasalgan ismlarga masdarlar, aniq va majhul daraja sifatdoshlari, sifatlar, o‘rin va payt nomlari, ish quroli nomlari va kasb-hunar nomlari kabilar kiradi.

MASDAR

Masdar fe'ldan yasalgan ot bo'lib, o'z mazmuniga ko'ra ish-harakatning mavhum nomini ataydi. U o'zbek tilidagi harakat nomiga mos keladi.

Masdarlardan I bob fe'lining masdar vaznlari ko'pchilikni tashkil etadi. Chunki I bob fe'li ko'p ma'noli bo'lgani uchun uning har bir ma'nosining o'z masdar vazni bo'ladi. Lug'atlarda I bobdagi fe'lining yonida uning asosiy ma'nosining masdari tarjimasiz yozib qo'yilgan bo'ladi.

masdar	masdar vazni	fe'l I bobi	№	
o'rganish	دَرَسُ	فَعْلُ	دَرَسَ	1.
eslash	ذِكْرُ	فَعْلُ	ذَكَرَ	2.
yaqin bo'lish	قُرْبُ	فَعْلُ	قَرَّبَ	3.
izlash, talab qilish	طَلْبُ	فَعْلُ	طَلَّبَ	4.
kulish	ضِحَاكُ	فَعْلُ	ضَحِكَ	5.
borish	ذِهَابُ	فِعَالُ	ذَهَبَ	6.
g'alaba qilish	غَلْبَةٌ	فَعْلَةٌ	غَلَبَ	7.
qabul qilish	قَبُولُ	فَعُولُ	قَبِلَ	8.
ziyosat qilish	زِيَارَةٌ	فِعَالَةٌ	زَارَ	9.

O'timli fe'lining masdari o'sha fe'l boshqarib kelayotgan ot (fe'ning to'ldiruvchisi) bilan izofa birikmasi tuzib keladi:

xat yozish... كِتَابَةُ الْمَكْتُوبِ... U xat yozdi. كَتَبَ الْمَكْتُوبَ.

masdar	masdar vazni	fe'l	fe'l boblari
تَلْقِيبُ	تَفْعِيلُ	لَقَّبَ	II bob
مُسَافِرَةٌ	مُفَاعَلَةٌ	سَافَرَ	III bob
اِكْرَامُ	اِفْعَالُ	اَكْرَمَ	IV bob
تَفْتِيْحُ	تَفْعُلُ	تَفْتَحَ	V bob
تَعَامُلُ	تَفَاعُلُ	تَعَامَلَ	VI bob
اِنْعِكَاسُ	اِنْفِعَالُ	اِنْعَكَسَ	VII bob
اِبْتِسَامُ	اِفْتِعَالُ	اِبْتَسَمَ	VIII bob
اِحْمِرَارُ	اِفْعِلَالُ	اِحْمَرَ	IX bob
اِسْتِفْهَامُ	اِسْتِفْعَالُ	اِسْتَفْهَمَ	X bob

76-mashq. Lug'at kitobidan ushbu fe'llarining masdarlarini va ularning o'zbekcha tarjimasini aniqlang:

فَصَدَّ (u) ، رَكِبَ (a) ، وَصَلَ (i) ، فَتَحَ (a) ، ضَرَبَ (i) ، بَعَثَ (a) ، سَمِعَ (a) ، رَأَى (a).

77-mashq. Quyida keltirilgan Alisher Navoiy asarlarida ishlatilgan masdarlarni qaysi bobda ekanligini aniqlang, ma'nosini toping va arab alifbosida yozing.

1) Nafs, shavq, vasl, sayd, toyib, madh, man'a, aql, hajr, tama', ra'd, ahd, arz, sabr, ayb, lafz, aks, xolaq, fard, fayz, nazm, qasd, nav', rahm, xayr.

Jism tarkibi parishon bo'lg'ay ul yanglig'ki, **aql**
So'ngra jam' o'lmoqqa ruxsat bermagay imkon aro.
(“Navodir ush-shabob”)

Aysh vaqtini bil g'animatkim, erur dam ushbu dam,
Charx ermas **favt** bo'lg'an vaqtni yondurg'udek
(“Badoye' ul-vasat”)

2) UZR, umr, kufr, mulk, subh, zulm, shukr, xulq.

Ey Navoiy, shukrkim, maydong'a ul shah qo'ydi yuz,
Kim yo'lida qolmadi navmid joni xoksor.
(“Badoyi' ul-bidoya”)

3) Muhit, muhib, mujib, mufid.

Muhiblar birla har tun bizdin ayru
Qadahlar kim chekarsen, no'shi joning.
(“Badoyi' ul-bidoya”)

4) Ishq, tifi, zikr, misl, milh.

Nargisin gul uzrakim bemor etar noz uyqusi,
Misli sho'xedurki, sust etgay ani yoz uyqusi.
(“Badoyi' ul-bidoya”)

5) Falak, ajab, qadah, aql, talab, sha'm, xatar, maraz.

G'amim shomin yorutti qadding ul yuz shu'lasi birla,
Netar kunduzni ulkim, buyladur sham'i shabistoni.

(“Badoyi’ ul-bidoya”)

6) Takabbur, tag‘offul, tabassum, tarahhum, takallum, tavaqquf, tarannum, taraddud, tana’aum, tanaqqul, tanaffur, tanazzul, tanavvu’, tamattu’, tamavvuj, tamavvul, tamalluk, tamalluq, talattuf, talaffuz, talavvun.

Nargising afsunu gul barging takallum ayladi,
Aqli kul topti firib, ul makru olingni ko‘rub.

(“Favoiyd ul-kibar”)

7) Tasalsul, takavar, tazalzul, tajohul, tajovuz, tadoruk, tavotur, tavorud, tavozu’, tasohul, tafovut, tafoxur, taxalxul.

Luqma ogahlik ila solik agar aylasa no‘sh,
Yaxshiroq arpa ko‘mochiki, tag‘ofilda kuloch.

(“Favoiyd ul-kibar”)

SIFATDOSH

misollar	Majhul daraja	misollar	Aniq daraja	Boblar
مَكْتُوبٌ	مَفْعُولٌ	كَاتِبٌ	فَاعِلٌ	I bob
مُلَقَّبٌ	مُفَعَّلٌ	مُلَقَّبٌ	مُفَعَّلٌ	II bob
مُسَافِرٌ	مُفَاعَلٌ	مُسَافِرٌ	مُفَاعَلٌ	III bob
مُكْرَمٌ	مُفَعَّلٌ	مُكْرَمٌ	مُفَعَّلٌ	IV bob
مُتَفَتِّحٌ	مُتَفَعَّلٌ	مُتَفَتِّحٌ	مُتَفَعَّلٌ	V bob
مُتَعَامِلٌ	مُتَفَاعَلٌ	مُتَعَامِلٌ	مُتَفَاعَلٌ	VI bob
مُنْعَكِسٌ	مُنْفَعَلٌ	مُنْعَكِسٌ	مُنْفَعَلٌ	VII bob
مُبْتَسِمٌ	مُفْتَعَلٌ	مُبْتَسِمٌ	مُفْتَعَلٌ	VIII bob
مُحْمَرٌ	مُفَعَّلٌ	مُحْمَرٌ	مُفَعَّلٌ	IX bob

مُسْتَفْعَلٌ	مُسْتَفْعِلٌ	مُسْتَفْعَمٌ	مُسْتَفْعِلٌ	X bob
--------------	--------------	--------------	--------------	-------

Sifatdosh-fe'ldan yasalgan ot bo'lib, u fe'l anglatgan ish-harakatni aniq nisbat (sub'yekt-bajaruvchi) yoki majhul nisbat (ob'yekt-bajariluvchi) shakllarida ifodalaydi. U gapda sifat vazifasini ham bajara olgani uchun deb ataladi.

Sifatdoshlar ikki xil bo'ladi:

1. Aniq daraja sifatdosh
2. Majhul daraja sifatdosh.

I bob fe'lining aniq daraja sifatdoshi shaklida yasaladi va o'zbek فَاعِلٌ tiliga «...gan», «...yotgan», «...kan», «...qan» sifatdosh qo'shimchalari bilan, yoki «...chi» otlashgan qo'shimchasi bilan tarjima qilinadi va ish-harakatni xozirgi zamonda bajarilayotganligini anglatadi:

yoziyotgan → yozuvchi (hozir) فَاعِلٌ ← كَاتِبٌ yozmoq كَتَبَ
ochayotgan → ochuvchi (hozir) فَاعِلٌ ← فَاتِحٌ очмоқ فَتَحَ

shaklida bo'ladi: مَفْعُولٌ I bob fe'lining majhul daraja sifatdoshi

yozilgan; yozilayotga كَتَبَ ← مَفْعُولٌ -- مَكْتُوبٌ
ichilgan; ichilayotgan شَرِبَ ← مَفْعُولٌ -- مَشْرُوبٌ

Sifatdoshning ikkala darajasida ham substantivasiya (otlashish) hodisasi ro'y beradi:

kotib (sekretar) - yozuvchi	كَاتِبٌ	javobgar-so'ralgan	مَسْئُولٌ
guvoh, notarius - ko'ruvchi	شَاهِدٌ	emissar-yuborilgan shaxs	مَبْعُوثٌ
qori - o'quvchi	قَارِئٌ	vakil, delegat	مَنْدُوبٌ

I bobning ba'zi, qolgan boblarning barcha aniq daraja larining ko'pligi va odamni bildiradigan majhul daraja larining ko'pligi to'g'ri ko'plikda hosil qilinadi:

kuluvchi → kuluvchilar ضَاكِرٌ ← ضَاكِرُونَ
mas'ul → mas'ullar مَسْئُولٌ ← مَسْئُولُونَ

сўровчи → so'rovchilar

سَائِلٌ ← سَائِلُونَ

yuboriluvchi →
yuboriluvchilar

مَبْعُوثٌ ← مَبْعُوثُونَ

73-mashq. Ushbu fe'llardan I bobning aniq daraja va majhul daraja sifatdoshlarini hosil qiling. Ularning o'zbekcha tarjimasini aniqlang:

رَكِبَ (a)، مَنَعَ (a)، رَغِبَ (a)، سَأَلَ (a)، عَقَلَ (i)، طَلَبَ (u)، وَقَفَ (i)، شَكَرَ (y).

74-mashq. Matnni yozing, o'qing va tarjima qiling. Keyin unga savollar tuzib uni so'zlab bering.

مِنْ يَوْمِيَّاتِ طَالِبِ الْجَامِعَةِ

أنهض من نومي كلّ يوم في الصباح الباكر. ثم أمارسُ الرياضة البدنية الصباحية. أغسل وجهي ويديّ بالماء الدافئ والصابون. ثم أذهب إلى والديّ في المطبخ وأسلم عليهما. أمي تُعدُّ الفطور والشاي، فأساعدُها في إعداد الطعام بسرعة. أكل في الفطور الرغيف بالجبنة والزبدة أو البيض المسلوق. أشرب الشاي بالسكر أو القهوة بالحليب. وأتناول في الفطور في بعض الأحيان الطعام الخفيف.

أذهب إلى الجامعة في الساعة السابعة بالحافلة وفي بعض الأحيان أركب الترام. تكون الحافلة عادةً مزدحمة بالركّاب، فأقفُ على قَدَمَيَّ. فأقطع بقيّة الطريق ماشياً. إن المترو والتروليبوس والحافلة والترام تقصّر المسافة. وهي تربط شوارع عاصمتنا وميادينها بعضها ببعض. أصلُ إلى الجامعة عادة في الساعة الثامنة تماماً.

أفضي اليوم الدراسي في نشاط وسعادة. ندرس في الجامعة عددا كبيرا من المواد الدراسية وهي التاريخ والآداب والرياضيات واللغة العربية واللغة الفارسية واللغة الإنجليزية والأخرى من اللغات. في دروس اللغة العربية عادة نقرأ النصوص العربية ونترجمُها إلى اللغة الأوزبكية. ونكتب كذلك الإملاء. يتكلم كل طالب اللغة العربية والإنجليزية جيدا. وفي الاستراحة أفضي الوقت إما في المكتبة أو في المقصف (بُوفِيَّة)

كثيرا ما أتناول طعام الغداء في مطعم الجامعة. أرجع إلى بيتي في الساعة الرابعة تماماً بعد الظهر.

vaqtlı; erta	بَاكِرٌ	kundalik (yozuv)	يَوْمِيَّةٌ
pishloq	جَبْنَةٌ	iliq	دَافِئٌ
qolgan yo'l	بَقِيَّةُ الطَّرِيقِ	qaynatilgan tuxum	بَيْضٌ مَسْلُوقٌ
yetib kelaman	أَصِلُ	bog'lamoq	رَبَطَ (y)

ko‘pincha	كَثِيرًا مَا	kamdan-kam; gohida	قَلِيلًا مَا
bajarmoq; shug‘ullanmoq	III مَارَسَ (يُمَارِسُ)	бир-бири билан	بَعْضَهَا بِبَعْضٍ
sariyog‘; qaumoq	زُبْدَةٌ	tiqilinch	مُرْجَحِمٌ
баъзи пайтларда	فِي بَعْضِ الْأَحْيَانِ	yopgan non	رَغِيفٌ (أَرْغَفَةٌ)
o‘quv (ga oid)	دِرَاسِيٌّ	o‘quv predmeti; dars	مَادَّةٌ (مَوَادُّ) ko‘pl
piyoda (xol)	مَاشِيًّا	yengil	خَفِيفٌ
tushki ovqat	طَعَامُ الْعَدَاءِ	qisqartirmoq	II قَصَّرَ (يُقَصِّرُ)
tanovul qilmoq	VI تَنَاولَ (يَتَنَاولُ)	matematika	الرِّيَاضِيَّاتُ
yordam beradi	III سَاعَدَ (يُسَاعِدُ)	tayyorlaydi; tayyorlash	IV أَعَدَّ (يُعِدُّ) إِعْدَادٌ
yo‘lovchi	II رَاكِبٌ (رُكَّابٌ)	ularga salom beraman	III أَسَلَّمْتُ عَلَيْهِمَا

75-mashq. Matnni ko‘chirib, arab alifbosiga o‘giring va sifatdoshlar qaysi qolipda ekanligini aniqlang.

Necha husn ahlidin, **mahzun** ko‘ngul, ozor topqaysen,
Necha gulchehralardin bag‘ring ichra xor topqaysen.
(“Bobur devoni”)

Hijron aro yod etib meni shod etti,
Mahjur ko‘ngulni g‘amdin ozod etti.

(“Bobur devoni”)

Maqsud nedurki elni yod etganda,
Ul doirada bizni faromush qilur.

(“Bobur devoni”)

Zahri firoqingdin qayu **oshiqki** bo‘ldi talxkom,
No‘shi visoling yetmasa, Iso anga topmas da‘vo.

(“Badoye’ ul-vasat”)

Fanoning ham fanosin istagil vasl ersa komingkim,
Bu yo‘lda **vosil** o‘lmakning tariqi ushбудur ushbu.

(“Navodir ush-shabob”)

YIGIRMA SAKKIZINCHI DARS

Fe‘l mayllari

Fe‘l mayli fe‘l anglatgan ish-harakat bilan so‘zlovchi orasidagi aloqaning voqe‘likka munosabatini ifodalaydi. Arab tilida fe‘lning beshta mayli mavjud: xabar (yoki ijro) mayli, kesik mayl (shart mayli shakli), buyruq mayli, istak mayli va kuchaytirma (ta‘kid) mayli.

Xabar mayli fe‘lning boshlang‘ich ma‘noli ko‘rinishidir. Xabar mayli deb harakat yoki holatni uning bajarilish vaqti bilan bog‘liq holda ifodalovchi mayl turiga aytiladi. Bu maylda ish-harakat biror zamonga taalluqli bo‘ladi. Shu paytgacha biz ishlatib kelgan fe‘llar va ularning o‘timli, o‘timsiz va bo‘lishli, bo‘lishsiz shakllari xabar maylida edi.

Xabar maylidagi ish-harakat gapiruvchi tomonidan real voqe‘lik deb fikr qilinsa, shart, istak va buyruq mayllaridagi ish-harakat esa mumkin bo‘lgan, istalgan yoki qilinishini gapiruvchi talab qilgan ish-harakat deb tushuniladi.

KESIK MAYL (FE‘LNING SHART MAYLI SHAKLI)

Uning kesik mayl deb atalishiga sabab xabar maylidagi, hozirgi- kelasi zamondagi fe‘lning oxirgi harakatini sukunlab va oxiri *Charfiga* tugagan ko‘rinishlarida uni harakati bilan olib tashlash orqali yasalgani tufaylidir (II va III shaxslarning ko‘plik son, muannas jinsidan tashqari). Bu maylda real shartni ifodalash xususiyati bor bo‘lgani uchun uni shart mayli deb ham ataydilar.

فَجَلَسَ fe‘lini *يُنْ* yuklamasi bilan kesik maylda tushlash jadvali:

ko‘plik	ikkilik	birlik	shaxs, son, jins
إِنَّ نَجَلِسَ	-----	إِنَّ أَجَلِسَ	muzakkar I sh. Muannas
إِنَّ تَجَلِسُوا إِنَّ تَجَلِسْنَ	إِنَّ تَجَلِسَا إِنَّ تَجَلِسَا	إِنَّ تَجَلِسُ إِنَّ تَجَلِسِي	muzakkar II sh.

			muannas
إِنْ يَجْلِسُوا إِنْ يَجْلِسْنَ	إِنْ يَجْلِسَا إِنْ تَجْلِسَا	إِنْ يَجْلِسُ إِنْ تَجْلِسُ	Muzakkar III sh. muannas

Fe'l kesik maylda undan shu shaklda bo'lishini talab qiladigan yuklamalardan keyin keladi. Bu yuklamalar ikki xil bo'ladi:

1. O'zidan keyin bitta fe'lni kesik maylda kelishini talab qiluvchi yuklamalar.

«لِ، لَا، لَمَّا، لَمْ» yuklamalari o'zidan keyin bitta fe'lni kesik maylda kelishini talab qiladigan yuklamalardir.

Bulardan لَمْ va لَمَّا yuklamalari o'tgan zamon ma'nosidagi inkorni ifodalaydi. لَمْ inkor yuklamasini arablar «kesish, inkor va o'zgartirish» yuklamasi deb ataydilar. Bu yuklama bilan kelgan fe'l umuman amalga oshmagan ish-harakatni ifodalaydi. لَمَّا yuklamasi bilan esa nutq paytigacha davom etib kelayotgan inkor ifoda etiladi. Masalan:

لَمْ يَحْضُرْ. U umuman kelmadi.

لَمَّا يَحْضُرْ. U hozirgacha kelmadi.

Fe'lni kesik maylda kelishini talab qiladigan لِ yuklamasi I va III shaxs uchun buyruqni لِ yuklamasi esa hamma shaxslar uchun buyruq–inkorni ifodalash uchun ishlatiladi. Shuning uchun ularni «Buyruq mayli» darsida ko'rib o'tamiz.

2. O'zidan keyin ikkita fe'lni kesik maylda (shart maylida) kelishini talab qiluvchi yuklamalar esa quyidagilardir:

«qanday», «- كَيْفَمَا qaysi?», «أَيُّ-qachon», «مَتَى-agar (إِنْ)»

Ular bevosita shartni ifodalaydi va o'zidan keyin ikkita fe'lni shart maylida ma'nosida kelishini talab qiladi:

Havo yaxshi bo'lsa ketamiz! إِنْ يَعْتَدِلَ الطَّفْسُ نُسَافِرَ !
Qachon qaytsang sen bilan yashayman. مَتَى تَرْجِعِي أَسْكُنُ مَعَكَ .
Sen qanday bo'lsang do'stlaring ham shunday bo'ladi. كَيْفَمَا تَكُنْ يَكُنْ أَصْدِقَاؤُكَ .
Qaysi talaba ko'p o'qisa, muvaffaqiyatga erishadi. أَيُّ طَالِبٍ يَدْرُسُ كَثِيرًا يَنْجَحُ .

76- mashq. (a) ضَحِكَ, (a) مَنَعَ, (a) غَسَلَ, (i) فَهَمَّ, (u) تَرَكَ-fe'llarini va إِنْ yuklamalari bilan kesik maylda tuslang va ular ishtirokida 5 tadan gap tuzing.

BUYRUQ MAYLI

Buyruq mayli shart maylidagi fe'lning II shaxsidan uning oldidagi «ت» shaxs-son qo'shimchasini harakati bilan olib tashlash orqali hosil qilinadi. Agar

bunda soʻz birinchi boʻgʻini yonma-yon turgan ikkita undosh bilan boshlangan boʻlsa talaffuz qilishga noqulay boʻladi:

<i>ʃrab</i>	شَرَبَ \	←	<i>taʃrab</i>	تَشْرَبُ
<i>jlis</i>	جَلَسَ \	←	<i>tajlis</i>	تَجْلِسُ
<i>ktub</i>	كَتَبَ \	←	<i>taktub</i>	تَكْتُبُ

Feʼning talaffuzini yengillatish uchun uning oldiga vaslali hamza qoʻyiladi va ikkita boʻgʻinga ajratiladi. Yolgʻiz oʻzi turgan feʼlda vaslali hamzani qanday harakat bilan oʻqish oʻsha feʼning ikkinchi oʻzak undoshining hozirgi zamondagi harakatiga bogʻliq: agar uning harakati «damma» boʻlsa, vaslali hamzaning harakati ham «damma» qilib oʻqiladi (yozuvda vaslali hamza yozilmaydi):

yoz!	ʻuktub!	اُكْتُبْ !	←	ʻu- ktub	ا + كُتِبْ	←	ktub	كُتِبْ
------	---------	------------	---	-------------	------------	---	------	--------

Agar «fatha» yoki «kasra» boʻlsa, vaslali hamzaning harakati «kasra» qilib oʻqiladi:

ich!	iʃrab!	اِشْرَبْ !	←	i ʃrab -	ا + شَرَبْ	←	ʃrab	شَرَبْ
oʻtir!	ijlis!	اِجْلِسْ !	←	i - jlis	ا + جَلَسْ	←	jlis	جَلَسْ

«شَرَبَ - ichmoq» feʼlini buyruq maylida tushlash jadvali:

koʻplik	ikkilik	birlik	shaxs, son, jins
اِشْرَبُوا ! اِشْرَبْنَ !	اِشْرَبَا ! اِشْرَبَا	اِشْرَبْ ! اِشْرَبِي !	muzakkar II sh muannas

I va III shaxslarga berilgan buyruq shart maylidagi feʼl oldiga «ل» buyruqdaʼvat yuklamasini qoʻyib hosil qilinadi:

koʻplik	ikkilik	birlik	son, jins	shaxs
لِشْرَبُوا ! لِشْرَبْنَ !	لِشْرَبَا ! لِشْرَبَا !	لِشْرَبْ ! لِشْرَبِي !	muzakkar muannas	I III
لِشْرَبُوا ! لِشْرَبْنَ !	لِشْرَبَا ! لِشْرَبَا !	لِشْرَبْ ! لِشْرَبِي !	muzakkar muannas	III III

Eslatma: Agar **ت** qo‘shimchasi harakati bilan olib tashlan-ganidan keyin so‘zning boshidagi bo‘g‘inda ikkita undosh yonma-yon turmagan bo‘lsa, unga vaslali hamza qo‘shishning zaruriyati bo‘lmaydi. Bu holat uch harfli fe‘llarning II, III, V va VI boblarida kuzatiladi:

o‘rgat!	<i>eallim!</i>	عَلِّمْ!	←	ثُعَلِّمْ II
musobaqalash!	<i>sa:biq!</i>	سَابِقْ!	←	ثُسَابِقْ III
pardoz qil!	<i>tajammal!</i>	تَجَمَّلْ!	←	ثَتَجَمَّلْ V
O‘zingni bilmaganga ol!	<i>taja:hal!</i>	تَجَاهَلْ!	←	ثَتَجَاهَلْ VI

Buyruq maylining ta‘qiq shakli hamma shaxslar uchun shart maylidagi fe‘l oldiga «لا» ta‘qiq yuklamasini qo‘yish bilan yasaladi. Arab tilidagi barcha fe‘llar va ularning hosila boblarining buyruq mayli ushbu yagona usul bo‘yicha hosil qilinadi.

77-mashq. (a) ضَحِكَ, (a) سَمِعَ, (u) عَسَلَ, (a) فَهَمَ, (u) فَتَرَكَ fe‘llarini buyruq mayli va buyruq- inkor shakllarida tuslang va ular ishtirokida 5 ta gap tuzing.

UNDALMA

Biror kishiga murojaat qilganda eng ko‘p ishlatiladigan yuklama «يا» yuklamasi bo‘lib, undan keyin kelayotgan so‘z artiklisiz va tanvinsiz bosh kelishikda keladi va u birlik sonda ham, ko‘plik sonda ham bo‘lishi mumkin:

Ey (Hoy) Ahmad! يَا أَحْمَدُ!
(Ahmad!)
Ey (Hoy) Fotima! يَا فَاطِمَةَ!
(Fotima!)

Agar murojaat yuklamasidan keyin kelayotgan so‘z izofa birikmasining aniqlanmishi bo‘lsa, u tushum kelishigida keladi:

Ey (Hoy) Ahmadning otasi! يَا أَبَا أَحْمَدِ!
Hoy Abdullo! (Abdullo!) يَا عَبْدَ اللَّهِ!

ال artikli bilan kelgan so‘zlarga murojaat qilinganda “ (أَيُّهَا (muan. أَيُّهَا) yuklamalari ishlatiladi va murojaat qilingan so‘z bosh kelishikda bo‘ladi. Ba‘zan bu ikkala murojaat yuklamasi birga qo‘shilib kelishi ham mumkin, bu holatlarda murojaat qilingan so‘zning qaysi sonda bo‘lishining ahamiyati yo‘q:

Ey (hoy)	أَيُّهَا السَّيِّدَةُ!	Ey (Hoy) odam!	أَيُّهَا الرَّجُلُ!
----------	------------------------	----------------	---------------------

xonim!			
Ey(hoy) xonimlar!	أَيْتُهَا السَّيِّدَاتُ!	Ey (Hoy) janoblar!	أَيْتُهَا السَّادَةُ!
Ey (Hoy) ayollar!	يَا <u>أَيْتُهَا</u> النِّسَاءُ!	Ey (Hoy) odamlar!	يَا <u>أَيْتُهَا</u> النَّاسُ!

78-mashq. Matni arab yozuvida yozing.

Yo Rab, oshuftamen fig'onima yet,
Karam aylab xatolarim afv et.

(“Sab'ai sayyor”)

Yo Rab, ne ofatdur ul husnu jamol-
Kim yo'qtur yer ila jahon ichra misol.

(“Mezon ul-avzon”)

79- mashq. Yozing, o'qing va tarjima qiling. Jummalarni grammatik tahlil qiling:

يا سمير، لا تجعل دروسك لعباً! إن تقرأ كثيراً من الكتب تعلم كثيراً من العلوم. إن تسافر إلى الأقطار العربية أسافر معك. لم يُترجم أحد من هذه الجملة الطويلة المعقدة. يا سمير، أنهض في الساعة الخامسة صباحاً. اطلب الرفيق قبل الطريق والجار قبل الدار! إن تنصت تفهم جيداً. يا سميرة، لماذا لم تحفظي الكلمات الجديدة اليوم؟ افهم جيداً يا بني! يا أيها الأولاد، اغسلوا وجوهكم بالماء والصابون كل صباح! يا زياد الله، اقرأ بصوت هادئ! يا أيها الأصدقاء، لا تمنعوا أولادكم من الرياضة! إن يذهب زيد تذهب معه. يا فاطمة، لا تخرجي من البيت بعد الساعة السابعة مساءً! يا سليم! لنذهب غداً إلى قاعة المطالعة! متي ترد تدخل بيتهم. لم يرجع محمد باكراً إلى بيته أمس. كان وقت قدوم الأصدقاء ولمّا يقدموا. يا بُني، لا تفعل هكذا! ألم تدرسوا شيئاً جديداً في دروس التاريخ؟ يا أيتها الطالبات، لنبدأ من جديد! يا زيد، لا تسمح لأحد بالدخول! ليفتح كل طالب دفتره!

كلمات:

qo'shni	جَارٌ (جِيرَانٌ)	safar qilmoq	سَافَرَ III (يُسَافِرُ)
tark qilmoq	(يَتَرَكَ)	osoyishta; sekin	هَادِئٌ
ma'n qilmoq	(a) مَنَعَ	qilmoq; qo'ymoq	(a) جَعَلَ
(o'rnidan) turmoq (uyqudan) turmoq	(a) نَهَضَ	yuz; aft	وَجْهٌ (وُجُوهُ)
o'yin	لَعِبٌ	eng ko'p; ko'p- ko'p	أَكْثَرُ
jim turmoq: tinglamoq	(i) نَصَتَ	qulflamoq	(يَقْفَلُ)

imlo; yozma ish	إِمْلاءٌ (-اتٌ)	ruxsat (imkon) bermoq	(a) سَمَحَ
-----------------	-----------------	--------------------------	------------

80- mashq. Matnni yozing, o‘qing va tarjima qiling:

تَرْجَمَةُ حَيَاتِي

اسْمِي إِبراهِيمَ رَحْمَةُ اللهِ. عُمْرِي سَبْعَ عَشْرَةَ سَنَةً. وُلِدْتُ فِي طَشْقَنْدِ. وَعِنْدَمَا بَلَغْتُ ٧ (السَّابِعَةَ) مِنْ عُمْرِي ذَهَبْتُ إِلَى الْمَدْرَسَةِ الْإِبْتِدَائِيَّةِ وَتَخَرَّجْتُ مِنْهَا بَعْدَ عَشْرٍ سَنَاتٍ. وَأَخَذْتُ الدَّرْسَ الْأَوَّلَ فِي اللُّغَةِ الْعَرَبِيَّةِ فِي تِلْكَ الْمَدْرَسَةِ. ثُمَّ أَلْتَحَقْتُ بِالْجَامِعَةِ وَأَصْبَحْتُ طَالِبًا بِالْصَّفِّ الْأَوَّلِ فِي كَلِّيَّةِ التَّارِيخِ. عَائِلَتُنَا لَيْسَتْ كَبِيرَةً وَهِيَ مُؤَلَّفَةٌ مِنْ خَمْسَةِ أَفْرَادٍ: أَبِي وَأُمِّي وَأَخْتِي الْكُبْرَى وَأَخِي الصَّغِيرُ وَأَنَا. أَبِي يَعْمَلُ مُهَنْدِسًا فِي مَصْنَعٍ لِلْسِّيَّارَاتِ بِمَدِينَةِ "أَسَاكَةَ" وَأُمِّي تَعْمَلُ مَدْرَسَةً لِلْعُلُومِ الرِّيَاضِيَّةِ فِي الْمَعْهَدِ التَّمْهِيدِيِّ وَأَخْتِي الْكُبْرَى طَالِبَةٌ بِكَلِّيَّةِ الْجُغْرَافِيَّةِ فِي جَامِعَةِ تَسْتَمِرُّ أَوْزْبَكِسْتَانَ الْوَطَنِيَّةِ. وَأَمَّا أَخِي فَهُوَ طَالِبٌ بِالْمَعْهَدِ التَّمْهِيدِيِّ بِجَامِعَةِ الْعُلُومِ الْاِقْتِصَادِيَّةِ. الدِّرَاسَةُ فِي الْجَامِعَةِ أَرْبَعُ سَنَاتٍ وَسَأُوَصِلُ بَعْدَهَا دِرَاسَةَ الْمَاجِسْتِيرِ خِلَالَ سَنَتَيْنِ إِنْ شَاءَ اللهُ. أُرِيدُ أَنْ أَكُونَ فِي الْمُسْتَقْبَلِ مُمَثِّلًا دِيپْلُومَاسِيًّا فِي إِحْدَى الْبُلْدَانِ الْعَرَبِيَّةِ

كلمات:

... ganda, qachonki	عِنْدَمَا	tug'ildim	(majhul) وُلِدْتُ)
..ni tugatmoq	تَخَرَّجَ مِنْ... V	yetmoq	(u) بَلَغَ
..ga kirmoq (m-n: oliy o'quv yurtiga)	التَّحَقَّ بِ... VIII	kishi; jon	(.ko'pl(أَفْرَادٌ
(katta) opam	أَخْتِي الْكُبْرَى	(kichik) ukam	أَخِي الصَّغِيرُ
davom etmoq	اسْتَمَرَ (يَسْتَمِرُّ) X	o'qituvchi bo'lib ishlaydi	تَعْمَلُ مَدْرَسَةً
diplomatik vakil	مُمَثِّلٌ دِيپْلُومَاسِيٌّ	davom etmoq	وَاصِلٌ (يُوَصِلُ) III
magistratura	دِرَاسَةُ الْمَاجِسْتِيرِ	bo'lmoqchim an	أُرِيدُ أَنْ أَكُونَ

ISTAK MAYLI

Istak maylidagi fe'l ma'no jihatdan kelasi zamon ma'nosini anglatadi. U hozirgi-kelasi zamondagi fe'lning oxirgi harakatini «fatha»ga aylantirish va oxirgi «ن» harfini harakati bilan olib tashlash bilan yasaladi (II va III shaxsning ko'plik,

muannas jinsidan tashqari). Barcha hosila boblarning istak mayli shakli ham shu tarzda hosil qilinadi. **فَعْلٌ** fe'li **أَنْ** yuklamasi bilan istak maylida quyidagicha tuslanadi:

<i>ko'plik</i>	ikkilik	birlik	<i>son, jins</i>	shaxs
أَنْ تَكْتُبَ	----	أَنْ أَكْتُبَ	muzakkar muannas	I sh
أَنْ تَكْتُبُوا أَنْ تَكْتُبِينَ	أَنْ تَكْتُبَا أَنْ تَكْتُبَا	أَنْ تَكْتُبَ أَنْ تَكْتُبِي	muzakkar muannas	II sh
أَنْ يَكْتُبُوا أَنْ يَكْتُبِينَ	أَنْ يَكْتُبَا أَنْ يَكْتُبَا	أَنْ يَكْتُبَ أَنْ تَكْتُبَ	muzakkar muannas	III sh

Fe'l istak maylida quyidagi istak mayli shaklini talab qiladigan yuklamalardan keyin keladi:

(Yuklamalar-ning ichida eng ko'p **أَنْ** -..ni» (istakni ifodalaydigan yuklama). ishlatiladi):

U baland tovush bilan o'qimoqchi. (o'qishni xohlayapti.) هُوَ يُرِيدُ الْفِرَاءَةَ بِصَوْتٍ عَالٍ.

U baland tovush bilan o'qimoqchi. (o'qishni xohlayapti.) هُوَ يُرِيدُ أَنْ يَقْرَأَ بِصَوْتٍ عَالٍ.

(sababini tushuntirish uchun) **كَيْ** - uchun; niyatida

Havo kirishi uchun derazani ochib qo'y! **اِفْتَحِ النَّافِذَةَ كَيْ يَدْخُلَ الْهَوَاءُ!**

(sababini, niyatini tushuntirish uchun): **لِ** – uchun

Muvaffaqiyatga erishish uchun ko'p mehnat qiling! **اعْمَلُوا كَثِيرًا لِتَنْجَحُوا!**

حَتَّى -...gacha; uchun (sababi yoki nihoyasini bildirish uchun):

Shaharga kirish uchun yurib bordim. **سِرْتُ حَتَّى أَدْخُلَ الْمَدِينَةَ.**

Bu yuklamadan keyin kelgan fe'l xabar mayli shaklida ham kelishi mumkin. Bunday paytda u o'tgan zamon ma'nosini anglatadi:

To shaharga kirgunimcha yurdim. **سِرْتُ حَتَّى أَدْخُلُ الْمَدِينَةَ.**

) – unday bo'lsa (o'zidan oldingi jumlagacha javob bo'lib kelgan **إِذَا** yoki **إِذْنًا** (jumlada keladi)

Otangni ziyorat qilaman. **سَأَزُورُ أَبَاكَ.**

Unday bo'lsa senga izzat-ikrom ko'rsatamiz. إِذْنًا نُكْرِمُكَ.

(sababini bildirish uchun): ف – tufayli, sababli;

Senda ichishga biror (xil) sharbat bormi? هَلْ عِنْدَكَ عَصِيرٌ مَّا فَاشْرَبَهُ؟

(kelajakda aslo amalga oshmaydigan inkor ma'noni لَنْ – hech qachon; aslo ifodalovchi) yuklamasi va

–hech qachon ravishlari bilan uning ma'nosini فَطُ –aslo; أَصْلًا–hech qachon; أَبَدًا kuchaytiriladi:

Unga hech qachon gapirmayman! لَنْ أَكَلِمَ لَهُ أَبَدًا!

qo'shma yuklamalari ham va لِكَيْ; لِأَنَّ Bu yuklamalarning hosilalari bo'lmish ularning inkor ko'rinishlari bo'lmish:

- لَا(أَنْ+لَا) ، لَا(أَنْ+لَا) ، كَيْلَا(كَيْ+لَا) ، لِكَيْلَا(لَيْ+كَيْ+لَا)

kabi inkor yuklamalari (...maslik uchun ma'nosini ifodalaydi) ham o'zidan keyin kelayotgan fe'lni istak maylida kelishini talab qiladi. Masalan:

Senga uning jahlini chiqarmasligingni maslahat beraman. أَنْصَحُكَ أَلَّا تُزْعِمَهُ.

- ...siz; ...masdan" ravish دُونَ–keyin", "بَعْدَ–avval;...gacha", "قَبْلَ" yuklamasi "أَنْ" ko'makchilaridan keyin kelib ham o'zidan keyin kelayotgan fe'lni istak maylida kelishini talab qiladi (bunda fe'l o'tgan zamon shaklida bo'lishi ham mumkin):

Menga gapirguningcha nima demoqchiligingni tushundim.

فَهَمْتُكَ قَبْلَ أَنْ تَقُولَ لِي.

Mavzuni tushunmasdan turib hech narsa dema!

لَا تَقُلْ شَيْئًا دُونَ أَنْ تَفْهَمَ الْمَوْضُوعَ.

U uyga kattalar kirgandan keyin kirdi.

دَخَلَ الْبَيْتَ بَعْدَ أَنْ دَخَلَهُ الْكِبَارُ.

MODAL SO'ZLAR

Istak mayli shakli so'zlovchi taxmin qilayotgan, xohlayotgan, gumon qilayotgan, ishonayotgan, tilak qilayotgan, man etayotgan, zarur yoki lozim

hisoblayotgan kabi modal mazmunlarni ifodalaydi. Bunday mazmun fe'l, ot, old ko'makchi kabi modal so'zlar bilan ifodalanadi.

Arab tilida modal fe'l ikki xil ko'rinishda bo'ladi:

1. Gapda bir xil o'zgarimas shaklda ishtirok etuvchi;
2. Gapning shaxs-soniga qarab turli shaklda tuslanuvchi.

quyidagi fe'l shakllari bir xil o'zgarimas shaklda ishtirok etadilar (qavs ichida ularning inkor shakli berildi):

joiz (joiz emas)	يَجُوزُ (لَا يَجُوزُ) ل ... أَنْ
kerak (kerak emas)	يَجِبُ (لَا يَجِبُ) = يَنْبَغِي (لَا يَنْبَغِي) عَلَى .. أَنْ
talab qilinadi (talab qilinmaydi)	يُطَلَّبُ (لَا يُطَلَّبُ) مِنْ ... أَنْ
mumkin (mumkin emas)	يُمْكِنُ (لَا يُمْكِنُ) ل ... أَنْ
so'raladi (so'ralmaydi)	يُرْجَى (لَا يُرْجَى) مِنْ ... أَنْ

Ular gapda doim shu bir xil shaklda ishtirok etadi. Biror zamonni esa yordamchi fe'li orqali ifodalaydi. qaysi shaxsga ishora qilishini esa uning qoshidagi كان ko'makchiga birikib kelgan birikma olmoshi ko'rsatadi:

Bugun siz universitetga borishingiz kerak.	يَجِبُ عَلَيْكُمْ أَنْ تَذْهَبُوا إِلَى الْجَامِعَةِ الْيَوْمَ.
<u>U kecha universitetga borishi kerak edi.</u>	كَانَ يَجِبُ عَلَيْهِ أَنْ يَذْهَبَ إِلَى الْجَامِعَةِ أَمْسَ.

fe'lini tuslash jadvali : يُمَكِّنُ

ko'plik	ikkilik	birlik	son, jins	shaxs
يُمْكِنُنَا	----	يُمْكِنُنِي	muzakkar muannas	I sh
يُمْكِنُكُمْ	يُمْكِنُكُمَا	يُمْكِنُكَ	muzakkar muannas	II sh
يُمْكِنُنَّ	يُمْكِنُكُمَا	يُمْكِنُكَ	Muzakkar muannas	III sh
يُمْكِنُهُمْ	يُمْكِنُهُمَا	يُمْكِنُهُ	Muzakkar muannas	III sh
يُمْكِنُهُنَّ	يُمْكِنُهُمَا	يُمْكِنُهَا		

يُنْبَغِي

fe'lini tushlash jadvali:

ko'plik	ikkilik	birlik	son, jins	shaxs
يُنْبَغِي عَلَيْنَا	-----	يُنْبَغِي عَلَيَّ	muzakkar muannas	I sh
يُنْبَغِي عَلَيْكُمْ	يُنْبَغِي عَلَيْكُمَا	يُنْبَغِي عَلَيْكَ	muzakkar	II sh
يُنْبَغِي عَلَيْكُمْ	يُنْبَغِي عَلَيْكُمَا	يُنْبَغِي عَلَيْكَ	muannas	
يُنْبَغِي عَلَيْهِمْ	يُنْبَغِي عَلَيْهِمَا	يُنْبَغِي عَلَيْهِ	muzakkar	III sh
يُنْبَغِي عَلَيْهِمْ	يُنْبَغِي عَلَيْهِمَا	يُنْبَغِي عَلَيْهَا	muannas	

Goho bu ma'nolarni ularning yolg'iz ko'makchilari ham ifodalashi mumkin ko'makchilari): *يُوكِي* (asosan)

Biz ilm olishimiz kerak.

عَلَيْنَا أَنْ نَتَعَلَّمَ.

Siz bu yerda o'tirishingiz kerak.

عَلَيْكُمْ أَنْ تَجْلِسُوا هُنَا.

O'zgaruvchan modal fe'llarga esa turli hissiyotlarni ifoda-lovchi fe'llar kiradi. Istak maylidagi fe'l esa o'sha fe'lning ikkinchi bo'lagi bo'lib keladi. Ularning ichida – o'ylamoq”, “sevmoq – ظَنُّ”, “uddalamoq; qo'lidan kelmoq”, “xohlamoq – اسْتَطَاعَ”, “eplamoq; qodir bo'lmoq” fe'llari ko'proq ishlatiladi. “intilmoq – عَى س- (i)”, “Modall fe'ldan ba'zisini o'tgan zamonda tushlash:

ko'plik	ikkilik	birlik	shaxs, son	
اسْتَطَعْنَا	أَرَدْنَا	-----	أَرَدْتُ	muzakkar I sh. muannas
اسْتَطَعْتُمْ	أَرَدْتُمْ	اسْتَطَعْتُمَا	أَرَدْتُمَا	muzakkar II sh. muannas
اسْتَطَعْتُمْ	أَرَدْتُمْ	اسْتَطَعْتُمَا	أَرَدْتُمَا	
اسْتَطَاعُوا	أَرَادُوا	اسْتَطَاعَا	أَرَادَا	

اِسْتَطَاعَ	أَرَادَ	اِسْتَطَاعْنَا	أَرَادْنَا	اِسْتَطَاعَتْ	أَرَادَتْ	muzakkar III sh. muannas
-------------	---------	----------------	------------	---------------	-----------	--------------------------------

Hozirgi-kelasi zamonda tushlash jadvali:

<i>ko'plik</i>		ikkilik		бирлик		<i>шахс, сон</i>
نَسْتَطِيعُ	نُرِيدُ	---	---	أَسْتَطِيعُ	أُرِيدُ	muzakkar I sh. muannas
نَسْتَطِيعُونَ	نُرِيدُونَ	نَسْتَطِيعَانِ	نُرِيدَانِ	نَسْتَطِيعُ	نُرِيدُ	muzakkar II sh.
نَسْتَطِيعَنْ	نُرِيدَنْ	نَسْتَطِيعَانِ	نُرِيدَانِ	نَسْتَطِيعِينَ	نُرِيدِينَ	muannas
يَسْتَطِيعُونَ	يُرِيدُونَ	يَسْتَطِيعَانِ	يُرِيدَانِ	يَسْتَطِيعُ	يُرِيدُ	muzakkar
يَسْتَطِيعَنْ	يُرِيدَنْ	يَسْتَطِيعَانِ	يُرِيدَانِ	يَسْتَطِيعُ	يُرِيدُ	III sh. muannas

Fe'l shaklida bo'lgan quyidagi so'zlar ham modaldir va ular ham o'zidan keyin istak maylidagi fe'lni talab qiladi:

zarurdirki...	لاِبَدًا أَنْ...	mumkindirki...	مِنْ اَلْمُمْكِنِ أَنْ..
man qilingan(dirki)...	مِنْ اَلْمَمْنُوعِ أَنْ..	muhimdirki...	مِنْ اَلْمُهْمِّمْ أَنْ..
ilojsizdirki...	مِنْ اَلْمُسْتَحِيلِ أَنْ..	ruxsatdirki...	مِنْ اَلْمُسْمُوحِ أَنْ..

Agar gap o'tgan zamonda ro'y bergan ish-harakat xususida bo'lsa, istak maylidagi fe'l modal yuklamalardan keyin o'tgan zamonda ham qo'yilishi mumkin:

Universitetni tugatganimdan so'ng

بَعْدَ أَنْ تَخَرَّجْتُ مِنْ اَلْجَامِعَةِ

Toshkentda ikki yil qoldim.

بَقَيْتُ فِي طَشْقَنْدَ سَنَتَيْنِ.

Mashq. (a) عَلِمَ, (a) سَمِعَ, (u) دَرَسَ, (a) فَهِمَ, (u) دَخَلَ fe'llarini:

a) birorta modal so'z va yuklamasi bilan tushlang;

b) fe'llarni inkor yuklamasi bilan tushlang;

MAQSAD VA NATIJA ERGASH GAP

Maqsad ergash gap bosh gapdagi ish-harakatning bajarilishidan ko‘zlangan maqsadni bildiradi va u bilan istak mayli yuklamalari vositasida birikadi. Masalan:

Ziyoratchilar kirishi uchun eshikni ochdi الرَّوَّازُ. فَتَحَ الْبَابَ لِيَدْخُلَ
Ushbu maqolani tarjima qilib berishingni أَطْلُبُ مِنْكَ أَنْ تُرْجِمَ لِي هَذَا
so‘rayman. الْمَقَالَ.

Natija ergash gaplar bosh gapdagi ish-harakatning natijasiga ishora qiladi. Arab tilida natija ergash gaplar bosh gapdagi ish-harakatda ifodalangan voqeaning xulosasini ko‘rsatadi va unga تَنْتَصِرَ عَلَى نَفْسِكَ ergashtiruvchi bog‘lovchisi vositasida ergashadi:

O‘z nafsing ustidan g‘alaba qila
oladigan darajada bo‘lguningcha كُنْ قَوِيَّ الْإِرَادَةِ حَتَّى
kuchli irodali bo‘l!
تَنْتَصِرَ عَلَى نَفْسِكَ!

81-mashq. Jummalarni o‘qing, yozing, tarjima va grammatik tahlil qiling.

اعملوا في شبابكم كي تحصلوا على الراحة في شيخوختكم. أريد أن أدرس في الجامعة الأدب والفلسفة. لن تعرف الحقيقة حتى تشاهد بنفسك. يجب أن تشتغل لكي تستريح. اشترت الفتيات الفساتين الجميلة ليلبسناها يوم العيد. يقرؤون بصوت عال ليفهموا الموضوع بدقة. ذهبن إلى الملعب ليشاهدن المباراة. لكي تتجح يجب عليك أن تعمل كثيرا. لن نتنازل عن حقنا. لا بد لنا أن نحفظ كثيرا من الكلمات وقواعد الصرف والنحو. أيها الطلاب والطالبات، يجب عليكم أن تُرْجِمُوا هذا النص إلى العربية شفاهيا. شرحتُ له الموضوع مفصلاً كي يفهمه جيدا. عليك أن تتعلم الكتابة والقراءة العربية خلال الشهر القادم. ليس في استطاعتنا أن نصمت أمام هذا الأمر! طلب المدير من الموظفين أن يشرحوا له تفاصيل الأعمال الأخيرة. نريد أن نسمع رأيك في ذلك الموضوع. هل تُفَضِّلُ أن تقرأ الأخبار في الصحف أم تسمعها في الإذاعة؟ لا يجوز أن تحفظوا النصوص بلا فهم بل يجب لكم أن تتحدثوا في الموضوع ولو بالخطايا. هل يمكن أن تفعل هذا الأمر هكذا؟ من المستحيل أن تتركوا هذا العمل. سازورك. إذا نكرمك!

كلمات:

afzal ko‘rmoq	فَضَّلَ (يُفَضِّلُ) II	meros; boylik	ثُرَاتٌ
(kiyim)bichish; tafsilot	تَفَصَّلَ (تَفَصِّلُ) III	batafsil	مُفَصَّلًا
ishtirok etmoq	اشْتَرَكَ VIII (يَشْتَرِكُ)	yubormoq	أَرْسَلَ IV (يُرْسِلُ)

82-mashq. Matnni yozing, o‘qing va tarjima qiling. Istak mayliga e’tibor bering. Matnga savollar tuzib, uni so‘zlab bering.

حوار بين الأصدقاء

اجتمع طلاب الكلية بالمقهى خلال الاستراحة وتحدثوا فيما بينهم حول قضايا مختلفة كالدراسة والجامعة والمستقبل فسألتهم ليلي: "ماذا تريدون أن تكونوا في المستقبل أيها الأصدقاء؟ أنا أريد أن أكون طبيبة في المستقبل- أساعد المرضى كي يشعرون بقيمة الصحة".
فقلت رُقيَّةُ وجمال الدين بصوت واحد: ونحن أيضا نريد أن نكون طبيبين. إن الطب مهنة نافعة وضرورية وهي مهنة إنسانية.
فقلت راضية: جميع المهن النافعة إنسانية. أمل أنا فأريد أن أكون أستاذة للغة الإنجليزية. أريد أن أعلم التلاميذ.
قالت نصيبة: "وأنا أيضا أحبّ التعليم وأريد أن أعمل في المدرسة". فقالت كماله: "وأنا أحب اللغة العربية وأريد أن أتعلمها جيدا في المستقبل". أما فريدة ونادية وسامي فإنهم فضلوا مهنة الترجمة وتكلمت نادية بإسمهم جميعا إذ قالت:
"أريد أن أكون مترجمة فأنا أحبّ اللغات كثيرا وسأتعلم لغات كثيرة في المستقبل ثم أنقل مختلف الكتب إلى لغتي القومية. إن الترجمة هي جسر الاتصال بين الثقافات والتقارب بين الشعوب وأرجو أن أكون مترجمة ناجحة".

كلمات:

quraman	سَابِنِي	yetuk	نَاجِحٌ
o‘zaro yaqinlik	تَقَارُبٌ	arabshunos	مُسْتَعْرَبٌ
tarqalgan	مُنْتَشِرٌ	mutaxassislikni	تَخَصَّصَ V
		egallamoq	
sivilizatsiya	حَضَارَةٌ	ekskursovod	مُرْتَبِدٌ سِيَّاحِيٌّ
omadli	ناجحة	qahvahona	مقهى
xoxishini bildirdi	أَبَدَتْ	qo‘llab-	أَيْدٍ (بِوَيْدٍ) II
	رَغَبَتَهَا	quvvatlamoq	

YIGIRMA TO‘QQIZHINCHI DARS

EGAGA TA’SIR QILUVCHI YUKLAMALAR

Arab tilidagi “إِنَّ” va unga o‘xshash yuklamalar“ deb ataladigan 6 yuklama gapda eganing tushum kelishigida kelishini talab qiladi. Ularning ichida eng ko‘p ishlatiladigani: “إِنَّ”- albatta: haqiqatda; chindan ham – yuklamasi bo‘lib u faqat gapning boshida keladi:

إِنَّ الْبُخْلَ عَيْبٌ لِلْإِنْسَانِ الْعَاقِلِ. .
Haqiqatda baxillik aqlli inson uchun aybdir.

Ma'noni kuchaytirish uchun gapning ikkinchi qismi oldida (u ega ham kesim ham bo'lishi mumkin) “لَنْ” ta'kid yuklamasi keladi:

Albatta baxillik aqlli inson uchun aybdir. (bu yerda- kesim oldida) إِنَّ النَّجْلَ لَعَيْبٌ لِلْإِنْسَانِ الْعَاقِلِ.
Albatta uning ishlarida ko'rgan kishi bir ibrat bor. (ega oldida) إِنَّ فِي أَعْمَالِهِ لَعِبْرَةٌ لِمَنْ يَرَى.

Kesimi old ko'makchi bilan kelgan ismiy gaplarda ega bevosita bu yuklamadan keyin kelmasligi ham mumkin:

(Haqiqatda) Shahar chetida (bir) uyim bor. إِنَّ لِي بَيْتًا فِي ضَاحِيَةِ الْمَدِينَةِ.

Fe'liy gaplarda إِنَّ bilan kelgan ega albatta fe'l-kesimdan oldin keladi:

Bolalar haqiqatda hovlida o'ynashayпти. إِنَّ الْأَطْفَالَ يَلْعَبُونَ فِي الدَّارِ.
(yoki: Bolalar hovlida o'ynashayпти)

إِنَّ yuklamasiga ma'yuklamasi qo'shib shaklida kelsa uning egaga ta'siri yo'qoladi va kuchaytirilgan shakldagi ta'kidlashni ifodalab ko'pincha «Haqiqatda har qanday . . .» deb tarjima qilinadi. Masalan:

Haqiqatda har qanday إِنَّمَا الْأَعْمَالُ بِالنِّيَّاتِ ..
ish(lar) niyatga bog'liq...

Bu qo'shma yuklama fe'lning oldiga ham qo'yilishi mumkin.

2) “أَنَّ” ...ki;...cha;...ni yuklamasi ergashtiruvchi-bog'lovchi vazifasida kelib, to'ldiruvchi ergash gapni yoki مِنَ الْمَعْلُومِ ، مِنَ الْمَعْرُوفِ ، مِنَ الْأَكِيدِ shubhasizki , ma'lumki kabi so'zlar bilan boshlanadigan shaxsi noma'lum gapni bosh gapga bog'lash vazifasini bajaradi:

Eshitdimki, Usmon mashhur olim bo'libdi. أَصْبَحَ عَالِمًا مَشْهُورًا. سَمِعْتُ أَنَّ عُثْمَانَ
Ma'lumki, arab tili islom dini tili. مِنَ الْمَعْلُومِ أَنَّ اللُّغَةَ الْعَرَبِيَّةَ لَعَةُ الدِّينِ الْإِسْلَامِيِّ.

3) كَأَنَّ xuddi; go'yo; kabi; o'xshaydi yuklamasi kimgadir yoki nimagadir o'xshatishni ifoda etadi.

Bu it bo'riga o'xshaydi. كَأَنَّ هَذَا الْكَلْبَ ذُنْبٌ.

4) “لَكِنَّ” ammo; lekin. Bu yuklama ma'noni to'ldirish, to'g'rilash va zidlash uchun ishlatiladi.

Uy kichkina, biroq joyi chiroyli (ekan). الْمَنْزَلُ صَغِيرٌ وَلَكِنَّ مَوْقِعَهُ جَمِيلٌ.

5) “لَعَلَّ”- balki: shoyad: ehtimol. Bu yuklama gumonni, amalga oshishi yoki oshmasligi noma'lum bo'lgan tilakni ifoda etadi:

Ehtimol, g'alaba yaqindir. لَعَلَّ النَّصْرَ قَرِيبٌ.

6) “لَيْتَ”–qani edi; koshki edi. Bu yuklama orzu-tilakni ifoda etadi:

qani edi ilmsizlar (ham) ilimli bo‘lsa! لَيْتَ الْجُهْلَاءَ عَالِمُونَ!

Ushbu yuklamalardan keyin kelgan kishilik olmoshlari bilan ifodalangan ega ularga birikma olmosh shaklida (I shaxs يbirikma olmoshi يshaklida) birikib keladi:

Sen qahramon kabidirsan.	(كَأَنَّ+أَنْتَ) كَأَنَّكَ بَطْلٌ.
U nodondir.	(إِنَّ+هُوَ) إِنَّهُ لَجَاهِلٌ.
Men bor (kelgan)man.	(إِنَّ+أَنَا) إِنِّي لَحَاضِرٌ.

“لِأَنَّ”- “chunki” bog‘lovchisi bosh gapda sodir bo‘lgan hodisaning sababiga ishora qiladi. U odatda sabab ergash gaplarda keladi:

Tayyoraning qo‘nishi kechikdi, chunki ob-havo yomon edi.	تَأَخَّرَ هُبُوطُ الطَّائِرَةِ لِأَنَّ الطَّقْسَ كَانَ سَيِّئًا.
Bugun Ahmad kelmadi, chunki u kasal.	مَا جَاءَ الْيَوْمَ أَحْمَدُ لِأَنَّهُ مَرِيضٌ.

83-mashq. Matnni o‘qing, o‘zbek tiliga tajima qiling.

Lays al-g‘aniyu an kasrat il arzi **innamal-g‘**aniyu nafsi.

Boy emas ulki, mol kasratidin

Ko‘rmagay foqau talab ranjin.

Oni bilkim, Xudoy bermish anga

Nafsi ammora tarkini ganjin.

(“Arba’in”)

Va lekin xalq aro bu bo‘ldi dastur,

Ki bo‘lg‘ay onda boniy ismi mastur.

(“Badoyi’ ul-bidoya”)

“لَا” MUTLAQ INKOR YUKLAMASI

“ لَا ” – yo‘q inkor yuklamasi biror narsaning butunlay yo‘qligini bildirish uchun ishlatiladi va mutlaq inkor yuklamasi deb ataladi. Bunda “ لَا ” dan keyin kelayotgan so‘z tushum kelishigida va noaniq holatda tanvinsiz keladi:

Menda hech bir javob yo‘q. لَا جَوَابَ عِنْدِي. U bilan hech kim yo‘q. لَا أَحَدَ مَعَهَا.

84-mashq. Yozing, o‘qing. Jummalarni tarjima va grammatik tahlil qiling.

إعلم أن الإنسان مسؤول عن عمله. لا سرور دائماً في الحياة. كأن الجهل موت. أشار إلى أن وقت الامتحان قصير والأسئلة صعبة. فهمت منه أن قضيته معقدة. أنت شجاع، كأنك أسد. فهمت من حديثك أن السفر قد تأجل لعدة أيام. علمت من المقال أن الكاتب المشهور عبد الرؤوف فطرة مؤلف لعدد كبير من الكتب الأدبية والنقدية والتاريخية. قراءة هذه الرسالة صعبة لأن خطها رديء. كأن الكتاب أستاذ. كأن الإخوة الكبار آباء. إن صعوباته كثيرة لكن إرادته قوية. لكن هذا الرجل جاهل. السيارة قديمة لكن المحرك في حالة جيدة. إلا أحد معكم؟ لعل ابني ذكي وعاقل. لعل الجو يعتدل اليوم. ليت الطفولة تعود! ليتهم علماء وأغنياء! لا أحب الحيوانات ولا سيما الكلب. ليت العالمين صالحون. فهمت منه أن قضيته ليست بسيطة. يعتقد الجميع أن ابنك شاب لطيف.

كلمات:

yaxshi ish qiluvchi; solih	صَالِحٌ (صَالِحُونَ)	eng katta	أكْبَرُ
muammo; mushkullik	قَضِيَّةٌ (قَضَايَا)	baxtli	سَعِيدٌ (سَعْدَاءُ)
kechiktirildi	تَأَجَّلَ (يَتَأَجَّلُ) V	shubhasizki	لَا شَكَّ أَنْ...
yozuV	حَطَّ (حُطُوطٌ)	ko'hna	عَرِيقٌ
past	مُنْخَفِضٌ	ayniqsa	لَا سِيَّمَا
qo'rqoqlik; qo'rqoq	جَبَانٌ (جُبْنَاةٌ)	qo'rqmas , botir	شُجَاعٌ (شُجْعَانٌ)
aziz; kuchli	عَزِيزٌ (أَعْرَاءُ)	foydali	مُفِيدٌ
chigal	مُعَقَّدٌ	..ga ishora qildi	أَشَارَ IV إِلَى (يُسِيرُ)
tanqidiy	نُقْدِيٌّ	haqiqatda	حَقًّا
motor	مُحَرِّكٌ	eslamog; o'qimoq	(يَذْكُرُ)
fan; san'at	(فَنُّونٌ)	narx	سِعْرٌ (أَسْعَارٌ)
kechikkan	مُتَأَخَّرٌ (-ُونَ)	kema	سَفِينَةٌ (سُفُنٌ)

TO'LDIRUVCHI ERGASH GAP

Bosh gapning to'ldiruvchisi vazifasida kelayotgan butun bir sodda gap shaklidagi to'ldiruvchiga to'ldiruvchi ergash gap deyiladi. To'ldiruvchi ergash gap bosh gapdan keyin keladi va bosh gapga asosan **كَيْفَ** va **أَمْ** kabi bog'lovchilar vositasida bog'lanadi:

Bu kishining O'zbekiston qahramoni ekanligini bildim. عَلِمْتُ أَنَّ هَذَا الرَّجُلَ بَطْلٌ أُوزْبِكِسْتَانٍ.
 U ovqat pishirishni tez o'rganib oldi. قَدْ تَعَلَّمْتُ كَيْفَ تَطْبُخُ الطَّعَامَ سَرِيعًا.

قال fe'li o'zidan keyin إن yuklamasini talab qiladi:

U sen buyurgan ishni qilishni aytdi. قَالَ إِنَّهُ سَيَفْعَلُ مَا تَأْمُرُ.

85-mashq. Matnni yozing, o'qing, tarjima va grammatik tahlil qiling. Matnga savollar tuzing va uni so'zlab bering.

مدينتنا طشقند

طشقند عاصمة وطني أوزبكستان. وهي مركز سياسي وصناعي وثقافي لجمهورية أوزبكستان وتقع على الوادي الأوسط لنهر "تَشِيرْتَشِيْق". تاريخ طشقند قديم فكان اسمها في القديم "شاش"، ثم "بينكنت" وسميت أخيراً طشقند. وبها بعض الآثار القديمة مثل مدرسة "كوكالداش" ومدرسة "باراقخان" و"المسجد الجامع" وضرائح "قفال الشاشي" و"الشيخ زين الدين" و"الشيخ خاوند طهور" و"يونس خان" وبنيت هذه الآثار التاريخية في العصرين الخامس عشر والسادس عشر وتم تجديدها من قبل المواطنين الأوزبك المقيمين في أوزبكستان وفي البلدان الخارجية.

كلمات:

maqbara	ضَرِيْحٌ (ضَرَائِحُ)	ataldi	II سُمِّيَ (سُمِّيَتْ)
vatandosh	مُؤَاطِنٌ (ون)	kengaydi	VIII أَتَّسَعَ (بِتَّسَع)
sevimli	مُحَبَّبٌ	supermarket	سُوقٌ مُجَمَّعَةٌ
o'zgarmaq	V تَغَيَّرَ	magazin; do'kon	مَحَلٌّ تِجَارِيٌّ
yagona	وَحي K فَرِيدٌ	hunar bilim yurti	النَّائِبَةُ الصَّنَاعِيَّةُ
u(muz.) yangilandi	تَمَّ تَجْدِيدُهُ	qurildi	بُنِيَ (بُنِيََتْ)
vosita	وَسِيْلَةٌ (وَسَائِلُ)	yashovchi	مُقِيمٌ
mavze; tuman	حَيٌّ (أَحْيَاءُ)	saylgoh	مُنْتَزَهَةٌ (بَاتُ)
chuqur	عَمِيقٌ	unga tilayman	أَرْجُو لَهُ (لَهَا)
paydo bo'ldi	ظَهَرَ (a)	bino	مَبْنَى (مَبَانٍ)
(yashash uchun) turar- jo	سَكْنِيٌّ	tug'ruqxonalar	دُورُ الْوِلَادَةِ

transport tarmoqlari	شبكة المواصلات	bog'cha	رَوْضَة (رياض)
-------------------------	-------------------	---------	-------------------

O'TTIZINCH DARS

Mavzu: II BOB FE'LI

II bob fe'lining لَقَّبَ «laqablamoq» fe'lidan hosil qilingan fe'liy va ismiy shakllari:

buyruq mayli			masdar	majhul nisbat		aniq nisbat	
	majhul	aniq		h.-k. zamon	o'tgan zamon	h.-k. zamon	o'tgan zamon
	فَعَّلَ	مَفَعَّلَ	تَفَعَّلَ	يُفَعِّلُ	فَعَّلَ	يُفَعِّلُ	فَعَّلَ
	لَقَّبَ	مَلَقَّبَ	تَلَقَّبَ	يُلَقِّبُ	لَقَّبَ	يُلَقِّبُ	لَقَّبَ

IZOH: II bob fe'lining masdari asosan تَفَعَّلَ qolipida, goh-gohida فَعَّلَ qolipida hosil qilinadi.

II bob fe'lini o'tgan va hozirgi-kelasi zamonlarda tushlash:

hozirgi-kelasi zamon			o'tgan zamon			shaxs, son
ko'plik	ikkilik	birlik	ko'plik	ikkilik	birlik	
نَلَقَّبُ	----	أَلَقَّبُ	لَقَّبْنَا	----	لَقَّبْتُ	muz. I sh. muan.
نُلَقِّبُونَ	نُلَقِّبَانِ	نُلَقِّبُ	لَقَّبْتُمْ	لَقَّبْتُمَا	لَقَّبْتِ	muz. II sh. muan.
يُلَقِّبُونَ	يُلَقِّبَانِ	يُلَقِّبُ	لَقَّبُوا	لَقَّبَا	لَقَّبَ	muz. III sh. muan.
يُلَقِّبَنَ	يُلَقِّبَانِ	نُلَقِّبُ	لَقَّبْنَا	لَقَّبْنَا	لَقَّبْتُ	

II bob fe'lining quyidagi ma'nolari bor:

1. Ish-harakatni birovga qildirish- kuzativlik ma'nosi. Bunda o'timsiz fe'l o'timli, o'timli fe'l esa o'ta o'timli (ya'ni ikkita to'ldiruvchini boshqarib keladigan) fe'lga aylanadi:

U yozishni bildi.

I عَلَّمَ الْكِتَابَةَ

U o'quvchiga yozishni o'rgatdi.

II. عَلَّمَ التِّلْمِيذَ الْكِتَابَةَ

2. Ish-harakatni kuchaytiradi:

maydalab tashlamoq	II قَطَعَ (يَقْطَعُ) تَقْطِيعٌ	bo'lmoq, kesmoq	I قَطَعَ
vayron qilmoq	II حَطَّمَ (يُحْطِّمُ) تَحْطِيمٌ	buzmoq	I حَطَّمَ

3. Ismning ma'nosini fe'llashtiradi - ismni fe'lga aylantiradi:

arablashtirmoq	II عَرَّبَ (يُعَرِّبُ) تَعْرِيبٌ	arab	عَرَبِيٌّ
yog'och qilib chiqmoq	II حَشَبَ (يُحْشِبُ) تَحْشِيبٌ	yog'och	حَشَبٌ
devor bilan o'rab chiqmoq	II سَوَّرَ (يُسَوِّرُ) تَسْوِيرٌ	devor	سُورٌ

4. "..deb bilmoq", e'lon qilmoq ma'nolarini bildiradi:

rost deb bilmoq; ishonmoq	II صَدَّقَ (يُصَدِّقُ) تَصَدِيقٌ	rost so'zlamog	I صَدَقَ
yolg'on deb bilmoq; rad qilmoq	II كَذَّبَ (يُكْذِبُ) تَكْذِيبٌ	yolg'on so'zlamog	I كَذَّبَ

II bob fe'lining mayllari biz yuqorida tanishib o'tgan (I bob fe'lga oid bo'lgan) qoidalar asosida hosil qilinadi.

86 - mashq. بلغ , علم , نظف , رتب , نظم fe'l o'zaklarining II bobini hosil qilib, o'tgan va hozirgi-kelasi zamonda tustlang. Ularning masdar, sifatdosh va buyruq mayllarini hosil qiling. Tarjimasini bering. Keyin ular ishtirokida 5 ta gap tuzing.

87- mashq. Ikkinchi bob sifatdoshlari qolipida yasalgan so'zlarni toping.

...va mutahhar mozorlari Nishopurdadur va muxlis niyozmantlaridan ba'zi muravvah imorat yasabdur.

(“Nasoyim ul muxabbart”)

Injuni olsalar mufarrih uchun,

Ming bo'lur bir diramga bir misqol.

(“Muhokamat ul-lug'atayn”)

O'ng iligida bir safina, lekin bu xasta ash'oridin muhallo,

So'ng ilgida shisha ichra may, lek la'lidek muravvaq.

(“Navodir un-nihoya”)

V BOB FE'LI

V bob fe'lining فَتَحَ «ochilmoq» fe'lidan hosil qilingan fe'liy va ismiy shakllari:

buyruqmayli			masdar	majhul nisbat		aniqnisbat	
	majhul	aniq		h.-k. zamon	o'tgan zamon	h.-k. zamon	o'tgan zamon
	تَفَعَّلَ	تَفَعَّلَ	تَفَعَّلَ	يَتَفَعَّلُ	تَفَعَّلَ	يَتَفَعَّلُ	تَفَعَّلَ
	تَفَاتَحَ	تَفَاتَحَ	تَفَاتَحَ	يَتَفَاتَحُ	تَفَاتَحَ	يَتَفَاتَحُ	تَفَاتَحَ

V bob fe'lini o'tgan va hozirgi-kelasi zamonlarda tustlash:

hozirgi-kelasi zamon			o'tgan zamon			shaxs, son, jins
ko'plik	ikkilik	birlik	ko'plik	ikkilik	birlik	

تَفَتَّحْتُ	----	أَتَفَتَّحْتُ	تَفَتَّحْنَا	----		muz. I sh. muan.
تَفَتَّحْتَ	تَفَتَّحْنَا	تَفَتَّحُوا	تَفَتَّحْتُمْ	تَفَتَّحْتُمَا	تَفَتَّحْتِ	

gaplashmoq V تَكَلَّمَ (يَتَكَلَّمُ) تَكَلَّمَ gapirmoq muz. II كَلَّمَ
o‘rganmoq V تَعَلَّمَ (يَتَعَلَّمُ) تَعَلَّمَ o‘rgatmoq muz. III عَلَّمَ

تَفَتَّحْتَنِي	تَفَتَّحَانِي	تَفَتَّحِينِي	تَفَتَّحُنِي	تَفَتَّحْتُمَا	تَفَتَّحْتِ	
يَفَتَّحُونِي	يَفَتَّحَانِي	يَفَتَّحُونِي	يَفَتَّحُوا	يَفَتَّحَا	يَفَتَّحْ	muz. III sh. muan.
يَفَتَّحَنَّ	يَفَتَّحَانِ	يَفَتَّحُونِ	يَفَتَّحُنْ	يَفَتَّحَا	يَفَتَّحْتِ	

V bob fe’lining quyidagi ma’nolari bor:

1. V bob fe’li II bob fe’li oldiga qo‘shimchasini qo‘shib yasalgani uchun bu bob fe’li ifodalagan ma’noni o‘zlik ma’noda ifodalaydi:

2. V bob fe’li I bob fe’li ifodalagan ma’noni o‘zida mujassamlashtirish yoki unga o‘xshashga urinish ma’nosini ifodalaydi:

o‘zini katta tutmoq V تَكَبَّرَ (يَتَكَبَّرُ) تَكَبَّرَ katta bo‘lmoq كَبُرَ
chiroyli bo‘lishga intilmoq V تَجَمَّلَ (يَتَجَمَّلُ) تَجَمَّلَ chiroyli bo‘lmoq جَمَّلَ

88-mashq. علم , شكر , حكم , وضاً , قدم o‘zaklaridan V bob fe’lini hosil qilib, o‘tgan va hozirgi-kelasi zamonda tuslang. Ularning masdar, sifatdosh va buyruq mayllarini hosil qiling. Tarjimasini bering. Keyin ular ishtirokida 5 ta gap tuzing.

89- mashq. Beshinchi bob sifatdoshi qolipida yasalgan so‘zni toping. Matnni arab alifbosida yozing.

“Ba’zi debdurlarkim, bu jihatdin har lug’at ahli bir mulkka mutafarriq bo‘ldilar.”

(“Tarixi anbiyo va hukamo”)

“Har jamoat alfozi o‘zgaridindin va har guruh iborati yonalaridindin mutag’ayyir va bir necha xususiyat bila mutamayyizdurki, o‘zgalarda yo‘qtur.”

(“Muhokamat ul-lug’atayn”)

Agar yuzdin, balki mingdin biri bu tilni o‘rganib so‘zki aytsa ham, har kishi eshitsu bilur va aning sort ekanin fahm qilur va ul mutakallim o‘z tili bila o‘z rasvolig’ig’a o‘zi iqror qilg’ondekdur.

(“Muhokamat ul-lug’atayn”)

O‘TTIZ BIRINCHI DARS

IV BOB FE’LI

IV bob fe’lining barcha shakllarining boshida kelgan hamza qat’iy (o‘qiladigan) hamzadir. U vasl qilinmaydi.

IV bob fe’lining أَكْرَمَ -« e’zozlamoq» fe’lidan
hosil qilingan fe’liy va ismiy shakllari:

buyruq		masdar	majhul nisbat	aniqnisbat
--------	--	--------	---------------	------------

mayli	majhul	aniq		h.-k. zamon	o'tgan zamon	h.-k. zamon	o'tgan zamon
	أَفْعَلٌ	مُفْعَلٌ	إِفْعَالٌ	يُفْعَلُ	أَفْعَلٌ	يُفْعَلُ	أَفْعَلٌ
	أَكْرَمٌ	مُكْرَمٌ	إِكْرَامٌ	يُكْرَمُ	أَكْرَمٌ	يُكْرَمُ	أَكْرَمٌ

IV bob fe'lini o'tgan va hozirgi-kelasi zamonlarda tuslash:

hozirgi-kelasi zamon			o'tgan zamon			shaxs, jins
ko'plik	ikkilik	birlik	ko'plik	ikkilik	birlik	
نُكْرِمُونَ	----	أَكْرَمٌ	أَكْرَمْنَا	----	أَكْرَمْتُ	muz. I sh. muan.
نُكْرِمُونَ نُكْرِمَنَّ	نُكْرِمَانِ نُكْرِمَانِ	نُكْرِمٌ نُكْرِمِينَ	أَكْرَمْنُمُ أَكْرَمْتُنَّ	أَكْرَمْتُمَا أَكْرَمْتُمَا	أَكْرَمْتِ أَكْرَمْتِ	muz. II sh. muan.
يُكْرِمُونَ يُكْرِمَنَّ	يُكْرِمَانِ نُكْرِمَانِ	يُكْرِمٌ نُكْرِمٌ	أَكْرَمُوا أَكْرَمْنَا	أَكْرَمَا أَكْرَمْنَا	أَكْرَمَ أَكْرَمْتِ	muz. III sh. muan.

IV bob fe'lining quyidagi ma'nolari bor:

1. II bob fe'lidagi kabi o'timsiz fe'lni o'timli fe'lga, o'timli fe'lni esa o'ta o'timli fe'lga aylantirib, qisqa muddatli ish-harakatni bildirib keladi:

bildirmoq IV عَلَّمَ (يُعَلِّمُ) إِعْلَامٌ o'rgatmoq II عَلَّمَ I عَلِمَ

tushuncha
bermoq IV أَفْهَمَ (يُفْهِمُ) إِفْهَامٌ tushuntirmoq
q II أَفْهَمَ I فَهَمَ

2. Ismning ma'nosini bildirgan tarafga qarab yo'l olish ma'nosini bildiradi:
dengizga yo'l olmoq IV أَبْحَرَ (يُبْحِرُ) إِبْحَارٌ dengiz بَحْرٌ

3. Ushbu bobdagi ba'zi fe'llar o'timsizligicha qoladi:

meva qilmoq IV أَثْمَرَ (يُثْمِرُ) إِثْمَارٌ meva ثَمْرٌ

90-mashq. علم, غلق, رسل, غلق, علم fe'l- o'zaklarning IV bobini hosil qilib, o'tgan va hozirgi-kelasi zamonda tuslang. Ularning masdar, sifatdosh va buyruq mayllarini hosil qiling. Tarjimasini bering. Keyin ular ishtirokida 5 ta gap tuzing.

91-mashq. Matnni arab yozuvhida yozing.

Alar lafzg'a bir harf ortturg'on bila munga o'xshash bir zamirni ortubdurlar, bag'oyat muxtasar va **mufid** tushubdur. Andoqki, yugurt va qildurt va yashurt va chiqart.

(“Muhokamat ul-lug'atayn”)

Muflis¹ bo'lmoq tarab zavoli bo'lg'ay

G'amgindurur ulki, ilgi xoli bo'lg'ay.

(“Nazm ul-javohir”)

“Alar kichik yoshlig' ekanda ham alardin **mufrit**² fahmu tab' osori zohir bo'lur ermish.”

(“Xamsat ul-mutahayyirin”)

MUTLAQ MASDAR – KUCHAYTIRUVCHI TO'LDIRUVCHI

Fe'ning ma'nosini ta'kidlash yoki uning turining yoki sonining bayonini bildirish uchun boshqacha aytganda bajarilayotgan ish-harakat yoki holatning mazmunini yanada yaqqol ifodalash uchun ayni shu fe'l bobidan yasalgan harakat nomi – masdarni gapning oxirida noaniqholatda, tushum kelishigida qo'yiladi. U izofa shaklida bo'lishi yoki uning ketidan moslashgan aniqlovchisi kelishi mumkin:

Darsni yaxshi tushundim. .

Aqlsiz odamlarning ishini qilma!

(Aqlsiz odamdek ish qilma!)

Butun kuch-quvvat bilan tirish!

Soat ikki marta jiringladi.

فَهَمْتُ الدَّرْسَ فَهَمًّا

لَا تَعْمَلْ عَمَلِ السُّفَهَاءِ!

اجْتَهِدْ كُلَّ الْاجْتِهَادِ.

دَقَّتِ السَّاعَةُ مَرَّتَيْنِ.

Kuchaytiruvchi to'ldiruvchi o'rniga uning sinonimi ham keladi:

Kishi ko'p hursand bo'ldi.

فَرِحَ الرَّجُلُ جَزَلًا.

غَيْرٌ SO'ZI HAQIDA

“غَيْرٌ”so'zi birikma olmoshi bilan kelganida kimnidir yoki nimanidir «...dan boshqa» deb istisno qilib sanab o'tish uchun ishlatiladi. Bu yerda غَيْرٌ ga bog'lanib

¹ Muflis-kambag'al, nochor

² Mufrit-xaddan oshgan, chegaradan chiqqan

kelayotgan so‘z qaysi jins va sonda bo‘lsa, birikma olmoshi ham o‘sha jins va sonda bo‘ladi va ushbu so‘z qaysi kelishikda bo‘lsa, غَيْرُ ham o‘sha kelishikda bo‘ladi:

Bu yerda xonadon egasi va boshqalar bor.

Ko‘chada Mahmud, Salim va boshqalarni uchratdim.

U ishchilar va boshqalar bilan o‘tirgan edi.

هَذَا صَاحِبُ الْمَنْزِلِ وَغَيْرُهُ.

لَقِيتُ فِي الشَّارِعِ مَحْمُودًا وَسَالِمًا وَغَيْرَهُمَا.

كَانَ هُوَ جَالِسًا مَعَ الْعَمَّالِ وَغَيْرِهِمْ.

Shu kabi biror shaxs yoki narsalarni sanab o‘tilayotganda birikma olmosh bilan kelgan غَيْرُ so‘zidan keyin o‘sha sanab o‘tilayotgan so‘zlar tegishli bo‘lgan guruh مِنْ old ko‘makchisi bilan ko‘plik sonda ham kelishi mumkin:

دَخَلَ أَنُورٌ وَسَالِمٌ وَأَحْمَدُ وَغَيْرُهُمْ مِنَ الْخُدَّامِ.

Anvar, Salim, Ahmad va boshqa xizmatchilar kirdilar.

كلمات:

xona; hujra	أَثْرُ كُجْرَةٍ (ath ko‘pl.)	muqaddas joy	أَثْرٌ مُقَدَّسَةٌ (ath ko‘pl.)
kasb; ixtisos	إِخْتِصَاصٌ	kechiktirmoq	أَخَّرَ II
yo‘lga boshlamoq	أَرَشَدَ IV	ko‘rmoq; tushunmoq	أَبْصَرَ IV
sadaqa qilmoq	تَصَدَّقَ عَلَى... V	a’lo darajada bajarmoq	أَنْقَنَ IV
ziyosat qilmoq	تَرَدَّدَ عَلَى... V	oqmoq (masalan: suv)	تَدَفَّقَ V
qattiqxohlamoq; intilmoq	حَرَصَ (h)	ishonmoq; tasdiqlamoq	صَدَّقَ II

92-mashq. “G’ayri” so‘z ishtirokidagi g’azallarni arab alifbosida yozing.

Qadam urmayin g’ayri berohg’a

Ki, andin tushub bosh tuban chohg’a.

(“Saddi Iskandariy”)

Gar ish g’ayri mavqe’da mavjud erur,

Kishi har nekim qildi mardud erur.

(“Saddi Iskandariy”)

93-mashq. Matnni yozing, o‘qing. Jummalarni tarjima va grammatik tahlil qiling. Matnga savollar tuzing va uni so‘zlab bering.

فصول السنة

تتألف السنة من أربعة فصول وهي: الربيع والصيف والخريف والشتاء. ويتألف كل فصل من ثلاثة أشهر. ويبدأ فصل الربيع من شهر آذار. وهو أجمل فصول السنة. ففيه تذوب الثلوج وترتفع درجة الحرارة وترتدي الطبيعة ملابس خضراء وثورق الأشجار وتتفتح الأزهار. فهو شهر الأمطار والرعد والبرق. وأشهر فصل الربيع هي: آذار ونيسان وأيار. أما الصيف فهو أشد فصول السنة حرارة. وأشهر فصل الصيف هي: حزيران وتموز وأب. فيه تكون السماء صافية والطقس حاراً ويأخذ الناس عطلتهم السنوية، في الصيف يذهبون لزيارة المناطق المختلفة ويقومون بالرحلات السياحية ويقضون أيامهم في المصايف أو علي شواطئ البحار وضاف الأناهار.

أما الخريف ففيه تتضج الفواكه وفيه تفتح المدارس والجامعات أبوابها وتبدأ الدراسة وأشهر فصل الخريف هي: أيلول وتشرين الأول وتشرين الثاني. أما الشتاء فيشتهر بالبرودة وفيه تنزل الثلوج وتخفض درجة الحرارة وتنزل في بعض المناطق إلي درجات كثيرة تحت الصفر. وأشهر فصل الشتاء هي: كانون الأول وكانون الثاني وشباط. وفي بداية كانون الثاني يأخذ المتعلمون عطلة تسمى بـ "عطلة الشتاء" أو "عطلة نصف السنة" ويخرجون للنزهة ويقومون بالرحلات المختلفة.

كلمات:

meva	فَاكِهَةٌ (فَوَاكِه)	tashkil topmoq	V تَأَلَّفَ (يَتَأَلَّفُ)
chaqmoq	بَرَقَ (بُرُوق)	oy	شَهْرٌ (أَشْهُر)
sayr	نَزْهَةٌ	qor	تَلَجَّ (تَلُوج)
ko'tarilmoq	VIII اِرْتَفَعَ (يَرْتَفِعُ)	yozgi dam olish joyi	مَصِيفٌ (مَصَايِف)
boshlamoq	بَدَأَ (a)	momoqaldiraq	رَعَدٌ (رُعُودٌ)
mashhur bo'lmoq	VIII اِسْتَهَرَ (يَسْتَهَرُ)	(meva) pishmoq	I نَضِجَ (a)
pasaymoq	VIII اِنْخَفَضَ (يُنْخَفِضُ)	sovuqlik	بُرُودَةٌ
eriydi	يَدُوبُ (تَدُوبٌ) (muan.)	bajaradi; qiladi	يَقُومُ بِـ
o'tkazadilar	يَقْضُونَ	daryo bo'ylari	ضِفافِ الأَنْهَارِ

Arabcha oy nomlari:

mart	فَبرَال fevral	شَباطُ yanvar	كانون الثاني
iyun	حَزرانُ may	أَيارُ aprel	نيسان
sentabr	أَيلولُ avgust	أَبُ iyul	تموز
dekabr	كانون الأولُ noyabr	تَشْرينُ الثاني oktabr	تشرين الأول

O'TTIZ IKKINCHI DARS

III BOB FE'LI

III bob fe'lining «سَافَرَ»-safar qilmoq» fe'lidan
hosil qilingan fe'liy va ismiy shakllari:

buyruq mayli			Mas dar	majhul nisbat		aniq nisbat	
	majhu l	aniq		h.-k.. zamon	o'tgan zamon	h.-k.. zamon	o'tgan zamon
	فَاعِلٌ	مُفَاعَلٌ	مُفَاعَلَةٌ	يُفَاعَلُ	فُوِعِلَ	يُفَاعِلُ	فَاعِلٌ
	سَافِرٌ	مُسَافِرٌ	مُسَافِرَةٌ	يُسَافِرُ	سُوِفِرَ	يُسَافِرُ	سَافِرٌ

III bob fe'li masdari فَعَالٌ qolipida ham hosil qilinadi. Ba'zi III bob fe'llarning masdari har ikkala qolipda hosil qilinadi.

III bob fe'lini o'tgan va hozirgi-kelasi zamonlarda tushlash:

hozirgi-kelasi zamon			o'tgan zamon			shaxs, jins
ko'plik	ikkilik	birlik	ko'plik	ikkilik	birlik	
تُسَافِرُ	----	أُسَافِرُ	سَافِرْنَا	----	سَافِرْتُ	muz. I sh. muan.
تُسَافِرُونَ	تُسَافِرَانِ	تُسَافِرُ	سَافِرْتُمْ	سَافِرْتُمَا	سَافِرْتِ	muz. II sh. muan.
تُسَافِرُونَ	تُسَافِرَانِ	تُسَافِرِينَ	سَافِرْتَنَّنْ	سَافِرْتُمَا	سَافِرْتِ	muz. III sh. muan.
يُسَافِرُونَ	يُسَافِرَانِ	يُسَافِرُ	سَافِرُوا	سَافِرَا	سَافَرَ	muz. III sh. muan.
يُسَافِرُونَ	يُسَافِرَانِ	يُسَافِرُ	سَافِرْنَا	سَافِرْتَا	سَافِرْتِ	

III bob fe'lining quyidagi ma'nolari bor:

1. Ikki shaxs yoki ikki tomon o'rtasidagi o'zaro munosabatni ifodalaydi:

yozishmoq	كَاتَبَ (يُكَاتِبُ) مُكَاتَبَةٌ III	yozmoq	كَتَبَ I
bellashmoq	سَابَقَ (يُسَابِقُ) مُسَابَقَةٌ ، سِبَاقٌ III	o'zib ketmoq	سَبَقَ I
kurashmoq	نَاضَلَ (يُنَاضِلُ) مُنَاضَلَةٌ ، نِضَالٌ III	kurashmoq	نَضَلَ I

2. Bir shaxsga xos bo'lgan ish yoki xususiyatni boshqa shaxsga nisbatan qo'llash–ishlatish ma'nosini beradi:

sadoqatli bo'lmoq صَادَقَ (يُصَادِقُ) مُصَادَقَةٌ III rost gapirmoq, sodiqbo'lmoq صَدَقَ I

3. III bob fe'llari ichida ma'nolari yuqoridagi ma'nolarga mos kelmagan bir necha fe'llar ham bor:

latifa aytib (birovning) ko'nglini xush qilmoq III مُنَادِرَةٌ نَادِرٌ (يُنَادِرُ) kamyob, nodir bo'lmoq I نَدَرَ

94 - mashq. شهد , سبق , رقب , نكر , رجع fe'l o'zaklarining III bobini hosil qilib, o'tgan va hozirgi-kelasi zamonda tuslang. Ularning masdar, sifatdosh va buyruq mayllarini hosil qiling. Tarjimasini bering. Keyin ular ishtirokida 5 ta gap tuzing.

95 - mashq. Arab alifbosida yozib, III bob masdarlarini toping.

“Musofirlar farog’at bila borish-kelish qilg’aylar.”
(«Tarixi muluki ajam»)

Chun bu yanglig’ ish o’lmog’in bildi,
Zorlab oni mushovarat qildi:
(“Sab’ai sayyor”)

Borig’a garchi bor mushobahati,
Manga ko’proqdurur munosabati.
(“Sab’ai sayyor”)

VI BOB FE’LI

VI bob fe’lining «تَعَامَلَ» muomala qilmoq» fe’lidan hosil qilingan fe’liy va ismiy shakllari:

buyruq mayli			masdar	majhul nisbat		aniqnisbat	
	majhul	aniq		h.-k. zamon	o'tgan zamon	h.-k. zamon	o'tgan zamon
	تَفَاعَلٌ	مُتَفَاعَلٌ	تَفَاعَلٌ	يَتَفَاعَلُ	تُفَوِّعِلُ	يَتَفَاعَلُ	تَفَاعَلٌ
	تَعَامَلٌ	مُتَعَامَلٌ	تَعَامَلٌ	يَتَعَامَلُ	تُعَوِّمِلُ	يَتَعَامَلُ	تَعَامَلٌ

VI bob fe’lini o’tgan va hozirgi-kelasi zamonlarda tuslash:

hozirgi-kelasi zamon			o'tgan zamon			shaxs, son, jins
ko'plik	ikkilik	birlik	ko'plik	ikkilik	birlik	
تَتَعَامَلُونَ	تَتَعَامَلَانِ	تَتَعَامَلُ	تَعَامَلْنَا	تَعَامَلْتُمَا	تَعَامَلْتَ	muz. I sh. muan.
تَتَعَامَلُونَ	تَتَعَامَلَانِ	تَتَعَامَلِينَ	تَعَامَلْتُمْ	تَعَامَلْتُمَا	تَعَامَلْتِ	muz. II sh. muan.

يَتَعَامَلُونَ	يَتَعَامَلَانِ	يَتَعَامَلُ	تَعَامَلُوا	تَعَامَلَا	تَعَامَلَ	muz. III sh.
يَتَعَامَلَنَّ	تَتَعَامَلَانِ	تَتَعَامَلُ	تَعَامَلْنَ	تَعَامَلْنَا	تَعَامَلْتُ	muan.

VI bobning quyidagi ma'nalari bor:

1. Ko'pchilik o'rtasidagi o'zaro, bir-biriga nisbatan qilingan ish-harakatni ifodalaydi:

o'zaro muzokara olib bormoq	VI تَخَاطَبَ (يَتَخَاطَبُ) تَخَاطَبُ	muzokara olib bormoq	III خَاطَبَ
bir – biri bilan musobaqalashmoq	VI تَسَابَقَ (يَتَسَابَقُ) تَسَابَقُ	musobaqalashmoq	III سَبَقَ

2. Ish-harakatning bajarilish jarayonida uning tadrijiy suratda ko'payib borishi yoki kamayishini ifodalaydi:

asta- sekin pasaymoq	VI تَهَاطَبَ (يَتَهَاطَبُ) تَهَاطَبُ	pasaymoq, qo'nmoq	I هَبَطَ
buyuklashmoq	VI تَعَاطَمَ (يَتَعَاطَمُ) تَعَاطَمُ	buyuk bo'lmoq	I عَظُمَ

3. O'zini biror holatga solib ko'rsatish, mug'ombirlik qilish ma'nosi:

o'zini bilmaganga olmoq	VI تَجَاهَلَ (يَتَجَاهَلُ) تَجَاهَلُ	ilmsiz bo'lmoq	I جَهَلَ
yolg'ondan oqsamoq	VI تَعَارَجَ (يَتَعَارَجُ) تَعَارَجُ	oqsamoq	I عَرَجَ

95-mashq. *نفس , ضحك , مثل , كثر , سقط* fe'llarning VI bobini hosil qilib, o'tgan va hozirgi-kelasi zamonda tuslang. Ularning masdar, sifat-dosh va buyruq mayllarini hosil qiling. Tarjimasini bering. Keyin ular ishtirokida 5 ta gap tuzing.

96-mashq. Arab alifbosida yozing. VI bobda yasalgan sifatdoshlarni toping.

“Ul bu ishdin mutag'ayyir bo'lub, Ardasheriga xuruj qildi.” (“Tarixi muluki ajam”)

“Va Sultoni sohibqironning himmat yuzidini ihtimomiyu sa'y g'oyatidin ta'limi bardavomi bo'lmasa, mundaq dushvor ish ilgari bormog'i mutaassir, balki xayoling'a kechurmag'i mutaazzirdur.” (“G'aroyib us-sig'ar”)

Mutaoqib³ niyozlarga mutavotir noz peshalari va payopay sitamlariga damodam lutfu karam ko'z tutmoq andishalari. (“Mahbub ul—qulub”)

97-mashq. Yozing, o'qing. Jummalarni tarjima va grammatik tahlil qiling.

قضية المحافظة على السلم من أهم واجبات الناس. يحب شاكر أن يكون وحده عند مطالعة دروسه في حجرته. حافظ على الصديق ولو في الحريق! المجالسة مع العلماء والعقلاء نافعة جدا. المضاربة سبب للمجارحة والمقاتلة. المشاتمة سبب للعداوة. المخادعة شقاوة. المصافحة عادة المصافحة باليدين عادة المسلمين. المشاورة عادة العقلاء. شاؤروا آباءكم وأمهاتكم وإخوتكم الصالحين. وأخواتكم في كل أموركم! سافر صديقي إلى كندا منذ عامين وكتب لي رسالة وفيها يشرح حياته الجديدة ويسألني عن أحوالي وأحوال الأصدقاء. ومما جاء في رسالته: " قابلت أيضا صديقنا ديلشاد منذ

³ Mutaoqib-ketma-ket, orqama-orqa, birin-ketin

أسبوعين وتبادلنا التحية وسألني عنك وطلب مني عنوانك الجديد". وأخبرني أنه قد صادف أمس عددا من أصحابه فتسامروا في المطعم طويلا. هو يساعد رفاقه دائما في حل مشاكلهم.

كلمات:

asrash; muhofaza	مُحَافَظَةٌ	uchratmoq	قَابَلَ III
mushtlashmoq; urishmoq	III ضَارَبَ (مُضَارَبَةٌ)	tasodifan uchratmoq	III صَادَفَ
biri-biri bilan urishmoq	مُقَاتَلَةٌ	birga o'tirmoq	III جَالَسَ
bir-birini aldash	مُخَادَعَةٌ	uzoqlashmoq	VI تَبَاعَدَ
qo'l berib ko'rishmoq	III صَافَحَ	bir-birini jarohatlash	مُجَارَحَةٌ
bir-biriga hasad qilmoq	VI تَحَاسَدَ	o'zaro so'kishmoq	VI تَشَاتَمَ
bu yerda: xatida yozganidan parcha	مِمَّا جَاءَ فِي رِسَالَتِهِ	maslahatlashmoq	III شَاوَرَ
manzil	عُنْوَانٌ (عُنَاوِينُ)	almashmoq	VI تَبَادَلَ
osh bo'lsin!	هِنَاءٌ وَشِفَاءٌ!	ishtaha	شَهِيَّةٌ

O'TTIZ UCHINCHI DARS

VII BOB FE'LI

